

Q. ABDURAHMONOV,  
X. ABDURAMANOV

# DEMOGRAFIYA



ABDURAHMONOV Q.X.  
ABDURAMANOV X.X.

## DEMOGRAFIYA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan 5A340114 – “Mehnat iqtisodiyoti”  
magistratura bosqichi talabalari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

«NOSHIR»  
Toshkent — 2011

УДК 31(075)  
ББК 60.7яя73  
А15

60.7  
А15

**Abdurahmonov, Qalandar Xo'jayeich:** Demografiya: O'quv qo'llanma 5A340114 - «Mehnat iqtisodiyoti» magistratura mutaxassisligi talabalariga mo'ljallangan/Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov; O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Noshir, 2011. 296-b.

I. Abduramanov, Xamid Xudaybergenovich.

УДК 31(075)  
ББК 60.7яя73

*Ushbu o'quv qo'llanmada demografiyaning fan sifatida shakllanishi, demografik jarayonlarni o'rganish manbalari. tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishning demografik mohiyati, aholining son va sifat xususiyatlari, aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlari, aholining jins, yosh, nikoh va oilaviy tarkibi, oilaning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, aholi migratsiyasi, demografik prognozlashtirish va demografik siyosat masalalari yoritilgan.*

*O'quv qo'llanma 5A340109 - «Aholishunoslik va mehnat iqtisodiyoti» magistratura mutaxassisligi talabalariga mo'ljallangan.*

Taqrizchilar:

*Ubaydullaeva Ra'no Axatovna*, O'zbekiston Respublikasi FA akademigi, iqtisod fanlari doktori, professor;

*Ortiqova Dilorom Abdirahimovna*, iqtisod fanlari doktori, professor

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-353-46-6



© «Noshir» nashriyoti, 2011 y.

---

---

## KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiyotni yangilash va modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar asosida qayta jihozlash, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, qulay investitsion muhitni shakllantirish, kichik biznes, xususiy tabirkorlik, xizmat ko'rsatish va servis sohasini barqaror rivojlantirishda sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Albatta, bunda mamlakat demografik rivojlanishining o'rni katta bo'lib, ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o'sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini bozor munosabatlariga o'tish davri nuqtai nazaridan o'rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste'molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Respublikadagi barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar markazida demografik vaziyat turadi. Chunki, O'zbekistonda aholining o'sish sur'atlari yuqori hisoblanadi. So'nggi yillarda aholining tabiiy o'sishi birmuncha kamaygan bo'lishiga qaramay, u hali ham ayrim mamlakatlarga nisbatan olib qaraganda eng yuqori darajadadir.

Mazkur fan aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, aholining rivojlanish nazariyasini ishlab chiqish, demografik jarayonlar qonuniyatlarini nazariy asoslash va baholash, demografik siyosat va demografik prognozlash-tirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Demografiya fani demografik jarayonlar hisoblanmish tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishni, aholining son va sifat xususiyatlarini aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarini, aholining jins

yosh, nikoh va oilaviy tarkibini, oilaning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini, aholi migratsiyasini, demografik prognozlashtirish va demografik siyosatni o'rganadi.

O'quv qo'llanmaning har bir bo'limi nafaqat nazariyani, balki hozirgi holatning tahlilini ham o'z ichiga oladi. Bo'limlarning bunday tuzilishi nazariy bilimlarning mohiyatini va ma'nosini chuqur tushunishga hamda ulardan amaliyotda samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu o'quv qo'llanma 5A340109 — «Aholishunoslik va mehnat iqtisodiyoti» magistratura mutaxassisligi magistrleri uchun mo'ljallangan «Demografiya» fanining namunaviy dasturiga asosan tayyorlangan.

Shuningdek, o'quv qo'llanmadan boshqa yo'nalish va mutaxassisliklarda ta'lim olayotgan talabalar ham foydalanishi mumkin.

---

---

## **1-bob. «DEMOGRAFIYA» FANINING PREDMETI VA MAZMUNI**

### **1.1. Demografiya — fan sifatida**

Demografiya har yili turli sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadigan fan<sup>1</sup>.

«Demografiya» atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, demos — xalq va grapho — yozaman, ya'ni «xalqni yozaman» degan ma'noni anglatadi. Demografiya fan sifatida XVII asrning ikkinchi yarmidan so'ng shakllana boshlagan. O'zbekistonda esa ushbu fan XX asrning uchinchi qismigacha asosan aholi statistikasi sifatida rivojlanib keldi. Ushbu paytgacha demografiyaga oid nazariyalar siyosiy iqtisodiyot faniga taalluqli bo'lgan. Respublikada faqatgina XX asrning 60-70 yillaridan boshlab demografiya aholining takror barpo bo'lishi, aholining joylashuvi to'g'risidagi fanlar ichida ilmiy bilimlar tizimi sifatida o'z o'rniga ega bo'la boshladi.

Fanning **tadqiqot ob'yekti** aholi hisoblanadi.

Demografiyaning fan sifatidagi **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;
- aholining rivojlanish nazariyasini ishlab chiqish;
- demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish) qonuniyatlarini nazariy asoslash va baholash;
- demografik siyosat va demografik prognozlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.3. — Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. — 248-б.

Demografiyaning tadqiqot ob'yekti aholi bo'lganligi bois, unga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Aholi haqidagi bilimlar va uning rivojlanish qonuniyatlari shundan dalolat beradiki, faqat XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab «aholi» tushunchasi ilmiy iste'molga kiritilgan. Ungacha «odamlar», «yashovchilar» kabi tushunchalardan foydalanilgan.

Aholi mohiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi uchta jihatga ega. Birinchisi, aholining biologik birlik ekanligidir. Ushbu jihatga ko'ra, insonga biologik mavjudot sifatida ko'payish, biologik jamlanma sifatida takror barpo bo'lish xos. Ikkinchi jihatga muvofiq, aholi ijtimoiy-biologik kategoriyadir. Bu jihat bo'yicha aholi ijtimoiy va biologik munosabatlarning o'ziga xos davomchisi hisoblanadi. Va nihoyat, uchinchi jihat shu bilan izohlanadiki, aholi ijtimoiy hodisa bo'lib, ijtimoiy aloqalar orqali birlashgan insonlar jamlanmasi sifatida yuzaga chiqadi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, insonlar jamlanmasiga kirgan har-bir individ, avvalambor biologik hodisa hisoblanadi. chunki odam tirik tabiat mavjudotlarining bir turidir. Ovqat hazm qilish, muskullar faoliyati, qon aylanishi va nihoyat ko'payishi ham biologik jarayon hisoblanadi. Insonlarning boshqa hayvonot olami vakillari bilan o'xshashlik jihatlari aynan ushbu tabiiy alomatlarida yuzaga chiqadi. Lekin, inson nafaqat biologik, balki ijtimoiy jarayonlarning ham davomchisidir.

Aholi ko'plab xususiyat va funksiyalarga ega. Ulardan eng asosiylari — ishlab chiqarish, iste'mol va ko'payish funksiyalari bo'lib, ular turli tarixiy davrlarda va jamiyatlarda turlicha o'lchovga ega bo'lgan. Masalan, ishlab chiqarish funksiyasi ijtimoiy mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari yordamida yuzaga chiqsa, iste'mol — aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarilishi sifatida, takror barpo bo'lish esa reproduktiv yoshdagi ayol tomonidan dunyoga keltirilgan bolalar soni sifatida yuzaga chiqadi.

---

<sup>1</sup> Демография: Учебник для вузов / Под ред. Н.А. Волгина, Л.Л. Рыбаковского. — М.: Логос, 2005. — С.9-10.

Bulardan tashqari, aholining boshqa funksiyalari ham mavjud bo'lib, ular jumlasiga ijtimoiy, migratsion harakatchanlik vazifalari kiradi. Mazkur funksiyalar aholi faoliyatining turli jihatlarini tavsiflab beradi. Aholining ko'p qirrali ekanligini insonlarning turli jihatlardan o'rganuvchi ko'pgina fanlar ham tasdiqlab beradi. Masalan, demografiya, aholi geografiyasi, etnografiya, aholi-shunoslik iqtisodiyoti, sotsiologiya, mehnat iqtisodiyoti, ijtimoiy psixologiya va h.k. kabi fanlar uchun aholining umumiy yoki uning qandaydir bir qismining tadqiqot ob'ekti bo'lib yuzaga chiqadi.

Aholi barcha unsurlari va funksiyalari doimiy harakatda bo'lgan dinamik tizimdir. Aholi harakatining uchta turi farqlanadi: ijtimoiy, tabiiy va migratsion. Ijtimoiy harakat tor va keng ma'nolarda talqin qilinishi mumkin. Keng ma'nodagi ijtimoiy harakatga barcha ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, demografik munosabatlar ham kiritiladi; tor ma'nodagi ijtimoiy harakat deganda, odatda faqatgina o'ziga xos doiradagi munosabatlar tushuniladi. Bunga misol qilib aholining ijtimoiy sohadagi harakatlarining barcha turlarini kiritish mumkin, faqatgina tabiiy va migratsion harakatlar bundan mustasno. Aholi harakatini uchta qismga ajratib ko'rsatish ularning har biri bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Qadimdan ma'lumki, dunyodagi barcha jarayonlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan. Mos ravishda aholi harakatlarining barcha turlari ham uzluksiz ravishda, organik birlikda insonlar jamlanmasining u yoki bu xususiyatini o'zgartirgani holda amalga oshadi.

Har qanday inson uchta xususiyatga ega:

- unga ma'lum bir xususiyatlar (jins, irq, yosh va h.k.) tug'ilishi bilan berilib yoki o'zgarmasdan qoladi yoxud vaqt o'tishi bilan o'zgaradi;

- ijtimoiylashuvi mobaynida orttirilib boriladi (bilim, til va h.k.);
- qisqa vaqt mobaynida o'zgartirilishi mumkin (masalan, toifa, ijtimoiy maqomi va h.k.).

Shunday xususiyatlar ham borki, ular rasmiy nuqtai nazarga ko'ra shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga guvohlik berib faqatgina



yaxshilanishi mumkin, lekin shundaylari ham borki, ular har ikki tomonga o'zgarishlari ham mumkin. Bulardan birinchilari qatoriga ta'lim darajasini, ikkinchilariga esa salomatlik holatini kiritish mumkin.

Insonlarning har qanday jamlanmasi miqdor va sifat o'zgarishlariga duchor bo'lishi tabiiy. Miqdor o'zgarishlar «ichki» harakat oqibatida, ya'ni ko'payish jarayoni va «tashqi» - aholi migratsiyasi oqibatida yuzaga keladi. Ikkalasi ham miqdor, ham sifat o'zgarishlariga olib kelsa-da, ijtimoiy harakat aholi xususiyatlarining faqat sifat o'zgarishlariga olib keladi, xolos. Migratsion jarayon ko'p hollarda nafaqat ijtimoiy rivojlanish, balki tabiiy harakat bilan ham bog'liq. U bilan ijtimoiy harakat ham o'zaro ta'sirlashuvga kirishadi. Haqiqatda ham inson yoshi o'sishi bilan tajribasi, malakasi ortib boradi va boshqa o'zgarishlar vujudga keladi.

Aholining takror barpo bo'lishi natijasida uning miqdori faqat tug'ilish va o'lim natijasida, uning demografik tarkibi esa aholi qatlamlarining bir yoshdan ikkinchi yoshga o'tishi bilan o'zgaradi. Demak, aholining takror barpo bo'lishi nafaqat tug'ilish va o'lim oqibatlari asosida avlodlar almashinuviga, ya'ni ayrim odamlarning «kirish»i va boshqalarining «chiqish»iga, balki «demografik makon»da ularning harakatlanishiga olib keladi.

Tabiiy harakatdan farqli o'laroq migratsiya — bu aholining makondagi harakatidir, uning hudud bo'ylab taqsimlanishidir. Ushbu ma'noda migratsiya ko'chib o'tishlar sodir bo'layotgan ma'lum bir hudud doirasida aholi miqdorining o'zgarishiga olib kelmaydi, faqatgina muayyan hudud (mamlakat)ning ayrim qismlaridagi aholi soni va tarkibi o'zgaradi, xolos.

Tadqiqotlar migratsiya va aholining takror barpo bo'lishi o'rtasida o'xshashlik mavjudligini ko'rsatadi. Aytish joizki, ikkalasiga ham ikkita tarkibiy qismlarning o'zaro ta'siri xosdir: ijobiy (tug'ilish, kirish) va salbiy (o'lim, chiqish). Migratsiya va takror barpo bo'lish jarayonlari — demografik dinamikaning ikkita tarkibiy qismidir. Lekin, aholining takror barpo bo'lishi va migratsiyasi o'rtasida yetarli darajada quyidagicha tafovutlar mavjud:

Birinchidan, bu ikki jarayon aholi harakatining ikki turi hisoblanadi. Takror barpo bo'lish jarayoni aynan bir insonlar

jamlanmasida sodir bo'ladi va uning uchun ichki harakat zarur bo'ladi. Migratsion jarayonlar esa bundan mustasno, ya'ni migratsiya tashqi hodisa hisoblanadi.

Ikkinchidan, aholining takror barpo bo'lish jarayonida ayrim hodisalar (o'lim, tug'ilish) har bir ishtirokchi uchun bir marta sodir bo'ladi, migratsiyada esa ayrim hodisalar (emigratsiya, immigratsiya) ishtirokchilar uchun ko'p marta takrorlanishi mumkin.

Uchinchidan, reproduktiv mayl aholining takror barpo bo'lish holatiga bevosita ta'sir qiluvchi ehtiyojlar bilan determinantlashadi. Bu bola orttirish ehtiyoji yoki bolalar qondirishi mumkin bo'lgan qandaydir boshqa ehtiyojlar; o'zini-o'zi asrash ehtiyoji, ya'ni hayotiy ehtiyoj; oila qurish ehtiyoji. Migratsiyada esa boshqacha, ya'ni ko'chish migratsion ehtiyojlar bilan emas, balki aholining ayrim qismlarining ijtimoiy-iqtisodiy maqomini o'zgartirish ehtiyojlari bilan asoslanadi. Birinchi holatda ehtiyojlar — demografik maylning ichki maqsadi, uning birlamchi unsuri bo'lsa, ikkinchi holatda — migratsiya boshqa, odatda moddiy ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib yuzaga chiqadi. Aynan shuning uchun oilaning farovonlik darajasi bolalarga bo'lgan ehtiyojga nisbatan qarama-qarshi bog'liqlikda bo'lsa, migratsion ko'chishlarga nisbatan to'g'ri bog'liqlikda bo'ladi.

To'rtinchidan, takror barpo bo'lish jarayonlari bilan aholining shunday demografik xususiyatlari bog'liqlik, ular inson hayoti davomida (jins) o'zgarishdan qoladi yoki vaqt o'tishi (yosh) bilan o'zgaradi. Shu bilan birga, migratsiya o'zgaruvchan ijtimoiy xususiyatlar bilan ham o'zaro ta'sirlashadi, ularning ayrimlarini migratsiya doimo (turar-joy, mehnat sohasi), boshqalarini esa ba'zan (kasb, malaka) o'zgartirib turadi.

Beshinchidan, migratsiya aholining takror barpo bo'lishidan ob'yektiv omillarga yetarli darajada kuchli bog'liqligi bilan tubdan ajralib turadi. Migratsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish parametrlari — ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, urbanizatsiya jadalligi va h.k.lar bilan chambarchas bog'liqdir.

Aholi harakatining uchta turining mavjudligi, o'z navbatida, demografik bilimlar tizimi chegaralari bo'yicha uchta

yondashuvning kelib chiqishini taqozo etadi. Ayrim iqtisodchi-demograflar demografiya aholi harakatining barcha turlarini o'rganishi kerak, deb hisoblasa, boshqalari — aholi takror barpo bo'lishini o'rganish kerak, deb chegaralab qo'yadi; uchinchilari esa demografik bilimlar tizimiga aholining ham tabiiy, ham migratsion harakatini kiritadi.

Ushbu qarashlar ichida eng ommabopi uchinchi nuqtai nazar bo'lib, ya'ni demografik bilimlar predmetini tabiiy va migratsion harakat tashkil etadi, deb tan olishdir.

Demak, **demografiya fanining predmeti** aholining tabiiy va migratsion harakatini, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini, omillarini hamda oqibatlarini o'rganish hisoblanadi.

## 1.2. Fanni o'rganish usullari

Demografiya fani doirasidagi usullar umumilmiy va demografik usullarga bo'linadi, ular takror barpo bo'luvchi odamlar jamlanmasini, aholining ko'payish xususiyatini o'zida aks ettiradi.

Demografik va migratsion o'tish konsepsiyalari fanning nazariy asosi hisoblanadi. Aytish joizki, inson rivoji va mavjudligining u yoki bu shartlari o'zgaruvchandir, chunki bu aholining bir turini ikkinchisi tomonidan takror barpo bo'lishini taqozo qiladi, shuning uchun demografik tadqiqot uslubiyotida tarixiylik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tarixiy yondashuv nafaqat demografiya fanining predmetini o'rganishda, balki demografik bilimlar evolyatsiyasini ham o'rganishda juda zarur.

Demografiyada tadqiqotning umumilmiy uslublari keng qo'llaniladi, ularga ilmiy abstraktsiya va abstraktsiyadan konkretlikka ko'tarilish, qiyoslash, tahlil va sintez, induktsiya va deduktsiya, gipotezalarini ilgari surish va ularni tekshirish, ekstropolyatsiya va modellashtirish usullari kiradi.

Demografiyaning **xususiy usullari** demografik tafakkur etish predmetiga mos keladi, jumladan, aholining jins-yosh va nikoh tarkibi hamda yosh va jins xususiyatlariga bog'liq demografik jarayonlardir. Ular quyidagilar:

• **kogort usuli**, bu usul avlod davomida u yoki bu jarayonni o'rganishda qo'llaniladi. Shuningdek, uni «real (mavjud) avlod» yoki «tik (bo'ylama) tahlil» usuli deb ham atashadi. Unda demografik jarayonlar, masalan. tug'ilish va o'lim darajasi, nikoh va ajralishlar bir vaqtning o'zida demografik holatga kirgan insonlar jamlanmasida tahlil qilinadi, ushbu usulning vazifasi aholining ushbu kogorti uchun kogortning vujudga kelish vaqti oralig'iga bog'liq bo'lgan va demografik hodisaning u yoki bu jarayonga kirishini aks ettirgan demografik jarayonlar xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

• **ko'ndalang tahlil usuli**, ya'ni «shartli» yoki «gipotetik avlod» usuli, uning yordamida demografik hodisalar chastotasi ko'rsatkichlarini tasavvur etish asosida demografik jarayonlarni o'rganish mavjud bo'ladi, ular avlodlar hayoti davomida ushbu holatlar chastotalari ketma-ketligining yig'indisi sifatida nisbatan qisqa davr oralig'ida qiyosiy demografik holatlarning tegishli uzunligi oraliqlarini o'rganish orqali olinadi. Bu ham kogort usuli bo'lib, avlodlar hayotiy chizig'ini ko'ndalang kesuvchi hodisalarning grafik tasvirini ko'rishga yordam beradi.

Tik (bo'ylama) va ko'ndalang tahlillar bir qator avlodlar takror barpo bo'lish xususiyatlarini solishtirish imkonini beradi, bu ayniqsa tarixiy demografiya uchun juda zarurdir, chunki bu ham ijtimoiy, ham demografik prognozlarni amalga oshirish va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish uchun foydalaniladi.

**Real va shartli avlod usuli** odamlarning yoshini va ularning hayoti davomida sodir bo'layotgan u yoki bu demografik hodisalarni bilish bizga aholining yosh tarkibi haqida tasavvurga ega bo'lish, shuningdek, qaysi yoshlarda u yoki bu hodisalar bo'lishini bilishga yordam beradi.

Yosh tarkibida aholi bir yillik, besh yillik va nisbatan katta yoshlar guruhlari bo'yicha taqsimlanadi. Demografik tahlilda «avlod» tushunchasi muhim rol o'ynaydi, chunki u ma'lum bir davrda tug'ilgan odamlar jamlanmasi xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Odatda, real avlodni tarkib toptiruvchi tengdoshlar jamlanmasi va gipotetik avlod deb nomlanuvchi avlodni tarkib toptiruvchi turli yoshdagi zamondoshlar jamlanmasi farqlanadi.

Avlodlar uzunligi (davomiyligi) ota-onalar tug‘ilishi bilan ularning bolalari tug‘ilishi o‘rtasidagi vaqt oralig‘i bilan ifodalanadi. Insoniyat rivojlanishining turli tarixiy davrlarida avlodning umr ko‘rish davomiyligi - doimo bir xil bo‘lmagan. Hozirgi davrda ma‘lum bir shartlilik asosida u 32-35 yilga to‘g‘ri keladi, deb olinadi. Sof demografiya nazariyasida takror barpo bo‘lish jarayoni aholining tabiiy harakati natijasida avlodning doimiy yangilanishini aks ettiradi.

**Demografik koeffitsientlarni standartlashtirish usullari** demografik koeffitsientlarning u yoki bu demografik jarayonga ta‘sirini qiyoslash, uning holati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Shuning uchun umumiy koeffitsientlar standartlashtirgandan so‘nggina qiyoslanadi. Bunda jarayonning jadalligi va solishtirilayotgan demografik jamlanma standart deb hisobga olinadi, qolganlari uchun esa har birining standartga nisbatan o‘ziga xos indeksi hisoblab chiqiladi. Ushbu indeksni standart ko‘rsatkichlariga ko‘paytirish orqali solishtirilayotgan demografik jamlanmalar uchun standartlashtirilgan demografik koeffitsientlar hisoblab chiqiladi.

**Demografik modellashtirish usullari** aholining takror barpo bo‘lish jarayonlarini tahlil qilish va prognozlashtirishda keng qo‘llaniladi. Ular aholining umumiy o‘zgarishini yoki uning rivojlanish komponentlarining o‘zgarishini tavsiflab beradi.

Demografiyada statsionar aholi modellari ham keng yoyilgan usullardan hisoblanadi, shuningdek, demografik jadvallar ko‘rinishidagi gipotetik avlod uchun demografik jarayonlarning sonli modellari, stoxastik (ehtimoliy) modellar ham keng qo‘llaniladi.

Demografik bilimlar rivojlanishining hozirgi zamon bosqichi unda matematik modellashtirish usullari va uslubiyotining tez rivojlanishi bilan tavsiflanadi, jumladan, ijtimoiy boshqarish amaliyotida ushbu bilimlardan foydalanish imkoniyatlari rivojlanib bormoqda. Ushbu usullarning barcha ma‘lum bir demografik hodisalarning umumiyaridagi ta‘siriga asoslanadi. Shuning uchun demografiya uslubiyotida demografik hodisalarning miqdoriy o‘lchovlariga nisbatan tahlil va o‘rganish usullari, statistik va matematik usullar muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining yosh-jins tarkibini yaqqol namoyon etish uchun yosh-jins piramidasi qo'llaniladi. Uni tuzish uchun vertikal o'qda yosh, chapda erkak aholi yoshlari bo'yicha taqsimlanadi, o'ngda esa ayol aholi taqsimlanadi (bir xil miqyoslarda). O'lchov birligi sifatida besh yil olinadi.

Demografik holatlar va jarayonlarni hududlar bo'yicha qiyoslash **kartografik usul** yordamida amalga oshiriladi. Bunda xaritalardan foydalaniladi: hududiy tarqalish bo'yicha aholi zichligi, yosh-jins tarkibi, shuningdek, aholining tabiiy va mexanik harakati; ijtimoiy-madaniy, jumladan, ijtimoiy-kasbiy, sinfiy, etnomadaniy tarkibi; demografik jamlanmalarning madaniy, maishiy, antropologik va lingvistik xususiyatlari; aholining tarqalish xususiyatlari, jumladan, shahar va qishloq aholisi xususiyatlari, hududlar va aholi manzillarining har xil turlari aniqlanadi.

Aholi xususiyatlari va demografik jarayonlarni tadqiq etishda **demografik to'r tuzish usuli** muhim ahamiyat kasb etadi, uning geometrik shakllari yordamida turli-tuman xususiyatlarni, shu jumladan, bevosita ko'zga tashlanmaydigan va vaqt o'tishi davomida tahlil qilish murakkab sanalgan avlodagi demografik jarayonlarni ko'rish mumkin bo'ladi.

**Demografik prognozlashtirish usullari** aholining istiqboldagi tarkibi va miqdoriga ta'sirini qiyoslash orqali aholi o'zgarishining u yoki bu komponentlari rolini baholash imkonini beradi. Aholini prognozlashtirishda ekstropolyatsiya, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, imitatsion modellashtirish, yoshni siljitish va boshqa qator usullardan foydalaniladi.

Masalan, odamlarning demografik xulq-atvorini o'rganar ekanmiz, biz mavjud ijtimoiy-psixologik me'yorlarni aniqlaymiz va shundan kelib chiqqan holda ularning harakati ushbu masalalar orqali vujudga keladi, deb hisoblaymiz. Shu narsa muhimki, nafaqat oila nechta farzand bo'lishini xohlashini bilish, balki nima uchun ularning bo'lishini xohlashi (yoki xohlamasligi) va nima uchun bitta yoki ikkita, ko'p emasligini aniqlash ham kerak; mavjud sharoitlarda oila nechta farzandni (kutilayotgan farzandlar soni) ta'minlay olishini va mavjud turmush sharoiti, shaxsiy imkoniyatlarni e'tiborga olmagan holda qancha xohlashini aniqlash muhim.

Bunday tadqiqotlar asosida demografik qadriyatlarning shakllanishi va aholining o'sish zahiralari belgilab olish maqsadi yotadi, ularning yechilishi esa demografik siyosat tadbirlarini ishlab chiqish uchun zarurdir.

### 1.3. Demografiya fanining rivojlanish tarixi

Demografiyaning fan sifatida vujudga kelishi va ushbu so'zning kelib chiqishi tarixi 1662 yilga borib taqaladi. Ana shu davrda Angliyada vabo va boshqa yuqumli kasalliklar tarqalib, aholi o'rtasida o'lim hollari nihoyatda ko'payib ketgan. Shu bois Londonda har hafta o'lim haqida byulletenlar, ya'ni maxsus ma'lumotnomalar chop etilib, aholiga tarqatilgan. O'z salomatliklarini saqlash maqsadida, mazkur ma'lumotlarni juda ko'p fuqarolar o'qigan. Angliyalik savdogar olim J.Graunt Londonda tug'ilish va o'lim haqidagi 80 yillik ma'lumotlarni o'rganib chiqqan va 1662-yili o'zining 90 betdan iborat «O'lim haqidagi byulletenlar asosida olib borilgan va mundarijada ilova etilgan tabiiy va siyosiy kuzatish natijalari. Ko'rsatilgan shaharning boshqaruvi, dini, savdosi, havosi, o'sishi va boshqa o'zgarishlari xususida London fuqarosi Jon Grauntning asari» kitobini yozgan. Kitob juda uzun nomlangan bo'lib, o'z oldiga keng qamrovli ijtimoiy hodisalarni maqsad qilib qo'ygan. Shu bilan birga, asarda demografik jarayonlarning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarning ta'sirini o'rganishga harakat qilingan. Tadqiqotni muallifning zamondoshlari yuksak baholashgan, lekin ular keyingi davr olimlaridan farqli o'laroq ushbu asarni aholi dinamikasi muammolarining tahlili sifatida ko'rib chiqishmagan. Demografiyaga tamal toshi qo'ygan shaxs sifatida J.Graunt XIX-XX asrlarda demografiya aholi statistikasi, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosatshunoslik fanlarining gurkirab rivojlanayotgan davrida tan olingan.

J.Graunt asarining fundamental tahlili M.V.Ptuxa tomonidan o'tkazilgan, lekin uning ushbu masala bo'yicha qarashlari ma'lum bir ma'noda o'zgarishlarga ham uchradi. 1930-yildagi Aholishunoslik bo'yicha xalqaro kongressda u J.Grauntning demografiya-

ning asoschisi ekanligini aytib o'tgan, lekin keyingi asarlarida XVII asr statistikasining asoschilari sifatida uch kishini - J.Graunt, V.Petti va E.Gallelarni e'tirof etgan.

Shunga qaramasdan, hozirgacha demografiyaning rivojlanish davrini hisoblash Grauntdan boshlanadi, 1963 yilda B.Urlanisning J.Graunt tavalludining 300 yilligiga bag'ishlanib chop etilgan maqolasida yozilishicha, «o'tgan asrlar tumanlari orasida qolib ketgan» boshqa fanlardan farqli o'laroq, demografiya fanining vujudga kelish vaqtini aniq belgilash mumkin va J.Graunt «Demografiya fanining otasi» hisoblanadi.

«Demografiya» nomli yana bir kitobning muallifi V.A.Borisovning ta'kidi bundan ham keskinroq, u J.Grauntning nafaqat demografiya fanining, balki statistika va sotsiologiyaning ham asoschisi va otasi deb ta'kidlaydi. Namlari keltirilgan mualliflardan farqli o'laroq D.I.Valentey, A.G.Vishnevskiy, D.K.Shelestov va boshqa demograflar demografiyaning vujudga kelishi birdaniga emas, balki jamiyat va xususan aholi haqidagi bilimlarning yig'ilib qolishi natijasida bo'lgan, degan fikrga ko'proq moyillik bildiradi. Shunday qilib aytish mumkinki, J.Graunt davrida, ya'ni XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab intensiv tarzda bilimlarning yig'ilishi davri boshlandi, faqatgina yuz yillardan so'ng siyosiy iqtisod, tarix, huquqshunoslik, jumladan, statistika va siyosiy arifmetikaning qismchasi bo'lgan davlatshunoslik, zamonaviy siyosiy iqtisodiyotning birlamchi ko'rinishi va qisman sotsiologiya kabi fanlarga ajralish jarayoni boshlangan. Aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'planishi J.Grauntgacha, ya'ni antik davrlarga borib taqaladi. Olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilishga bo'lgan birinchi harakatlar Qadimgi Rimda amalga oshirilgan, namliklar umr davomiyligini hisoblab chiqish bo'yicha yondashuvlarini ishlab chiqishga harakat qilishgan. Bunga Florentsiya jadvalini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Aholi, uning soni, yosh tarkibi, joylashuvi va nihoyat tabaqalarga bo'linishi haqidagi batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish to'g'risidagi real ehtiyoj ijtimoiy munosabatlar tizimidagi keskin burilishlar sodir bo'lish davridan, aholini ijtimoiy va makondagi joylashuv nuqtai nazaridan tamoman yangi sharoitlariga olib kelgan



feodal tabaqalashuv jamiyatidan kapitalistik jamiyatga o'tish davrida, agrar iqtisodiyotdan industrial iqtisodiyotga o'tish davrida boshlandi. XVII-XVIII asrlar migratsion jarayonlarning rivojlantirishida keskin burilish davri bo'ldi, uning asosida mamlakatlararo, qit'alararo migratsiya Yangi Dunyo davlatlarining demografik manbai bo'lib qoldi.

Tarixiy rivojlanishning yangi shartlari va u bilan bog'liq holda davlatchilikning rivojlanishida aholining rolini bo'rttirib ko'rsatish holatlari N.Makiavelli (1469-1527 yy), J.Boden (1530-1596 yy), D.Botero (1540-1617 yy) asarlarida o'z ifodasini topgan, ular birinchi navbatda siyosatchilar yoki siyosiy yozuvchilar bo'lishgan. Aholi muammolariga hatto ijtimoiy utopiyachilar, avvalambor T.Kampanella (1568-1639 yy) ham qiziqish bildirgan. Aholi haqidagi ma'lumotlarning to'planishi va tahlili siyosiy arifmetika va davlatshunoslik kabi ikkita fan tarmoqlarining rivojlanishi bilan barobar bo'lgan. Birinchisi, yangi davr hosilasi bo'lsa, ikkinchisi boy tarixiy an'analarga ega bo'lgan. Shunga qaramasdan Yu.E.Yansonning fikricha, davlatshunoslikning (tavsifiy statistika) asoschisi bo'lib nemis olimi G.Konring (1606-1681 yy) hisoblanishi kerak, u fan tarkibiga davlatlarning tavsifini, davlat boshqaruv shaklini, shu jumladan, aholini ham kiritgan. Ushbu fan o'z nomini oradan yuz yil o'tgandan so'nggina statistik G.Avanxel (1719-1772 yy) ishlari hisobiga o'zgartirdi, u yangi nomning lotin tilidagi «status» — davlatning hosilasi ekanligini isbotlab berdi.

Germaniyada qiyosiy statistika asoschilari hisoblangan A.L.Shletser (1735-1809 yy) va A.Niman (1761-1832 yy)larning asarlari aholi statistikasining rivojlanishiga turtki bo'ldi. Ularning aholiga doir yondoshuvlariga ko'ra, davlatning farovonligi aholi soni va ularni iqtisodiy faoliyatining doimiy tarzda o'sishi bilan bevosita bog'liq.

Aholi soni dinamikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish bo'yicha yondoshuvlar siyosiy arifmetiklar hisoblangan V.Petti (1623-1687 yy), J.Graunt (1620-1674 yy) va E.Galley (1656-1742 yy) kabi olimlar asarlarida ham berilgan. Ularning demografiya fani oldidagi xizmatlari ikkiyoqlamadir: ular keyinchalik

«aholining tabiiy harakati» deb nom olgan yangi bilimlar sohasi chegaralarini aniqlab berishgan va miqdoriy (son jihatdan) o'rganish asoslarini yaratishgan; ular birinchilardan bo'lib «ijtimoiy dalillarni hisoblab chiqish» bo'yicha harakatlar qildilar. Aholi va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri nazariyasining rivojlanishiga V.Petti o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. U XVII asrning eng yirik nazariyotchi-iqtisodchilari qatoridan joy oldi.

Aholi dinamikasi muammolari va uning o'sish sur'atlarining o'zgarish sabablarini talqin qilishdagi o'ziga xos yondashuvni E.Galley taklif etgan: «Insoniyatning ko'payishi va uning o'sishi nafaqat inson tabiatida mavjud bo'lgan qandaydir holatlar, balki uning oilani boqish bo'yicha vazifa va tashvishlarning istiqboldagi ko'payishi bo'yicha nikohga kirish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilishda ko'pchilik aholi tomonidan yo'l qo'yiladigan ehtiyotkorligiga ham bog'liqdir». Bu bilan E.Galley tug'ilishning chegaralanish sabablarini ko'rsatib, davlat bolalar tug'ilishini qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirishi zarur, deb hisoblagan.

Aholi statistikasining takomillashmaganligi, ma'lumotlarning fragmentarligi va kamchiliklarining ko'pligi sababli ushbu sohada matematik usullarning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Masalan, aholini o'rganishda ehtimollar nazariyasining qo'llanilishi, asosan o'lim va umr davomiyligini hisoblash D.Bernulli (1700-1782 yy) va L.Eylerlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Aholini tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi va nihoyat ma'lumotlarning to'planishi hamda tahlil qilish usullarining takomillashuvi o'sha davrlarda demografiyani mustaqil fan sifatida oyoqqa turgan, deb hisoblashga imkon bermasdi. Xuddi shunday fikrni aholi statistikasiga ham nisbatan aytish mumkin, bu haqda yirik fransuz ma'rifatparvarlari Sh.Mos-teske (1689-1755 yy), F.Volter (1694-1778 yy), J.Russo (1712-1778 yy) larning fikrlari so'zimizning isbotidir. Ularning asarlarida aholiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatidagi yondashuvlar ustunlik qiladi, unga muvofiq davlatning vazifasi — aholining ko'payishi, jumladan, qonunlarni takomillashtirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash hisoblanadi. J.Russoning fikricha, fuqarolari doimiy ravishda ko'payib borayotgan, hokimiyat eng yaxshisi.

aholisi kamayib va o'lib borayotgan hukumat — eng yomon deb hisoblanadi.

Aholining iqtisodiy maqsadlarga ko'ra o'sishini ingliz iqtisodchilari D.Yum (1711-1776 yy) va A.Smitlar (1723-1790 yy) ham tadqiq qilganlar. Ularning fikricha, aholi sonining ko'p va ishlab chiqarish samaradorligining yuqori bo'lishi davlat uchun har tomonlama foydalidir hamda ichki va tashqi siyosat, jumladan, davlat manfaatlari nuqtai nazaridan va har qanday davlat gurkirab rivojlanishining inkor etib bo'lmaydigan isboti hisoblanadi. Bu fikrlarga F.Kene (1694-1774 yy) ning qarashlari ham juda yaqin, u jamiyatning rivojlanishi aholi sonining o'sishiga olib keladi va aholi holati, insonlar mehnatidan foydalanish davlat iqtisodiy siyosati-ning eng muhim ob'yektlaridan biri hisoblanadi, deb yozgan.

Demografiya fanining vujudga kelishida buyuk rus olimi M.V.Lomonosov (1711-1765 yy) ning ham o'rni katta. Fanning vujudga kelishini olimning 1761-yilda yozilgan «Rus xalqini saqlash va uning ko'payishi» nomli asari bilan bog'lash ham mumkin. Ko'p hollarda merkantilistlar g'oyalarini, xususan, V.Mirabo (1715-1789-yy) g'oyalarini takrorlagan holda u mam-lakat boyligining asosini hech kim yashamaydigan bepoyon hududlar emas, balki aynan aholi tashkil qiladi, deb hisoblagan. Ushbu asar o'z davri rus aholisining ko'plab muammolari: o'lim-ning yuqori darajasi, qashshoqlik, ocharchilik aholini katta qismining shafqatsiz ezilishini qamrab olgan edi. Ushbu asarning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy qiymati yuqori bo'lishiga qaramasdan Rossiyada M.V.Lomonosov mehnatini demografiya fanining vujudga kelishining asosi deb qarash imkonini bermaydi. M.V.Lomonosovning asari yozilganidan so'ng, oradan 100 yildan keyin chop qilinganligi barchaga ma'lum.

XVIII asrda aholini o'rganish bo'yicha yetarlicha muvafaq-qiyatlarga erishilganligiga qaramasdan, uni hisobga olish ishlari juda sodda, yondashuvlar esa juda muammoli, ya'ni davlat bosh-qaruvi manfaatlari bo'yicha amalga oshirilgan. Ushbu holat aholi statistikasi fanini ilmlarning mustaqil tarmog'i sifatida ajralib chiqqanligini ta'kidlash imkonini bermas edi, shuningdek, aho-

lining rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan — demografiya haqida ham shunday deyish mumkin.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlangan sanoat to'ntarishi va uning keyinchalik ko'plab Yevropa mamlakatlariga yoyilishi yangi - industrial sivilizatsiyaning jadal shakllanishi, shaharlarning tez o'sishi fan uchun keng imkoniyatlar yaratib berdi, jumladan, odamlarning turmush tarzi va sharoitlarini ham keskin o'zgartirib yubordi. Buning natijasida XIX asrdagi demografik vaziyatning keskin o'zgarishi boshlandi: o'limning kamayishi va yuqori darajadagi tug'ilishning natijasida aholi tez ko'paya boshladi. B. Urlanisning hisob-kitoblariga ko'ra, XIX asrda aholi sonining o'sishi Yevropa aholisining o'sish sur'atlariga nisbatan 7 marta, birlamchi to'planish davriga nisbatan 3 marta ko'p bo'lgan. Yevropa aholisi 100 yil ichida ikki marta, ya'ni 1800 yildagi 193-208 mln.dan 1900 yildagi 423-430 mln.gacha ko'paygan.

Eski dunyodagi aholining zichligi va yangi yerlarni o'zlashtirish bo'yicha ehtiyoj Shimoliy va Janubiy Amerikaga ommaviy migratsiya uchun katalizator bo'lib qoldi. O'z miqyoslariga ko'ra, u avvalgi yuz yilliklarga nisbatan qiyoslab bo'lmaydigan darajaga chiqdi. Yuz yil ichida 28 mln.dan ortiq kishi Yevropani tark etdi, ayniqsa, ularning yarmidan ko'pi oxirgi o'n yilliklarga — aholining zichligi ko'zga yaqqol tashlanadigan paytga to'g'ri keldi. Aynan shu yillarda mamlakatlararo (ayni paytda, kontinentlararo) migratsiyaga sobiq ittifoq mamlakatlari ham tortildi.

Shunday qilib, XIX asrdagi demografik fon — tug'ilishning oshishi, o'limning kamayishi, nikoh va migratsiya jarayonlari asosidagi aholi sonining o'sishi aholini ilmiy jihatdan tadqiq etish bo'yicha tadqiqotlarning rivojlanishi uchun imkon yaratdi. O'z navbatida, bu doimiy tarzda demografik hodisalarni joriy statistik hisobga olish ishlarining yo'lga qo'yilishi va aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlarini amalga oshirishda o'z ifodasini topdi. Umuman olganda, ushbu davrdagi aholi statistikasi uning boshqa tarmoqlariga nisbatan juda ilgarilab ketdi. Bunga yirik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan usul va uslubiyotlar sabab bo'ldi. Masalan, belgiyalik olim A. Kettle (1796-1874-yy) aholini ro'yxatdan o'tkazish dasturini ishlab chiqqan. Shuningdek, olimning demografiya fani g'oyalarining

rivojlanishida «Inson imkoniyatlarining rivojlanishi yoki ijtimoiy fizika tajribasi» nomli asari (1835-y) va «o'rtacha odam» konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Ketli aholi statistikasi sohasidagi yirik ingliz mutaxassisi, Angliya va Uelsdagi aholi registrlarining tashkilotchisi U.Farr (1807-1883-yy) bilan o'z ilmiy-tashkiliy faoliyatini hamkorlikda olib borgan. Bu olimlar tomonidan Xalqaro statistika kongressini tashkil qilish g'oyasi ilgari surilgan, ushbu kongress sessiyalarida zamonaviy aholi statistikasi va ro'yxatdan o'tkazish ishlarining asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Masalan, kongressning VIII sessiyasida (1872 y) aholini ro'yxatdan o'tkazishning «minimal xalqaro me'yorlari» qabul qilingan. Ta'kidlash joizki, kongress sessiyalari nomlarida demografik mavzular o'z ifodasini topmagan. Lekin, nashrlarda ikkita atama keng qo'llanilgan va ular XIX asrning oxirgi uchinchi choragiga qadar bir ma'no kasb etgan: bular «populyatsionistika» va «demografiya» atamalari. Mohiyatan aynan shu davrni demografiyaning nafaqat tarixining, balki uning predmeti haqidagi bahslar tarixining boshlanishini, uning mavzulari doirasini, tadqiqot ob'yekti sifatida inson va insoniyat hamjamiyati bilan bog'liq boshqa fanlar bilan aloqadorligini, rivojlanib borayotgan atrof-muhit va bir vaqtning o'zida ushbu muhitni shakllantiruvchi aholini o'rganilishining boshlanish davri deb hisoblash mumkin.

«Populyatsionistika» atamasi 1841 yilda shveysariyalik olim X.Bernulli (1782-1863 yy) tomonidan taklif etilgan, olim fan doirasida ikkita yo'nalishni ajratib ko'rsatgan: aholi statistikasi (statistik ma'lumotlarni yig'ish, tizimga solish va tavsiflash); aholi joylashuvi haqidagi bilim yoki populyatsionistika. Ushbu atama 1855 yilgacha fransuz matematigi A.Giyyar (1790-1876 yy) o'zining «Inson statistikasining unsurlari yoki qiyosiy demografiya» asarida birinchi bor «demografiya» atamasini ishlatgan. A.Giyyar-ning ilmiy qiziqishlari doirasida demografiyaning o'zi X.Bernulli qarashlariga nisbatan ancha tor ma'no kasb etgan, ya'ni u demografiyani «inson populyatsiyasi, uning umumiy harakatlanishini, tabiiy, fuqarolik, intellektual va ma'naviy holatini matematik tafakkur etish» deb tushungan. Uning fikricha, demografiya aholini sonlar yordamida tavsiflashi kerak.

Keyingi bir necha o'n yilliklar davomida demografiya fanini nomlashga ko'plab harakatlar qilingan. Bu birinchi navbatda, olimlarning aholining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga oid yondoshuvlari bilan bog'liq. 1870-yilda nemis statistiki E.Engel (1821-1896-yy) «demologiya» deb nomlanadigan yangi atamani fanga kiritgan, ushbu atama demografiyadan farqli o'laroq fanning aholini rivojlanishi va uning omillarini o'rganuvchi fan ekanligini ko'proq namoyon etar edi. *Uning fikricha, demologiya aholi statistikasi fani bilan o'xshash bo'lib, u tavsifiy xususiyat kasb etadi.*

1883-yilda demografiya va gigiyena bo'yicha xalqaro kongressda fanning yakuniy nomi tasdiqlandi. Bu vaqtda J.Bertilon (1851-1922 yy) va boshqa olimlarning ishlariga muvofiq yagona to'xtamga kelindi va demografiya statistik usullar yordamida aholini tavsiflovchi mustaqil fan sifatida tan olindi. Lekin, bu yerda J.Bertilonning asosiy xizmati fanning predmetini aniqlash nuqtai nazaridan va demografiyaning mazmunini ikkiga ajratishdan iborat edi: statistik va dinamik. Statistik demografiya aholining joriy vaqt davomidagi anatomiyasini; dinamik demografiya esa aholida sodir bo'ladigan jarayonlarning fiziologiyasini ochib beradi, ya'ni turli yillardagi tug'ilish va o'lim jarayonlari nisbatining o'zgarishini aniqlab beradi. Mohiyatan, u demografiyani aholi takror barpo bo'lishi haqidagi fan deb belgilagan, bu esa tavsifiy statistikaga nisbatan bir qadam ilgarilash degani edi.

O'zbekistonda ham demografiyaning rivojlanishi o'z tarixiga ega. Respublikada demografik bilimlar juda qadimdan mavjud bo'lgan. Bular haqida qadimgi qo'lyozmalar, arxeologik yodgorliklar va ilmiy manbalar guvohlik beradi. Lekin, mamlakatda maqsadli demografik tadqiqotlarni o'tkazish 1960 yillardan boshlangan.

Respublikada demografiya fanining asoschisi demograf olim Murtazo Qoraxonovich Qoraxonov hisoblanadi. Olim mamlakatning XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab demografik tarixini tiklagan. Shu bilan birga, M.Qoraxonov O'zbekiston aholisining son va sifat xususiyatlarini, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish

kabi demografik jarayonlarini ilk bor kompleks o'rgangan hamda demografik prognozini amalga oshirgan.

O'zbekistonda demografiya fanining rivojlanishiga Ishaq Rashidovich Mullajonov, Xojiakbar Salimovich Salimov, Ra'no Axatovna Ubaydullayeva, Ozod Bobomirzayevich Ota-Mirzayev, Erkin Agzamovich Axmedov, Lyudmila Petrovna Maksakova, Mamlakat Rahmonovna Bo'riyeva, Abduhakim Abduhamidovich Qayumov, Abdusami Soliyevich Soliyev, Ravza Bayanovna Murtazina, Zulxumor Nazarovna Tojiyevalar ham katta hissa qo'shgan.

#### **1.4. Demografiyaning tuzilishi va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi**

Bugungi kunda boshqa fanlarda bo'lgani singari demografiyada ham ixtisoslashuv jarayonlari kuzatilmoqda. Demografiya ichidan stixiyali tarzda demografik statistika (yoki aholi statistikasi), iqtisodiy, matematik, tarixiy, etnik, harbiy, tibbiy, sotsiologik demografiya kabi tarmoqlar ajralib chiqmoqda. Bu fan tarmoqlari nomidan ko'rishimiz mumkinki, ular demografiyaning boshqa fanlar bilan tutashgan joylarida vujudga kelgan, ularning predmeti esa demografiyada omillar sifatida qaraladi. Demografiyani ushbu tarmoqlarining nomlanishida boshqa fanlarda amalda foydalanilayotgan quyidagi tamoyil qo'llaniladi: ot sifatida (bizning misolimizda demografiya) fanning predmeti, mohiyati (aholining takror barpo bo'lishi); sifat sifatida (iqtisodiy, matematik, tarixiy va h.k.) — fanni, demografiyaning predmetini tadqiq qilishda foydalaniladigan omillar tushuniladi. Ushbu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, tarmoq fanining nomlanishi bo'yicha uning ixtisoslashuvi va tegishli predmet sohasi ko'rinib turishi kerak. Bu tadqiqotchining professional bilimi, ya'ni qanday aniq bir cheklangan predmet sohasi bo'yicha mutaxassisdan ma'lum bir professional malaka darajasini kutish mumkin ekanligini bilish uchun kerak. Ba'zida fan tarmog'i nomlanishida ushbu tamoyil tildagi murakkabliklar natijasida aniq shaklga ega bo'lishini ta'minlash qiyin (agar nomlanish chiroyli chiqmasa), lekin

hozircha bu kamyob holatlardandir. Masalan, aholi statistikasi (demografik statistika) nomlanishi yuqoridagi tamoyil bo'yicha statistika tarmog'i sifatida eshitiladi, vaholanki, demografiyada esa statistik demografiya deb nomlanishi kerak edi. Lekin, birinchidan «statistik demografiya» so'z birikmasi — g'ayri oddiy. Ikkinchidan va eng asosiysi, aholi statistikasi an'anaviy nomlanish bo'lib, u paydo bo'lgan davrda demografiya fani mustaqil fan sifatida universal fan hisoblanmish statistika ichidan ajralib chiqmagan edi. Statistikaning tarmoq differentsiatsiyalashuvi natijasida uning ichida demografik statistika (aholi statistikasi) ajralib chiqdi, u demografik yuzaga kelishi davridanoq uning kirish qismining tarmog'iga o'tib ketdi. O'ylashimizcha, demografik statistikaning an'anaviy, boshlang'ich nomlanishini o'zgartirish kerak emas.

Endi demografiya fanining tarmoqlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

**Demografik statistika** — demografiyaning eng qadimgi tarmog'i bo'lib, uning predmeti aholini takror barpo bo'lishining statistik qonuniyatlari hisoblanadi. Demografik statistika fanining asosiy vazifalariga statistik kuzatuv usullarini ishlab chiqish, demografik hodisalar va jarayonlarni o'lchash, aholining takror barpo bo'lishi to'g'risidagi birlamchi statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash kiradi.

**Amaliy demografiya** — «Amaliy demografiya» atamasi ilmiy adabiyotlarida XX asrning 60-yillarida paydo bo'lgan, fanning asosiy maqsadi aholining ko'payish qonuniyatlarini o'rganishning amaliy asoslarini ko'rsatib berishdan iborat. Fan demografik jarayonlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradi va bu iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, uy-joylarni qurish va rejalashtirish, kommunal xo'jaligi, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot sohaslarida qo'llaniladi.

**Geodemografiya** aholi takror barpo bo'lishining hududiy xususiyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

**Gerontodemografiya** aholining keksayishi, uning shakllanishini, turlarini, omillarini va demografik, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.



**Iqtisodiy demografiya** aholi va iqtisodiy rivojlanishning o‘zaro aloqadorligini, aholi takror barpo bo‘lishining iqtisodiy natijalarini, demografik rivojlanishga iqtisodiy omillarning ta‘sirini o‘rganadi.

Iqtisodiy demografiyaning asosiy vazifasi demografik jarayonlar bilan iqtisodiy hodisalardagi o‘zgarishlarning miqdoriy bog‘liqligini aniqlash hisoblanadi. Masalan, oilalardagi tug‘ilish jadalligi va yashash darajasining o‘zgarishi. Bunday holda iqtisodiy demografiya uchun demografik jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini hisobga olish juda muhimdir.

**Matematik demografiya** o‘z rivojining ma‘lum bir pog‘onasiga ko‘tarilgan bo‘lib, uning predmetini demografik jarayonlar va hodisalarning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish uchun matematik usullarni ishlab chiqish va qo‘llash, ularni modellashtirish va prognozlashtirish tashkil qiladi. Demografik modellar qatoriga — tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish jadvallari, statsionar va muqim aholi modellari, demografik jarayonlarning imitatsion modellari va h.k.larni kiritish mumkin.

**Paleodemografiya** — paleodemografiya (yunoncha palaios - qadimgi) qadimgi kishilik jamiyatida sodir bo‘lgan demografik jarayonlarni o‘rganadigan demografiyaning bo‘limi hisoblanadi. Bu fanning ma‘lumotlar bazasini qadimgi yozma hujjatlar, epitafiyalar, paleoantropologik (odam suyaklari qazilmalarining tahlil ma‘lumotlari), arxeologik (insoniyatni moddiy va madaniy yodgorliklari qazilmalarining tadqiqot natijalari), etnoarxeologik (etnografik kuzatuvlar) ma‘lumotlar tashkil etadi. Paleodemografik ma‘lumotlar nafaqat jamiyat tarixini dastlabki bosqichlarining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi, balki uning sonlar dinamikasi, ishlab chiqaruvchi kuchlar tavsifi xususida ham fikrlashga imkoniyat beradi.

Arxeologiya, antropologiya, etnografiya va demografiya fanlarining o‘zaro to‘qnashuvi paleodemografiyaning asosini belgilaydi. Paleodemografiya uchun eng ko‘p axborot manbasi — bu paleoantropologiya ma‘lumotlaridir. XIX asrda antropologlar odam skletiga qarab uning yoshi va jinsini aniqlashgan. Lekin, uzoq muddat davomida bu imkoniyatdan demografik jarayonlarni tavsiflashda foydalanilmagan, faqat aholining yosh va jinsiy tarkibi bo‘yicha

XX asrning 30-yillaridagina sobiq Ittifoq, Frantsiya va Germaniya mamlakatlarida ilmiy maqolalar paydo bo'lgan. Aytish joizki, mazkur maqolalar antropologik materiallar asosida tayyorlangan va maxsus paleodemografik yunaltirilgan. Ular guruhning yoshi va jinsi, o'rtacha yoshi, jinslar sonining nisbati, bolalar o'lim darajasi, erkaklar va ayollarning umr davomiyligi, alohida va umuman, har bir guruh haqida fikrlash imkonini bergan. Sut tishlarining o'sishi bolaning yoshini aniqlash imkoniyatini bergan. Katta odamlarning yoshini aniqlash esa tishlarning o'zgarishiga va bosh suyak chanoqining holatiga qarab amalga oshirilgan. Noaniqliklarni hisobga olganda, kattalarning yoshini belgilashda besh yildan o'n yilgacha bo'lgan davrga xatolik yuz berishi mumkin. Bunda xatolar ikkala tomonga bo'lishi mumkinligi hisobga olinadi va o'zaro tenglashtiriladi. Maxsus antropologik adabiyotlarda ishlab chiqilgan ko'rsatmalar asosida bosh suyak skletiga qarab jins aniqlangan.

**Sotsiologik demografiya** odamlarning sub'yektiv va ixtiyoriy demografik harakatlariga ijtimoiy-psixologik va sotsiologik omillarning ta'sirini o'rganadi.

**Tarixiy demografiya** demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, shuningdek, demografiya fanining rivojlanish tarixini o'rganadi.

**Tibbiy demografiya** aholi salomatligi va uning asosiy ko'rsatkichlari hamda omillarini, kasalliklarning vujudga kelishi, ularning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini o'rganadi.

**Etnik demografiya** tarixiy demografiyaga tutash fan hisoblanib, aholi ko'payishining etnik xususiyatlarini, omillarini o'rganadi. Ma'lumki, xalqlar hayoti, turmush tarzining etnik xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analari, oilaviy munosabatlarining tuzilmasi tug'ilish darajasiga (oiladagi bolalar soni), salomatlik holatiga va o'rtacha umr ko'rish davomiyligiga, nikoh xususiyatlari va nikohning mustahkamligiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi.

**Harbiy demografiya** — bu harbiy xizmat va harbiy iqtisodiyotdagi demografik omilning son va sifat xususiyatlarini o'rganuvchi fan. Shuningdek, harbiy demografiyada urushda

ishtirok etgan davlatlarning mobillashgan imkoniyatlari, ya'ni zahiralarning mobillashuvini, ularning qurolli kuchlar, iqtisodiyot, urushdagi aholining yo'qotilishi, askarlarning migratsiyasiga, askarlarning aholining takror barpo bo'lishiga ta'siri va ularning sog'lig'ini o'rganadi.

Harbiy demografiyada mamlakat resurslarining va uning koalitsiyalarni bilish uchun aholi soni va tarkibini yosh-jinsi bo'yicha hisoblash muhim ahamiyatga ega. Harbiy demografiya harbiy statistika, sanitar va harbiy-tibbiy statistika bilan chambarchas bog'liq. Harbiy demografiyada statistika nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, aholi statistikasida qo'llaniladigan usullardan keng foydalaniladi.


Biz yana bir qator demografiya tarmoqlarini (siyosiy demografiya, yuridik demografiya) keltirishimiz mumkin. Boshqa tomondan, ular demografiya bilan tutash fanlarda mavjud, lekin hanuzgacha aniq bir fan sifatida shakllanmagan.

**Demografiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.** Aholi ko'pgina fanlar uchun umumiy va universal tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Lekin, ularning har biri aynan aholida ushbu fanni qiziqtiradigan jihatlar va munosabatlarni ajratadi hamda o'zining ta'rifi beradi.

Demografiya aholini o'rganuvchi boshqa fanlar tomonidan tuzib chiqiladigan munosabatlarni tadqiq qilmaydi, balki ularning aholini takror barpo bo'lish jarayoniga ta'sir qiladigan jarayonlarini o'rganadi, xolos. Aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarini tushuntirib berish uchun demografiya ushbu fanlar tomonidan o'rnatilgan dalillarni, usullarni oladi.

Quyidagi 1.1-chizmada demografiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi keltirilgan.

Demografiya tadqiq etish predmeti jamiyat va turli ijtimoiy hodisalar hisoblangan **sotsiologiya** fani bilan uzviy bog'liqlikka ega. Sotsiologiyadagi kabi, demografiyada ham tadqiqot ob'yekti inson hisoblanadi, lekin ushbu fanlar ijtimoiy jihatdan insonga o'zlarining yondashuvi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Sotsiolog insonni shaxs va individ sifatida, umumiy holda jamiyat a'zosi yoki uning alohida guruhlarining a'zosi sifatida ko'rib chiqadi



I.1-chizma. Demografiya fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.

va jamiyat hamda insonning o'zaro ta'sirini o'rganadi. Demografiyada esa inson yashovchi shaxs sifatida, aholi jamlanmasining elementi sifatida ko'rib chiqilib, unda har bir inson umumiylikda o'zining individual jihatlarini yo'qotgan holda qorishib ketadi.

Demografiya **iqtisodiyot nazariyasining** bir qator qonuniyatlardan foydalanadi, chunki aholi ishchi kuchini takror barpo etadigan muhim unsurlardan biri hisoblanib, jamiyatning tabiiy asosini tashkil qiladi.

Demografiyaning **tarix** fani bilan bog'liqligi shundan kelib chiqadiki, bunda barcha demografik jarayonlar tarixiy hodisalar jabhasida o'rganiladi, ya'ni demografik qonuniyatlar ma'lum bir tarixiy tavsifga ega va tarixiy hodisalar hamda dalillarning oqibatlarini o'zida aks ettiradi.

Demografiya **huquqshunoslik** fani bilan ham uzviy aloqadorlikka ega. Qonuniy hujjatlar aholi va davlatning o'zaro munosabatlarini tartibga soladi hamda demografik jarayonlarning sodir bo'lishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Demografiya fanining **etnografiya** bilan aloqadorligi shu bilan belgilanadiki, etnografiya turli xalqlar turmush tarzi va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini, demografik jarayonlarga ta'sirini ochib berishga yordam beradi.

**Ijtimoiy psixologiya** demografiya bilan demografik xulq-atvorni o'rganishda, uning demografik jarayonlarni ijtimoiy boshqarish mexanizmlaridagi rolini va h.k.larni o'rganishda yaqinlashadi.

**Gerontologiya** insonning keksayish qonuniyatlarini o'rganadi.

Demografiyaning **ijtimoiy gigiyena** bilan bog'liqligi o'lim darajasiga, aholi salomatligiga, ijtimoiy shart-sharoitlarning ta'sirini o'rganish zaruratidan kelib chiqadi.

Demografiya **tibbiyot** bilan ham uzviy aloqadorlikka ega. O'z navbatida, bu aloqadorlik o'limning ayrim sabablarini o'rganishni amalga oshirishda yordam beradi.

Demografiyada **statistika** nazariyasining tamoyillari juda ham keng qo'llaniladi. Demografiya juda ko'p miqdordagi kuzatuvlar, ijtimoiy hayotdagi ommaviy hodisalar bilan bog'liq, ularning qonuniyatlari esa katta sonlar qonunida o'z aksini topadi.

Shunday qilib, demografiya fani tarkibiy jihatdan qator tarmoqlarga bo'linadi hamda iqtisodiyot nazariyasi, tarix, huquqshunoslik, etnografiya, tibbiyot, statistika va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorlikka ega.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Demografiya atamasi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
2. Aholi qaysi fanlarning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi?
3. Demografiya fan sifatida qachon shakllangan?
4. Fanning asosiy vazifalarini sanab bering.
5. Demografiya fanining predmetini aytib bering.
6. Fanni o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
7. Demografiya fanining asoschisi kim?
8. Demografiya fanining rivojlanish tarixini aytib bering.
9. O'zbekistonda demografiyaning rivojlanishiga qaysi olimlar katta hissa qo'shgan?
10. Demografiya fani tarkibiy jihatdan qanday tarmoqlarga ajraladi?
11. Demografiya qaysi fanlar bilan o'zaro aloqador hisoblanadi?

---

---

## 2-bob. DEMOGRAFIK JARAYONLARNI O'RGANISH MANBALARI

### 2.1. Aholi ro'yxatlari va uni o'tkazish tamoyillari

Demografik jarayonlarni o'rganishda aholiga doir nashr etilgan raqamli ma'lumotlar, ilmiy manbalar, maxsus tadqiqot natijalaridan, ya'ni demografik ma'lumotlardan foydalaniladi. Demografik ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi tavsifga ega.

**Birlamchi ma'lumotlar** — demografik jarayonlar haqida to'plangan dastlabki statistik ma'lumotlar, jadvallar va maxsus ko'rsatkichlar. **Ikkilamchi ma'lumotlar** — bu birlamchi ma'lumotlar asosida olib borilgan ilmiy tahlil va hisob-kitoblardir<sup>1</sup>.

Aholi haqidagi axborot tizimi barcha aholini qamrab oluvchi ikkita asosiy manbadan iborat bo'lib, bular aholi ro'yxatlari va tabiiy harakatning joriy qayd etilishini, shuningdek tanlama tadqiqot, aholi registrlari kabi qo'shimcha manbalarni o'z ichiga oladi.

Aholi ro'yxatlari va aholini joriy qayd etishdan olinadigan ma'lumotlarsiz demografik koeffitsientlarni hisoblab bo'lmaydi. Aytish joizki, bu koeffitsientning sur'ati joriy qayd etish bo'lsa, maxraji aholi ro'yxati yoki uning asosida olingan hisob-kitoblar bo'ladi.

**Aholi ro'yxati** — aholi haqidagi muhim axborot manbalaridan biri bo'lib, aholi soni va uning harakati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir. BMT ta'rifiga ko'ra, aholi ro'yxati — bu ma'lum vaqtda mamlakatda yoki uning cheklangan bir qismida yashovchi jami aholi haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, tahlil qilish va nashr etish jarayonidir<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Буриева М.Р. Демография асослари. — Тошкент, 2001. — 16 б.

<sup>2</sup> Основы демографии: Учебное пособие / П.И. Косов, А.Б. Берендеева. — 2-е изд, доп. и перераб. — М.: ИНФРА-М, 2010. — С. 29.

Aholini dastlabki ro'yxatga olish qadimgi Gretsiya, Vavilon, Mesopotamiya, Rim, Xitoy, Yaponiya va Misrda o'tkazilgan. Lekin, bu aholi ro'yxatlarining maqsadi aholidan soliq yig'ish, ya'ni boj olish hamda harbiy maqsad uchun aholi sonini aniqlash bo'lgan. Shuning uchun ham bu aholi ro'yxatlarida faqat erkaklar ro'yxatga olingan. Chunki, u paytlarda erkaklarning iqtisodiy o'rni yuqori bo'lgan, soliq to'lashda faqat erkaklar, ya'ni oila boshliqlari ishtirok etgan.

Eng qadimgi aholi ro'yxati eramizdan oldingi VI asrda (510 yilda) Rimda imperator Servi Tull davrida o'tkazilgan. Mazkur aholi ro'yxatida oila boshliqlari o'zi, oila a'zolari va mol-mulklari haqida ma'lumot bergan.

Aholi ro'yxati nafaqat aholi soni va uning demografik jihatlari (aholining yosh-jinsiy tarkibi, oilalar tarkibi), balki uning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ya'ni aholining ma'lumotlilik darajasi, ish bilan bandligi, yashash uchun mablag' topish manbalariga doir ma'lumotlarni ham beradi. Aholi ro'yxati dasturiga hozirgi zamonda davlat boshqaruvi uchun muhim bo'lgan savollarni ham kiritish mumkin. Masalan, ish bilan bandlik va ishsizlik, aholining turmush sharoitlari, nogironlik va boshqalar.

Aholini ro'yxatga olishning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

- ro'yxatga olish orasidagi davrda aholida yuz bergan o'zgarishlar haqidagi axborotga ega bo'lish hamda shu asosda hududlar bo'yicha aholi soni va tarkibiga baho berish;

- istiqboldagi hisob-kitoblar uchun zamin tayyorlash;
- mamlakat aholisining lahzali holatiga ega bo'lish.

Aholi ro'yxati natijalaridan nafaqat aholi soni va tarkibining istiqboldagi baholari va prognozlarini tuzishda, balki ro'yxatga olish davrlari o'rtasidagi aholi soniga doir hisob-kitoblarni amalga oshirishda ham foydalaniladi.

Aholini ro'yxatga olish davrida barcha ma'lumotlar ma'lum vaqt, ya'ni ro'yxatga olishning aniq vaqti uchun jamlanadi. Bu aniq bir kun, soat bo'lib, barcha jamlangan axborotni taqqoslash uchun shu vaqtga nisbatan olinadi. Shu vaqtga qadar o'lganlar va undan keyin tug'ilganlar ro'yxatda qayd etilmaydi, ro'yxat

varaçasiga kiritilmaydi hamda aholi ro'yxatiga qo'shilmaydi. Shu sababdan ko'pchilik hollarda aholi ro'yxatini bir zumda tayyor bo'ladigan fotosurat bilan taqqoslaydilar. Odatda, aholini ro'yxatdan o'tkazish uchun aholi nisbatan kam harakatlanadigan mavsum tanlanadi, ya'ni mehnat ta'tili, o'quvchilarning ta'tili, bayram kunlaridan tashqari vaqt olinadi.

**Ro'yxatga olish sanasi** — bu aholi ro'yxatining aniq vaqtdan boshlangan kundir. **Aholini ro'yxatga olish muddatlari** — bu aholi orasida yurib, so'rovlar o'tkaziladigan hamda varaqalar to'ldiriladigan davr mobaynidir.

Aholi ro'yxatlarini o'tkazish tamoyillari haqidagi tasavvurlar asta-sekin vujudga kelgan. Aholini ro'yxatdan o'tkazishning ilmiy asoslari birinchi (1855 y., Bryussel) va ikkinchi (1972 y., Sankt-Peterburg) Xalqaro statistik kongresslar tavsiyalarida qayd etilgan. 1846 yilda Bryussel shahrida taniqli belgiyalik olim A.Ketle rahbarligida o'tkazilgan aholi ro'yxati zamonaviy turdagi dastlabki ro'yxat hisoblanadi. Mazkur ro'yxat o'tkazilishida ilk bor kritik vaqt tamoyili qo'llanilgan. O'sha davrda A.Ketle «ro'yxatda qayd etiladigan aholi toifasi» tushunchasini birinchi marta ilmiy iste'molga kiritgan.

Ma'lumki, ro'yxatga olish jarayonida to'rtta **aholi toifasi** ajratiladi:

- **mavjud aholi** — ro'yxatga olish vaqtida ma'lum hududda bo'lgan jami aholi, shu jumladan, vaqtinchalik yashab turgan aholi;

- **doimiy aholi** — ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezoni sifatida olti oyga teng davr olinadi. Doimiy aholiga quyidagilar kiradi: muntazam tarzda shu hududda yashovchilar, ular orasida 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatga ketganlar, o'qish yoki ishlash uchun kelib, 6 oy va undan ko'p muddat davomida mazkur hududda yashovchilar;

- **vaqtinchalik yashovchilar** — bu mazkur hududda doimiy yashab qolishni istamagan, lekin bu yerda ro'yxatga olish davrida bo'lgan aholi. Vaqtinchalik ketganlar — bu mazkur hududda



doimiy yashaydigan, biroq ro'yxatga olish davrida u yerda bo'lmaganlar;

- **yuridik (qayd etilgan) aholi.** Unga muayyan hududda shu mamlakat qonunlariga ko'ra qayd etilgan aholi kiradi. Masalan, turarjoy bo'yicha ro'yxatda turuvchi aholi. Yuridik aholi soni doimiy yoki mavjud aholi soni bilan mos kelmaydi, shuning uchun zamonaviy aholi ro'yxatlarida ushbu toifa juda kam hollarda qo'llaniladi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazishda aholi toifalaridan biri — yo mavjud, yo doimiy yoki ikkala toifasi ham bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin. Hududning mavjud va doimiy aholi soni bir-biridan keskin farq qilishi mumkin, ammo jamoat transporti tarmog'i, ulgurji savdo va h.k. aynan mavjud aholiga mo'ljallanishi lozim. Bu, ayniqsa, mavsumiy omil bo'lib, muhim ahamiyat kasb etuvchi hududlar uchun dolzarbdir. 1926- va 1939-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida mavjud aholi qayd etilib, keyingi aholi ro'yxatlarida ham mavjud, ham doimiy aholi ro'yxatga kiritilgan. Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida faqat doimiy aholi ro'yxatga olinadi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazishda aniq vaqt va aholi toifalari bilan birga quyidagi **asosiy tamoyillar** ham e'tiborga olinadi:

- aholi ro'yxatining umumiylik tamoyili. Imkon qadar muayyan mamlakat hududida mavjud bo'lgan barcha fuqarolar, shuningdek, shu davlatga tegishli, biroq ayni vaqtda chet elda bo'lgan fuqarolarga oid ma'lumotlar yig'iladi. Aftidan, ushbu tamoyilga amal qilish murakkabdir, chunki aholi bir joyda turmaydi, odamlar oqimi muntazam ravishda mamlakat hududi bo'ylab harakatlanadi. Shunga qaramay, aholini ro'yxatdan o'tkazish uslubiyoti imkon qadar maksimal darajada ushbu tamoyilga amal qilishga yo'naltirilgan;

- shaxsiylik tamoyili. Aholi haqidagi ma'lumotlar ism-sharifga ko'ra, ya'ni har bir shaxsga doir jamlanadi;

- aholi ro'yxatini o'tkazishning muntazamlilik tamoyili. BMT tavsiyalariga ko'ra, aholi ro'yxati muntazam ravishda, 10 yilda bir martadan kam bo'lmagan muddatda o'tkazilishi lozim;

- o'z-o'zidan aniqlash tamoyili. Odatda, aholi haqidagi ma'lumotlar hujjatlardan emas, balki odamlarning so'zlaridan

olinadi. Farzandlarga tegishli axborotni ota-ona yoki vasiylar beradi. Ro'yxatga olinayotgan paytda aholining ayrim jihatlari, ya'ni ba'zi savollarga javobni faqatgina so'ralayotgan shaxs no'zlaridan olish mumkin (masalan, etnik mansubligi, ona tili va h.k.).

Garchi aholi ro'yxati o'tkazilganda ma'lumotlar har bir fuqaro haqida to'plansa ham, ro'yxatning qayd etish birligi sifatida oila yoki uy xo'jaligi olinadi. Ushbu tamoyil aholining oilaviy tarkibi yoki uy xo'jaligi bo'yicha taqsimlanishiga oid axborotga ega bo'lish imkonini beradi. Statistika da oila — bu qarindoshlik (ota-ona — farzandlar, aka-uka, opa-singillar) yoki bir xususiyat (er-xotin, kuyov-qaynona/qaynota, kelin-qaynona/qaynota) ga ko'ra birlashgan, birgalikda yashovchi yoki umumiy budjetga ega bo'lgan shaxslar guruhidir. Oiladan farqli ravishda, uy xo'jaligiga birlashgan insonlar qarindoshlik yoki bir xususiyat bilan bog'lanmasliklari mumkin (masalan, yotoqxonada bir xonada yashab, umumiy xo'jalik yurituvchi), uning tarkibida xizmatkorlar bo'lishi ham kuzatiladi. Oiladan farqli o'laroq, uy xo'jaligi bir odamdan iborat bo'lishi mumkin. Oilaviy uy xo'jaligi va jamoaviy uy xo'jaliklari bir-biridan farqlanadi (masalan, qariyalar uyida yashovchilar, harbiy qism «aholisi»).

Ayrim mamlakatlarda tanlama ro'yxatga olish savollari ham qo'llanilib, unda savollar barcha aholiga emas, balki uning ma'lum qismiga beriladi. Tanlama ro'yxatning o'tkazilishi unga sarflandigan xarajatlarni qisqartiradi, chunki savollar butun aholiga berilmaydi, biroq o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolar batafsil tadqiq etiladi.

## **2.2. Aholini ro'yxatga olish tartibi va usullari**

Aholi ro'yxatida ro'yxatga olish varaqasi va uni to'ldirish bo'yicha yo'riqnoma asosiy hujjatni tashkil qiladi. 1897, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillardagi ro'yxatga olish vaqtlarida ro'yxat shaklidagi ro'yxatga olish varaqlari sifatida, 1926 yilda esa shaxsiy varaq shaklida bo'lgan. Dastlabkilari bir nechta shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldirish uchun mo'ljallangan bo'lsa,

keyingisi bitta odam to'g'risidagi ma'lumotlar uchun mo'ljallangan. Ro'yxatga olishning asosiy hujjatlari shakllari, uning o'tkazish uslubi, kuzatish birligi va ma'lumotlarni ishlab chiqish usuliga bog'liq bo'ladi.

O'zini o'zi ro'yxatga olish usulida va kuzatish birligi sifatida oila xizmat qilishi shartlarida ro'yxatga olish varaqasi bir oila (uy xo'jaligi) uchun mo'ljallangan bo'ladi va odatda oilaning biror bir yoshi kattasi tomonidan (yoki oila boshlig'i tomonidan) to'ldiriladi. Bunday holda parallel holda individual varaqchalar to'ldirilishi ham e'tibordan chetda qoldirilmaydi.

So'rov usulida ro'yxatga olish varaqalari shakli kuzatuv birligiga bog'liq bo'lmaydi. Bunday holda varaqalar har doim ro'yxatga oluvchi qo'lida bo'ladi, u har bir ro'yxatga olinuvchi uchun alohida shakllarni to'ldirishi mumkin bo'ladi. Ro'yxatga oluvchi kuzatuv birligining biridan ikkinchisiga o'tayotganda bir varaqaning o'zida yozuvlarni davom ettirishi mumkin. 1970 yildagi ro'yxatga olishda alohida varaqalarda har bir xonadon aholisi yozib borilgan, lekin oilalar bo'yicha amalga oshirilgan. Oxirgi vaqtlardagi varaqalar shaklining sezilarli darajadagi o'zgarishlari hisoblash qurilmalari va elektron hisoblash texnikasining ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'llanilishi bilan bog'liq. Masalan, 1989 yildagi ro'yxatga olishda ro'yxatga olish varaqalari (ayrim savollarni inobatga olmaganida) grafik belgilarni qo'yish yo'li bilan to'ldirilgan, bu esa maxsus hisoblash qurilmalarini qo'llash imkoniyatini bergan. Bunda ro'yxatga olish varaqasining butun qismi ikki kishilik yozuv uchun mo'ljallangan, tanlab ro'yxatga olish varaqasi esa bir kishi uchun yozuvga mo'ljallangan. Biroq, yashash joyida istiqomat qiluvchilarga mo'ljallangan barcha varaqalar o'ziga xos jildga jamlangan, bu yashash joyidagi istiqomat qiluvchilarning nomlar bo'yicha ro'yxatidan iborat bo'lgan. Ro'yxatga olishda ro'yxatga olishning asosiy varaqalari bilan bir qatorda quyidagi ko'plab yordamchi hujjatlar ham qo'llanilgan: nazorat blankalari, hisobchilar va instruktorlarning yozuv kitobchalari, turli xil vedomostlar.

Hisobchilar va instruktorlar ishlarining aniqligini ta'minlash va nazorat qilish uchun 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda

○Tkazilgan aholi ro'yxatlariga «Hisobchining yon daftarchasi» va «Instruktorning yon daftarchasi» kiritilgan.

Aholining umumiy miqdorini aniqlash va uning natijalarini to'liq qayta ishlab chiqish uchun maxsus vedomostlar tuzilishi nazarda tutilgan, ular ro'yxatga olish materiali bilan birgalikda topshirilgan va bir vaqtning o'zida ro'yxatga olish varaqalarining ro'yxati bo'lib xizmat qilgan. 1989 yilda ular bo'yicha bir necha kundan keyin mamlakat aholisini yoshlar bo'yicha taqsimotining miqdori va 18 yoshga to'lganlar va undan kattalar ajratilib ko'rsatilgan. Ushbu vedomostlar muayyan bir qishloqlar va aholi punktlari aholisining soni to'g'risidagi yagona manba bo'lib, ular bo'yicha ro'yxatga olish materiallari qayta ishlab chiqilmagan. Vedomostlarning quyidagi beshta turi mavjud bo'lgan: shaharlarda uy xo'jaligini yurituvchilar va qishloq joylarda aholi joylashuvi bo'yicha; hisobchi uchastkasi bo'yicha; instruktor uchastkasi bo'yicha; ro'yxatga olish bo'linmasi bo'yicha va tuman bo'yicha.

Umuman olganda, ro'yxatga olishda bir necha o'n turdagi nuqjatlilar qo'llaniladi. 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillardagi ro'yxatga olishlarda «nazorat blankasi» qo'llanilgan, u boshqa joylarda e'tibordan chetda qoldirilishi mumkin bo'lgan shaxslar uchun hisobchi tomonidan to'ldirilgan (xususan, kritik vaqtdan keyin ro'yxatga olishdan o'tmagan ma'lumotnomasiz kelganlar uchun). Qayta ishlashdan oldin nazorat blankalar mos ravishdagi ro'yxatga olish varaqalari bilan solishtirilgan. Bu esa, natijalarning aniqligini oshirish imkonini bergan.

**Aholi ro'yxatga olish usullari.** Aholidan ma'lumotlarni olishda ikki usul qo'llaniladi — so'rovnoma va o'zini-o'zi hisobga olish. Ular o'rtasidagi farq quyidagidan iborat: so'rovnomalarda ro'yxatga olish varaqalarini hisobchi, o'zini-o'zi hisobga olishda esa ro'yxatdan o'tuvchilarning o'zlarini to'ldiradi. So'rovnomada u yoki bu shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobchi ularning o'zlaridan bevosita og'zaki so'rash orqali oladi. o'z-o'zini hisobga olishda esa odatda - uchinchi shaxslar oladi (ko'pincha, oila boshlig'i yoki oilaning yoshi katta a'zosi). So'rovnomada ro'yxatga olish varaqalari doimo hisobchining o'zida bo'ladi, o'z-o'zini hisobga olishda esa ular avvaliga tarqatilib chiqiladi va ma'lum bir

muddatdan so'ng esa yig'ib olinadi. Bunda hisobchi ularni to'g'ri to'ldirilganligini tekshirib chiqadi.

U yoki bu usulni tanlashda iloji boricha kamroq mablag' sarflanishiga erishish orqali aniq ma'lumotlarni olishdan kelib chiqiladi. So'rovnoma usulining afzalligi shundan iboratki, bunda hisobchi bevosita so'raluvchilar bilan shaxsan uchrashish zaruratidir. Faqatgina bolalar bundan mustasno (ular to'g'risida ma'lumotlarni ota-onalar yoki ota-ona o'rnini bosuvchilar beradi), shuningdek, u yoki bu jismoniy nuqsonlari bo'lgan va aqli zaif shaxslar ham bundan mustasnodir. Ko'pchilik holatlarda vaqtincha yo'q bo'lganlarni agar ular hisobchi kelgan vaqtda uylariga qaytmagan bo'lsa so'rashning imkoni bo'lmaydi. Nihoyat, aytish mumkinki, hisobchi barcha mavjud yashovchilar bilan uchrashishga imkoni bo'lmaydi. Ular to'g'risidagi ma'lumotlarni oilaning boshqa a'zolaridan so'rash orqali, agar yolg'iz yashaydiganlar bo'lsa, hatto qo'shnilaridan ham so'rashga ijozat beriladi.

O'zini-o'zi hisobga olish ham shaxsan uchrashishni inobatga olmasdan qolmaydi. Odatda, hisobchiga nafaqat ro'yxatga olish varaqalarini to'ldirishga yordam berishda, balki ularni bevosita to'ldirilishda ishtirok etishiga ham ijozat beriladi. Ayrim ro'yxatga olinuvchilar bilan og'zaki suhbat qurish varaqani to'g'ri to'ldirilishini tekshirilishida ham juda muhimdir. O'zini-o'zi hisobga olish usuli anchayin tejamkor, hatto agar hisobchi varaqalarni to'ldirilishida ham yordam berishlariga qaramasdan samaradorligi anchayin yuqori hisoblanadi. Boshqa teng sharoitlarda bu holat ro'yxatga olish muddatini qisqartirish imkonini ham beradi. Shu bilan birgalikda, ushbu usul aholini ro'yxatga olishning zamonaviy dasturlarining murakkabligini hisobga olgan holda aholini madaniy darajasining yuqori holatidagina qo'llanilishi mumkin.

O'zini-o'zi hisobga olish usuli qadimdan aksariyat Yevropa mamlakatlarida, Avstraliyada va Yangi Zelandiyada qo'llanilib kelinadi. Oxirgi vaqtlarda esa ushbu usulga boshqa kontinentlarda ham o'tkazilmoqda. O'zbekistonda o'tkazilgan barcha aholi ro'yxatlari so'rovnoma usuli orqali amalga oshirilgan.

Zamonaviy ro'yxatga olishlarda bitta usulni sof holda qo'llash borgan sari kamayib borib, ularni kombinatsiyalashgan holda qo'llashga ko'proq e'tibor berilmoqda. Bilim darajasi pastroq bo'lgan qishloq joylar uchun ko'p hollarda so'rovnoma usuli, shahar joylarda esa o'zini-o'zi hisobga olish saqlanib qolmoqda.

### 2.3. Aholini ro'yxatga olish dasturlari

Ro'yxatga olish aholining soni, jinsi, yoshi, ta'lim darajasi, millati, mehnat tavsifi va h.k.larni aniqlashni ko'zlaydi. Shaxslar yoki oilalardagi ro'yxatga olinuvchilarning muayyan bir alomatlar bo'yicha ro'yxatini tuzish **«aholini ro'yxatga olish dasturi»** deb yuritiladi.

Dastur ro'yxatga olishda yig'iladigan ma'lumotlar doirasi va mazmunini belgilab beradi. Uning mazmuni davlatning aholi to'g'risidagi ma'lumotlarini so'rovnoma o'tkazish va boshqa manbalardan olish mumkinligi xususidagi u yoki bu ehtiyojlariga bog'liq bo'ladi.

Aholini ro'yxatga olish dasturini quyidagi uchta shartli qismlarga ajratish mumkin: manzil qismi; ro'yxatga olish dasturining o'zi va boshqa tadqiqotlarga bog'liq bo'lgan ro'yxatga olish bilan shartlangan alomatlar.

**Manzil qismi** o'z ichiga quyidagilarni oladi: viloyat, shahar, aholi manzilgohi nomi: ko'cha nomi, uy va xonadon raqami, **ya'ni o'z mohiyatiga ko'ra**, joyning manzili; familiya, ismi va **otasining ismi**: oila boshlig'iga kim ekanligi. Manzil ma'lumotlari **aholini ro'yxatga olish bilan qanchalik to'laroq qamrab olishini tekshirish imkonini beradi** va uni yanada aniqroq tashkillashtirishga yordam beradi. Ular hududiy kesimda aholini ro'yxatga olish materiallarini avtomatik tarzda qayta ishlashni ta'minlaydi.

Familiya va ism katta ahamiyat kasb etmaydi. Ular aholining ma'suliyatliligini oshirish va turli nazorat operatsiyalari uchun kerak bo'ladi (ro'yxat bilan solishtirish, ba'zan esa aholiga yetishmayotgan ma'lumotlarni olishda murojaat etish uchun va h.k.). Ba'zida ro'yxatga olishda hisobga olinadigan familiyalar

geneologik, onosmatik (onosmatika — ismlar to'g'risidagi fan) va lingvistik tadqiqotlar uchun foydalaniladi.

So'raluvchining oila boshlig'iga kim ekanligi hanuzgacha aholini oilalarga to'g'ri taqsimlash uchun xizmat qiladi, bu esa uni ro'yxatda qamrab olish to'liqligiga yordam beradi. Ushbu masala oila va uy xo'jaligi o'rtasidagi chegarani aniqroq belgilash maqsadini ko'zlaydi va qarindoshlikni mustaqil tadqiq etish imkoniyati ta'minlab beradi. Vaholanki, oila boshlig'i kategoriya-sining o'zi qonunchilik tamoyillariga javob bermaydi va ro'yxatga ma'lumotlarni qayta ishlashda foydalanilmaydi, ushbu maqsadlar esa birinchi ro'yxatdan o'tkazishda yozib qo'yilgan oila a'zosiga nisbatan qarindoshlik munosabati xususidagi yozuvlar orqali erishilishi mumkin.

Demografik ro'yxatdan o'tkazish dasturini quyidagi bir nechta guruhlariga ajratish mumkin.

### **1. Aholi toifalarini hisobga olishni ko'zlovchi masalalar.**

Amaliyotda, buning uchun ro'yxatga olishning kritik momentiga berilgan xonadonda kim yashaganligi, jumladan, yashashning doimiy yoki vaqtinchalik tavsifi aniqlanadi. Bundan tashqari, doimiy yashovchilar ichidan vaqtinchalik yo'qlar ham inobatga olinadi. Yashash tavsifini yanada aniqlashtirish uchun vaqtinchalik yo'q bo'lish davomiyligi yoki vaqtinchalik yashash sabablari xususida savollar qo'yiladi. Chunki, aksariyat odamlar hisobchilar bilan doimiy yashash joyida uchrashadi va ro'yxatga o'tkazishning kritik momentida (ayni vaqtida) mavjud bo'lganliklari uchun vaqtinchalik yo'qligi yoki vaqtinchalik yashayotganligi to'g'risidagi dalilni inobatga olishning o'zigina kifoya qiladi, xolos. Masalan, 1989 yildagi ro'yxatga olishda aynan shunday qilingan edi. Yashovchilar ro'yxatidagi doimiy yashovchilar, lekin vaqtincha yo'qlar uchun uydagi bo'lmaganligining davomiyligi va sababi yozib qo'yilgan, vaqtinchalik yashovchilar uchun esa doimiy yashash joyi va u yerda bo'lishining davomiyligi yozib qo'yilgan. Varaqalarning o'zlarida esa «vaqtinchalik yo'q» yoki «vaqtincha yashaydi» deb belgilab qo'yilgan. Agar bu belgilarning birinchisi bo'lmasa ushbu odam mavjud odamlar tarkibiga kirishini, agar ikkinchisi bo'lmasa doimiy yashovchilar soniga kirishini, agar

ikkalovi ham bo'lmasa, unda ushbu odam ro'yxatga qo'yilgan joyidagi aholining mavjud odamlar tarkibiga va doimiy yashovchilari tarkibiga kiritilgan.

## 2. Shaxsiy (demografik) tavsiflar — jins, yosh, nikoh holati.

So'raluvchining jinsi to'g'risidagi savol alohida tushuntirishlarni talab etmaydi. Ushbu savol barcha ro'yxatga olish dasturlaridan chiqarilib tashlanadi. Aholini jinsi bo'yicha tarkibi aholining takror barpo bo'lishini, mehnat resurslarini va h.k.larni o'rganishda juda muhim rol o'ynaydi.

Ro'yxatga olish dasturining eng muhim savollaridan biri — yosh to'g'risidagi savoldir. Aholini ro'yxatga olishda yoshi yoki tug'ilish sanasi to'g'risida savol qo'yilgan, chunki yosh uzluksiz alomat bo'lib, to'liq yillarning butun sanalari yozuvini o'zida aks ettiradi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar uchun odatda hayotning oylar bo'yicha miqdori inobatga olinadi.

Yosh to'g'risidagi savol bir vaqtning o'zida juda mushkul masalalardan biridir. Gap shundaki, odamlar aniq yoshning o'rniga ko'pincha yaqin bo'lgan, yaxlitlangan yillar sonini ko'rsatishadi. Natijada odamlarni yoshlar bo'yicha taqsimlayotganda yaxlitlangan yoshlarning to'planmasi vujudga keladi. Ushbu hodisa «yosh **akkumulyatsiyasi**» deb yuritiladi. Yoshni noaniq ko'rsatishning asosiy sababi — aholini madaniy darajasining natijasidir. Bu yerda ro'yxatga olishda yillar sonini ko'rsatish o'rniga odamlarga o'zlarini oddiygina qilib uchta guruhlardan biriga kiritish so'raladi: bolalar, kattalar yoki qariyalar.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida ko'pincha tug'ilgan sanasi to'g'risidagi savol qo'yiladi. Tug'ilgan sana ayrim demografik hisob-kitoblar uchun juda muhim, xususan, boshqa hodisalar bilan taqqoslash uchun ham muhimdir (farzandning tug'ilishi, nikohga kirish va h.k.). Tug'ilgan sanani bilgan holda ro'yxatga olish vaqtidagi aniq yoshni aniqlash mumkin, vaholanki, to'lgan yillar soni to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'la turib tug'ilgan sanani aniqlashtirish mumkin emas.

Tug'ilgan sanani ro'yxatga olish yilidan tug'ilgan yilning sonini ayrib tashlab to'lgan yillarga aylantirish mumkin. Bunda, agar tug'ilgan sana ro'yxatga olish yilidagi uning sanasidan keyinroq



bo'lsa, mavjud farqni birga kichraytirishga to'g'ri keladi. Shu bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ishlardan qochish maqsadida ba'zida nafaqat tug'ilgan sana to'g'risidagi, balki to'lgan yillar soni to'g'risidagi savol ham qo'yiladi. Bizning mamlakatda barcha ro'yxatga olishlarda to'lgan yillar soni inobatga olingan (1 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun — oylar ko'rsatilgan); 1970, 1979 va 1989 yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish dasturlarida tug'ilgan yil to'g'risidagi savol ham qo'yilgan. To'lgan yillar sonini to'g'ri aniqlash uchun hisobchi so'ralayotgan odam 17 yanvargacha, 17 yanvarda yoki bu sanadan keyinroq tug'ilganligini aniqlash va keyin mos ravishdagi belgini qo'yishi lozim. Agar odam 17 yanvargacha tug'ilgan bo'lsa, uning yoshi 1989 yil va tug'ilgan yil farqiga teng bo'ladi, agar 17 yanvardan keyin tug'ilgan bo'lsa, ushbu farq 1 ga kamroq bo'ladi.

Nikoh holati to'g'risidagi savol odatda o'zida to'rt javob variantini mujassam etadi: nikohdami; ro'yxatga olish vaqtida nikohda bo'lmaganlar uchun — hech qachon nikohda bo'lmagan; beva va ajrashgan. Ayrim mamlakatlarda, xususan AQSHda oila tarkibi tavsifini yanada aniqlashtirish uchun «bo'linganlar» (separated), ya'ni alohida yashovchi turmush o'rtoqlarga ajratilib, nikohda bo'lganlar orasida esa turmush o'rtog'i ushbu uy xo'jaligi yoki oila a'zolari tarkibiga kirmaydiganlarga ajratilib ko'rsatiladi.

Avvalambor, nikohda bo'lganlar deb kimlar atalishini aniqlashtirib olish juda muhim. Ko'pgina hollarda faktik nikoh munosabatlar mavjud qonunlar va odatlarga ko'ra rasmiylashtirilgan yoki yo'qligidan qat'iy nazar inobatga olinadi. Ba'zan bu narsa yanada aniqlashtiriladi. Masalan, Meksikada nikoh fuqarolik yoki diniy ekanligi to'g'risida, Bolgariyada esa nikoh ro'yxatdan o'tkazilganligi haqida so'ralgan. Ushbu aniqlashlar ma'lumotlarni joriy hisob bilan qiyoslashni ta'minlashga bo'lgan intilishi natijasida amalga oshirilgan bo'lib, bunda nikohda tug'ilganlar deb faqat ota-onalari yuridik jihatdan ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblanadi.

Shuningdek, kimlarni ajralishgan deb hisoblashni ham aniqlashtirib olish kerak. Faqatgina ro'yxatga olingan nikoh hisobga olinadigan holda masala oddiy hal qilinadi. Faktik nikohni hisobga olishda esa masala turmush o'rtog'i o'lib nikoh to'xtalishi sabab bo'lmagan.

1897 va 1926 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida nikoh holati to'g'risidagi savol, uning kengaytirilgan tavsifini nazarda tutgan. Biroq, keyingi uchta ro'yxatdan o'tkazishlarda (1939, 1959 va 1970 yillar) faqat nikohda turadimi yoki yo'qligi to'g'risida ko'rsatish so'ralgan. 1979 va 1989 yillardagi ro'yxatdan o'tkazishda nikoh holatining to'rtta toifasi hisobga olingan: hech qachon nikohda bo'lmaganlar; nikohda bo'lganlar; bevalar va ajrashganlar.

**3. Ijtimoiy-demografik tavsiflar.** Ro'yxatga olish dasturining ijtimoiy guruhlar va sinflarining miqdoriy nisbatlarini aniqlash imkonini beruvchi aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy kesimda aholini boshqa barcha tavsiflarining o'rganilishi masalalari, ya'ni ijtimoiy guruhlar va sinflar bo'yicha differentsatsiyalash birlamchi ahamiyat kasb etadi. Sinflar ishlab chiqarish vositalariga egaligi bo'yicha aniqlanadi. Bu holat rasmiy tarzda «ishdagi holat»ga tenglashtirilishi mumkin emas, ko'pincha rivojlangan mamlakatlardagi ro'yxatga olishlarda uchta toifa farqlanadi: xo'jayinlar, yollanma ishchilar, yordam beruvchi oila a'zolari. Rasman xo'jayin bo'lib yirik zavodning egasi va kichik hunarmand ham bo'lishi mumkin; yollanma ishchi bo'lib — doker va yirik firmaning direktori ham bo'lishi mumkin, mohiyatan, ko'pchilik hollarda uning xo'jayini bo'ladi; yordam beruvchi oila a'zolari bo'lib — fermerning xotini va monopolistning «ish o'rganayotgan» o'g'li bo'lishi ham mumkin. Aholi ro'yxatlarida ijtimoiy guruhlarining bevosita ta'rifi berilib, unga ko'ra, ro'yxatdan o'tuvchi (agar u ishlayotgan bo'lsa), o'zining mavjud holatiga ko'ra, agar ishlaymayotgan bo'lsa, aytaylik pensionerlikka o'tgan bo'lsa, avvalgisini yoki agar qaramog'ida bo'lgan kishi voyaga yetmagan bo'lsa, kimning qaramog'ida bo'lsa o'shaning holatiga asoslanib ko'rsatishi kerak va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dasturning ushbu qism masalalari shunday shakllantirilishi kerakki, bunda avvalambor mashg'ulotga ega bo'lgan, daromad keltiruvchi, mustaqil daromad ko'rish manbalariga ega bo'lgan va boshqa shaxslarning, davlatning yoki jamoat tashkilotlarining qaramog'ida bo'lgan odamlar guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'lsin.

So'ngra ish bilan band bo'lganlarni iqtisodiyot tarmoqlari yoki ijtimoiy faoliyatning u yoki bu tarmog'iga taalluqligini ob'yektiv mashg'ulotlar bo'yicha ajratish zarur. Oddiygina qilib bunga ish joyi haqidagi savolni qo'yish yo'li bilan erishiladi. Ishlab chiqish jarayonida bandlar tarmoqlar bo'yicha korxonalar yoki muassasaning tavsifi asosida guruhlanadi. Bunda mustaqil ish joyi nima ekanligi haqida aniq ko'rsatmalar kiritilishi kerak. Ularsiz, masalan, zavodning bolalar bog'chasida ishlaydigan ishchilar ma'lum bir hollarda ushbu sanoat tarmog'i ishchilari tarkibida bo'lib qolishi (agar ishchilar o'z ish joyini zavod deb aytadigan bo'lsa), boshqa holda esa maorif ishchilari tarkibida bo'lib qolishi mumkin (agar ular o'zlarini bog'chani ishchilari, deb hisoblaydigan bo'lsa).

Shuningdek, shaxsiy funktsiyalar tavsifini ham aniqlab olish kerak, chunki ular ish joyi bo'yicha aniqlanmaydi: masalan slesar sanoatning istalgan tarmog'ida, qishloq xo'jaligida, uy xo'jaligida va h.k.larda band bo'lishi mumkin.

1989 yildagi ro'yxatdan o'tkazishda ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflar quyidagi to'rt savol bilan aniqlangan:

1. Mavjud mablag' manbalariga ko'ra, ya'ni bu savolga so'ralayotgan shaxsdan korxonalar yoki muassasada, tomorqa xo'jaligida ishlashini ko'rsatishi yoki pensiya, nafaqa, stipendiya oladimi (davlat qaramog'ida) yoki xususiy shaxs qaramog'ida ekanligini ko'rsatishi talab qilingan.

2. Ish joyi (korxonalar, tashkilot, muassasalar yoki xo'jalik nomi);

3. Ish joyi bo'yicha mashg'uloti, bunda lavozimi yoki bajaradigan mashg'uloti ko'rsatilgan;

4. Ijtimoiy guruhi, bu yerda quyidagi guruhlar ajratilgan: ishchi, xizmatchi, hunarmand, yakka tartibdagi dehqon, madaniyat xodimi va h.k.

Ko'pincha dasturning ko'rib chiqilayotgan qismida aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada aniqroq tavsiflash imkonini beruvchi savollar nazarda tutilgan, masalan, ikkinchi (yordamchi) mashg'uloti yoki avvalgi mashg'uloti (nogironlar va nafaqaxo'rlar uchun). Oxirgi vaqtlarda ro'yxatga olishda daromad miqdori haqida ham ma'lumotlar olishga bo'lgan harakatlar uchrab turibdi.

**4. Ta'lim va savodxonlik.** «Ta'lim» va «savodxonlik» tushunchasiga kiritiladigan ushbu savollarning ro'yxatga olish dasturiga kiritilishi, uning shakllantirilishi va mazmuni ko'p jihatdan aholining umumiy madaniy darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ro'yxatga olishda savodxonlikni o'rganish uchun nafaqat o'qiy olishlik, balki yoza olishlik haqida ham savol qo'yiladi. Birinchi talqin 1897 yildagi ro'yxatga olishda qo'llanilgan. 1926 yildagi ro'yxatga olishda ro'yxatga olinuvchi savodxonlik til bilishlik bilan birgalikda, o'qish va yozishni ham bilishi aniqlangan. Amaliy jihatdan savodsizlikni yo'q qilinishi bilan bog'liq holda 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillardagi ro'yxatga olishlarda savodxonlik xususidagi maxsus savol qo'yilmagan, u ta'lim xususidagi savolda inobatga olingan.

Barcha ro'yxatga olishlarda biron-bir tilda o'qiy olishligi savodlilik alomati hisoblangan, shuning uchun olingan materiallar qiyoslanishi mumkin edi - o'qiy olishligi ta'rifi deyarli o'zgarishlarga uchramadi. 1926 yilda esa hech bo'lmaganda bosma so'zlarni bo'g'inlab o'qiy olishligining o'zi yetarli bo'lgan; 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda o'qiy olishlik talab qilingan, 1989 yildagi savodxonlik to'g'risidagi savol faqatgina 7 yosh va undan kattalarga berilgan.

1926 yildagi ro'yxatga olish dasturida ta'lim xususidagi savol mavjud bo'lmagan, keyingi ikkitasida esa so'ralayotgan shaxsdan o'ra yoki oliy maktabni tugatganmi yoki yo'qligi to'g'risida so'ralgan. 1959, 1970, 1979 va 1989 yillardagi ro'yxatga olishlarda ta'limning kengaytirilgan tavsifi olingan bo'lib, unga ko'ra olingan ta'lim darajasini aniq ko'rsatishi talab etilgan.

Aholining ta'limi va savodxonligi tavsifini o'quv muassasiga borganligi to'g'risidagi savol yakunlangan. Birinchi marotaba u 1939 yildagi ro'yxatga olish dasturiga kiritilgan va boshqasi bilan birga berilgan: «Nechanchi sinfda yoki nechanchi kursda o'qiydigan?» 1959 yildagi ro'yxatga olishda o'quvchilarga muassasaning aniq nomi haqida savol kiritilgan bo'lib, 1970, 1979 va 1989 yillarda shaxs o'qiydigan muassasaning turi aniqlangan. Shu bilan birga, ro'yxatga olish dasturlari necha yil ta'lim olganligi to'g'risidagi savolni ham o'z ichiga olgan.

**5. Etnik tavsiflar.** Ushbu guruhga aholining milliy tarkibini aniqlashga yo'naltirilgan savollar kiradi. Bu, ayniqsa, ko'p millatli mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega, ular qatoriga O'zbekiston Respublikasi ham kiradi.

Aholining milliy tarkibini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan savollar O'zbekistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olishlarda asta-sekinlik bilan o'z aksini topgan. Millat (1926 yilda - xalq) bizning barcha ro'yxatga olishlarimizda hisobga olingan.

Etnik mansublik to'g'risidagi savollar ayrim shaxslar uchun shu bilan murakkablashadiki, bunda uning ta'rifini berish uchun faqatgina ma'lum bir «ob'yektiv alomatlar» yetarli bo'lmay qoladi. Frantsiyada yashaydigan va ishlaydigan italyan frantsuz millati bilan iqtisodiy va hududiy jihatdan bog'liq bo'lishga qaramay ko'pincha birdaniga frantsuz bo'lib qolmaydi, vaholanki, uning etnik mansubligi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Shuning uchun u yoki bu millatga mansublik xususidagi mezonlar barcha ro'yxatdan o'tkazishlarda so'raluvchining o'zini anglashiga qaratilgan, ya'ni so'raluvchi o'zi ko'rsatgan millat turi yozib qo'yilgan. Bolalarning millatini ota-onalari ko'rsatishgan. Turli millatga mansub bo'lgan ota-onalar bolalarining millatini aniqlashda qiynalgan, shartli ravishda onasining millatiga ustuvorlik berilgan. 1926 yildagi ro'yxatga olish ko'rsatmalarida fuqarolikni millat bilan aralashtirmaslik haqida maxsus ogohlantirilgan.

Til millatning asosiy alomatlaridan biri bo'lganligi uchun ona tili haqidagi savolning qo'yilishi aholining milliy tarkibini tasavvur qilishga yordam bergan. Bu yerda ushbu tushunchaga aniq ta'rif berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili va so'zlashuv tili farqlanadi. Odatda, so'raluvchi ona tilini so'zlashuv tili bilan aralashtirib yuborishidan qochish uchun undan bolaligidan gaplashadigan tili haqida alohida ta'kidlangan va h.k. Aholining katta qismi uchun so'zlashuv tili ona tili bilan mos tushadi. Biroq, bundan tashqari holatlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, 1961 yildagi yugoslav ro'yxatga olishi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, sloveniyalikka turmushga chiqqan xorvat ayoli o'z ona tilini erining uyida sloveniya tilida so'zlashadigan bo'lsa ham serb-xorvat deb ko'rsatishi talab qilingan.

So'zlashuv tili haqidagi savol u yoki bu tilning qiyosiy tarqalganligini o'rganishda, etnik assimilyatsiya va boshqa bir qator amaliy maqsadlarni o'rganishda mustaqil ahamiyatga ega. Shuning uchun ko'p tilli mamlakatlarda ro'yxatga olishda ko'pincha ikkinchi tilni bilishi haqidagi savol qo'yiladi.

O'zbekistonda o'tkazilgan barcha ro'yxatga olishlarda millat bilan birga ona tili haqidagi savol ham inobatga olingan. Biroq, uning aniqlashtirilishi har doim ham bir xil bo'lavermagan. 1926 yildagi ro'yxatga olishda so'raluvchi eng yaxshi egallagan yoki u gaplashadigan til hisoblangan. Oxirgi beshta ro'yxatga olishlarda so'raluvchi o'zi ona tili deb hisoblaydigan til ona tili deb hisoblangan. 1959 yildagi ro'yxatga olish ko'rsatmasida agar so'ralayotgan shaxs ona tilini aniqlashi qiyin bo'lgan vaqtda u eng yaxshi egallagan yoki odatda oilada ishlatadigan tilni yozib qo'yilishi haqida ko'rsatma berilgan. 1970, 1979 va 1989 yillardagi ro'yxatga olishlarda so'raluvchi erkin gaplasha oladigan boshqa tili ham ko'rsatilgan. Ona tili millati bilan mos tushmasligi ham mumkin. Shunday qilib, amaliyotda «ona tili» tushunchasi, odatda bizda so'zlashuv tili tushunchasi bilan mos tushadi.

Savollarning ushbu guruhiga diniy mansublik haqidagi savol ham kiritilgan. Biroq, din ona tiliga nisbatan etnik mansublikni aniqlash imkonini bermaydi. 1960-yillardagi dinga mansublik haqidagi savollar mamlakatning katta qismi uchun inobatga olingan bo'lsa, millat va til xususidagi savollarsiz ular juda kam hollarda qo'llanilgan. Aytish joizki, din to'g'risidagi savol 1897 va 1937 yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish dasturlariga kiritilgan.

**6. Aholining takror barpo bo'lishi.** Oxirgi yillardagi ro'yxatga olishlarda aholining takror barpo bo'lishini o'rganishga taalluqli bo'lgan savollar ham keng yoyilib bormoqda. Ushbu savollar nikohga kirish sanasi haqidagi shaklda bo'lib ko'pincha birinchi nikoh to'g'risidagi sanani ajratib ko'rsatish, shu jumladan, uni tugatilishi sanasi (agar u ro'yxatlangan bo'lsa) haqidagi savollar ham kiritilib, ulardan nikoh davomiyligini hisoblash va nikohlilikning turli xil ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan.

Ushbu savollar qatoriga ayol tomonidan dunyoga keltirilgan farzandlar sonini ko'rsatish yoki tirik tug'ilgan bolalar haqidagi savollarni kiritish mumkin. Bu savollar ko'pgina mamlakatlarning ro'yxatga olish dasturlariga kiritilgan. Ushbu savollar bo'yicha javoblardan tug'ilishni va uning istiqboldagi o'zgarishini o'rganish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olish mumkin. Ayollarni ular tuqqan bolalar soni yoki ularda mavjud bo'lgan farzandlar bo'yicha taqsimlanishi bolalar uchun nafaqalarni to'lashni rejalashtirish va boshqa ijtimoiy masalalarni hal qilishda juda muhimdir. 1979 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish dasturida birinchi marta ayollar uchun ular tomonidan tuqqan bolalar to'g'risida savol qo'yilgan edi.

**7. Migratsiya.** Dasturning ushbu qismiga hozirgi va oldingi turar-joyidagi yashash davomiyligi, qochoqlar yoki ko'chirilgan shaxslar, qandaydir voqelar bilan bog'liq holda ko'chganlarning tarkibini o'rganish bilan bog'liq savollar kiritilgan. Shu bilan birga, ro'yxatga olish dasturlariga urushda yoki harbiy xizmatda qatnashganlik, jismoniy va ruhiy nuqsonlar haqidagi savollar ham kiritilgan.

Aholini ro'yxatga olish dasturlarida yashash sharoitlari xususidagi savollar alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha yashash joyini ro'yxatga olish aholini ro'yxatga olish bilan birgalikda mustaqil olib boriladi. Bizning mamlakatimizdagi ro'yxatga olishlarda yashash sharoitlari faqat 1926 yildagi ro'yxatga olishda hisobga olingan va muzkur aholi ro'yxatida yashash sharoitlari haqidagi ma'lumotlar maxsus oila xaritasiga yozilgan.

Shunday qilib, aholi ro'yxati dasturiga kiritilgan o'ziga xos jihatlar shundan iboratki, unda kuzatuv birligi sifatida oila emas, balki uy xo'jaligi olinib, bu holat aholini ro'yxatga olish natijalarini boshqa mamlakatlarda olingan natijalar bilan taqqoslash imkonini beradi. Shu bilan birga, aholi haqidagi ma'lumotlarni jamlashning o'zi kifoya qilmaydi, balki to'plangan axborotni ishlab chiqish, olingan ma'lumotlarni jadvallarga guruhlash lozim. Shu bois, aholi ro'yxati axborot yig'ish bilan cheklanmaydi. Aholi ro'yxati materiallarini ishlab chiqish dasturi turli savollarga doir ko'plab jadvallarni tuzishni nazarda tutadi. Ushbu jadvallarning katta qismi

keyinchalik mamlakat va uning alohida hududlari bo'yicha tuzilib, nashr etiladi.

#### **2.4. Demografik jarayonlarni joriy statistik qayd etish tartibi**

Aholi tabiiy harakatining qayd etilishi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishga asoslanadi. Aholining tabiiy harakati, uning takror barpo bo'lishi bevosita (tug'ilish, o'lim) va bilvosita (nikoh, ajralish) ta'sir etuvchi demografik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tabiiy harakat haqidagi axborot asosida mamlakat aholisining soni, tabiiy harakatining nisbiy ko'rsatkichlari hisoblanib, ular asosida aholi soni va tarkibining istiqboldagi prognozi amalga oshiriladi.

Demografik jarayonlarning muntazam statistik qayd etilishi aksariyat Yevropa mamlakatlarida XVIII asr oxirlarida tashkil etilgan. Rossiyada 1702-yili Petr I farmoniga ko'ra, Moskva shahrida pravoslav aholisida o'lganlarga janoza o'qilishi majburiy o'tkazilgan, 1722-yildan esa cho'qintirish, janoza o'qish va nikohlash marosimlarini qayd etish kitoblari amal qila boshlagan. 1913-yildan shaharlarda o'lim sabablarini shifokorlar tomonidan majburiy qayd etish joriy qilinib, uning asosida o'lim sababi haqidagi qayd etish kitoblariga ma'lumotlar yozilgan. 1917-yili dekabrda fuqarolik nikohi, farzandlar, fuqarolik holatlarini qayd etish kitoblarini yuritish to'g'risida Dekret qabul qilingan. Unga ko'ra, barcha joylarda tug'ilgan, o'lgan, nikohlanganlarni qayd etuvchi bo'linmalar tashkil etilgan. 1940-yillar boshida tabiiy harakatni qayd etish ishlari butun mamlakat hududiga tarqalib, 1948-yildan boshlab qaydlarning to'liqligi muntazam tekshirila boshlangan<sup>1</sup>.

Demografik jarayonlarni qayd etish, birinchi navbatda, ma'lum hodisaning huquqiy oqibatlarini bilan bog'liq. Shu bois, u mamlakatning barcha aholisi uchun majburiy hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Демография: Учебник для вузов / Под ред. Н.А.Волгина, Л.Л.Рыбаковского. — М.: Лагос, 2005. — С.43.



Demografik jarayonlarni qayd etish muddatlari va tartibi har bir mamlakatning tegishli qonunlarida belgilanadi.

**Tug‘ilishni qayd etish** bolaning tug‘ilganligi haqidagi tibbiy ma’lumotnoma, ota-onaning oilaviy holati va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. O‘lik tug‘ilgan bolalar uch sutkadan kech bo‘lmagan muddatda qayd etiladi. Tirik tug‘ilish holati Butunjahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyalaridan foydalangan holda qayd etilib, unda homiladorlik davomiyligidan qat’iy nazar homilani ona organizmidan to‘liq chiqarib olinishi, bundan keyin go‘dakning nafas olishi yoki hayotning boshqa belgilarini namoyon etishi: yurak urishi, kindikning pulsga ko‘ra tebranishi, mushaklarning xolis harakati nazarda tutiladi. Bunday tug‘ilishning har bir mahsuli tirik tug‘ilgan bola sifatida qabul qilinadi. O‘lik tug‘ilish — bu homiladorlik muddatidan qat’iy nazar ona organizmidan homilani to‘liq chiqarib olish, unda nafas olish yoki hayotning boshqa belgilarining yo‘qligidir.

**O‘limni qayd etish** marhumning yashash joyi yoki o‘lim sodir bo‘lgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqaroni vafot etgan deb e‘lon qilish haqidagi sudning hal qiluv qaroriga asosan o‘limni qayd etish mazkur qarorni chiqargan sud joylashgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Hayotining birinchi haftasi davomida o‘lgan bolalarning tug‘ilganligi va o‘limi tibbiy muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida qayd etiladi. O‘limni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd etmasdan marhumni dafn etish taqiqlanadi.

O‘limni qayd etish uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga o‘lim haqida tibbiy ma’lumotnoma yoki sudning fuqaroni vafot etgan deb e‘lon qilish haqidagi hal qiluv qarori, shuningdek, marhumning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

**Nikohni qayd etish** nikohlanuvchi shaxslarning birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Nikohlanuvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga nikoh qayd etilishidan bir oy ilgari

nikohga kirish to'g'risida ariza beradilar. Nikohga kirishni xohlovchilar ariza berish chog'ida o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni, ilgari nikohda bo'lgan shaxslar esa avvalgi nikoh tugatilganligi haqida hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

**Ajralishni qayd etish** ham fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari orqali amalga oshiriladi. Er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda nikohdan ajralishda ariza beruvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga bergan arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolalari va mulkiy nizolari yo'qligini tasdiqlashlari shart.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarni (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish) joriy qayd etish fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari orqali amalga oshiriladi.

## **2.5. Tanlama tadqiqotlar va aholi registrlari**

Tanlama tadqiqotlar hayotning deyarli barcha sohalariga doir ma'lumotlarni to'plashda foydalaniladi. Aholi haqidagi axborotni yig'ish tizimida tanlama tadqiqotlar batafsil ma'lumotlarni qo'lga kiritish maqsadida olib borilib, ular aholi ro'yxati yoki joriy qayd etishdan jamlangan axborotga nisbatan to'la va aniq bo'ladi. Asosiy axborot manbalaridan farqli ravishda ushbu tadqiqotlar aholining muayyan guruhiga tegishli ma'lumot olishga imkon yaratadi.

Tanlama tadqiqotlar aholi ro'yxatlarini tayyorlash va o'tkazilishida aholida o'rm tutadi. Buning uchun umumiy aholi ro'yxati dasturi bo'yicha o'tkaziladigan mikroro'yxatlar olib boriladi. Biroq, mamlakatning barcha aholisi emas, balki uning bir qismigina so'rovda qatnashadi. Mikroro'yxat so'nggi aholi ro'yxati o'tkazilganidan keyingi davrda aholi tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Lekin, uning asosiy vazifasi rejalashtirilayotgan aholi ro'yxati dasturini sinab ko'rishdan iborat.

Umumiy aholi ro'yxati o'tkazilayotgan davrda ham bevosita tanlama tadqiqot o'tkazilishi mumkin, uning yordamida ayni vaqtda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik taraqqiyotida ahamiyatli bo'lgan hodisalar batafsil o'rganiladi. Masalan, 1970 va 1979 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida tanlama usul mehnat yoshidagi aholi tarkibini aniqlashda qo'llanilgan.

Tanlama tadqiqotlar ikki usulda olib boriladi va ularning har biri muayyan afzallik hamda kamchiliklarga ega. Retrospektiv (anamnestik) va perspektiv tanlama tadqiqotlar mavjud. Agar so'ralayotganlarga ularning o'tmishida bo'lib o'tgan voqealar xususida savollar berilsa, bunday axborot to'plash usuli «**retrospektiv**» deb ataladi. Biroq, muayyan aholi guruhi ichida butun umr yoki uning bir qismi davomida yashab, unda bo'layotgan hodisalarni ro'y berishi bilanoq qayd etib borish ham mumkin. Bunday axborot yig'ish usuli «**perspektiv**» deb nomlanadi va u individlarning istiqboliga qaratilgan bo'ladi. .

Retrospektiv tadqiqotlardan tug'ilish yoki nikohlilikni, ya'ni ular natijasida individlar kogortni tark etmaydigan jarayonlarni tahlil qilishda foydalanish, ayniqsa samaralidir. Vatanimiz tarixida bu usulni ko'pchilik hollarda **anamnestik** deb ataydilar. Mazkur uslub tug'ilishni tadqiq etishda keng qo'llanilgan. Masalan, reproduktiv yoshdan chiqqan ayollarga ularning reproduktiv tarixi haqida savollar berish mumkin (tirik tug'ilgan farzandlar, tug'ilishlar orasidagi intervallar, kontratseptik vositalardan foydalanganlari haqida va h.k.). Anamnestik tadqiqotlar real avlodlarda o'tmishda kechgan demografik jarayonlar to'g'risida ma'lumotlar berib, kogort a'zolarining yoshi bilan bog'liq hodisalar ketma-ketligini kuzatish imkonini beradi.

Ushbu axborot to'plash usulida qo'lga kiritiladigan natijalardagi noaniqliklarni ham e'tiborga olish lozim, masalan:

- agar insonlarga ancha oldin bo'lib o'tgan hodisalar to'g'risida savol berilsa, voqealarning bir qismi yoddan chiqarilib javob noto'liq bo'lishi mumkin, chunki so'ralayotganlar sanalar aniq eslamasligi ehtimoldan xoli emas;
- so'ralayotganlar hodisalarni vaqt bo'yicha bir maromda taqsimlamasliklari va hayotlaridagi voqealarni mamlakat, hudud

hayotdagi ijtimoiy ahamiyatga molik hodisalar bilan bog'lashlari mumkin:

- so'zlanayotganlar voqealar orasidagi bog'lanishlarni o'zlariga qat'iy shaklda o'zgartirishlari mumkin. Masalan, nikohgacha tug'ilgan farzandni nikohda tug'ilgan farzand deb, uning tug'ilgan va tug'ulishi qayd etilgan sanalarning o'rnilarini almashtirib ko'rsatishlari mumkin. Vaqt mobaynida hodisalarga beriladigan ijtimoiy baholar ham o'zgaradi. Masalan, yoshlarning aksariyati katta avlodga qaraganda (qayd etilmagan) nikohni oddiy hol, deb hisoblaydilar. Shu sababdan nikoh tarixi o'rganilayotganda yoshlar katta avlod vakillariga nisbatan ko'proq hayotlaridagi norasmiy nikoh mavjudligi haqida so'z yuritadilar. Bu kabi xatolarni qisman demografik hodisalarni joriy qayd etish yoki aholi registrleri ma'lumotlari yordamida tekshirish mumkin;

- so'zlanayotgan aholi guruhi tarkibi bilan bog'liq alohida xatolar ham mavjud. Masalan, ma'lumot to'plashning retrospektiv usulidan foydalanishning kuzatuvdan chiqarilishi bilan bog'liq hodisalarni tadqiq etishda foydalanib bo'lmaydi, chunki o'lgan odamlardan ularning o'lim sababi va hayoti davomidagi salomatligi holati to'g'risida so'zlashning imkoniyati yo'q.

Prospektiv (istiqbolli) tanlama tadqiqot olib borilishida kogort hayotdagi hodisalar ular yuz berib borishi mobaynida qayd etiladi. Albatta, bunday usulda muayyan bir avlod o'limini o'rganish qiyin, shuning uchun u bilan birga butun hayotini birga kuzatib o'tish kerak bo'ladi. Ayni vaqtda mazkur usul yordamida holatlar yoki g'azablar o'limi, kasallanish va sog'ayish to'g'risida ma'lumotlar tug'ish qiyin. Agar kogort hayotidagi o'rganilayotgan hodisalar usul bo'yicha jamlanган bo'lsa, ushbu axborot yig'ish usulidan samarali foydalanish mumkin. Masalan, hozirgi davrda Yevropa mamlakatlarida farzand ko'rish davri juda qisqa. Shu sababdan tug'ilgan farzandni real avlodlarni kuzatish orqali o'rganish mumkin va bunga 15-20 yil kerak bo'ladi. Bunday yondashuv yordamida g'azablar o'limini yangi tug'ilgan chaqaloqlar hayotining birinchi yilini kuzatib o'rganish mumkin. Shunga qaramasdan, mazkur usulda olingan ma'lumotlardan foydalanilganda bir qancha kamchiliklarni nazarda tutmoq lozim, xususan:

- individlarning ma'lum qismi turli sabablarga ko'ra kuzatuv jarayonidan chiqib ketishi mumkin (o'lim, emigratsiya tufayli), shuning uchun tanlamani ancha katta miqdorda olish zarur, bu esa ma'lumot to'plash jarayoni qadrinini oshiradi, shuningdek, kam uchraydigan hodisalarni o'rganish uchun dastlabki tanlama doirasi keng bo'lishi talab qilinadi;

- individlarni kuzatuv doirasidan chiqaruvchi jarayon tadqiq etilsa, u holda individlar kuzatuv doirasidan o'rganilayotgan jarayon bilan bog'liq bo'lmagan holda chiqib ketishlari mumkinligini e'tiborga olish lozim. Masalan, agar biz miokard infarkti tufayli yuz bergan o'limni o'rganmoqchi bo'lsak, tanlamadagilarning ma'lum qismi baxtsiz hodisalardan o'lganiga guvoh bo'lamiz.

Tanlama tadqiqotlar butun mamlakat doirasida (mikroro'y-xatlar) yoki nisbatan katta bo'lmagan aholi guruhlarida olib borilishi mumkin. Ayni vaqtda ko'pchilik mamlakatlarda yagona dastur bo'yicha olib boriladigan tanlama tadqiqotlar ham keng tarqalgan, masalan, umumjahon tug'ilishni yoki salomatlikni demografik tadqiq etish. Odatda, bunday tadqiqotlar har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan umumiy dastur bo'yicha olib boriladi va jahon mamlakatlariga oid taqqoslovchi ma'lumotlarni olish uchun tahlil qilinadi.

Salomatlikni demografik o'rganish — bu milliy doirada ishonchli bo'lgan tanlama tadqiqotdir. Odatda, bu mavzuda tadqiqot o'tkazishda mamlakat hududi bo'yicha 5000-30000 uy xo'jaliklari so'rovda ishtirok etadi. Tanlama tadqiqot dasturi uy xo'jaligining har bir a'zosiga (doimiy yoki vaqtinchalik) yo'naltirilgan bo'lib, shaxsning jinsi, yoshi, uy xo'jaligi boshlig'iga munosabati, ma'lumot darajasi, doimiy yashash joyi, qarindoshlik aloqalari; har bir a'zo uchun — ichimlik suvi manbai, maishiy qulayliklarning mavjudligi, ovqat tayyorlash sharoitlari, shuningdek, budjet, oziq-ovqat iste'moli sifatini bilish uchun 15-49 yoshdagi ayollar hamda bolalar vazni o'lchanadi, anemiyani aniqlash maqsadida ularda qondagi gemogloblin miqdori tekshiriladi.

Ayollar savolnomasida quyidagilar mavjud bo'ladi:

- umumiy tavsiflar (yoshi, jinsi, nikoh holati, ma'lumoti, bandligi, yashash joyi) — demografik mayl yoki salomatlik jihatidagi maylini aniqlash uchun qo'llaniladi;

- reproduktiv mayl va rejaları (tugʻilgan farzandlar soni, ular-  
dan nechtasi tirik, tirik chaqaloq tugʻilishi bilan yakunlanmagan  
homilalar soni, istiqboldagi reproduktiv maylga doir rejalar);
- kontrasepsiyadan foydalanishi (kontrasepsiya usullaridan  
xabardorligi, kontraseptivlarni olish manbalari, oilani rejalash-  
tirishga oid axborotdan xabardor boʻlishi, kelajakda kontraseptiv  
vositalarni qoʻllash rejaları);
- tugʻishgacha va tugʻishdan keyingi davrlarda koʻrsatilgan  
parvarish, tugʻish jarayoni, goʻdak vazni, homiladorlik asoratlari,  
toʻkrak suti bilan goʻdakni boqishi (qancha vaqt davomida, yana  
qanday ozuqa beriladi), farzandlar salomatligi (vaktsinatsiya,  
kasallanish, bolalar kasalliklarini davolash), ayollarning egallagan  
maqomi (bandligi, ayolga nisbatan boʻlgan har qanday qattiqqoʻllik),  
OITS va jinsiy aloqada oʻtadigan boshqa kasalliklar (OITS haqida  
axborotga ega boʻlish manbalari, profilaktika choralari, yuqumli  
kasallikka duchor boʻlish xavfi boʻlgan jinsiy mayl), turmush oʻrtogʻi  
toʻgʻrisida axborot, atrof-muhit, tamaki isteʼmol qilish).

Ushbu savollarga berilgan javoblarning tahlili mamlakatlar boʻyicha ayollarning reproduktiv mayli, bolalar salomatligi va oʻlimi, jinsiy aloqada yuqadigan kasalliklar profilaktikasi (oldini olish), oilani rejalashtirish amaliyoti boʻyicha taqqoslama materiallarni beradi.

Demografik maqsadlarda olib boriladigan tanlama tadqiqotlar bilan birga nodemografik tanlama tadqiqotlar ham uchraydi. Masalan, budjet tadqiqotlarida uy xoʻjaliklari tarkibi va aholi migratsiyasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar mavjud.

Endi aholi registrlari toʻgʻrisida batafsil toʻxtalib oʻtamiz.

**Aholi registrlari** — bu muayyan hududda muntazam yashovchi har bir shaxs yoki uy xoʻjaligi haqida axborotga ega boʻlgan kartotekadir. Aholi registrida har bir insonning asosiy ijtimoiy-demografik tavsiflari toʻgʻrisida maʼlumotlar jamlanadi, yaʼni jinsi, yoshi, nikoh holati, tugʻilgan va yashash joyi. Shuningdek, registrga maʼlumoti, ish joyi, farzandlari va hokozolar toʻgʻrisidagi axborot ham kiritilishi mumkin. Registr asosini tashkil etuvchi asosiy tamoyil — bu undagi axborotni muntazam ravishda va oʻz vaqtida yangilab turishdir.

Dastlabki aholi registri 1749 yili Shvetsiyada paydo bo'lgan. Hozirgi vaqtga kelib, bir qator Yevropa mamlakatlarida milliy registrlar mavjud (Belgiya, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Niderlandiya, Portugaliya, Ispaniya). Buyuk Britaniya va Fransiya registrlarida aniq yashash joyi qayd etilmagan. Bir qator mamlakatlarda faqatgina hududiy registrlar tuzilgan. Sobiq Ittifoqdagi ba'zi hududlarda registr yaratishga urinib ko'rilgan bo'lsada, bu tadbirlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan, chunki axborotlar deyarli yangilanmagan.

Aynan demografik registrdan tashqari aholi ro'yxatlariga yaqin bo'lgan maxsus registrlar ham tuzilishi mumkin: turar-joy registri; pensiya badallarini to'lovchi band bo'lgan aholi registri; tibbiy sug'urta tizimi registri. Ushbu qisman axborot tashuvchi barcha registrlar ham muntazam yangilanib turadi va demografik axborotga ega bo'lishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qiladi. Yevropaning bir qator mamlakatlarida onkologik hamda yurak-qon tomir tizimi kasalliklariga chalingan bemorlar registrari ham mavjud.

Aholi registri olib boriladigan mamlakatlarda uning ma'lumotlaridan keng foydalaniladi, chunki shu yo'l bilan har qanday vaqt uchun ham yirik hududiy bo'linmalar, ham alohida guruh aholining soni va tarkibiga doir aniq ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin. Shu tariqa muayyan hudud aholisining istiqboldagi taraqqiyotini belgilash ishlari ancha oson kechadi. Registrlar turli tadqiqotlarni olib borishda, tanlamani aniqlashda yordam beradi. Xususan, Daniya va Niderlandiyada so'nggi 20 yil davomida aholi ro'yxatlari klassik aholini ro'yxatga olish uslubida emas, balki aholi registrlariga asoslanib olib boriladi. Ayni vaqtda registr yordamida jamlangan axborot sifati qayd etishning aniqligi va to'liqligi, har bir shaxs va uy xo'jaligiga doir ma'lumotlarning o'z vaqtida yangilanib turishiga bog'liq.

Shunday qilib, aholi ro'yxatlari muayyan vaqtdagi aholi soni hamda tarkibi haqida statik tasavvurlar hosil qilish; aholini joriy qayd etish esa vaqt mobaynida aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlarni, ya'ni uning dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Tanlama tadqiqotlar demografik jarayonlarning o'tmishdagi

kechishi yoki hozirgi dinamikasi xususidagi ma'lumotlarni taqdim etsa, aholi registrlari har bir insonning asosiy ijtimoiy-demografik xususiyatlarini jamlashga yordam beradi.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Demografik ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi to'g'risida axborot beruvchi manbalarni sanab bering.
3. «Aholi ro'yxati» tushunchasiga ta'rif bering.
4. Dastlabki aholi ro'yxati qachon va qayerda o'tkazilgan?
5. Aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalarini aytib bering.
6. Aholini ro'yxatga olishda qanday usullardan foydalaniladi?
7. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarni joriy qayd etish qaysi organ orqali amalga oshiriladi?
8. Tug'ilish va o'lim jarayonlarini qayd etish tartibini tushuntirib bering.
9. Tanlama tadqiqotlar deganda nimani tushunasiz?
10. Tanlama tadqiqotlar qanday maqsadlarda o'tkaziladi?
11. «Aholi registri» tushunchasiga ta'rif bering.
12. Aholi registrining qanday turlarini bilasiz?



---

### **3-bob. AHOLINING SON VA SIFAT XUSUSIYATLARI**

#### **3.1. Aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlari**

Aholi soni muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiy soni hisoblanib, u eng keng tarqalgan umumiy miqdoriy-demografik tavsiflardan biridir. Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida muntazam o'zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o'zgaradi. Shuning uchun demografik tahlilda aholi soni vaqt funksiyasi sifatida qaraladi. U ma'lum bir vaqt aholini ro'yxatdan o'tkazish vaqti uchun, yil boshi, yil oxiri yoki yil o'rtasidagi holati bo'yicha o'lchanadi va baholanadi. Ushbu vaqtning belgilanishi, ayniqcha, yirik mamlakatlar yoki hududlar uchun juda zarur, bunda yil boshidagi va yil o'rtasidagi aholi sonidagi farq 100 mingni tashkil qilsa, yirik mamlakatlar uchun esa millionlarni tashkil qiladi.

Hozirgi kunda aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazish, ro'yxatdan o'tkazishlar o'rtasidagi davr uchun esa tug'ilish, o'lim, migratsiyani hisoblash asosida olinadi. Ayrim mamlakatlar va hududlar, jumladan, o'tgan davrlar uchun aholi soni turli manbalar: arxiv materiallari, tarixiy demografik va paleodemografik manbalar asosida aniqlanadi. Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarning aniqligi aholini hisobga olishning to'liqligiga bog'liq, shuning uchun avvallari ularning aniqligi past bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda esa doimiy ravishda aholini ro'yxatdan o'tkazish va aholini joriy hisobga olinish yo'lga qo'yilganligi sababli ozmi-ko'pmi aniqlanadi.

Ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning qiyinligi ma'lum bir vaqtda olingan aholi sonining faktik miqdori, odatda, ma'lum bir sustkashlik bilan aniqlanishiga olib keladi. Shuning uchun aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'pincha oxirgi yillar uchun aholi soni o'sish

sur'atlari tendentsiyalarini ekstropolyatsiyasiga asoslangan qisqa muddatli prognoz qilish yo'li orqali olinadigan baholar sifatida namoyon bo'ladi.

Aholi soni dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarning tahlili uchun tarkibiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi, masalan, ayrim hududlarda yashayotgan aholi soni va ulushini solishtirish. Bunda guruhlash va indekslar qo'llaniladi: o'sish va o'sish sur'atlari, teng bo'lmagan vaqt oraliqlari uchun esa o'sish va o'sish sur'atining o'rtacha yillik sur'atlari olinadi.

U yoki bu vaqt uchun aholi sonining o'zgarishi, birinchidan, aholining «tabiiy o'sish sur'ati» deb nomlanuvchi tug'ilganlar va o'lganlar miqdorining farqlari bilan; ikkinchidan, agar so'z mamlakat yoki aholi manzilgohi haqida ketadigan bo'lsa, ularning soni aholi migratsiyasi (keluvchilar va ketuvchilar nisbati) bilan aniqlanadi. Immigratsiya va emigratsiya o'rtasidagi farq aholining «migratsion o'sishi» deb nomlanadi.

Aholi sonini o'rganishda quyidagilarni hisobga olish lozim:

- har bir keyingi davr uchun aholining mutlaq soni, uning avvalgi davr miqdoriga to'la bog'liqligi bilan ifodalanadi;
- vaqt ichidagi aholining rivojlanish jarayoni nafaqat aholining miqdoriy o'zgarishiga, balki aholi tarkibining sifatiga ham bog'liq bo'ladi.

Muayyan bir davr uchun aholi sonida ( $S$ ) sodir bo'lgan o'zgarishlar haqida dinamik qatorlar:  $S_0, S_1, S_2, \dots, S_n$  dan bilib olish mumkin.

Aholi soni dinamikasini o'rganishda, odatda, quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1) Aholi sonining mutlaq o'sish sur'ati:

$$S = S_1 - S_0 \quad (3.1)$$

2) Aholi sonining nisbiy o'sish sur'ati ( $K_\Delta$ ) promilleda o'lchanadi. **Promille** — ko'rilayotgan kattalikning mingdan bir ulushidir.

$$K_\Delta = \frac{\Delta S \times 1000}{S},$$
$$K_\Delta = \frac{(N - M) \times 1000}{S}, \quad (3.2)$$

bu yerda:  $\bar{S}$  — aholining o‘rtacha yillik soni, u davr boshi va oxiriga aholi sonining yarim miqdori sifatida hisoblanadi;  $N$  — tug‘ilganlar soni;  $M$  — o‘lganlar soni.

3) Aholi sonining o‘shish sur‘ati:

$$T_p = \frac{S_1}{S_0} \cdot 100 \quad (3.3)$$

4) Aholi sonining o‘rtacha o‘shish sur‘ati ( $\bar{T}_p$ ):

$$\bar{T}_p = n \cdot \sqrt{\frac{S_n}{S_0}}, \quad (3.4)$$

bu yerda:  $n$  — dinamik qator tarkibining soni yoki  $S_n$  va  $S_0$  oralig‘idagi yillar soni.

5) Aholi o‘shish sur‘atining o‘rtacha sur‘ati ( $\bar{T}_p$ ):

$$\bar{T}_{np} = \bar{T}_p - 100 \quad (3.5)$$

bu yerda: ( $\bar{T}_p$ ) — davr uchun o‘shishning o‘rtacha sur‘ati;

6) **Hayotiylik indeksi** ( $I_v$ ), tabiiy o‘shish sur‘atidan farqli o‘laroq, u tug‘ilganlarning ( $N$ ) o‘lganlar ( $M$ ) sonidan farqini emas, balki nisbatini bildiradi:

$$I_v = \frac{N}{M} \times 100. \quad (3.6)$$

Tabiiy o‘shish sur‘ati va hayotiylik indeksi ko‘rsatkichlari yordamida aholining **tabiiy harakat tezligi** o‘lchanadi. Agar ma’lum bir vaqt oralig‘i mobaynida tug‘ilish soni o‘lim sonidan ortib ketsa, keksa avlod ko‘plab bolalar va nevaralardan iborat avlodlar tomonidan yangilanayotganligini taxmin qilish mumkin.

7) Aholini mutlaq o‘shish sur‘atining jadalligi koeffitsienti va aholi tabiiy o‘shish sur‘ati jadalligining o‘zgarishi koeffitsienti. Ushbu koeffitsientlarning demografik mazmuni shundan iboratki, ular o‘rganilayotgan aniq bir hududda yashayotgan aholining ikkita davr oralig‘idagi ikkita tutash ro‘yxatdan o‘tkazish davrlaridagi aholi o‘shish sur‘atining tabiiy va mutlaq ko‘rsatkichlarining o‘rtachasini va ular o‘rtasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni solishtirish imkonini beradi, bu orqali esa uzoq vaqt oralig‘ida aholi dinamikasi jarayonlarining jadalligini tavsiflash mumkin bo‘ladi.

Koeffitsientlar quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$K_{\Delta S_{n/1}}^- = \frac{\overline{\Delta S_{n/1}} - \overline{\Delta S_{n/1}}}{\overline{S}},$$

$$K_{\Delta S}^- = \frac{\overline{\Delta} - \overline{\Delta}}{\overline{S}}, \quad (3.7)$$

bu yerda:  $K_{\Delta S_{n/1}}^-$  — aholining mutlaq o‘shish sur‘atining jadallik koeffitsienti;

$K_{\Delta S}^-$  — aholining tabiiy o‘shish sur‘ati jadalligining o‘zgarishi koeffitsienti;

$\overline{\Delta S_{n/1}}$  — bazaviy davr uchun aholining o‘rtacha yillik mutlaq o‘shish sur‘ati;

$\overline{\Delta S_{n/1}}$  — joriy davr uchun aholining o‘rtacha yillik mutlaq o‘shish sur‘ati;

$\overline{\Delta}$  — bazaviy davr uchun aholining o‘rtacha yillik tabiiy o‘shish sur‘ati;

$\overline{\Delta}$  — joriy yoki hisobot davri uchun aholining o‘rtacha yillik tabiiy o‘shish sur‘ati;

$\overline{S}$  — ikki tahlil qilinayotgan davr uchun aholining o‘rtacha yillik soni.


Yuqoridagi ko‘rsatkichlarning afzalliklari shundan iboratki, birinchidan, uzoq davr uchun aholining vaqt mobaynidagi o‘zgarish jadalligini miqdoriy baholash, ikkinchidan, mamlakatlar va hududlar bo‘yicha qiyosiy tahlil o‘tkazish imkonini beradi.

Aholi soni dinamikasi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga, rivojlanishning tarixiy xususiyatlariga, demografik vaziyatga, shuningdek, mamlakatdagi va dunyodagi siyosiy holatga bevosita bog‘liq bo‘ladi<sup>1</sup> (3.1-rasm).

<sup>1</sup> Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. — Т.: Ижтимоий фикр, 2009. — С.6.

Dinamika ko'rsatkichlari aniq bir hududdagi aholining vaqt ichidagi harakatini, uning o'sishi, barqarorlashuvi yoki kamayishi, ushbu rivojlanishning asosiy tendentsiyalarini aniqlash haqida birlamchi tasavvur qilish imkonini beradi.

Aholi soni kuzatilayotgan davr mobaynida o'zgaradi, shuning uchun omillar soni, masalan, tug'ilishlar soni mos ravishdagi vaqtda o'rtaacha aholiga nisbati olinadi.



3.1-rasm. Aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar.

**Aholining o'rtacha soni** (o'rtacha aholi) — bu oddiy tadrijiy (xronologik) o'rtacha miqdorni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Agar aholi sonini vaqtning  $S(t)$  funksiyasi sifatida olib qaraydigan bo'lsak,  $t = t_0$  dan  $t = t_0 + T$  gacha bo'lgan davrda (bu yerda:  $T$  — kuzatish davri kattaligi) o'rtacha aholi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = \frac{1}{T} \int_{t_0}^{t_0+T} S(t) dt. \quad (3.8)$$

Integralning o'ng tomonida turgan son berilgan davr mobaynida aholi tomonidan yashab o'tilgan kishi-yilning umumiy sonidir. Uni  $T$  davr uzunligiga bo'ladigan bo'lsak, o'rtacha aholi sonini hosil qilamiz.

Yil boshi va yil oxiri soni mavjud bo'lgan holda aholining o'rtacha yillik sonining yarim miqdori aniqlanadi. Bunda ikki oraliqdagi davrlar orasidagi mavjud aholi sonining ma'lum bo'lgan miqdori bir tekisda o'zgargan, deb qabul qilinadi. Agar ushbu bir tekis o'zgargan miqdorni aholining mavjud harakatlanishi xususiyatlari keskin buzib yuborgan bo'lsa, ularni maxsus to'g'rilashlar asosida hisoblash mumkin bo'ladi. Masalan, agar yil boshi va yil oxiriga shahar aholisi sonidan tashqari 400 va 410 mingni tashkil qilganligi ma'lum bo'lsa va agar undan 60 mingi

o'rtacha 24 kunga yoki  $\frac{1}{15}$  yilga ta'tilga ketgan bo'lsa, bu holat

o'rtacha aholi sonini  $\frac{1}{15}$  dan 60 minggacha kamaytirgan bo'lar edi. Shunday qilib, o'rtacha aholi quyidagini tashkil qilgan bo'lar edi:

$$\frac{1}{2}(400 + 410) - \frac{1}{15} \cdot 60 = 401 \text{ (ming)}$$

Agar kattaroq muddat uchun aholi to'g'risidagi ma'lumot faqatgina yil boshi va oxiriga mavjud bo'lsa, bunda ko'pincha berilgan davr oralig'ida notekis taqsimlangan aholi sonining o'zgarganligi to'g'risidagi ehtimoldan kelib chiqish maqsadga

muvofig bo'lib, uning doimiy sur'atini, ya'ni geometrik progressiyasini olish kerak. Bunda

$$S(t) = S_0 \left( \frac{S_T}{S_0} \right)^{\frac{t}{T}} \quad (3.9)$$

bu yerda:  $S_0$  — davr boshida aholi soni,  $S_T$  — davrning boshlanishidan e'tiboran uning oxirgi davrida bo'lgan soni. Bunday holda:

$$\bar{S} = \frac{1}{T} \int_0^T S_0 \left( \frac{S_T}{S_0} \right)^{\frac{t}{T}} dt = \frac{S_T - S_0}{\ln S_T - \ln S_0} \quad (3.10)$$

ya'ni, butun davr davomida aholi o'sishini uning natural logarifmi o'sishiga bo'lgan nisbati.

Masalan, Farg'ona vodiysi aholisi 2000 yili 6009 ming kishini tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich 6854 ming kishiga teng bo'lgan. U holda 3.10-formula bo'yicha quyidagi ko'rsatkichni hosil qilamiz:

$$\bar{S} = \frac{6854 - 6009}{\ln 6854 - \ln 6009} = 6422 \text{ (ming)}$$

bunda bir tekisda o'zgarish gipotezasi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichga ega bo'miz:

$$0,5 (6009 + 6854) = 6431,5 \text{ (ming)}$$

**Statsionar aholi** — umumiy soni, yosh-jins guruhlarning soni o'zgarmas aholidir. Shu bilan birga, statsionar aholida tug'ilish va o'lim tartibi ham o'zgarmaydi. Yosh-jins tug'ilishiga keladigan bo'lsak, aholining statsionarligi u o'zgargan holda ham saqlanib qolishi mumkin: buning uchun ma'lum bir yoshlarda tug'ilishning ko'payishi uning boshqalarida kamayishi bilan kompensatsiya qilinadi.

Shunday qilib, aholi soni muayyan hududda yashovchi aholining miqdori hisoblanadi va u yuqorida sanab o'tgan qator ko'rsatkichlar bilan o'lchanadi.

### 3.2. Aholi sifati va uning xususiyatlari

Aholi xususiyatlari individlar xususiyatlarining jamlanmasini o'zida aks ettiradi va emperik kuzatiladigan hamda o'lchanadigan sifat tavsiflari shaklini oladi. Masalan, tug'ilish va o'lim aholi sonining o'zgarishi yoki saqlanib qolish xususiyatini tavsiflaydi; nikoh va ajralish — nikoh ittifoqini vujudga keltirish xususiyatini; salomatlik — avlod va individning biologik funktsiyalarining barqaror ushlab turish xususiyatini; ta'lim darajasi — sivilizatsiya yutuqlariga erishishga ko'mak beruvchi bilimlar tizimini o'zlashtirish xususiyatini; malaka va professional daraja — ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etish va yashash uchun kerak bo'ladigan vositalarni ta'minlay olish xususiyatini tavsiflaydi. Aholining barcha xususiyatlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va ularning hech biri alohida, mustaqil holda mavjud bo'lishi mumkin emas.

Aholining sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- jismoniy holat va sog'liq darajasi;
- ta'lim va ma'lumot darajasi;
- malaka va kasbiy mahorat;
- tadbirkorlik qobiliyati;
- hayotiy tajriba va ko'nikma;
- dunyoqarash va ong;
- odob-ahloq va xulq-atvor;
- ma'naviy yetuklik.

Endi aholining sifatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga batafsil to'xtalib o'tamiz.


Aholining sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi dastlabki omil — bu **jismoniy holat** va **sog'liq darajasidir**. Har bir inson to'la-to'kis hayot kechirish va o'zi tanlagan mehnat faoliyati sohasida ishlay olishi uchun muayyan sog'liq va jismoniy rivojlanish darajasiga ega bo'lishi kerak. Mazkur ko'rsatkich insonning jismoniy imkoniyatlari, quvvati va salohiyatini belgilaydi. Aynan ushbu imkoniyatlargina ishlab chiqarishni tashkil etish, samarali boshqarish va iqtisodiyotni yuritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Aholi va inson resurslarining muhim sifat jihatlaridan biri ularning **ta'limi** va **ma'lumot darajasidir**. Umumiy va kasbiy ta'lim



darajasi aholining ob'ektiv sifatini ifodalashga xizmat qilib, insonning imkoniyatlarini kengaytirib, jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiradi. U ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi va uning qatnashuvchisi bo'lgan insonni har tomonlama takomillashtirish va imkoniyatlarini kengaytirishning muhim omili sifatida maydonga chiqadi.

Quyidagi 3.1-chizmada O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimining eski va yangi ko'rinishlari berilgan.



3.1-chizma. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimining eski va yangi ko'rinishlari.

Manba: Абдурахмонов Қ.Х., Имомов В. Ўзбекистонда меҳнат потенциалидан самарали фойдаланиш ва уни бошқариш. Монография. - Т.: Академия, 2008. - 75 б.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda malakali kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyati uning uzluksizligidan iboratdir. Uzluksiz ta'lim tizimining amalga oshirilishi natijasida yosh avlod kasb-hunarga va malakaga ega bo'ladi. Bu esa aholi sifatining oshishiga olib keladi.

Aholining **malaka** va **kasbiy mahorat** ko'rsatkichi, bir tomondan, xodimning doimiy ravishda murakkablashib boruvchi mehnat

funksiyalarini bajarishga, mehnatning o'zgarishiga tayyorligi, ikkinchi tomondan, mehnatga munosabatni, mehnat intizomini, mehnatning intensivligini shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich xodimning yillar davomidagi mehnat faoliyati, amaliy tajribalari va nazariy bilimlari asosida shakllanadi. Malaka va kasbiy mahoratning yuqori ko'rsatkichi ishchining o'z mutaxassisligini yaxshi egallagani, kasbiy tayyorgarlikka egaligi va zamonaviy talablarga javob bera olish qobiliyatlaridan dalolat beradi. Ushbu omil orqali jamoa va jamiyatda yangi yutuqlarga erishish va yuqori marralarni zabt etish mumkin bo'ladi.

**Tadbirkorlik qobiliyat** — bu xodimning yaratuvchanlik va yangilikka intilib ishlashini anglatuvchi ko'rsatkichdir. Ushbu qobiliyatga ega bo'lgan ishchilar daromad olish yo'llari va manbalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, biznes yuritish bo'yicha etarlicha bilimga ega bo'ladilar. Shuningdek, tadbirkorlik qobiliyati tashabbuskorlik va yangi g'oyalarning vujudga kelishini ta'minlaydi. Korxonada strategiyasini ishlab chiqish, uning kelgusi rejalarini belgilash va ishlab chiqarishning yangi turlarini joriy etishda ushbu xususiyatga ega kishilar mehnatidan foydalanish o'zining samarasini beradi.

Shaxsning **hayotiy tajriba va ko'nikma darajasi** yillar davomida shakllanib, hayotiy saboqlar va sinovlar natijasida ortib boradi. Jamiyatda ularga nisbatan «ko'pni ko'rgan», «uzoqni ko'ra oladigan» va «sabr-bardoshli» kabi iboralar ham qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichga ega bo'lgan xodimlar mehnat jamoasida har doim o'z amaliy tajribalari, faolligi va mas'uliyatni his etishi bilan ajralib turadilar. Shuningdek, yosh kadrlarni mehnatga tayyorlash va ularni kasbga, hayotga o'rgatishda hayotiy tajribaga ega kishilarning o'rni kattadir.

**Dunyoqarash va ong** ko'rsatkichi shaxsning dunyoviy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlarining kengligi darajasini anglatib, uning bilim salohiyatini ko'rsatadi. Chunki, dunyoqarash o'qish, izlanish, o'rganish va intilish natijasida shakllanib boradi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich shaxsning o'quv darajasini ham anglatadi. Ushbu xususiyatga ega kishilar o'zlarining ijodiy qobiliyatlari va fantaziyalar ko'lamini kengligi bilan ajralib turadilar. Dunyoqarash

va ongning yuqori ko'rsatkichi yangiliklar yaratish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ilmiy yutuqlarning bosh omili hisoblanadi. Tashabbuskorlik, yangi g'oyalar, ixtiro va ilmiy yutuqlar esa mamlakatda fan-texnikaning taraqqiyotini jadallashtiradi.

**Odob-axloq va xulq-atvor** me'yorlari insonni bezab turuvchi asosiy fazilatlardan hisoblanib, ushbu ko'rsatkich shaxsning xarakterini ham ifodalaydi. Jamiyatdagi «etika», «estetika» va «madaniyat» tushunchalari ham aynan kishilarning odob-axloq va xulq-atvor me'yorlaridan kelib chiqadi. Korxonada xodimlar xulq-atvori mehnat jamoasi o'rtasidagi muhitni ham belgilab beradi. Shu sababli korxonada xodimlarni tanlashda ham birinchi navbatda ularning xulq-atvoriga qaraladi. Qaysi jamiyatda odob-ahloq va xulq-atvor me'yorlariga amal qilinarkan, o'sha yerda ahillik, totuvlik va tartib bo'ladi.

Ma'naviy yetuklik ko'rsatkichi ma'naviy boy, sog'lom va barkamol shaxslarga nisbatan ishlatiladigan tushuncha bo'lib, u o'zida shaxsning barcha sifat ko'rsatkichlarini mujassamlashtiradi. Ma'naviy rivojlanish darajasi kishi ma'naviyatining nechog'lik go'zalligi, fikr va ongining sofligi kabi shaxsiy xususiyatlarni anglatadi. Bu xususiyatlar insonning tanlagan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur omil hisoblanadi. Insonning ma'naviy rivojlanishi va tasavvurlarining salmog'i ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotga qarab ham o'zgarib boradi. Bu hol, o'z navbatida, mehnat sohasidagi mavjud tamoyillarni to'liq aks ettiradi. Iqtisodiyotda va umuman, jamiyatda izchil islohotlar amalga oshirilayotgan davrda kishilardagi ma'naviy fazilatlarning roli, ayniqsa, ortadi. Shuningdek, ma'naviy yetuklik - bu fidoiylik va vatanparvalik demakdir. Fidoiylik va vatanparvarlik esa jamiyat taraqqiyoti garovidir.

Aholining sifat xususiyatlarini shakllantirish bevosita quyidagi vazifalardan kelib chiqadi:

- sifat tavsiflarining holatini integral baholash uchun hududlar aholisining sifat indekslarini hisoblab chiqish;
- hududlarning aholi sifati darajasi va iqtisodiy o'sish darajalari o'rtasidagi aloqalar zichligini va tavsifini aniqlash (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy mahsulot miqyosi bilan birgalikda);

- sifat tavsiflarining muvofiqlashtirilganlik darajasini baholash;
- moddiy farovonlik darajasining ta'sir tavsifini, sifat tavsiflarini muvofiqlashtirilganligini va tarkib topgan aholi sifati darajasini ko'pincha o'zgarishiga ta'sirini aniqlash;
- aholi sifat tavsiflarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha hududlarni tiplarga ajratish.

Aholining sifat indeksini hisoblab chiqish uchun, birinchidan, sifat tavsiflarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni tanlab olish, ikkinchidan, ushbu turfa ko'rsatkichlarni yaxlit holga keltirish kerak. Iqtisodiy, ijtimoiy va demografik jarayonlarni o'zaro aloqadorlikda tahlil qilishning kompleks yondashuviga mos ravishda, har bir sifat tavsifi uning turli jihatlarini aks ettiruvchi (masalan, yosh-jins taqsimoti shaklida aks ettirilgan salomatlikni — o'lim, kasallanish, nogironlik, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari yordamida) ko'rsatkichlar jamlanmasi yordamida ham, umumlashtirilgan, yuqori agregatlangan ko'rsatkichlar yordamida ham tasvirlanishi mumkin.

Bunday umumlashgan ko'rsatkichlar tizimiga tug'ilgandagi kutilayotgan hayot davomiyligi (salomatlik); tug'ilishning umumiy koeffitsienti (tug'ilish); nikohda bo'lgan erkaklar ulushi (nikohlanganlik); umumiy bandlar tarkibida oliy va o'rta ma'lumotli mutaxassislarining ulushi (ta'lim); pul shaklidagi o'rtacha oylik ish haqini (malaka) kiritish mumkin.

Turfa umumlashtirilgan sifat tavsiflari ko'rsatkichlarining yaxlitlangan ma'lumotlari uchun aholi ehtiyojlarini anglab etilganligi muhim ahamiyatga ega, chunki ular asosida sifat tavsiflarining shakllanishi mavjud bo'ladi. U aholining manfaatlari real tavsifga ega ekanligidan dalolat beradi hamda hayot faoliyatining tarkib topgan sharoitlari nuqtai nazaridan erishiladi. Shu munosabat bilan demografik ehtiyojlarning miqdoriy namoyon bo'lishi individlar ongida ideal tasavvurlar shaklida yuzaga keladi. Shu munosabat bilan demografik ehtiyojlarning qondirilganlik darajasi ideal ko'rsatmaga mos tushuvchi daraja sifatida ko'rib chiqilishi, sifat tavsifning darajasi esa mintaqalararo qiyoslashlar asosida aniqlanuvchi sifat tavsiflarining umumlashtirilgan ko'rsatkichlariga muvofiq holda mos tushishi darajasi sifatida baholanishi mumkin.

Shunday qilib, barcha sifat tavsiflarining umumlashtirilgan ko'rsatkichlarini nomlanmagan indekslar shaklida aks ettirilishi mumkin. ular quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$J_i = 1 - \frac{|X_{i,\text{eng yaxshi}} - X_i|}{|X_{i,\text{eng yaxshi}} - X_{i,\text{eng yomon}}|}, \quad (3.11)$$

bu yerda:  $J_i$  —  $i$ -chi sifat tavsifining umumlashtirilgan ko'rsatkichining indeksi;  $X_i$  —  $i$ -chi sifat tavsifining umumlashtirilgan ko'rsatkichi;  $X_{i,\text{eng yaxshi}}$ ,  $X_{i,\text{eng yomon}}$  —  $i$ -chi sifat tavsifining umumlashtirilgan ko'rsatkichlarining shartli eng yaxshi va shartli eng yomon kattaliklari.

Odatda, shartli eng yaxshi sifatida yoki tahlil qilinayotgan vaqt davomida erishilgan (bunday holda hisoblanayotgan indeks tarkibiy indeks nomini oladi va ushbu ko'rsatkich bo'yicha hududning holatini aniqlashga imkon beradi va faqatgina boshqa hududlarga nisbatan aynan ushbu vaqtdagi holatini aniqlash imkonini beradi) yoki tahlil qilinayotgan vaqtning butun davri mobaynida (bunday holda hisoblanayotgan indeks dinamik indeks nomini oladi va umumiy vaziyatning o'zgarishini inobatga olgan holda hududning umumlashgan holda holatining o'zgarishini aniqlash imkonini beradi) erishilgan sifat tavsifining umumlashtirilgan ko'rsatkichining kattaligi qabul qilinadi. Tug'ilishga nisbatan shartli eng yaxshi daraja sifatida tug'ilishning 2,15 ga teng bo'lgan yig'indi koeffitsienti qabul qilinadi, u mavjud o'lim darajasi sharoitida aholini takror barpo bo'lishining oddiy darajasini kafolatlaydi. Umumlashgan ko'rsatkichning eng yomon kattaligi sifatida shartli eng yaxshi kattalikdan maksimal darajada farqlanadigan ko'rsatkich olinadi.

$J_i$  indeksi 0 dan (shartli eng yomon ko'rsatkich indeksi) 1 gacha (shartli eng yaxshi ko'rsatkich indeksi) o'zgaradi, u mamlakat hududlari aholisining sifat tavsiflarini umumlashgan ko'rsatkichlarining variatsiya qilinish chegaralarini ko'rsatadi. Turli sifat tavsiflarining indekslarini bir-biri bilan o'zaro qiyoslash ijtimoiy-demografik dasturlarning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi, teng sharoitlarda indeks qanchalik kichik bo'lsa, ustuvorlik shunchalik yuqori bo'ladi.

4. zosida quyidagi ko'rsatkichlar hisoblanishi mumkin:

$$J_b = \overline{\sigma_{J_i}} = \sqrt{\frac{n}{\sum_{i=1}^n (J_i)^2 - n(\bar{J}_i)^2}},$$

$$J_{KH} = \sum_{i=1}^n R_i J_i, \quad (3.12)$$

$$J_{PH} = \frac{J_{KH}^1}{J_{KH}^0},$$

bu yerda:  $J_b$  — sifat tavsiflarining muvofiqlashtirilganlik indeksi;  $\sigma_{J_i}$  — sifat tavsiflari indekslarining dispersiyasi;  $J_{kn}$  — aholining sifati indeksi;  $R_i$  — sifat tavsifining  $i$ -chi ahamiyati (sotsiologik tadqiqotlar natijalari bo'yicha hisoblanadi);  $J_{rn}$  — aholining rivojlanish indeksi (aholi sifat indeksining yuksalish sur'ati).

Shunday qilib, aholining sifat xususiyatlari jismoniy holat, sog'liq darajasi, ta'lim va ma'lumot darajasi, malaka, kasbiy mahorat, tadbirkorlik qobiliyati, hayotiy tajriba, ko'nikma, dunyo-qarash, ong, odoab-axloq, xulq-atvor, ma'naviy yetuklik tavsiflari bilan belgilanadi.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Aholi soni deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi sonining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. «Tabiiy o'sish» va «migratsion o'sish» tushunchalariga ta'rif bering.
4. Promille deganda nimani tushunasiz?
5. Hayotiylik indeksi qanday aniqlanadi?
6. Aholining o'rtacha sonini aniqlash tartibini tushuntirib bering.
7. «Statsionar aholi» tushunchasiga ta'rif bering.
8. Aholining sifati deganda nimani tushunasiz?
9. Aholining sifat ko'rsatkichlarini sanab bering.
10. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimining eski va yangi ko'rinishlarini tushuntirib bering.

---

## 4-bob. AHOLI TARKIBI VA UNI O'RGANISH USULLARI

### 4.1. Aholi tarkibi to'g'risida tushuncha

Aholi tarkibi — bu aholining muayyan bir alomatlariga ko'ra taqsimlanishidir yoki demografiya tili bilan aytganda qandaydir o'zgaruvchilarga asoslangan taqsimotidir. Tarkibni tuzish uchun asos sifatida tadqiqotchida qiziqish uyg'otadigan har qanday tavsifdan foydalanish mumkin. Odatda, turli fan vakillari (demograflar, iqtisodchilar, sotsiologlar va h.k.) aholi tarkibini quyidagi o'zgaruvchilar sinfiga asoslanib tuzadi:

- aksriplitiv (tug'ilganda hisobga olinuvchi) tavsiflar: jins, yosh, irqiy mansublik, etnik mansublik va boshqalar;

- ijtimoiy tavsiflar: nikoh holati, savodxonlik va ta'lim, maktabda o'qitilishi (bolalar va o'smirlar uchun), kelib chiqishi, ona tili, fuqarolik holati, diniy mansubligi va h.k.;

- iqtisodiy tavsiflar: daromad manbai, ish bilan bandlik maqomi, kasbi, mutaxassisligi va h.k.;

- migratsion tavsiflar: tug'ilgan joyi, mazkur aholi manzilgohida qancha vaqtdan beri yashayotganligi, u yoki bu vaqt ichida yashash joyini necha marta o'zgartirganligi va h.k.;

- vitol (demografik) tavsiflar: nikohga kirish yoshi, nikohning tartib raqami, tug'ilgan farzandlar soni, bola tug'ilgandagi yoshi, homiladorliklar soni, genetik oraliqlar (intervallar), tug'ilishlar soni, o'lim soni, o'lik tug'ilganlar soni va boshqalar;

- oila (uy xo'jaligi) tavsiflari: uy xo'jaligi turi, kattaligi, tarkibi va boshqalar.

U yoki bu alomatlar bo'yicha ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazishda va demografik hodisalarni hisobga olishda inobatga olinadi. Ushbu alomatlar bo'yicha aholi tarkibi haqidagi umumlashgan ma'lumotlar tuziladi. Lekin, demograf uchun aholining takror barpo bo'lishiga bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan aholi

tarkibi va tavsiflari qiziqarlidir, chunki ulardagi o'zgarishlar bevosita va eng katta ta'sir qiluvchilardir. Bunday tarkiblar, yuqorida aytilganidek, «demografik tarkiblar» deb yuritiladi. Demografik tavsiflar unchalik ko'p emas: jins, yosh, nikoh va oilaviy holati, shuningdek, yuqorida aytilgan vital hodisalar tavsifi. Demografik o'zgaruvchilar ichida birinchi o'rinlar jins va yosh, oila (uy xo'jaligi) tavsiflariga tegishlidir. Demografik tarkiblar ichida esa aholining — jins, yosh va nikoh-oila tarkiblariga tegishli bo'lib, ular bilan biz quyida tanishib chiqamiz. Aholining nikoh va oilaviy tarkibi bilan esa «Nikoh va ajralishning demografik mohiyati» va «Oila va uning demografik taraqqiyoti» boblarida ko'rib chiqiladi. Tanishishni, avvalo, aholining jinsiga ko'ra tarkibdan bilan boshlaymiz.

## 4.2. Aholining jinsiy tarkibi

Aholining jinsiy tarkibini o'rganish muhim demografik va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Aholining jinsiy tarkibini yoritishdan oldin «jins» tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Biologiya fani jinsni jinsiy ko'payishni ta'minlab beruvchi organizmning genetik, morfologik va fiziologik xususiyatlarining jamlanmasi sifatida ko'rib chiqadi.

Insonga nisbatan jins odam tanasining (genetik, morfologik va fiziologik) reproduktiv, xulqiy, ijtimoiy, ijtimoiy-ruhiy va ruhiy alomatlarining majmuasi sifatida ko'rib chiqiladi, ular insonni erkak yoki ayol sifatidagi shaxsiy biologik va ijtimoiy maqomini belgilab beradi.

Jins yetarli darajadagi «odatiy» alomat bo'lib, unga ta'rif berishda ba'zan ma'lum bir qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin. Lekin, ushbu muammoli holatlarning vujudga kelish ehtimoli juda kam. Ko'pchilik hollarda inson nafaqat o'zining, balki boshqalarning ham jinsini yetarli darajada oson aniqlay oladi. 4.1-jadvalda inson jinsini aniqlashning turli jihatlari keltirilgan bo'lib, ular turli fanlarning predmetini qamrab oluvchi jinsning kompleks tushuncha sifatidagi murakkabligini ochib beradi.

So'nggi yillarda «biologik jins» va «ijtimoiy jins» tushunchalarini farqlash yo'nalishi vujudga keldi. Ayniqsa, ijtimoiy jins



«gender» nomi bilan atalmoqda, uning asosini esa erkaklar va ayollarning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei tashkil qiladi. Bunga qarshi o'laroq «biologik jins»ni oddiy qilib «jins» deb atashmoqda.

4.1-jadval

### Inson jinsining turlari

Nomi	Alomatlar tavsifi
Genetik jins	Hujayralardagi XX (ayol jins) yoki XY (erkak jins) xromosomalarining mavjudligi
Gonad jins	Jinsiy bezlarning tuzilishi (tuxum va tuxumdonlar)
Gamet jins	Jinsiy bezlarning spermatozoidlar yoki tuxum hujayralarini ishlab chiqara olish qobiliyati
Gormonal jins	Jinsiy bezlarning erkak (androgen) yoki ayol (estrogen) jinsiy gormonlarini ishlab chiqarish vazifasi
Morfologik (somatik) ichki va tashqi jins	Ichki reproduktiv organlar va tashqi genetalialar (genital tashqi ko'rinish)ning tuzilishi
Askriptiv (yozib qo'yilgan), fuqarolik jinsi	Bolaning tug'ilgandagi tashqi ko'rinishi
Jins tarbiyasi	Bolani aksriptiv jinsiga mos ravishdagi tarbiyalanishi bo'yicha jinsi
Pubertat jins	O'z ichiga androgenlar va estrogenlar ishlab chiqarilishini oluvchi jinsiy yetuklikdagi xususiyatlar (pubertat gormonal jins), gormonlar ta'siri ostida shakllanuvchi ikkilamchi jinsiy alomatlar (pubertat morfologiya) va erotik hissiyotlar (pubertat erotizm)
Ruhiy jins yoki jinsiy o'zini-o'zi anglash	Individning o'zini erkak yoki ayol sifatida anglab yetishi
Ijtimoiy jins	Erkak yoki ayolning jamiyatdagi jinsiy o'rni

**Aholining jins tarkibi** — aholining erkaklar va ayollarga taqsimlanishidir.

Demografiyada jinsiy tarkibni tasavvur qilishning quyidagi ikkita yondashuvidan foydalaniladi:

- birinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollar mutlaq soni va ulushining oddiy hisobi;
- ikkinchisi, jami aholi yoki ayrim yosh guruhlaridagi erkaklar sonining ayollar soniga nisbati (yoki aksincha).

Odatda, jinslar nisbati erkaklar sonining har 100 yoki 1000 ayolga to'g'ri keladigan nisbati orqali hisoblab chiqilishi bilan aniqlanadi (yoki kam hollarda ayollar sonining har 100 yoki 1000 erkakka to'g'ri keladigan nisbati ham olinadi).

Aholining jins tarkibi uchta omilning birgalikdagi ta'siriga bog'liq bo'ladi: tirik tug'ilganlar orasidagi o'g'il bolalar sonining qiz bolalar soniga nisbati; differentsial o'lim darajasi, ya'ni turli yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollar o'rtasidagi o'lim darajasining farqi; migratsiya jadalligidagi jinslar farqi. Birinchi omil (jinslarning ikkilamchi nisbati) barcha aholi uchun amaliyotda bir xil va o'zgarmasdir, shuning uchun bu yerda asosiy rollar differentsial o'lim darajasi va migratsiya jadalligidagi jinslar farqiga tegishli bo'lib, ular mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liqdir.

Demografiyada jinslar nisbatining birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi turlarini farqlash qabul qilingan.

**Jinslarning birlamchi nisbati** ostida urug'lantirishdagi erkak gamet (homila) sonining ayollar soniga nisbati tushuniladi. Avvallari ushbu nisbat taxminan 100 ayol homilalariga nisbatan 125-130 erkak homilalari to'g'ri keladi, deb hisoblangan<sup>1</sup>. Lekin, XX asrning oxirgi o'n yilliklarida ushbu dalilni shubha ostiga qo'yadigan ma'lumotlar vujudga keldi. Jinslarning birlamchi nisbati bevosita hisoblanishi mumkin emas. Odatda, jinslarning birlamchi nisbatini aniqlashda tirik tug'ilganlar orasidagi jinsiy farqlar, ona qornidagi kech o'lim holati va tabiiy abortlar haqidagi ma'lumotlarni hisoblashga asoslangan bilvosita usuldan foydalanish qabul qilingan. Ushbu usuldan foydalanishga asoslangan maksimal baholashdagi jinslarning birlamchi nisbati 170 ta erkak homilasiga 100 ta ayol homilasi to'g'ri kelishi aniqlangan, lekin odatda, ular

---

<sup>1</sup> Бреева Е.Б. Основы демографии: Учебное пособие. — М.: Дашков и К, 2009. — С.65

pastroq. Xususan, zamonaviy, qat'iy uslubiy ma'lumotlar ushbu ko'rsatkich kattaligini 115 ga teng kelishini ko'rsatmoqda. Biroq, ushbu barcha baholashlar asosan mavhumiy tavsifga ega bo'lib, bu tushib qolish ehtimoli katta bo'lgan urug'lantirishning birinchi haftalari o'lim xavfidagi jinslar farqi to'g'risidagi ma'lumotlarning yetarli bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

Ayrim mualliflarning fikricha, homiladorlikning oxirgi bosqichlarida erkak homilalarining o'lim darajasi yuqori bo'lsa, ayol embrionlari uchun urug'lantirishning birinchi haftalarida o'lim xavfi yuqori bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, hozirgi vaqtda homiladorlikning boshlang'ich bosqichlarida jinslar farqidagi o'lim darajasi to'g'risida yetarli darajadagi batafsil ma'lumotlar mavjud emas. Aytish joizki, jinslarning ikkilamchi nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni, kech ona qornidagi o'lim darajasini va tabiiy abortlarni birlamchi jinslar nisbatiga nisbatan ekstropolyatsiya qilish mumkin emas. Muqobil yondashuvga asoslangan, X va Y xromosomalarga ega mos ravishdagi spermatozoidlar sonining nisbatini aniqlashga asoslangan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jinslarning birlamchi nisbatini 100 ga teng bo'lishi mumkinligini ta'kidlash imkonini beradi.

Bugungi kunga qadar jinslarning birlamchi nisbatini bevosita hisoblashning imkoni mavjud emas. Homiladorlikning ikkinchi oyida erkak embrionlarining soni ayol embrionlarining soniga nisbatan katta bo'lishi haqidagi dalil har qanday mulohazalardan xoli. Bu holat erkak urug'lanishlar sonining yoki homiladorlikning birinchi bosqichlarida ayol embrionlarida o'lim darajasining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu omillarning ta'siri ostida jinslarning ikkilamchi nisbati shakllanadi.

**Jinslarning ikkilamchi nisbati** — bu tirik tug'ilganlar orasida o'g'il bolalar sonining qizlarga nisbatidir. U asosiy biologik o'zgarmas konstanta bo'lib hisoblanadi va taxminan 100 nafar qizga o'g'il bolalarning 105-106 ta tug'ilishi nisbatiga teng yoki boshqa so'z bilan aytganda, har 1000 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlarga doimo taxminan 512 nafar o'g'il bola va 488 nafar qiz bola to'g'ri keladi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Бреева Е.Б. Основы демографии: Учебное пособие. — М.: Дашков и К, 2009. — С.65

Jinslarning ikkilamchi nisbatida doimiy kattalik bo'lishiga qaramasan bir qator omillar ta'siri bilan o'zgarib turadi. Xususan, nikohsiz bolalar o'rtasidagiga nisbatan nikohdagilar orasida o'g'il bolalar soni ko'proq bo'ladi. Tug'ilganlar orasidagi o'g'il bolalar hissasi onalar yoshining ulg'ayishi va tug'ilish tartib raqamining o'sishi bilan kamayib boradi. Masalan, 20 yoshgacha bo'lgan onalarda har 100 ta qizaloqqa 130 ta o'g'il bola to'g'ri keladi, 38-42 yoshdagi onalarda esa u atigi 90 ni tashkil qiladi, xolos.

Yaqin o'tmishdagi urushlarda jinslarning ikkilamchi nisbatining kamayishi, shu jumladan, urush tugagandan so'ng uning ortishi dalili ajabtovur hodisa sifatida qaralgan. Urush davrida homiladorlikni ko'tarib yurish sharoitlarining o'zgaruvchanligi, ona qornidagi o'lim darajasidagi jinsiy farqlar tibbiyotchilar, statistlar va demograflar tomonidan ilmiy isbotlab berilmaguniga qadar bunga hatto qandaydir sirli hodisa sifatida qaralgan.

Urush davrida ushbu sharoitlar yomonlashadi, bu esa ona qornidagi o'lim darajasining ortishiga olib keladi, avvalambor, erkak homila va urug'lantirishlarda o'lim darajasining ortishiga olib kelib, bu esa o'z navbatida, jinslarning ikkilamchi nisbatini kamaytirib yuboradi. Bundan tashqari, harbiy harakatlar davrida ota-onalar o'rtasida yoshi kattalar hissasi ortib ketadi, bu ham homiladorlikni ko'tarib yurish sharoitlarini yomonlashtiradi. Urush tugagandan so'ng ota-onalar yosh tarkibining yosharishi orqali homiladorlikni ko'tarib yurishning sharoitlari yaxshilanadi.

Umuman olganda, jinslarning ikkilamchi nisbatidagi tebranishlar ona qornidagi bolaning o'lim darajasidagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi, u esa, o'z navbatida, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va sanitar-gigienik sharoitlar bilan belgilanadi. Aynan shuning uchun vaqt o'tishi bilan jinslarning ikkilamchi nisbati xuddi rivojlangan mamlakatlarda kam rivojlangan mamlakatlarga nisbatan uning soni katta bo'lgani kabi ko'tarila boshlaydi. Biroq, demograflarda jinslarni ikkilamchi nisbatining mayl omili ta'sirida vujudga kelganligi, ya'ni bevosita urug'lanish jarayoniga atayin ta'sir o'tkazish va homiladorlik davrida bo'lajak bolaning jinsini to'g'rilash maqsadida harakatlar qilinganligi sababli katta qiziqish uyg'otadi. Aytish joizki, bu hodisa ko'p bolalikning ijtimoiy

me'yorlari saqlanib qolgan va ko'p o'g'il bolalar ko'rishni xohlaydigan mamlakatlarda keng tarqalmoqda. Bunday mamlakatlarga Xitoy, Janubiy Koreya va Singapurni kiritishimiz mumkin. Ushbu mamlakatlarda jinslarning ikkilamchi nisbatining kattaligi tebranishlar doirasidan anchayin chetga chiqib ketgan, bu holat statistik xatoliklarning mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, ushbu mamlakatlarga nisbatan tadqiqotchilarning alohida e'tiborini tortmoqda. Janubiy Koreya, Tayvan va Singapurda XX asrning 80-yillarida jinslarning ikkilamchi nisbatining jadal o'sishi kuzatilgan va u 113:117 gacha etgan. Ushbu fenomen qadimdagi ko'p o'g'il bolalarni ko'rishni xohlaydigan an'analarning zamonaviy ko'rinishini aks ettiradi va qizlarning kamsitilishi, ya'ni sof mayl omili ta'sirining natijasi bo'lib yuzaga chiqadi.

Qadimda ushbu kamsitish qizlarning chaqaloqligi va bolaligidagi o'lim darajasining juda yuqori bo'lganligida o'z ifodasini topgan, bu holat ularning chaqaloqligi va bolaligi davridagi parvarishning juda yomon bo'lganligining natijasidir. Hozirda fan-texnika yutuqlari asrida esa an'anaviy reproduktiv ko'rsatmalar, agar tug'ilajak bolaning jinsi qiz bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, sun'iy ravishda homiladorlikni to'xtatish amalga oshirilmoqda. Qizlarning tug'ilishidagi kamsitishning reproduktiv xulqi tug'ilishni kamaytirish siyosati ta'siri ostida yanada kuchaymoqda, bu esa aholining katta qismining intilishlariga qarama-qarshidir.

Amerikalik demograf D.Gudkindning ta'kidlashicha, Xitoyda amalga oshirilayotgan bir bolalik siyosati «ota-onalarni qiz tug'ilishini oldini olishning turli usullaridan uyg'unlashtirilgan holda foydalanishga yoki qiz tug'ilishini yashirish: qizlardan voz kechish, tug'ilishlarni yoki oila tarkibini yashirish, hatto qiz chaqaloqlarni o'ldirishga ham olib kelmoqda. Bunga qo'shimcha tarzda, tug'ruqqacha tashhis qilish sohasidagi zamonaviy yutuqlar ham ahamiyatli rol o'ynamoqda»<sup>1</sup>. Bu haqda faqat xitoylik mualliflarga emas, boshqa mamlakat ziyolilari ham yozishmoqda.

---

<sup>1</sup> Goodking D. On Substituting Sex Preference Strategies in East Asia: Does Prenatal Sex Selection Reduce Postnatal Discrimination?// Population Development Review. March 1996. Vol.22. – P.111.

Tug'ruqqacha tashxis qilishning zamonaviy yutuqlari tug'ilajak bolaning jinsini boshqarish maqsadida Xitoy va boshqa Osiyo mamlakatlari aholisining ma'lum bir qismi tomonidan foydalanilmoqda. Tug'ilishni kamaytirish siyosati o'g'il bolani ko'p xohlashlikning yuqori darajasi saqlanib qolayotganligiga bog'liq ravishdagi kam bolali oilaga yo'naltirilganlikning o'sishi sharoitida ushbu amaliyot keng qo'llaniladi va test natijasi tug'ilajak bolaning jinsi qiz bola bo'lishi holatida, u sun'iy abortlar tebranishining o'sishiga olib keladi. Ayniqsa, bu bir yoki undan ortiq qizga ega tug'ilishning yuqori soni kuzatilgan oilalarga taalluqlidir. Ayrim tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, aynan Xitoyda ikki yoki undan ko'p qizlarga ega bo'lgan oilalar uchun jinslarning ikkilamchi nisbati 200 dan ham ortib ketmoqda. Xuddi shunday holatni kontinental Xitoydagi kabi tug'ilishni cheklashning qat'iy siyosati mavjud bo'lmagan Tayvan va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ham kuzatish mumkin.

Olimlar, jamoat arboblari va hukumatlar tomonidan sun'iy abortlarning o'sishiga olib keluvchi tug'ruqqacha jinsni aniqlash tashxisidan foydalanish holatlari salbiy baholanmoqda. Xususan, salbiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy natijalarni yuzaga keltirayotgan ushbu amaliyotni qattiq qoralash «Aholi va rivojlanish» to'g'risidagi Xalqaro konferentsiyada (Qohira, 1994 yil) qabul qilingan Dasturda ham o'z ifodasini topgan. Dasturda tug'ilajak bolaning jinsini aniqlashdagi texnologiyalardan foydalanishning ortishi jins bo'yicha selektsiyani (yangi tug'ilgan qiz chaqaloqlarni o'ldirish amaliyoti bilan birgalikda) «halokatli (zararli) va beadablik (madaniyatsizlik)» sifatida tavsiflanishi ta'kidlangan.

Ko'pgina mamlakatlarning hukumatlari tug'ruqqacha jinsning tashxisini amalga oshirish hamda u bo'yicha ma'lumotlar va xizmatlar olinishi, berilishi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortuvchi qonunni qabul qilganlar. Shunga qaramasdan, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, ushbu ta'qiqqlarning samaradorligi u qadar yuqori emas, ularning mavjudligining o'zi esa ayrim amaldorlar va tibbiyot xodimlari tomonidan o'z xizmat vazifalaridan foydalanib, ta'magirlik qilish va boshqa su'iste'molliklarni qilinishiga olib kelmoqda.

Sun'iy abortlar orqali jins bo'yicha seleksiya qilishning ko'p yillik amaliyoti Xitoyda bir qator keskin demografik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning vujudga kelishiga olib keldi. Hozirgi kunda bu hodisa mamlakatda nafaqat jinslarning ikkilamchi nisbatidagi nomutanosiblikka, balki faol nikoh yoshlarida ham mutanosiblik buzilishiga olib keldi. Mamlakatda avvallari kuzatilmagan «kelinlar tanqisligi» vujudga keldi, buning natijasida yosh xitoylik yigitlarning katta qismi butun umrga bo'ydoq qolish istiqboli qarshisida qoldi. Bu o'z navbatida, jinoyatchilikning yangi turi — yosh qizlarni nikohga kiritish maqsadida o'g'irlanishining vujudga kelishini ta'minlab berdi. Shu o'rinda aytish joizki, Xitoyda kelinlar daromadli tovarga aylanib ulgurdi. Bu muammoning dolzarbligi ko'pgina mamlakatlardagi tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga tortmoqda. Olimlar dunyoda eng ko'p aholisi bo'lgan Xitoyda jinslar tengligi buzilishining salbiy oqibatlarini faol muhokama qilmoqda. Ushbu nisbatning buzilishi «bir oilaga bir farzand» siyosatining natijasi bo'ldi va uning oqibatida jins bo'yicha abort qildirishning ortishi va yoshligida qizlar o'lim darajasini ortirishiga olib keldi.

O'zbekistonda esa tug'ilishning kamayishi jarayoni XX asrning oxirlarida kuzatildi. Biroq, mamlakatda jinslarni ikkilamchi nisbatining buzilish holatlari kuzatilayotgani yo'q.

**Jinslarning uchlamchi nisbati** — bu reproduktiv yoshdagi yoki boshqa yosh guruhlaridagi erkaklar va ayollarning o'zaro tengligidir. Jinslarning birlamchi va ikkilamchi nisbatidan farqli o'laroq jinslarning uchlamchi nisbati yosh-jinsdagi differentsial o'lim darajasi xususiyatlari va migratsion harakatchilikka bog'liq ravishda tebranib turadi.

Jinslarning uchlamchi nisbati ikkilamchi nisbat bilan birgalikda demografiyaning qiziqishlari doirasiga kiradi, chunki aholining takror barpo bo'lish tavsiflari va ayrim demografik jarayonlar ularga bog'liq bo'ladi. Ular faol va istiqboldagi nikoh darajasiga, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga ta'sir o'tkazadi. Aynan shuning uchun demograflar umumiy aholining jinsiy tarkibini o'rganish kabi ushbu ko'rsatkichlarga alohida e'tibor beradilar.

### 4.3. Aholining yosh tarkibi

Aholining yosh tarkibi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlab aholining yosh tarkibini o'rganishdan oldin «yosh» tushunchasining mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq.

**Yosh** — bu insonning tug'ilishidan to uning hayotidagi u yoki bu daqiqasigacha oqib o'tgan vaqtdir. Yosh ikkinchi eng muhim demografik tavsiflardan biri bo'lib, u yillarda, oylarda (hayotning birinchi yillarida), haftalarda (hayotning birinchi oylarida), kunlarda va soatlarda hisoblanadi.

Yosh ob'yektiv tavsif bo'lishiga qaramasdan inson hayotining yosh davri konvetsionaldir va umrni (hayotni) uzunligi (davomiyligi) evolyutsiyasi mobaynida o'zgarib kelgan. Bir asr muqaddam «keksalik» deb yuritilgan yosh hozirda «keksalikka kirish» yoki «o'rta yosh» deb hisoblanmoqda.

Demografik hodisalar doimo u yoki bu yoshda amalga oshadi. Bunda ularning amalga oshishidagi tebranish yosh o'tishi bilan o'zgaradi yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uning vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun demografiyada yosh har qanday demografik hodisaning eng muhim tavsifi sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan o'lgandagi yosh (o'lim yoshi), nikohga kirish yoshi va bola tug'ish yoshi, deb nomlanuvchi yoshlar va hokazolar haqida gapiriladi.

Kuzatish vaqtidagi muayyan bir guruh kishilarning yoshi haqidagi ma'lumot aholining yosh tarkibini shakllantirish imkonini beradi.

Yosh barcha demografik jarayonlarning umumiy koordinatasi hisoblanadi, ularning universal, mustaqil o'zgaruvchisi bo'lib hisobga olinadi va inson hayotidagi istalgan hodisalarni ro'yxatga (hisobga) olishda e'tiborga olinadi.

Yuqorida aytilganidek, yosh tug'ilgan vaqtdan so'ng oqib o'tgan vaqt bilan o'lchanadi. Biroq, demografiyada yoshning uchta ta'rifidan foydalaniladi: aniq yosh, yillar to'lgandagi yosh va kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh. U yoki bu ta'rif mavjud ma'lumotlar va maqsadlarni hisobga olinishi bilan tanlanib, ular uchun yosh hisoblab chiqiladi.



**Aniq yosh** — imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o'lchangan, tug'ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.

**Yillar to'lgandagi yosh** — bu aniq yoshning to'liq sonlarga ega bo'lmagan qismidir, u oxirgi tug'ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo'yicha odatda «Yoshingiz nechada?» degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to'liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

**Kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh** o'z ta'rifidan ham nimani anglatishini bildirib turibdi. Agar kishining tug'ilgan yili ma'lum bo'lsa (masalan, 1979 yil), bunda uning kalendar yillar farqi bo'yicha yoshi joriy tug'ilgan yilning farqiga tengdir (masalan,  $2010 - 1979 = 31$ ). Ta'kidlash joizki, kalendar yillar farqi sifatida hisoblangan yosh, agar tug'ilgan kunigacha hisoblab chiqilmasa yillar to'lgandagi yoshga teng bo'lmasligi mumkin. Haqiqatda «kalendar yillar farqi sifatidagi 31 yosh» jumlasini inson 30 yoki 31 yil to'lgandagi yoshga tengligini anglatadi yoki o'z ichiga 30 dan 32 yoshgacha bo'lgan yillarni oladi.

Yosh haqidagi ma'lumotlar aholini ro'yxatdan o'tkazish, maxsus tekshiruvlar, jumladan tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishlarni qayd qilish jarayonida olinadi. Bu masala nafaqat demograf uchun, balki boshqa ijtimoiy soha mutaxassislari uchun ham juda muhim, chunki yosh nafaqat demografiyada, balki deyarli barcha ijtimoiy jarayonlarda mustaqil o'zgaruvchi sifatida yuzaga chiqadi.

**Aholining yosh tarkibi** — bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

Aholining yosh tarkibi haqidagi ma'lumotlar ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarni tadqiq qilish uchun kerak bo'ladi. Aholi yosh tarkibining xususiyatlarini anglash orqali istiqboldagi tug'ilish va o'lim tendentsiyalari, shuningdek, aholining takror barpo bo'lishi haqida ilmiy asoslangan mulohazalar chiqarish mumkin. Ushbu xususiyatlarni bila turib, iqtisodiy va ijtimoiy

sohalarda u yoki bu muammolarning vujudga kelish ehtimolini baholash, mehnatga layoqatli aholi va ishchi kuchining dinamikasini prognozlashtirish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish, ularga bo'lajak talab, mintaqalarda saylovlarning natijalarini va shunga o'xshash masalalarni bilish imkonini beradi.

O'zbekiston aholisining hozirgi yosh tarkibi 90-yillarda boshlangan tug'ilish darajasining qisqarishiga qaramay yosh hisoblanadi. Ya'ni, aholi tarkibida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ulushi 62,1%ni, 16 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi 33,3 %ni, 16-29 yoshdagilar ulushi 28,8 %ni tashkil etadi<sup>1</sup>.

Aholining yosh tarkibini tuzish uchun odatda bir, besh, ba'zi hollarda o'n yillik oraliqlardan foydalaniladi.

**Bir yillik yosh tarkibi** — bu aholining quyidagi yillar to'lgandagi yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishidir: 0 yosh, 1, 2, ..., 34, 35, ..., 89, ...,  $\omega$  yosh va undan kattalar.  $\Omega$  — bu qandaydir eng yuqori yosh bo'lib, uning asosida aholining bir yillik yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi yakunlanadi. Oxirgi yosh guruhi ( $\omega$  yosh va undan kattalar) ochiq yosh oralig'ini tarkib toptiradi, bunda  $\omega$  ning aniq kattaligi yangi tug'ilgan bolaning kutilayotgan umr davomiyligining o'rtachasiga va katta yoshlardagi aholining soniga bog'liq bo'ladi.

**Besh yillik yosh tarkibi** quyidagi yosh guruhlari bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-4 yosh, 5-9 yosh, 10-14 yosh, ..., 35-39 yosh, ..., 80-84 yosh, ..., 100 yosh va undan kattalar. Bu standart yosh guruhlani deb nomlanadi va xalqaro demostatistika amaliyotida qo'llaniladi.

**O'n yillik yosh tarkibi** quyidagi yosh guruhlari bo'yicha tuziladi: 0 yosh, 1-9 yosh, 10-19 yosh, 20-29 yosh, ..., 60-69 yosh, 100 yosh va undan kattalar.

Yosh tarkibidagi umumiy tuzilmaviy o'zgarishlarni baholash uchun bundan yanada kattaroq yosh guruhlani qo'llaniladi.

Xalqaro amaliyot va statistikada aholining yosh tarkibi iqtisodiy nuqtai nazardan uch guruhga ajratiladi:

---

<sup>1</sup> Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. — Т.: Ижтимоий фикр, 2009. — С.154-155.

- bolalar (0-14 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (15-64 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (65 va undan yuqori yoshdagilar).

O'zbekiston milliy statistikasida aholi mehnatga layoqatlilik bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

1. Mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi (0-15 yosh);
2. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (16-54 yoshdagi ayollar, 16-59 yoshdagi erkaklar);
3. Mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar).

Aholi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan yoshiga ko'ra 6 guruhga ajratiladi:

1. Bolalar (0-15 yosh) — mamlakat jami aholisining eng katta qismini tashkil etib, ularning aksariyati mehnat jarayonida ishtirok etmaydi. Ammo, ushbu aholi guruhining salmog'i mehnat salohiyatining kelgusi va istiqbol ko'rsatkichlarini belgilab beradi. Chunki, ushbu qatlamning yuqori chegarasidagi o'smirlar tez orada mehnat resurslari safiga qo'shiladi.

2. O'smir yoshlar (16-24 yosh) — mazkur guruhning katta qismi iqtisodiy nafaol aholi tarkibiga kirib, ular maktab, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan yoshlar, tug'ruq ta'tilidagi ayollar hisoblanadi. Shuningdek, mazkur guruh tarkibida iqtisodiyotning qator soha va tarmoqlarida band bo'lganlari ham mavjud bo'lib, ularning mehnat faoliyatlari aksariyat hollarda boshlang'ich ko'rinishga ega bo'ladi.

3. O'rta yoshlilar (25-30 yosh) — ular o'zining jismoniy holati va imkoniyatlari jihatdan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, mehnatga layoqatli jami aholining asosiy qismini qamrab oladi. Bu guruh vakillari asosan o'zlarining aniq hayot yo'llarini tanlab olgan, o'z oilasiga ega bo'lgan va hayotda ma'lum bir yutuqqa erishgan hisoblanadi. Lekin, ularning barchasi ham iqtisodiyotda band bo'lmaydi, chunki ularning orasida yosh bolali onalar va ayollar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

4. 31-59 yoshdagi aholi — ushbu guruhdagi aholi o'zining yuksak mehnat shakliga ega bo'lib, hayotiy va mehnat tajribasining

yuqori ko'rsatkichiga erishadi. Shu vaqtgacha olgan amaliy ko'nikma va tajribalarini ishlab chiqarish jarayonlariga safarbar etishadi va mehnat jamoasida alohida o'rin egallashadi. Bu toifa insonlar yoshlarga o'rnak va maslakdosh bo'ladi. Ushbu yosh chegaralari aholisining iqtisodiy faollik darajasi boshqa qatlamlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Shuningdek, mazkur qatlamning yuqori chegarasida pensiya yoshiga yetgan ayollar ham bo'lib, ular o'zlarining mehnat faoliyatlarini yakunlash taraddudida bo'lishadi.

5. Qariyalar (60-70 yosh) — mazkur qatlam vakillari pensiya yoshiga yetgan aholi hisoblanib, ularning aksariyati pensiyada bo'ladi. Lekin, ularning orasida o'z mehnat faoliyatlarini davom ettirayotganlari ham bo'lib (ayniqsa, erkaklar), ular ham butunlay pensiyaga chiqish va mehnat faoliyatini yakunlash arafasida bo'lishadi.

6. Keksalar (70 va undan katta yosh) — ularning deyarli hammasi mehnat faoliyatidan chetlashgan bo'ladi<sup>1</sup>.

Aholining yosh tarkibini o'rganishda yosh akkumulyatsiyasiga alohida e'tibor qaratish kerak. Chunki, aholini ro'yxatdan o'tkazishda va sotsiologik so'rovlarda yosh to'g'risidagi ma'lumotlarda xatoliklarga yo'l qo'yilishi mumkin.

**Yosh akkumulyatsiyasi** — bu aholining ma'lum bir yoshlaridagi sonining qo'shnilariga nisbatan ko'proq yig'ilib qolishidir.

Yosh akkumulyatsiyasi odamlarning psixologik ta'sir ostida sonli o'zgaruvchilarni yaxlitlab yuborishga moyilligi ostida vujudga kelib, ular aniq sonlar o'rniga yaxlitlangan, yaqin bo'lgan kattaliklarni aytishadi. Ko'pincha yosh akkumulyatsiyasi «0» yoki «5» bilan tugaydigan yoshlarda ko'proq kuzatiladi, biroq bu holat «2» yoki «8» bilan tugaydigan yoshlarda ham uchraydi. Yosh akkumulyatsiyasining mavjudligi, tabiiyki, faqatgina bir yillik yosh guruhlarini bo'yicha tuzilgan yosh tarkibidagina uchraydi. Besh va o'n yillik guruhlashlarda yosh akkumulyatsiyasi o'z-o'zidan soqit bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Абдурахмонов Қ.Х., Имомов В. Ўзбекистон меҳнат потенциалидан самарали фойдаланиш ва уни бошқариш. — Т.: Академия, 2008. — 40-41 б.

Aholini ro'yxatdan o'tkazish va so'rovlarda yosh to'g'risidagi ma'lumotlarning tizimli tarzda xato bo'lishi yosh akkumulyatsiyasiga olib keladi. Bu, ayniqsa, aholining madaniy darajasi (ayrim odamlar nafaqat o'z yoshini, balki o'zining tug'ilgan kunining aniq sanasini ham bilmaslilari mumkin) va yosh haqidagi savolga aniq javob berish xohishi bilan bog'liq (qariyalar va ayollarning tannoziqligi va h.k. vaziyatlar). Aholini madaniy darajasining o'sishi va uslubiy qoidalarga amal qilish yosh borasidagi xatoliklarning, natijada yosh akkumulyatsiyasining kamayishiga olib keladi.

Yosh akkumulyatsiyasi turli usullar yordamida o'lchanadi. Masalan, Uippl (Whipple) indeksi «0» va «5» bilan tugal-lanuvchi yosh akkumulyatsiyasini yoshlar bo'yicha nisbatini o'lchaydi. Mazkur indeks ( $I_w$ ) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$I_w = \frac{\sum_{k=5}^{12} P_{5k}}{5 \times \sum_{23}^{62} P_x} \times 100, \quad (4.1)$$

bu yerda:  $P_{5k} = P_{25}, \dots, P_{60}$  (25, 30, ..., 60 yoshdaldardagi aholi soni);  $P_x$  — aholining 23 dan 62 yoshgacha bo'lgan bir yillik yosh intervallaridagi guruhlar soni.

Yosh tarkibini tahlil qilishda yosh kontingentlaridan ham foydalaniladi. **Yosh kontingenti** — bu umumiy yosh, shuningdek, ayrim demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa alomatlar bo'yicha birlashtirilgan shaxslar guruhidir<sup>1</sup>.

Insonning hayot davrini guruhlariga ajratish masalasi turli davrlarda yashagan olimlarni qiziqtirib kelgan. Masalan, qadimgi yunon matematigi Pifagor yil fasllari bo'yicha inson hayotini davrlarga ajratgan (4.2-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turganidek, olim insonning bolaligini bahor, keksaligini esa qish fasliga o'xshatgan hamda shundan kelib chiqib davrlarga ajratgan.

<sup>1</sup> Медков В.М. Демография: Учебник. 2-е изд. — М.: ИНФРА-М, 2009. — С.176.

**Pifagorning yosh tasnifi\***

Yil fasli	Hayot davri	Yosh
Bahor	Bolalik	20 yoshgacha
Yoz	Yoshlik	20-40 yosh
Kuz	Yetuklik	40-60 yosh
Qish	Keksalik	60-80 yosh

\* Manba: Основы демографии: Учебное пособие / П.И. Косов, Л.Б.Берендеева. - 2-е изд, доп. И перераб. - М.: ИНФРА-М, 2010. - С.66-67.

Aholishunoslik endiklopedik lug'atida inson umri quyidagi davrlarga bo'lingan (4.3-jadval).

**Yosh tasnifi\***

Kalendar yosh	Inson hayoti davri
1-7 kun	Yangi tug'ilganlik
7 kun-1 yosh	Chaqaolqlik
1-3 yosh	Ilk bolalik
4-7 yosh	Birinchi bolalik
8-12 yosh (o'g'il bolalar)	Ikkinchi bolalik
8-11 yosh (qiz bolalar)	
13-16 yosh (o'g'il bolalar)	O'smirlik
12-15 yosh (qiz bolalar)	
17-21 yosh	O'spirinlik
16-20 yosh	
22-35 yosh (erkaklar)	Yetuklikning birinchi bosqichi
21-35 yosh (ayollar)	
36-60 yosh (erkaklar)	Yetuklikning ikkinchi bosqichi
36-55 yosh (ayollar)	
61-74 yosh (erkaklar)	Qarilik
56-74 yosh (ayollar)	
75-90 yosh	Keksalik
90 yoshdan kattalar	Uzoq umr ko'ruvchilar

\* Manba: Народонаселение: Энциклопедический словарь. - Москва, 1994. - С.49.

Yosh tasnifidan ko'rinib turibdiki, inson umri ilk tug'ilgan kundan boshlab, umrining so'ngiga qadar davrlarga ajratilgan.

Qator olimlar insonlarning umrini mehnatga layoqatiga qarab ham ajratgan. Masalan, demograf B. Urlanis inson umrini mehnat yoshiga qarab quyidagi guruhlariga ajratishni taklif qilgan (4.4-jadval).

4.4-jadval

### B. Urlanisning yosh tasnifi\*

Insonning hayot davri	Yosh guruhi
Mehnat yoshigacha bo'lgan davr	
Yasli yoshi	2 yoshgacha
Maktabgacha yosh	3-6 yosh
Maktab yosh	7-15 yosh
Mehnat yosh	
Yoshlik	16-24 yosh
Yetuklik	25-44 yosh
Kechki yetuklik	45-59 yosh
Mehnatdan keyingi yosh	
Qarilik	60-69 yosh
Ilk keksalik	70-79 yosh
Mo'ysafid keksalik	80 va undan yuqori

\* Manba: Основы демографии: Учебное пособие / П.И. Косов, А.Б. Берендеева. - 2-е изд, доп. И перераб. - М.: ИНФРА-М, 2010. - С. 67.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turganidek, demograf olim B. Urlanis inson umrini mehnatga yoshigacha bo'lgan, mehnat yoshi va mehnatdan keyingi davrlarga ajratgan.

Odatda, yosh tarkibi aholining jinsiy tarkibi bilan birgalikda tuziladi va ko'rib chiqiladi. Bu holda u aholining yosh-jinsiy tarkibi

deb nomlanadi, u har bir jinsning yoshlar bo'yicha taqsimlanishini, har bir yoshda yoki har bir yosh guruhlarida jinslarning nisbatini ko'rsatib beradi.

#### **4.4. Aholining yosh-jins piramidasi va takror barpo bo'lishi**

Aholining yosh va jinsiga ko'ra tarkibini birgalikda va yaqqol namoyon etish uchun yosh-jins piramidasi tuziladi.


Yosh-jins piramidasi ikki tomonlama chiziqli diagrammani o'zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo'yicha birgalikda taqsimlangan, bunda grafikning bir tomonida (o'ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o'qi yosh shkalasini o'zida namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo'linib, 0 yildan boshlanadi va yuqori yosh yoki ochiq yosh intervali bilan tugallanadi.

Gorizontal chiziqlar o'zida berilgan yosh va jinsdagi aholining umumiy sonini; aholining umumiy sonidagi berilgan yosh va jinsdagi aholining ulushini; berilgan yosh va jinsdagi aholi sonidagi faqat ushbu jinsning ulushini aks ettiradi. Bunda gorizontal chiziqlar maydoni (yoki teng miqdorda taqsimlangan yosh intervallarining uzunligini) aytib o'tilgan ko'rsatkichlarga teng bo'ladi.

Piramidalar aholining turli qismlarini qiyoslash va uning yosh-jins tarkibi xususidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish maqsadida guruhlarining yosh-jins miqdori yoki ushbu sonlarning jami aholidagi ulushidan foydalanilgan holda tuziladi.

Yosh-jins piramidasi aholining muayyan vaqtdagi holatini aks ettiradi. Shuning uchun piramidadagi chiziqlarning nisbiy uzunligi bo'yicha tug'ilish va o'lim jarayonlarining aholining yosh tarkibiga ta'siri, aholi takror barpo bo'lishining istiqboldagi tendentsiyalari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Masalan, muayyan bir yilda tug'ilganlar soni qo'shni yillarnikidan ko'p bo'lsa piramida bo'rtiq, agar tug'ilganlar soni qo'shni yillarnikidan kam bo'lsa






4.1-rasm. O‘zbekistonda aholining yosh-jins piramidasi (1991- yil).

botiq shaklida namoyon bo‘ladi. Ushbu deformatsiya yetuk va keksa yoshdagilar orasidan o‘tayotib, deyarli butun yuz yillik davr davomida, toki ushbu tug‘ilganlar jamlanmasining o‘lib yo‘q bo‘lmaguniga qadar saqlanib qoladi.

4.1 va 4.2-rasmlarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining yosh-jins piramidasi keltirilgan.

4.1-rasmdan ko‘rinib turganidek, 1991 yili O‘zbekiston Respublikasi aholisining yosh-jins piramidasi bo‘rtiq shakliga ega bo‘lgan. Ya‘ni, mazkur yili aholining yosh-jinsiy tarkibida 0-4, 5-9, 10-14, 15-19 yosh guruhidagi erkak va ayollarning soni yuqori bo‘lgan.

Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida yillar davomida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlarida o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi, xalqning munosib turmush sharoitini yaratishga intilishi, omma o‘rtasida homiladorlikdan saqlovchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi, har bir oila o‘z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farzandlar tug‘ilishini nazorat etishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar respublikada



4.2-rasm. O'zbekistonda aholining yosh-jins piramidasi (2009- yil).

tug'ulish ko'rsatkichlarining pasayishiga olib kedi. Natijada aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni kamaydi. Bu holat 4.2-rasmda yaqqol o'z aksini topgan.

4.2-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2009 yili respublikada aholining yosh-jins tarkibida 0-4, 5-9 yosh guruhidagi erkak va ayollar soni keskin kamaygan, aksincha 10-14, 15-19 va 20-24 yosh guruhidagilar soni ortgan.

Demografiyada yosh-jins piramidalaridan foydalanishning eng muhim jihatlaridan biri — bu aholining takror barpo bo'lishi va yosh tarkibining o'zaro aloqadorlikdagi tahlilidir.

Aholining progressiv, stasionar va regressiv yosh tarkiblari 1894 yilda shved demografi A.G.Sundberg tomonidan birinchi marta ilmiy iste'molga kiritilgan.

Ma'lumki, progressiv yosh tarkibida aholi soni ko'payadi, statsionarda aholi o'z sonini o'zgartirmaydi, regressivda esa qisqaradi. Aholining yosh tarkiblari 0-15 yoshdagi bolalar hamda 50 yoshdan va undan yuqori yoshdagi «qariyalar» ulushi bilan

farqlanadi. A.G. Sundbergning tasnifi bo'yicha, progressiv yosh tarkibida bolalar ulushi 40, qariyalar esa 10 foizni; mos ravishda stasionarda — 27 va 23; regressivda esa 20 va 30 foizlarni tashkil qiladi (4.5-jadval).

4.5-jadval

**Aholi yosh tarkibining turlari, %**

Yosh guruhlari	Yosh tarkibi		
	progressiv	stasionar	regressiv
0-14	40	27	20
15-49	50	50	50
50 va undan yuqori	10	23	30

Aholining mazkur yosh tarkibi turlariga yosh piramidasining turlari mos keladi. Aytish joizki, yosh piramidasining turlari 1930 yillarda nemis statistigi F.Burgderfer tomonidan taklif qilingan.

Aholining yosh tarkibini iqtisodiy baholash nihoyatda muhim. Chunki, aholining iqtisodiy farovonligi mehnatga qobiliyatli yoshdagi ishdagi band bo'lgan aholining soni bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga tushadigan demografik yukni o'rganish lozim.

Demografik yuk koeffitsienti 3 turga ajratiladi:

- bolalarning yuk koeffitsienti;
- qariyalarning yuk koeffitsienti;
- bolalar va qariyalarning yig'indi yuk koeffitsienti.

Ma'lumki, demografik yuk koeffitsienti tadqiqotchi tomonidan qabul qilingan yosh guruhiga bog'liq. Masalan, taniqli demograf Ernst Kan demografik yuk koeffitsientini hisoblashda nemis statistikasida qabul qilingan quyidagi yosh guruhlari sxemasiga asoslangan:

- bolalar (0-14 yosh);
- mehnatga layoqatli yoshdagi aholi (15-64 yosh);
- qariyalar (65 yosh va undan yuqori).

Nemis demografi bu yosh guruhlari sxemasidan kelib chiqib, 15-64 yoshdagi aholiga to'g'ri keladigan demografik yukni hisoblagan. Bu ko'rsatkich quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

1. Bolalarning demografik yuk koeffitsienti

$$W_{b.yu.k.} = \frac{L_{0-14}}{L_{15-64}} \times 100, \quad (4.2)$$

2. Qariyalarning demografik yuk koeffitsienti

$$W_{q.yu.k.} = \frac{L_{65+}}{L_{15-64}} \times 100. \quad (4.3)$$

3. Bolalar va qariyalarning yig'indi yuk koeffitsienti

$$W_{y.yu.k.} = \frac{L_{0-14} + L_{65+}}{L_{15-64}} \times 100, \quad (4.4)$$

bu yerda:  $L_{0-14}$  — 0-14 yoshdagi aholi soni;  $L_{15-64}$  — 15-64 yoshdagi aholi soni;  $L_{65+}$  — 65 va undan yuqori yoshdagi aholi soni<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi milliy statistikasida mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga 16-54 yoshdagi ayollar va 16-59 yoshdagi erkaklar kirganligi bois demografik yuk koeffitsienti quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1. Bolalarning demografik yuk koeffitsienti O'zbekiston belgilangan ayol va erkaklarning mehnatga layoqatlilik yosh chegarasidagi farq hisobga olingan holda quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$W_{b.yu.k.} = \frac{L_{0-15}}{L_{16-54} + L_{16-59}} \times 100, \quad (4.5)$$

bu yerda:  $L_{0-15}$  — 0-15 yoshdagi bolalar soni;  $L_{16-54} + L_{16-59}$  — 16-54 yoshdagi ayollar va 16-59 yoshdagi erkaklar sonining yig'indisi.

<sup>1</sup> Экономико-математический энциклопедический словарь. — Москва, 2003. — С.79.

2. Qariyalarning demografik yuk koeffitsientini hisoblashda ham yuqoridagi holat e'tiborga olinadi va qariyalarning demografik yuk koeffitsienti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$W_{q.yu.k.} = \frac{L_{55+} + L_{60+}}{L_{16-54} + L_{16-59}} \times 100, \quad (4.6)$$

bu yerda:  $L_{55+} + L_{60+}$  — 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar hamda 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar sonining yig'indisi;  $L_{16-54} + L_{16-59}$  — 16-54 yoshdagi ayollar va 16-59 yoshdagi erkaklar sonining yig'indisi.

3. Demografik yukning yig'indi koeffitsientini aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$W_{y.k.} = \frac{L_{0-15} + L_{55+} + L_{60+}}{L_{16-54} + L_{16-59}} \times 100, \quad (4.7)$$

bu yerda:  $L_{0-15} + L_{55+} + L_{60+}$  — 0-15 yoshdagi bolalar, 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar hamda 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklar sonining yig'indisi;  $L_{16-54} + L_{16-59}$  — 16-54 yoshdagi ayollar va 16-59 yoshdagi erkaklar sonining yig'indisi.

Shunday qilib, jinsiy tarkib aholining erkak va ayollarga, yosh tarkib esa ijtimoiy-iqtisodiy, demografik jarayonlarni o'rganish maqsadida aholining yoshlarga bo'linishidir.

#### **4.5. Aholining keksayishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari**

Aholining keksayishi hozirgi davrda zamonaviy demografik hodisa hisoblanib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha bo'lsa-da, barcha mamlakatlar uchun xos bo'lmoqda. Aholining keksayishi aholi umumiy sonida ulug' yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog'ining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishida o'z ifodasini topadi. Ta'kidlash joizki, aholining keksayishi deganda, nafaqat bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining ham ortishi tushuniladi. O'zbekistonda ham bugungi kunda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar demografik jarayonlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi: tug'ilish va o'lim

ko'rsatkichlari keskin kamaydi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi uzaydi. Buning natijasida aholining «keksayishi» jarayoni tezlashdi.

Fanda keksalik, uning dastlabki ko'rinishlari, keksalik yoshi va uning chegaralari kabi masalalar atrofida baxs-munozaralar anchadan beri olib boriladi, lekin so'nggi yillardagina bu masalalar iqtisodiyot, demografiya, sotsiologiya, gerontologiya kabi fanlarning jiddiy tadqiqot ob'yektiga aylandi. Chunki, aholining keksayish jarayoni bilan bir vaqtda keksa kishilarning ijtimoiy, fiziologik va biologik xarakteristikasida tub o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlarning silliqroq kechishi nafaqat sog'liqni saqlash tizimiga, balki jamiyatning boshqa tuzilmalariga — iqtisodiy, ishlab chiqarish, rekreatsiya, ijtimoiy ta'minot, oila va boshqalarga ham bog'liqdir.

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti qarilikni insonning hayoti davomida kechadigan o'zgarishlarni belgilovchi fiziologik jarayon, deb hisoblashni taklif qilgan<sup>1</sup>. Shu bilan birga, keksalikni kasallik bilan tenglashtiruvchi fikrlar ham keng tarqalgan. Biz bu fikrni to'g'ri emas, deb hisoblovchilar fikriga qo'shilamiz. Bizningcha, keksalik kishida namoyon bo'lgach, ular surunkali kasalliklarga tez-tez yo'liqadigan aholi guruhini tashkil etadilar, xolos. Chunki, inson organizmining jismonan qarishi oqibatida kishining tashqi o'zgarishlar va noqulay holatlarga moslashishi susayadi va u tez-tez kasalliklarga chalinadigan bo'lib qoladi. Kexsa kishi mehnatga layoqatsiz va o'zgalar yordamiga muhtoj bo'ladi.

Odatda, mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi pensiya yoshidagi aholi hisoblanadi. Bu yosh chegarasidan boshlab insonda jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi ro'y beradi, uning ijtimoiy-iqtisodiy, jamiyat va oiladagi mavqeida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodchilar aholining bu guruhini qariyalar guruhiga kiritadi.

Inson organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar: jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi, tashqi ta'sirlarga moslashish va javob reaksiyalarining sekinlashuvi va boshqalar

---

<sup>1</sup> Здоровье пожилых // Доклад комитета ВОЗ, Женева, 1992. — С.7.

55-60 yosh chegarasidan yuzaga chiqa boshlaydi. Demak, keksalik davrining boshlanishiga shartli ravishda O'zbekistonda belgilangan mehnatga layoqatli yoshning eng yuqori chegarasini asos sifatida olishni va mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi — 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshdagi erkaklarni qariyalar guruhiga kiritish mumkin, deb hisoblaymiz.

So'nggi yillarda inson umrining keksalik davrini tasniflash bo'yicha xilma-xil yondoshuvlar paydo bo'ldi. Masalan, gerontologlar tasnifiga ko'ra, 60-74 yoshdagilar — qariyalar, 75-84 yoshdagilar — keksalar, 85 va undan yuqori yoshdagilar — juda keksalardir<sup>1</sup>, Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tasnificha, 60-74 yoshdagilar — qariyalar, 75-89 yoshdagilar — keksalar, 90 va undan yuqori yoshdagilar — uzoq umr ko'ruvchilar, deb hisoblanadi<sup>2</sup>.

Bizningcha, bu mezonlarni dunyodagi barcha mamlakatlar aholisi uchun tadbiiq etib bo'lmaydi. Keksalik yoshini bunday davrlarga bo'lishda har bir davlatdagi tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi asos qilib olinishi lozim. Chunki, hozirda aholisi o'rta hisobda 35-40 yil umr ko'radigan mamlakatlar ham bor. Masalan, dunyoda o'rtacha umr davomiyligi 67 yil bo'lsa, Mozambikda — 40 yil, Afg'onistonda — 43 yil, Zambiyada — 35 yil, O'zbekistonda — 71,8 yil, Norvegiyada — 80 yil, Yaponiyada — 82 yildan iboratdir.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida aholining yosh tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, bu davr dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham aholi tarkibida bolalar ulushining kamayib, aksincha qariyalar ulushining ortib borishi bilan tavsiflanadi. Bu hol, o'z navbatida, aholining keksayish jarayoni boshlanganligini ko'rsatmoqda.

Demograf olimlar tomonidan aholining keksayish darajasini «qarish indeksi» yordamida baholash taklif etilgan. «Qarish indeksi» tushunchasi fanga taniqli demograf A.Sovi tomonidan kiritilgan. Frantsuz demografi qarish indeksini mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi (qariyalar) sonining mehnatga layoqatli yoshga-

<sup>1</sup> Возраст мудрости — возраст создания / Программа развития ООН. — Москва, 1999. — С.17.

<sup>2</sup> Калинин И.В. Возрастная структура населения СССР. — М.: Статистика, 1975. — С.12.

cha bo'lgan aholi (bolalar) soniga foizlarda hisoblangan nisbati orqali aniqlashni va aholining keksayish darajasini baholashda hozirda jahonning ko'pchilik mamlakatlarida foydalanilayotgan quyidagi demografik mezonni taklif qildi (4.6-jadval).

4.6-jadval

### Aholining keksayish darajasi mezon\*

Bosqich	Aholining qarish indeksi, %	Aholining qarish darajasi
I	20 dan kam	past
II	20–30	o'rta
III	30 dan baland	yuqori

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, aholining qarish indeksi 20 %dan kamni tashkil etsa, shu hudud aholisining keksayish darajasi past hisoblanadi. Agar qarish indeksi 30 %dan ortsa shu hudud aholisi yuqori darajada keksayayotgan hududlar qatoridan o'rin oladi.

4.7-jadval

### Aholi qarish jarayonining rivojlanish darajasiga ko'ra keksalik tasnifi\*

Bosqich	Qariyalar salmog'i (60 yosh va undan yuqori), % hisobida	Qarish bosqichlari va aholining keksayish darajasi
I	8 dan kam	demografik yosh
II	8–10	qarish bo'sag'asida
III	10–12	haqiqiy qarish
IV	12 va undan yuqori	demografik qari
	12–14	demografik qarilikning boshlang'ich bosqichi
	14–16	demografik qarilikning o'rtacha bosqichi
	16–18	demografik qarilikning baland darajasi
	18 va undan yuqori	demografik qarilikning juda baland darajasi



Muayyan hududda aholining keksayishi jarayonining rivojlanish darajasini baholashda belgilangan yosh chegarasidan yuqori yoshdagi aholi salmog'i ko'rsatkichidan foydalaniladi. Mazkur ko'rsatkichning ortib borishi bilan shu hudud aholisi demografik nuqtai nazardan qari hisoblanishi mumkin. Shu munosabat bilan ko'p mamlakatlardagi olimlar demografik qarilik to'g'risidagi masalani ko'tarmoqda. Masalan, fransuz demograflari Jaklin Bojyo-Garne va E.Rosset demografik qarilikni to'rt bosqichga ajratishni taklif qilgan (4.7-jadval).

4.7-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, muayyan hudud aholisi tarkibida qariyalar ulushi 8 %dan kamni tashkil qilsa, bu hudud aholisi demografik yosh, 12 %dan ko'p bo'lsa demografik qari hisoblanadi. Hozirgi kunda bu holat asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, jumladan Germaniya (24%), Frantsiya (23,7%), Buyuk Britaniya (20,3%) va shu kabilarda kuzatilayotganligining guvohi bo'lamiz.

BMT demograflari demografik qarish darajasini baholash maqsadida uch bosqichli shkala ishlab chiqqan (4.8-jadval).

4.8-jadval

### Aholining keksayish shkalasi

Bosqich	65 va undan yuqori yoshdagilar ulushi, % hisobida	Aholining qarish darajasi
I	4 dan kam	demografik yosh
II	4-7	qarish bo'sag'asida
III	7 dan yuqori	demografik qari

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, BMT demograflari aholining keksayish darajasini baholash uchun keksalik yoshining boshlanish chegarasini asos qilib olgan va unga ko'ra, aholining yosh tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilarning ulushi 7,0 foizdan oshsa, hudud aholisi demografik qari hisoblanadi. Agar dunyo mamlakatlari ushbu tasnif bo'yicha guruhlariga ajratsak, quyidagi holatni ko'ramiz. Unga ko'ra:

- 61 mamlakat aholisi demografik qari;

- 58 mamlakat aholisi demografik qarish bo'sag'asida;
- 73 mamlakat aholisi demografik yosh;
- 23 mamlakat haqida ma'lumot yetarli darajada emas<sup>1</sup>.

Endi yuqoridagilarga asoslangan holda, O'zbekiston aholisining keksayish darajasini baholaydigan bo'lsak, frantsuz demograflari tasnifi bo'yicha 60 va undan yuqori yoshdagilar aholining 6,0 foizini tashkil etadi va respublika aholisi demografik nuqtai nazardan yosh, BMT demograflari tasnifi bo'yicha esa 65 va undan yuqori yoshdagilar aholining 4,5 foizini tashkil etadi va respublika aholisi demografik qarish bo'sag'asida turibdi.

Aholining keksayishi juda uzoq vaqt davomida aholining takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar, aholi migratsiyasi va urushdan keyingi sanitar-demografik holatlar kabi murakkab omillar tufayli sodir bo'ladi. Bugungi kunda aholi keksayishi jarayonining quyidan yoki yuqoridan rivojlanib borishiga qarab «quyidan keksayish» va «yuqoridan keksayish» kabi turlarga ajratiladi:

- **«quyidan keksayish»** — bu tug'ilishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog'ining kamayib, qariyalar salmog'ining esa ortib borishidir;

- **«yuqoridan keksayish»** — bu tug'ilishning kamayishi sharoitida keksa yoshdagi aholi o'rtasida o'limning qisqarishi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining uzayishi hisobiga qariyalar salmog'ining ortib borishidir.

Ilmiy kuzatishlarimiz ko'rsatishicha, aholi asosan tug'ilishning kamayishi hisobiga qariydi, ya'ni «quyidan» keksayish jarayoni sodir bo'ladi. Shu bilan birga, hozirgi davrda rivojlangan G'arb mamlakatlari va Yaponiyada tibbiyot sohasida erishilgan yutuqlar tufayli qariyalar orasida o'lim holatlari keskin kamaydi va aholining o'rtacha umr ko'rish muddati uzaydi. Buning natijasida aholining «yuqoridan» keksayish jarayoni boshlandi.

Aytish joizki, aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi:

- aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi;

---

<sup>1</sup> Медков В.М. Демография. Учебник. — М.: Инфра, 2004. — С.134.

- pensiya jamg'armasi zimmasiga pensiyalar to'lash harajatlarining benihoya og'ir yuki tushadi;

- qariyalarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag' sarflash, geriatric muassasalar tarmog'ini kengaytirish va butun sog'liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi;

- hali ishlashni istaydigan «yosh qariyalarni» ish bilan ta'minlash;

- moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining tuzilmasiga ta'sir qiladi, ya'ni qariyalarning ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Shunday qilib, aholining keksayishi aholi tarkibida qariyalarning ulushining ortishi hisobiga kelib chiqadi va mazkur muammoga duchor bo'lgan har bir mamlakat o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda keksalarning turmush farovonligini oshirishga harakat qilmoqda.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Aholi tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Aholining jinsiy tarkibiga ta'sir etuvchi omillarni aytib bering.
3. Jinslarning birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi nisbatlarini farqlashni tushuntiring.
4. «Aniq yosh» va «yillar to'lgandagi yosh» tushunchalariga ta'rif bering.
5. Aholining yosh tarkibiga ta'sir etuvchi omillarni sanab bering.
6. Aholi ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan yoshiga ko'ra nechta guruhga ajratiladi?
7. Yosh akkumulyatsiyasi deganda nimani tushunasiz?
8. «Yosh kontingenti» tushunchasiga ta'rif bering.
9. Aholining yosh-jins piramidasi qanday maqsadlarda tuziladi?
10. Progressiv. stasionar va regressiv yosh tarkiblarining farqi nimada?
11. Demografik yuk koeffitsienti deganda nimani tushunasiz?
12. Aholining keksayishi qanday demografik, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi?

---

## 5-bob. NIKOH VA AJRALISHNING DEMOGRAFIK MOHIYATI

### 5.1. Nikohning demografik mohiyati va uning turlari

Nikoh demografiya, sotsiologiya, huquq, tarix va psixologiya kabi fanlar tomonidan tadqiq etiladi. Ilmiy adabiyotlarda nikohga quyidagicha ta'rif berilgan: **nikoh** — ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlangan va jamiyat tomonidan tartibga solinuvchi shaklidir. Nikohning huquqiy asoslari — nikoh tuzish va uni bekor qilish shartlari va tartiblari, er-xotinning huquq va majburiyatlari oila kodeksida batafsil yoritilgan.

Demografiya boshqa fanlardan farqli o'laroq nikohning makro-ijtimoiy darajadagi asosiy parametrlarini tavsiflovchi insonlar va demografik hodisalar majmuini o'rganadi.

**Nikoh** — insonlar populyatsiyasida er-xotin juftligining shakllanish jarayonidir. Nikoh demografik tahlilda real yoki gipotetik avlodga nisbatan qaraladi va u qonun yoki an'anaga binoan nikoh yoshiga yetgan, lekin hali nikohdan o'tmagan insonlar (erkak va ayol) o'rtasida tuziladi.

Nikohning shartlari, shakllari va uni tuzish tartiblari turli mamlakat va xalqlarda turlicha bo'lgan hamda tarixiy rivojlanish jarayonlarida o'zgarib turgan.

Jinsiy munosabatlarning dastlabki ijtimoiy tartibga solingan shakli ibtidoiy jamoa tuzumining guruh nikohidir. **Guruh nikohi** qabilalar o'rtasida tuzilgan bo'lib, qabila ichida har qanday jinsiy aloqalar bo'lishiga ruxsat berilmagan. Ko'rinishidan guruh nikohi **dislokal**, ya'ni er va xotin birga yashamasdan bitta maishiy xo'jalik jamoasiga mansub bo'lmagan. Keyinchalik guruh nikohi torayib borib, avval bitta avlodga tegishli shaxslar, keyinchalik esa bir juft shaxslar orasida tuzilgan, ya'ni nikoh juftligiga aylangan.

Dastlab nikoh juftligida er va xotin birga yashagan, keyinchalik esa er xotining qabilasiga (matrilokal nikoh), keyinchalik xotining qabilasiga (patrilokal nikoh) o'tgan. Nikohning bu turlarida

er va xotin o'rtasidagi mulk alohida bo'lgan, guruh nikohidagi ayrim belgilar saqlangan.

Dehqonchilik va chorvachilikka o'tish munosabati bilan erkak kishining xo'jalikdagi o'rni oshib, natijada nikoh juftligi mustahkamlangan, bu monogam nikohning boshlanishiga asos solgan. Monogam nikohning qabila tuzumi parchalangandan so'ng nikoh **monolakal** turga, ya'ni er va xotin bitta oilaga va bitta xo'jalikka mansub bo'lgan holga o'tgan. **Monogam nikoh** deganda, bir erkakning bitta ayol bilan jinsiy va xo'jalik-maishiy ittifoqi tushuniladi, bu esa «monogam nikoh» tushunchasini «oila» va «uy xo'jaligi» tushunchalariga yaqinlashtiradi. Ko'pchilik hududlarda asta-sekin **patrilokal nikoh**, ya'ni xotin va farzandlarning butunlay urning hukmi ostida bo'lishligi tasdiqlandi. Tarixiy rivojlanish davomida nikohning asosiy shakli **monogamiya** bo'lib bordi. Shu bilan birga, ba'zi xalqlarda monogamiya bilan bir qatorda nikohning **poligamiya** (ko'p xotinlik, ko'p erlik) turi ham uchrab turadi.

Nikoh turlarining tasnifi 5.1-jadvalda batafsil yoritilgan.

Nikoh tuzish va nikohdagi juftni tanlash turli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan amalga oshiriladi.

Quldorlik tuzumidagi mamlakatlarda nikoh faqatgina erkin fuqarolar uchun mumkin bo'lgan. Erkin kishilarning qullikdagi ayollar bilan nikohdan o'tishi qat'iy qoralangan. Feodal tuzumidagi davlatlarda esa hukmron sinflar o'rtasida gomogam nikoh tarqalgan, dehqonlar o'rtasidagi nikohlar esa zodagonning ruxsati bilan tuzilgan.

Aytish joizki, industrial jamiyat va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda ayollarning ishlab chiqarishga ko'proq jalb etilishi nikoh jarayonining o'zgarishiga olib keladi. Chunonchi, ta'lim tizimining rivojlanishi ba'zi mamlakatlarda nikoh yoshining kattalashishiga olib keladi, natijada nikohga kirmagan, birgalikda yashovchi erkaklar va ayollar, nikohdan oldingi aloqalar va nikohsiz (noqonuniy) tug'ilgan farzandlar soni ko'payib boradi.

Shu o'rinda «birgalikda yashash» va «birgalikda yashovchilar» tushunchalarining mohiyatini yoritib o'tsak.

Birgalikda yashash — bu nikoh qonunchiligiga mos ravishda ro'yxatdan o'tkazilmagan jinsiy ittifoqdir. Birgalikda yashash jinsiy

## Nikoh turlarining tasnifi

Nikoh turlari va mezonlari	Nikoh turining nomlanishi	Ta'rif (belgilar)
Juftni tanlash	Ekzogamiya	Juft faqat begona guruhdan tanlanadi
	Endogamiya	Juft faqat o'zining guruhidan tanlanadi
Nikoh guruhi o'lchami	Monogamiya	Bir erkakning faqat bitta ayol bilan tuziladigan nikohi
	Poligamiya	Bir erkakning bir nechta ayol yoki bir ayolning bir nechta erkak bilan tuziladigan nikohi
	Poliginiya	Ko'p xotinlik
	Poliandriya	Ko'p erlik
	Guruh nikohi	Bir nechta ayolning bir nechta erkak bilan nikoh ittifoqi
	Juft oila	Monogamiyaning bir turi
Er-xotinning yashash joyi	Patrilokal	Er va xotin erning ota-onasining uyida yashaydi
	Matrilokal	Xotinning ota-onasining uyida yashaydi
	Neolokal (Dislokal)	Er va xotin alohida yashaydi
	Unilokal	Er va xotin birgalikda yashaydi
Er-xotinning tengsizligi	Tengsiz	Er va xotinning jamiyatdagi o'mi, yoshi va daromadlari bir-biridan farq qiladi
Nikoh uchun to'lov	Sotib olinadigan	Ayol kishiga tovar sifatida qaraladi
	Sovg'a	Ayol kishi erkakning qarindoshlariga sovg'a qilinadi
	Ilohiy	Qizlarning xudolar bilan nikohdan o'tishi
	Badal evaziga	Nikoh shartnomasining tomonlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek badal miqdori ko'rsatilgan holda tuzilishi
	Qalin evaziga	Kelinning ota-onasiga qalin to'lash
O'g'irlash	O'g'irlash	Kelin yoki kuyovning o'g'irlanishi

ittifoqning oddiy nomlanishi bo'lib, nikoh qonunchiligiga mos ravishda rasmiylashtirilmagan nikohdir<sup>1</sup>.

Boshqacha qilib aytganda, birgalikda yashash ikkita balog'atga yetgan shaxslarning hamkorlikda bir xo'jalikda yashashi bo'lib, nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari bilan bog'lanmagan, lekin hissiy va jinsiy munosabatga ega bo'lganlardir.

Birgalikda yashovchilarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- «hissiyotga berilganlar», lekin hali nikohga tayyor bo'lmaganlar;
- nikohga kirishni xohlayotganlar va buni amalga oshirishni kutayotganlar;
- iqtisodiy sabablarga ko'ra (kambag'allar) birga yashayotganlar;
- doimiy nikohga muqobil sifatida birgalikda yashashni ma'qul ko'rayotganlar.

Agar birinchi uchta toifadagi odamlar nikohni bor holicha inkor etmasalar-da, nikohga kirish xususida jiddiy qaror qabul qilish uchun bir-birini «sinash» kerak, deb hisoblayotganlar bo'lsa, to'rtinchi toifadagilar esa u yoki bu sabablarga ko'ra, nikohga kirishni istamayotgan odamlarni o'z ichiga qamrab oladi. Birgalikda yashovchi ko'pgina odamlar bungacha qonuniy nikohda bo'lganlar, lekin ularning nikohdagi hayot tajribasi omadsiz bo'lib, ular ajralishga majbur bo'lganlardir. Ular ajralish dramasini yana bir bor boshidan kechirishni va yana «tavakkal» qilishni istamaydiganlar, lekin o'zlari sevadigan hamrohi bilan doimiy jinsiy munosabatlarga nisbatan qarshi bo'lmaganlardir.

Ko'pgina odamlar nikohni ro'yxatdan o'tkazishni istamasligining asosiy sabablari, avvalambor, ular nikohning umrboqiy tavsifga ega ekanligiga ishonmasligi, keyingi ajralish va mulkni bo'lib olish bilan bog'liq murakkabliklarni keltirib chiqarishni istamasliklari hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab birgalikda yashash taraqqiy eta boshlagan. Bunga

---

<sup>1</sup> Социальная энциклопедия. — Москва, 2000. — С.344.

oilaviy siyosat, ya'ni ersiz bolalarini tarbiyalayotgan ayollarga nisbatan turli imtiyozlar va yordam pullarining tadbiiq etila boshlashi sabab bo'lgan. O'z navbatida, bunday choralar birgalikda yashashni va nikohsiz tug'ilishlarning o'sishini rag'batlantiradi.

Birgalikda yashash ko'pchilik hollarda past ta'lim darajasiga ega odamlar, shu jumladan, ota-onalari nikohda bo'lmaganlar yoki ularning nikohlari omadsiz bo'lganlar orasida keng tarqalgan. Masalan, bugungi kunda nikohga qobiliyatli aholi tarkibida noqonuniy nikohlar ulushi 31 foizni (erkaklarda 33, ayollarda 29 %) tashkil qiladi.

Aytish lozimki, birga yashovchilikning ortishi mamlakatlarda jinsiy inqilobning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Jinsiy inqilob — bu yoshlarning isyonkorona harakati bilan bog'liq jinsiy munosabatlar sohasida an'anaviy me'yorlar, cheklovlar va ta'qiqqlarning tubdan buzilishidir.

Jinsiy inqilob rivojlanishining qator sabablari mavjud. Ma'lumki, XX asrda g'arb mamlakatlarida ayollarning o'rni ma'lum darajada o'sdi. O'z navbatida, bu ikkinchi jahon urushi bilan bog'liq, ya'ni erkaklar harbiy xizmatga ketib, ularning ko'pchiligi ortga qaytmagan yoki nogiron bo'lib qolgan. Ayollar o'zlarining va farzandlarining tirik qolishi uchun butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga majbur bo'lgan.

Ayol iqtisodiy munosabatlarda nisbatan mustaqil bo'ldi, bu iqtisodiyotga yo'naltirilgan jamiyatda ma'lum ijobiy oqibatlariga olib keldi, masalan, o'z taqdirini mustaqil tanlash imkoniyatlari vujudga keldi. Sevish va suyakli bo'lish uchun turmushga chiqish shart emas, degan tushuncha paydo bo'ldi. Ko'pgina ayollar ongli ravishda o'z mansablari bilan shug'ullangan hamda o'zlarini «yurakka yaqin olgan do'stlari» bilan nikoh munosabatlarini bog'lamagan holda mustaqil hayot (Yevropada) olib borishni afzal ko'radilar.

Jinsiy inqilob qator demografik va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keldi va ulardan biri oilaviy munosabatlarning o'zgarishi bo'ldi. Bunda ayollarni iqtisodiy tobelikdan ozod etish birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina ajralishlarning tashabbuschilari ayollar ekani tasodif emas. Ular bunday qadamni qo'ygani holda o'zlarining



hayotlarini yo'lga qo'yish va farzandlarini oyoqqa turg'azish uchun ishlab pul topa olishlariga ishonadilar. Shu bilan birga, 30 yoshdan oshgan ba'zi ayollar ersiz o'zi uchun farzand ko'rish kerakligini ma'qul ko'radi.

Hozirgi kunda ayollar saqlanishi uchun mo'ljallangan 20 dan ortiq kontraseptik vositalar mavjud bo'lib, ular yordamida ayol javobgarlikni o'z zimmasiga olishi va istalmagan homiladorlikdan saqlanishi mumkin.

O'sib borayotgan oshkoralikka intilish yo'nalishi jinslarning nafaqat jamoatchilik, balki shaxsiy hayotda ham tenglikka egaligini ko'zda tutadi. Jinsiy inqilobning oqibatlaridan yana biri — jinslar o'rtasidagi munosabatlarda teng huquqli hamkorlikni anglash hisoblanadi. Mazkur jihatdan erkak va ayol o'rtasidagi (jinsiy aloqa boshlagan yoshi, jinsiy sheriklari soni, jinsiy aloqalar chastotasi va h.k.) an'anaviy farqlar sezilarli tarzda qisqarmoqda.

Demograf olimlar ayollarni ijtimoiy holatlarining o'zgarishi, ayniqsa, ularning oliy ma'lumotga ega bo'lishi, mansab sari intilishlari Yevropa xalqlari hayoti xavf ostida qolayotganligi haqida ogohlantirmoqda. Shu o'rinda aytish lozimki, G'arbda boshlangan va o'z cho'qqisiga yetgan jinsiy inqilob boshqa mamlakatlar sivilizatsiyasiga, ularning jamoaviylik, oilaviylik, ijtimoiy xavfsizlik, adolatlilik, qayg'urish, an'anaviylik va h.k. etnik va ma'naviy qadriyatlarini hisobga olmagan holda otilib kirmoqda. Bu esa, mazkur mamlakatlarda demografik inqirozning yanada kengayishiga olib keladi.

O'zbekistonda nikoh oila kodeksi bilan tartibga solinadi. Respublikada nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarida tuziladi. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. Alohida hollarda (homiladorlik,

bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi) nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin<sup>1</sup>.

Ko'pchilik chet mamlakatlarda nikoh, odatda fuqarolik huquqiy bitim hisoblanib, nikoh tuzish va oiladagi boshqa munosabatlarga oid savollar fuqarolik qonunchiligi asosida tartibga solinadi. Nikoh tuzishda bo'lg'usi er-xotinning mol-mulki umumiy yoki alohida bo'lishligiga katta ahamiyat beriladi.

Barcha jamiyatlarda nikoh tuzish uchun shaxslar nikoh yoshiga (qonunda ruxsat etilgan yoki an'analariga ko'ra) yetgan bo'lishlari lozim. Ko'pchilik mamlakatlarda nikoh yoshi nikohga kiruvchilarning jinsiy, ruhiy va ijtimoiy yetukligi hamda shu mamlakat udum va an'alarini hisobga olgan holda qonun tomonidan belgilanadi. Ilgari nikohga kirish yoshi diniy me'yorlar bilan belgilangan hamda erkaklar va ayollar uchun bir xilda kichik bo'lgan. Katoliklarda nikoh yoshi ayollar uchun 12, erkaklar uchun 14, protestantlarda har ikkala jins vakillari uchun 14 yosh, deb belgilangan.

Islomda nikohga kirish yoshi bir xil belgilanmagan. Shariat qoidalariga ko'ra, qiz bola 9 yoshida, o'g'il bola esa 12 yoshida balog'atga yetgan, deb hisoblangan hamda oila qurishi mumkin bo'lgan.

O'zbekistonda nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin<sup>2</sup>.

Ba'zi mamlakatlarda nikoh yoshini tartibga soluvchi qonunlarning mavjud emasligi, qonunda ko'rsatilgan nikoh yoshining kichikligi, ayollarning oiladagi va jamiyatdagi huquqiy tengsizligini keltirib chiqaradi. Shu nuqtai nazardan 1967 yil 7 noyabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan deklaratsiyada to balog'atga yetmaganlariga qadar qizlarning nikohdan o'tishlarini ta'qiqlash va nikohga kirishning minimal yoshini belgilashga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor berilgan.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. — Т.: Адолат, 2007. — 8-б

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. — Т.: Адолат, 2007. — 8-9 б.

Aholi orasida nikoh juftligining hosil bo'lish jarayoni birinchi va takroriy nikohga kirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, nikoh «nikoh bozori»dagi holat, nikoh aylanasi shakllanishi, nikohdagi tanlashning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

«**Nikoh bozori**» — bu nikohga layoqatli aholining turli guruhlaridagi nisbatlar tizimini ko'rsatuvchi shartli belgidir. Mazkur bozordagi holat nikohga kirish ehtimolligiga, muayyan hudud aholisining jinsiy tarkibiga va nikohga layoqatli aholi tarkibidagi salohiyatli nikoh juftliklarining soniga bog'liq.

**Nikoh aylanasi** nikohdagi juftliklar yig'indisidan iborat bo'lib, jamiyatdagi qonunchilik, ma'naviy-etnik me'yorlar, juftliklarning shaxsiy sifatlari va ijtimoiy-iqtisodiy holatlari bilan belgilanadi.

**Nikoh tanlovi** berilgan nikoh aylanasi ichida nikoh juftliklarini tanlashdan iborat bo'lib, unga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, psixologik va antropologik mezonlar ta'sir o'tkazadi hamda ularning har birining ta'siri vaqt davomida o'zgarib turadi.

## 5.2. Nikoh holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Nikoh holatini tadqiq va tahlil qilishda uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Aytish joizki, nikoh haqidagi ma'lumotlar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilishni tahlil qilish natijasida olingan statistik ma'lumotlar, aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari va tekshiruv natijalari asosida to'planadi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish ma'lumotlari asosida nikoh bo'yicha maxsus statistik shakllar ishlab chiqilib, ular jarayonning asosiy tavsiflarini tadqiq qilishda baza vazifasini o'taydi. Aholini ro'yxatga olish jarayonida so'rovnoma to'ldirayotgan shaxsning nikohdagi holati so'raladi va natijada aholi orasidagi nikohlar soni aniqlanadi. Aholining nikoh holati o'rganilayotgan ijtimoiy-demografik jarayonning chastotasi, darajasi, davomiyligi, mustahkamligini belgilovchi tavsiflar asosida hamda nikoh tuzuvchi shaxslarning yoshlarini inobatga olgan holda o'rganiladi.

**Nikoh holatini ifodalovchi demografik ko'rsatkichlar** quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- avlodlar orasidagi nikoh va nikohsizlik holatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- nikohga kirishning umumiy chastotasini o'lchovchi ko'rsatkichlar;
- nikohdan o'tuvchi shaxslarning yoshini belgilovchi ko'rsatkichlar;
  - beva bo'lib qolish chastotasi;
  - nikohning mustahkamligi va ajralishlar chastotasi;
  - takroriy nikohlarning tarqalganlik ko'rsatkichlari;
  - nikohdagi juftni tanlash xususiyatlari.

**Nikoh holati** — demografik tahlildagi aholining muhim tarkibiy tavsifi bo'lib, muayyan vaqtdagi nikoh jarayonidir. Nikoh holati nikoh yoshida bo'lgan erkak va ayollar mutlaq sonining aholining o'rtacha yillik soniga nisbati orqali aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkich aholining ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra aniqlanadi. Masalan, 1897 va 1926 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatida nikoh holatining quyidagi turlari inobatga olingan: hech qachon nikohda bo'lmaganlar, nikohdagilar, bevalar va ajrashganlar. 1979 va 1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida ajrashganlar, lekin amalda birga yashayotgan shaxslar turkumi qo'shilgan. Bundan tashqari, 1939, 1959 va 1970 yildagi ro'yxatlarda aholi faqat nikohda bo'lganlar va nikohda bo'lmaganlarga ajratilgan.

Aholining nikoh holatiga aholining yosh-jinsiy tarkibi, birinchi nikohdan o'tuvchilarning o'rtacha yoshi, oldingi tug'ilish darajasi ta'sir etadi. Har bir avlod ma'lum bir tarixiy sharoitda shakllanganligi uchun ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar: aholining nikoh institutiga munosabatini belgilovchi ijtimoiy xulq me'yorlari, iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlar (urush, inqilob, qatag'on) nikoh holatiga ta'sir ko'rsatadi.

Nikoh holatiga yosh tarkibining ta'sirini belgilovchi eng qulay ko'rsatkich — bu nikohning u yoki bu holatidagi o'rtacha yashash muddatidir. Masalan, nikoh holatidagi o'rtacha yashash muddatini aniqlash uchun nikohda turgan ayollar va erkaklar sonini, o'zlari mansub bo'lgan yosh guruhlarning intervali kattaligiga ko'pay-

tirilib, hosil bo'lgan ko'paytmalar qo'shiladi. Biroq, bu usul bilan hisoblangan ko'rsatkichlarda nikoh holatiga o'limning ta'siri hisobga olinmagan bo'ladi. Mazkur ko'rsatkich nikohda turganlar haqidagi ma'lumotlarni standartlash imkonini beradi, shu sababli ulardan qiyoslash uchun foydalanish mumkin. Bu interval, ko'pincha 15-49 yoshdagi ayollarning reproduktiv vazifalarini amalga oshirishlarini nikohda turganliklarining davomiyligiga bog'liqligini hisoblash uchun qo'llaniladi.

**Mutlaq nikohsizlik darajasi** odatda aholining 50 yoshgacha bo'lgan va hech qachon nikohda bo'lmagan ayol va erkaklar soni bilan tavsiflanadi. Bu ko'rsatkich tadqiqot olib borilayotgan avlodlarning qancha qismi nikohga kirmaganligini ko'rsatadi (5.2-jadval).

5.2-jadval

### Mutlaq nikohsizlik darajasi mezon

Mutlaq nikohsizlik ko'rsatkichi, %	Nikohsizlik darajasi
5 dan kam	past
5-9	o'rtacha
10 va undan yuqori	yuqori

Bugungi kunda O'zbekistonda aholining mutlaq nikohsizlik darajasi past hisoblanadi, ya'ni 5,0 foizdan kamni tashkil etadi. Aholi ro'yxati ma'lumotlaridan olingan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, turli yoshdagi ayollar (real avloddagi) orasida mutlaq nikohsizlik darajasi faqat urush yillari va undan keyingi nikoh bozorining deformatsiyasi davridagina yuqori bo'lgan.

Nikohga kirishning umumiy chastotasini o'lchovchi ko'rsatkichlarga nikohning umumiy va maxsus koeffitsientlari kiradi.

**Nikohning umumiy koeffitsienti** muayyan hududdagi aholi orasidagi bir yilda har 1000 ta kishiga to'g'ri keladigan nikohlar sonini anglatadi.

Aytaylik:  $S$  — aholining o'rtacha yillik soni,  $T$  — ko'rsatkichni hisoblash lozim bo'lgan davr,  $V$  — tuzilgan nikohlar soni bo'lsa,

$b$  — nikohning umumiy koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$b = B / ST \times 1000 \quad (5.1)$$

Ushbu ko'rsatkichning kamchiligi shundaki, u aholining yosh tarkibi va nikoh tarkibiga bog'liq bo'lib, nikohni hududlararo qiyoslashni qiyinlashtiradi.

Nikohning maxsus koeffitsienti nikohga layoqatli yoshdagi aholi orasida alohida erkaklar va ayollarning nikohdan o'tish hodisasini baholash uchun qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich nikohning umumiy koeffitsientiga o'xshash hisoblab topiladi, faqat bunda kasrning suratida 16 va undan yuqori yoshdagi (nikohga layoqatli) aholi soni yoki ma'lum nikoh holati (hech qachon nikohda bo'lmaganlik)da bo'lgan aholi soni kiritiladi. Biroq, bu ko'rsatkichni ham aholini yosh tarkibi bo'yicha standartlashtirish lozim.

Nikoh holatini baholash uchun eng maqbul usul — bu nikohning yig'indi koeffitsienti hisoblanadi. Mazkur koeffitsient bir avloddagi insonlarning butun hayoti davomida tuzilgan nikohlarning shartli o'rtacha sonini tashkil qiladi. Bu koeffitsient 16-69 yoshdagi ayollar va erkaklarning nikohdagi yosh koeffitsienti yig'indisi tarzida, odatda bir kishiga nisbatan quyidagicha hisoblanadi:

$$NYuK = n \sum_{16}^{69} B_x / 1000. \quad (5.2)$$

Bu yerda:  $V_x$  — yosh koeffitsientlari;  $n$  — yosh interali uzunligi.

Nikohning yig'indi koeffitsientini barcha nikohlar, shu bilan birga, birinchi va takroriy nikohlar uchun ham hisoblash mumkin.

Odatda, birinchi nikohlar uchun nikohning yig'indi koeffitsienti 16-49 yoshdagi aholi guruhlari uchun hisoblanadi.

**Nikohning yosh koeffitsientlari** alohida yoshda nikoh qurish chastotasini tavsiflaydi. U ikki usulda hisoblab topiladi.

Birinchi usul muayyan yoshda nikoh qurgan shaxslarning sonini, shu yoshdagi nikohga layoqatli aholi soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Ko'rsatkichlarni nikohning barcha va alohida holatlari: bo'yodoqlar, turmushga chiqmaganlar, bevalar, ajrashganlar uchun hisoblash mumkin.

Ikkinchi usulda esa kasr suratiga shu yoshda bo'lgan aholining umumiy sonini qo'yish orqali topiladi.

Nikohning yig'indi koeffitsientini tahlil qilishda 50 yoshgacha bo'lgan aholi orasidagi birinchi nikohlarni hisoblash koeffitsientlari muhim ahamiyatga ega. Agar bu koeffitsientlar birdan yuqori bo'lsa, bu nikoh jarayonining yosharganligidan, birdan past bo'lishi nikohdan o'tishni orqaga surishning keng tarqalganligidan dalolat beradi. Nikohning yig'indi koeffitsienti aholining nikoh tarkibi va nikoh taqvimiga bog'liq bo'ladi.

**Nikohga kirishning o'rtacha yoshi** — nikoh harakatining asosiy tavsiflaridan biri bo'lib, aholini ro'yxatga olish va shu yili nikohdan o'tgan shaxslarning yoshlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan joriy xisob-kitoblar asosida topiladi. Buni bir necha ko'rsatkichlar orqali hisoblash mumkin.

**1. O'rtacha arifmetik yosh.** Bu ko'rsatkichning suratida turli yoshlarda tuzilgan nikohlar yig'indisi, maxrajida esa nikohdan o'tganlarning umumiy soni turadi:

$$x = \frac{\sum (x + 0,5) Bx}{\sum Bx}, \quad (5.3.)$$

bu yerda:  $x$  — individning nikohga kirish yoshi;  $Bx$  —  $x$  yoshda nikohdan o'tganlar soni.

Bu ko'rsatkichdan O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasida va uning hududiy boshqarmalarida foydalanadi.

**2. O'rtacha mediana yoshini** aniq bir yilda tuzilgan nikohlarni 100 000 ta nikohga taqsimlab topiladi. Shunda bu ko'rsatkich 100 000 umumiy nikohlarning 50000 tasi nikohga kirish yoshiga mos keladi. Bu ko'rsatkichni hisoblash zahirida avvalgi va keyingi yoshlar o'rtasida nikohlar barobar taqsimlanadi, degan taxmin yotadi.

Nikoh holatini tahlil qilishda o'rtacha moda yoshi ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi. **O'rtacha moda yoshi** deganda, nikohlarning eng katta qismi tuzilgan yosh nazarda tutiladi. Masalan, O'zbekistonda o'rtacha nikohga kirish yoshi 1930-yillarning o'rtalaridan to ikkinchi jahon urushi boshlanguniga qadar oshib borishga moyil bo'lgan. Urushdan so'ng u bir muncha pasaydi. Biroq, bu pasayish uzoq davom etmadi va ikki yil davomida (1948-1950) nikoh bozoridagi katta mutanosiblik ta'sirida o'rtacha nikohga kirish yoshi erkak va ayollarda ikki

yoshga kattalashdi. Bugungi kunda esa nikohga kirishning o'rtacha yoshi yil sayin oshib bormoqda.

Nikoh bozorida juft tanlashga ta'sir etuvchi ijtimoiy, demografik, madaniy va boshqa omillarni tahlil qilishda nikoh indeksidan foydalaniladi.

**Nikoh indeksi** — demografik ko'rsatkich bo'lib, nikohdagi juftlikning biron bir belgisi (yoshi, millati, ma'lumoti, daromadi va h.k.) ga qarab tanlash darajasini o'lchash uchun qo'llaniladi. Nikohning gomogamiya (tortilish, intilish) va geterogamiya (qochish) indeksleri farqlanadi. Bu indekslar M.V. Ptuxa tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularni tuzishda erkaklar va ayollar uchun alohida nikohlarni joriy ro'yxatga olishning quyidagi formula asosida hisoblangan ma'lumotlaridan foydalaniladi:

$$S' = (AT - CL) / L(T - C); S'' = (AT - CL) / C(T - L) \quad (5.4.)$$

Bu yerda:  $S'$ ,  $S''$  — erkaklar va ayollar uchun gomogamiya indeksleri;  $L$ ,  $C$  — nikohga kirgan ayollar va erkaklar soni;  $A$  — ularning orasidagi nikohlar soni;  $T$  — nikohlarning umumiy soni.

Ikkala jins uchun gomogamiya indeksi ayollar va erkaklar uchun topilgan indeksning geometrik o'rtacha qiymati bo'yicha aniqlanadi. Gomogamiya indeksi +1 dan 0 gacha, ya'ni juftlikning ushbu xususiyatlariga nisbatan maksimal moyillikdan butunlay befarqlikkacha o'zgarib turadi. Agar nikoh juftlarini tiklashda ma'lum guruhdagi juftlikning nikohiga nisbatan salbiy munosabat kuzatilsa, ya'ni  $(AT - CL) < 0$ , geterogamiya indeksi quyidagicha aniqlanadi:  $a = (AT - CL) / CL = AT / CL - 1$ .

Shunday qilib, aholining nikoh tarkibini tahlil qilishda nikohning umumiy, maxsus, yosh va yig'indi koeffitsientlari hamda nikoh indeksidan foydalaniladi.

### 5.3. Ajralish va uning ko'rsatkichlari

**Ajralish** avloddagi nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohning bekor qilinishidir. Ajralish ham nikoh singari demografiyadan tashqari yana bir qator fanlar: xususan, huquq, sotsiologiya, psixologiyalarning tadqiqot



predmetlari jumlasiga kiradi. Nikohning huquqiy jihatdan bekor qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar manbai bo'lib, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarining ma'lumotlari xizmat qiladi.

Ajralish murakkab ijtimoiy jarayon bo'lganligi bois, uning ijtimoiy-demografik omillari hali yetarli darajada o'rganilmagan hamda ajralish qonuniyatlarini tushuntiruvchi umumiy konsepsiya ishlab chiqilmagan.

Ajralish qadimda islom aqidalariga ko'ra amalga oshgan va bu jarayon «taloq» deb atalgan. «Taloq» arabcha so'z bo'lib, ozod bo'lmoq, ajralmoq, degan ma'nolarni bildiradi. Islom aqidalariga ko'ra, taloq erkak tomonidan aytilmaguncha er-xotinning ajralishi qonuniy hisoblanmagan. Agar ayol tomondan nikohning bekor etilishi talab qilinsayu, erkak bunga norozi bo'lsa, taloq kuchga kirmagan. Shariat qonunida erkak «taloq» so'zini hushyor va sog'lom paytida aytib, o'zi iqror bo'lgandagina taloq qonuniy bo'lgan<sup>1</sup>.

Nikohning barqarorligi yoki ajralishga nikohgacha va nikoh davridagi qator omillar ta'sir ko'rsatadi. 5.3-jadvalda nikohning barqarorligiga ta'sir etuvchi nikohgacha bo'lgan omillar keltirilgan.

5.3-jadvaldan ko'rinib turganidek, erkak va ayolning erta nikohga kirishi, nikohga kech kirish, xotin yoshining eridan katta bo'lishi, xotinning oliy ma'lumotga ega bo'lishi, er-xotinning kelib chiqishi, nikohdan oldingi homiladorlik kabi nikohgacha bo'lgan omillar ajralishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Nikohgacha bo'lgan omillar qatori nikoh davridagi omillar ham ajralishga sabab bo'ladi (5.4-jadval).

5.4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, ayolning yuqori reproduktiv holati, asosiy oilaviy muammolarni birgalikda yechishi, er-xotinning bo'sh vaqtini birgalikda o'tkazishi nikohning barqarorligiga olib keluvchi omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, nikoh davrida er va xotinning reproduktiv holatining bir-biriga to'g'ri kelmasligi, spirtli ichimliklar iste'mol qilishi, ma'naviy muloqotda

---

<sup>1</sup> Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. — Т.: Университет, 1997. — 84 б.

### Nikoh barqarorligiga ta'sir etuvchi nikohgacha bo'lgan omillar

Bevosita	Aksincha
Erning oliy ma'lumoti	Erkaklar va ayollarning erta nikohga kirishi
Oilaning umumiy ijtimoiy ahvoli	Nikohga kech kirish
Ota-onalarning oilaviy hayoti muvaffaqiyatining respondentlar tomonidan ijobiy baholanishi	Xotin yoshining eridan katta bo'lishi
Nikohdan oldingi tanishuvning davomiyligi	Xotinning oliy ma'lumoti
Bir-biri haqidagi birinchi o'zaro ijobiy taassurotlari	Er va xotinning kelib chiqishi shaharlik yoki xotin shaharlik, er qishloqlik
Ish, o'qish sharoitida tanishuv	To'liq bo'lmagan oilada tarbiya topish
G'amxo'rlik	Bo'lg'usi er-xotinlarda aka, uka, opa-singillarning yo'qligi
Nikoh tuzish tashabbusining erkak kishi tomonidan berilishi	Tanishuv davridagi munosabatlarning mustahkam emasligi
Uzoq o'ylamasdan (2 haftacha) nikoh taklifini qabul qilish	Nikohdan avvalgi homiladorlik
Nikohni ro'yxatga olinishining to'y marosimi bilan kuzatilishi	Ota-onalarning nikohga salbiy munosabati

er va xotin xulqining to'g'ri kelmasligi, jinsiy munosabatlardan qoniqmaslik va ota-onaning salbiy munosabati ajralishga sabab bo'ladi.

Ajralishning demografik mohiyatini ochishda **ajralish chas-totasini o'lchovchi ko'rsatkichlardan** foydalaniladi. Ular jumlasiga ajralishning umumiy, yosh, maxsus va yig'indi koeffitsientlari kiradi. Shuningdek, ajralishning maxsus koeffitsienti ham qo'llaniladi. Bu koeffitsient aholini ro'yxatga olish va joriy ro'yxatlar ma'lumotlariga ko'ra ma'lum davr mobaynidagi ajralishlar sonining shu davr o'rtasidagi nikoh juftliklarini o'rtacha soniga nisbatiga teng.

### Nikoh barqarorligiga ta'sir etuvchi nikohdagi omillar

Bevosita	Aksincha
Ayolning yuqori reproduktiv holati	Er va xotinning reproduktiv holatining bir-biriga to'g'ri kelmasligi
Oilada ota-onalarning mavjudligi	Er-xotinning spirtli ichimliklar iste'mol qilishi
Asosiy oilaviy muammolarni birgalikda yechishi	Ma'naviy muloqotga er va xotin xulqining to'g'ri kelmasligi
Er-xotinning bo'sh vaqtini birgalikda o'tkazishi	Bir-birini qo'llab-quvvatlashning yo'qligi
Hayotning turli jabhalarida nizolarning kamligi	Jinsiy munosabatlardan qoniqmaslik
Er-xotin bir-birini yuqori hurmat qilishi va hissiy qabul qilishi	Oilaga ota-onaning salbiy munosabati

Ajralishning barcha koeffitsientlari ichida nafaqat ajralishlar chastotasi, balki nikohni bekor qilishda uning davomiyligini ham aniqlash imkonini beruvchi eng aniq ko'rsatkich — bu nikohning berilgan davomiyligining maxsus koeffitsientidir. Koeffitsient — shu yili (ma'lum yilda) ma'lum muddat davom etgan nikohlarning bekor qilinishi sonini, ilgari tuzilgan nikohlar soniga nisbati bilan hisoblanadi.

**Takroriy nikoh** — bu ajrashganlar va bevalarning tuzgan nikohidir. Aholida ajralish darajasi yuqori bo'lgan sharoitda ular qoplovchi rol o'ynaydi. Takroriy nikoh koeffitsientlari birinchi nikoh koeffitsientlariga mos holda bevalar va ajrashganlar, takror nikohga kirganlar soni aholi ro'yxatlaridagi ma'lumotlar asosida hisoblanadi.

Yangi nikohga kirish chastotasi takroriy nikohning maxsus va yosh koeffitsientlari yordamida aniqlanadi. Nikohlarni tugatish va takror nikohga kirish hodisalarini o'zaro taqqoslash taroriy nikohni, ajralish va bevalikning qay darajada qoplanganligini baholashga yordam beradi.

Takror nikohga kirishning o'rtacha yoshi nikohga kirish ketma-ketligi yoshining o'rtacha miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Nikoh ikkita sabab bilan to'xtatilishi mumkin: ajralish tufayli va umr yo'ldoshlardan birining o'limi sababli. Shuning uchun nikohlarning to'xtatilish ko'rsatkichlari ajralish hamda o'lim va beva qolish ko'rsatkichlariga bo'linadi.

Ajralish jarayoni ajralishning maxsus ko'rsatkichlari yordamida quyidagicha hisoblanadi:

$$u = \frac{D}{\bar{S}_t^m}. \quad (5.5)$$

Bu yerda:  $u$  — ajralish koeffitsienti;  $D$  esa  $t$  vaqtdagi ajralishlar soni;  $\bar{S}_t^m$  —  $t$  vaqtdagi uylanganlar (turmushga chiqqanlar)ning o'rtacha soni.

Aniqki, ajralishning maxsus koeffitsienti erkaklar va ayollar uchun bir xil. Ajralishning maxsus koeffitsientlari har bir yosh uchun va har bir nikoh davomiyligi uchun alohida hisoblab chiqilishi mumkin, lekin ularni bir vaqtning o'zida nikoh davomiyligi va turmush o'rtoqlardan birining nikohga kirish yoshi bo'yicha hisoblab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday holda ular ajralish ehtimoliga aylantiriladi va ajralish jadvalini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ajralish jadvallari nikoh davomiyligi bo'yicha har bir nikohga kiruvchi yoshlar uchun alohida tuziladi. Ajralish jadvallarini tuzishda nikoh jadvalini tuzishdagi kabi usul qo'llaniladi:  $u$  sof (faqat ajralishlarni hisobga olishi va nikohni buzilishining boshqa vaziyatlarini tushirib qoldirishi) va kombinatsiyalashgan (ajralishlarni, o'lim va beva qolishlarni ham hisobga olishi) jadval bo'lishi mumkin.

Nikohning mustahkamligi va davomiyligini tavsiflab beruvchi jadvallarning bunday majmui katta ahamiyatga ega, lekin ular kerak bo'ladigan statistik ma'lumotlarning mavjud emasligidan kamdan-kam hollarda tuziladi.

Bevalik ko'rsatkichlarining tuzilishi yetarli darajada oddiy bo'lib, ular har bir yilda beva qolgan ayollarning soni ushbu yilda

o'lgan erkaklarning soniga teng (yoki aksincha). Shuning uchun ayollar bevaligining maxsus koeffitsienti  $V$  quyidagiga teng:

$$V_t = \frac{{}^m M_t^m}{\overline{W}_t^m}; \quad (5.6)$$

Bu yerda:  $\overline{W}_t^m$  —  $t$  yildagi erli ayollarning o'rtacha soni. Aniqki, monogamiya sharoitlarida erli ayollarning soni uylangan erkaklarning soniga teng, shuning uchun erkaklar va ayollar bevaligining maxsus koeffitsientlarining maxrajari teng.

Nikoh to'xtatilishining maxsus koeffitsienti uchta koeffitsient yig'indisidan, ya'ni ajralishning, erkaklar va ayollar bevaligining maxsus koeffitsientlaridan tashkil topadi:

$$P_t = U_t + V_t^m + V_t^{\text{ж}} = \frac{D_t + {}^\mu M_t^m + {}^F M_t^m}{\overline{S}_t^\mu}. \quad (5.7)$$

Agar yil davomida tuzilgan nikohlar sonini mavjud nikohlarning o'rtacha soniga tenglashtirsak, nikohlar soni o'sishining koeffitsienti kelib chiqadi, agar undan nikohlar buzilishining koeffitsientini olib tashlasak, nikohlar soni sur'atining koeffitsientini chiqarib olish mumkin bo'ladi:

$$R_t = b_t - P_t = \frac{B_t - D_t - {}^\mu M_t^m - {}^F M_t^m}{\overline{S}_t^m}. \quad (5.8)$$

Ushbu koeffitsientni nikohga kira oladigan yoshdagi aholining tabiiy o'sishi sur'ati koeffitsienti bilan solishtirish mumkin, bu esa aholining nikoh tarkibi yaxshilanayotganligi yoki yomonlashayotganligini baholash imkonini beradi. Chunki, odatda erning yoshi ayolnikidan nisbatan katta, erkaklarning asosan og'ir jismoniy mehnatda band bo'lganligi bois erkaklar o'limi yuqori bo'ladi, natijada ayollarning bevalik koeffitsienti erkaklarnikiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Aniqki, bevalikning maxsus koeffitsientlari nikohda bo'lganlarning tarkib topgan yosh tarkibiga bog'liq bo'ladi, shuning uchun tahlilda uning ta'sirini e'tiborga olish lozim.

$y$  yoshdagi erkak bilan nikohda bo'lgan  $x$  yoshdagi ayol uchun beva qolish ehtimoli yoshdagi uylangan erkakning o'lim ehtimoliga teng bo'ladi.

Agar  $x$  yoshdagi ayolning beva qolish ehtimolini  $V_x$  bilan belgilab, yoshdagi erkaklar bilan nikohda bo'lgan  $x$  yoshdagi ayollarning hissasini  $J_y$  bilan belgilab olsak, unda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$V_x = \sum J_y \cdot q_y^m. \quad (5.9)$$

Agar nikohning saqlanib qolishini ma'lum bir vaqtdan keyingi nikoh tuzilishi orqali qarab chiqadigan bo'lsak, saqlanib qolingan nikohlar hissasini osongina o'lim jadvali ko'rsatkichlaridan chiqarib olishimiz mumkin. Masalan, agar  $T$  yilda yoshdagi erkaklar bilan  $x$  yoshdagi ayollar o'rtasidagi  $U_{x,y}$  nikohlar tuzilgan bo'lsa,  $t$  yildan so'ng ulardan quyidagilar saqlanib qoladi:

$$U_{t,x,y} = U_{T,x,y} \frac{L_{x+t}^m}{L_x^m} \cdot \frac{L_{y+t}^m}{L_y^m}. \quad (5.10)$$

Masalan, agar 25 yoshdagi erkaklar bilan 20 yoshdagi ayollar o'rtasidagi 10000 ta nikoh tuzilgan bo'lsa, 30 yildan so'ng eri 55 yoshga, xotin 50 yoshga to'lganda, bunday nikohlardan 77,35 foizi qoladi:

$$10000 \cdot \frac{75393}{91045} \cdot \frac{87382}{93546} = 7735.$$

Xuddi shu tamoyil asosida nikoh davomiyligi bo'yicha bevalik jadvalini tuzish mumkin. Agar bir yilning o'zidagi er va xotinning o'lim ehtimolini hisobga oluvchi aniqliklarni e'tiborga olmaydigan bo'lsak, nikohning  $t$  yilidagi xotin uchun beva bo'lib qolish ehtimoli nikohning  $t$  yilidagi erning o'lim ehtimoliga teng bo'ladi. Agar  $B_x$   $x$  yoshdagi nikohga kirgan erkaklarning hissasi deb olinadigan bo'lsa, nikohning  $t$ -yilidagi ayolning beva qolish ehtimoli quyidagiga teng bo'ladi:

$$V_t = \sum B_x \frac{L_{x+t+1}^M}{L_{x+t}^M}. \quad (5.11)$$

Bu yerda:  $L_x^M$  — uylangan erkaklar uchun o‘lim jadvali bo‘yicha statsionar aholi soni.  $B_x$  ni taqsimotini nikoh jadvali bo‘yicha olish mumkin. Nikoh davomiyliklar qatori uchun beva qolish ehtimoliga ega bo‘la turib, nikohlarning boshlang‘ich miqdorini 10000 ga teng deb e‘tiborga olgan holda beva qolish jadvalini tuzish va demokratik jadvallar uchun xos bo‘lgan barcha ko‘rsatkichlarni yoyib yuborish mumkin. Bunda murakkablik shundan iboratki, nikohda bo‘lganlarning o‘limlari bo‘yicha ma‘lumotlar juda kam bo‘lib, o‘lim jadvalini barcha aholiga nisbatan qo‘llanilishi esa beva qolishlikni ko‘paytirib yuboradi.

Shunday qilib, ajralish er-xotinning hayot sikllaridagi nikohni bekor qilishi hisoblanib, ajralish chastotasini o‘lchovchi ko‘rsatkichlar yordamida holatga baho beriladi.

#### *-Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. «Nikoh» tushunchasiga ta‘rif bering.
2. «Ekzogamiya» va «endogamiya» tushunchalarining farqini tushuntiring.
3. Er-xotinning yashash joyi bo‘yicha nikoh qanday turlarga bo‘linadi?
4. Monogam va poligam nikoh deganda nimani tushunasiz?
5. O‘zbekistonda qaysi yoshdan boshlab nikohga kirishga ruxsat berilgan?
6. Nikoh bozori deganda nimani tushunasiz?
7. Nikoh holatini ifodalovchi demografik ko‘rsatkichlarni sanab bering.
8. Ajralishga qanday omillar ta‘sir ko‘rsatadi?
9. Ajralish chastotasini o‘lchovchi ko‘rsatkichlarni aytib bering.

---

## 6-bob. TUG‘ILISH VA DEMOGRAFIK MAYL

### 6.1. Pushtlilik va tabiiy tug‘ilish

Tug‘ilish — bu biologik tabiatga va qat’iy ijtimoiy-iqtisodiy belgilarga ega bo‘lgan murakkab demografik hodisa hisoblanadi. Demografiyada «**tug‘ilish**» deganda, bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelish jarayoni tushuniladi. Hozirgi o‘lim darajasi past bo‘lgan sharoitlarda tug‘ilish jarayoni aholi takror barpo bo‘lishidagi yetakchi omil sanalib, uning tartibi (toraytirilgan, oddiy, kengaytirilgan) va yosh-jinsiy tarkib evolyutsiyasining umumiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tug‘ilish darajasidagi ijtimoiy va biologik omillar mutanosibligi muqobil bo‘lmay, balki jamiyat va uning tarkibi, ijtimoiy institutlarning rivojlanishi jarayonida o‘zgarib boradi. Shu o‘rinda aytish joizki, tug‘ilish evolyutsiyasidagi asosiy yo‘nalish — bu biologik omil rolining pasayishi va ijtimoiy omil ahamiyatining o‘sib borishidir.

Tug‘ilishning biologik asosi - bu insonning biologik tur sifatida ko‘payish qobiliyati bo‘lib, «pushtlilik» yoki «turga xos pushtlilik» deb ta’riflanadi. Aholi guruhlarining tug‘ilish darajasidagi pushtlilik muayyan bir reproduktiv mayl (farzandlar va aniq bir farzand tug‘ilishi to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish borasidagi me’yor va tushunchalar majmui) orqali amalga oshiriladi. Reproductiv mayl insonning jamiyatdagi boshqa tur mayllari hamda ijtimoiy institutlar faoliyati, iqtisodiy tuzum, siyosiy vaziyat va boshqalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Reproduktiv mayl va tug‘ilish darajasining asosiy aniqlovchilaridan biri — bu nikoh-oila mayli me’yorlari, ya’ni oiladagi farzandlar sonining o‘ziga xosligidir. Zero, har qanday jamiyatda oiladagi farzandlar soni shaxs va oila turmush tarzining muhim



omillaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ular oila doirasida ijtimoiy va iqtisodiy rol o'ynaydi hamda oila a'zolari o'rtasidagi ruhiy muloqotga ta'sir o'tkazadi. O'z navbatida, oilaning turmush tarzi, tarkibi va vazifalari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi bilan bog'liq va tarixiy taraqqiyot davomida o'zgarib boradi. Jamiyatning modernizatsiyalashuvi ta'sirida barcha ijtimoiy mayl ma'yorlari, shu tariqa insoniyat sivilizatsiyasining har qanday rivojlanish bosqichida oilaning o'zgarib borayotgan tashqi muhitga maksimal tarzda moslashishiga yo'nalgan reproduktiv mayl me'yorlarining butun majmusi ham o'zgaradi. Shunday qilib, reproduktiv yo'nalish va oiladagi ota-onaning farzandlarga bo'lgan ehtiyojlari jamiyatda samarali va qulay tarzda o'z vazifalarini bajarishini ta'minlaydi.

**Pushtlilik** — aholi tug'ilishi va takror barpo bo'lishining asosi, muayyan sondagi farzandlarni dunyoga keltirishning biologik qobiliyatidir. An'anaviy ravishda, pushtlilik ayolning dunyoga keltira oladigan farzandlar soni bilan o'lchanib, er va xotinning irsiy xususiyatlari va salomatligi, shuningdek, ulardagi biologik jihatlarining bir-biriga mos kelishi bilan (biologik yoki irsiy moslashuv) bog'liq bo'ladi. Nazariy jihatdan qaraganda, yakka homilali tug'ilishlar soni juda katta, ya'ni 0-35 atrofida bo'lishi mumkin. Biroq, pushtlilik maksimumi kam hollarda amalga oshadi va bunga tabiiy (tug'ishdan keyingi tozalanish) hamda keyinchalik paydo bo'ladigan omillar (tug'ishdagi asoratlar, abortlar tufayli sog'liqni yo'qotish) sabab bo'ladi.

Pushtlilikni real baholashning bevosita usullari mavjud emas. U bilvosita hisoblanadi yoki farzand bo'lish ehtimoli — urug'lantirish orqali yoki tabiiy tug'ilish orqali, nikohda bo'lgan ayollardagi tug'ilishni hisobga olish vositasida, bunda er va xotinning umumiy salomatligi va homiladorlikning oldini oluvchi vositalardan foydalanmaslik hamda abort qilmaslik shartlari hisobga olinadi. Ushbu ma'noda tabiiy tug'ilish reproduktiv mayl variantlaridan biri sifatida talqin etilishi mumkin. Mavjud baholarga ko'ra, insonning o'rtacha pushtlilik 13 tadan 17 tagacha bo'lib, bunda ayol doim nikohda turib, farzand ko'rishiga tabiiy va sun'iy to'siqlar bo'lmasligi lozim. Mazkur sharoitlar ideal hisoblanib, real hayotda uchramaydi (masalan, erkaklarning yuqori o'limi

sababli). Shu bois, 10-12 ta tug‘ilish butun hayot davomida yoki 12-15 ta tug‘ilish haqiqatga yaqinroq (bunga o‘lik tug‘ilgan chaqaloqlar va abortlar ham kiradi). Tabiiy tug‘ilishning biologik chegarasi ushbu doirada belgilanadi.

Reproduktiv yosh mobaynida pushtlilik 15 yoshdan 50 yoshgacha davom etadi. Pushtlilikning maksimal ko‘rsatkichlari 20-30 yosh oralig‘ida kuzatilib, so‘ng asta-sekin pasayib boradi.

Oila muhitida tug‘ilishni cheklash amaliyoti bo‘lmagan hollarda tabiiy tug‘ilish chegaralari nikohning ijtimoiy mayl (birinchi nikohga kirish yoshi, qayta nikohga kirishning tarqalgani) me‘yorlari asosiy nikoh yoshlari va reproduktiv davrdagi jinslar mutanosibligi (15-49 yosh), shuningdek, ushbu aholi guruhlaridagi o‘lim darajalari bilan tartibga solinadi. Bu ko‘rsatkichlarning ijobiy mutanosibligi sharoitlarida tug‘ilish darajasi bir nikohga o‘rta hisobda 8 tadan to‘g‘ri keladi.

Pushtlilik reproduktiv mayl, avvalo, reproduktiv salomatlik omillaridan biri hisoblanadi. Aholining kam farzandli oila modeliga intilishi sharoitlarida mavjud pushtlilik juda baland bo‘lib, hozirgi oilalarda tug‘ilishni ongli tarzda rejalashtirish (oiladagi farzandlar sonini tartibga solish) keng tarqalgan. Shu nuqtai nazardan tabiiy tug‘ilish konsepsiyasi rivojlangan mamlakatlarga xos reproduktiv maylning gipotetik modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

«**Tabiiy tug‘ilish**» tushunchasi ilmiy iste‘molga ilk bor 1961 yilda frantsuz demografi L.Anri tomonidan kiritilgan. Olim bu tushunchani tug‘ilishni nazorat qilish yo‘llaridan biri sifatida kiritgan bo‘lib, hozirgi kunda u oiladagi farzandlar soni va tug‘ilish davrlarini rejalashtiruvchi oilali jamiyatga xosdir. Shu bois, tug‘ilish holatini va darajalarini tahlil qilish amaliyotida tabiiy tug‘ilish konsepsiyasi oila muhitida tug‘ilishni cheklash darajasining taxminiy baholanishida qo‘llaniladi. Bugungi kunda tabiiy tug‘ilish darajasini aniqlashdagi asosiy yondoshuv — bu tug‘ilish darajasini kontraseptik (homiladorlikning oldini oluvchi) vositalardan foydalanmaydigan, abort qilmaydigan, pushtlilikning pasayishiga sabab bo‘ladigan ommaviy kasalliklarga uchramaydigan, nikohsizlik va nikohga kech kirish udumlarini qabul qilmagan ma‘lum aholining tug‘ilishi darajalariga tenglashtirilishidir. Aslida bunday aholining tug‘ilish darajalari tug‘ilishning o‘ziga xos standarti sifatida qabul qilinib,

undagi tabiiy tug‘ilish darajalarining aniq bir aholi guruhidagi tabiiy tug‘ilish darajalari bilan taqqoslanishi demografik koeffitsientlarni standartlashtirish variantlaridan biri hisoblanadi.

Tabiiy tug‘ilish modeli sifatida Shimoliy Amerikada yashovchi, kelib chiqishi yevropalik bo‘lgan kichik bir mazhab — gutteritlarning tug‘ilish modeli qo‘llaniladi. Diniy an‘anaga ko‘ra, gutteritlar farzand tug‘ilishini nazorat qilishning hech bir turidan foydalanmaydi va erta yoshda nikohga kiradi. Amerikalik demograf E.Koul ushbu yondoshuvni qo‘llab indekslar tartib raqamlari tizimini tuzgan va bu tizim yordamida har qanday aholi guruhidagi nikohlilik hamda tug‘ilishdagi o‘zgarishlarni gutteritlarga xos ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash mumkin. Olingan natijalardan oila muhitida tug‘ilishni nazorat qilish hajmlarini o‘lchashda foydalaniladi.

L.Anri tomonidan taqdim etilgan ikkinchi bir yondoshuv — bu tug‘ilishni cheklamaydigan aholi guruhida bitta reproduktiv yoshdagi ayollarda tug‘ilishlar sonidir. Olimning hisob-kitoblariga ko‘ra, bitta reproduktiv yoshdagi ayollarda tabiiy tug‘ilishlar soni 12,44 tani tashkil qiladi. Tabiiy tug‘ilishning taxminiy minimumi demograf V.A.Borisov tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, bu minimum 7,95 taga teng (6.1-jadval).

6.1-jadval

### Tug‘ilishning standart koeffitsientlari

Yosh guruhi	Gutteritlar		Tabiiy tug‘ilish minimumi	
	%	Reproduktiv yoshdagi bitta ayolga	%	Reproduktiv yoshdagi bitta ayolga
15-19	300	0,300	-	-
20-24	550	0,550	400	0,400
25-29	502	0,502	377	0,377
30-34	447	0,447	349	0,349
35-39	406	0,406	279	0,279
40-44	222	0,222	155	0,155
45-49	61	0,061	31	0,031
<b>Jami</b>	<b>2488</b>	<b>12,44</b>	<b>1591</b>	<b>7,955</b>

Shunday qilib, tug‘ilish biologik tabiatga ega demografik jarayon hisoblanib, uning darajasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish natijasida o‘zgarib turadi. O‘z navbatida, pushtlilik muayyan sondagi farzandlarni dunyoga keltirishning biologik asosidir. Tabiiy tug‘ilish esa kontratseptik vositalardan foydalanmaydigan, abort qilmaydigan, nikohga kech kirish udumlarni qabul qilmagan aholidagi tug‘ilish jarayonidir.

## 6.2. Reproduktiv mayl va uning turlari

**Mayl** — bu sub’yektning qandaydir ob’yektga nisbatan ma’lum bir faollik va harakat qilishiga moyilligi, tayyorligidir; reproduktiv mayl xulq-atvorning ruhiy regulyatori, turli harakatlarning muvofiqligini, ma’lum sondagi bolalarning tug‘ilishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarni belgilab beruvchi shaxsning moyilligidir.

**Reproduktiv mayl** — shaxsning farzandning qonuniy yoki nikohsiz tug‘ilishi yoki tug‘ilishidan voz kechishiga qaratilgan harakati, munosabati va ruhiy holatlarining yaxlit tizimidir. Ayrim hollarda «reproduktiv mayl» tushunchasi doirasiga farzandning ijtimoiylashuv jarayoni (o‘qitish, tarbiyalash, ma’lum ijtimoiy jihatlarga ega bo‘lishi) ham kiritiladi. Demografiyaga oid adabiyotlarda «reproduktiv mayl» tushunchasi bilan bir qatorda «generativ mayl» atamasi ham qo‘llaniladi. Ushbu mayl turi shaxs maylining alohida ajratilgan unsuri emas, balki shaxsning boshqa intilishlari, ehtiyojlari bilan birga individ yashaydigan ijtimoiy-me’yoriy muhit nuqtai nazaridan talqin qilinadi. Reproduktiv mayl nafaqat aniq bir shaxs, balki yirik (etnoslar, aholining ijtimoiy guruhlari) va kichik ijtimoiy guruhlarga ham xos bo‘lib, bular orasida eng asosiysi oila hisoblanadi.

«Reproduktiv mayl» atamasi hissiy jihatdan neytraldir, chunki u o‘zida hech qanday baholashni aks ettirmaydi, barcha individlar va nikoh juftliklariga nafaqat o‘z oilasi a’zolari sonini anglagan holda rejalashtirayoganlarga, balki bunday rejalashtirishni istamayotganlarga ham taalluqlidir.

Reproduktiv maylning tarkibi ruhiy komponentlar tartibiga ko‘ra quyidagilardan iborat: reproduktiv ehtiyojlar → mayllar →

motivlar → qiziqishlar → rejalar → qarorlar → harakatlar → harakat natijalari.

Reproduktiv mayl doirasida tarkibiy jihatdan quyidagilar ajratiladi:


- bevosita farzand tug'ilishiga qaratilgan mayl, ya'ni reproduktiv maylning o'zi;
- kontraseptiv mayl, ya'ni homila paydo bo'lmasligiga qaratilgan harakatlar;
- abort mayli, ya'ni xohlamagan farzand tug'ilishining oldini olish maqsadidagi harakat.

Maylning uchta varianti ham nisbatan mustaqil vazifa va sabablar bilan tartibga solinadi. Reproductiv maylning o'zi yaxlit reproduktiv davr, ya'ni farzand ko'rish haqidagi qaror qabul qilinishidan to bola tug'ilguniga qadar bo'lgan davrni amalga oshirishga qaratiladi. Tashqi tomondan qaraganda, kontraseptiv va abort mayli har bir aniq reproduktiv davrni tartibga solish vositalari sifatida xizmat qiladi (homila paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, sun'iy abort yo'li bilan homiladorlikni to'xtatish). Biroq, ular bugungi kunda amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Shaxsning kontraseptiv va abort maylidagi yo'nalishlar bilan bog'liq holda butun oilaning reproduktiv davri shakllanadi. Mazkur davrda, birinchidan, oiladagi birinchi farzand tug'ilishi eng qulay vaqtini belgilash tushuniladi. Nikohga kirgan vaqt (birga yashay boshlash) bilan birinchi farzand tug'ilgan vaqt oralig'i **protegenetik interval** deb ataladi. Ikkinchidan, kontraseptiv va abort usullaridan foydalanish rejaları intergenetik intervallar davomiyligini belgilaydi. **Intergenetik interval** — bu birinchi, ikkinchi va undan keyingi farzandlar tug'ilishi o'rtasidagi vaqt. Va nihoyat, reproduktiv va abort-kontraseptiv rejalar oila shakllanishining yakuniy muddati hamda er-xotinning kerakli deb hisoblagan farzandlar sonini dunyoga keltirishidan keyingi davrdagi mayliga bevosita ta'sir o'tkazadi.

**Reproduktiv mayldagi zaruriy shart** — bu pushtlilik bo'lishi, ya'ni farzand ko'rishga fiziologik qobiliyatlilikdir. Er-xotinning bepushtliliği sababli hamda oilada kerakli farzandlar ko'rishning iloji bo'lmaganda bunday oilada yo ajralish yoki farzandlar boqib olish hollari tanlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy maqomi va etno-demografik tavsiflari bir xil hamda pushlilikda kamchilik bo'lgan oilalarda to'liq va noto'liq reproduktiv davrlar mutanosibli er-xotinning muayyan miqdorda farzand ko'rishga (o'g'il bola qiz bolaga nisbatan) bo'lgan ruhiy (ijobiy yoki salbiy) munosabati bilan belgilanadi.

Reproduktiv mayllarning o'zaro ta'siri doirasida farzandlarga bo'lgan ehtiyoj jarayoni amalga oshiriladi (6.1-rasm).



6.1-rasm. Aholining reproduktiv mayliga ta'sir etuvchi omillar.

Reproduktiv maylning **uchta turi** farqlanadi: ko'p bolali (5 va undan ortiq farzandga bo'lgan ehtiyoj); o'rtacha bolali (3-4 ta farzandga ehtiyoj) va kam bolali (1-2 ta bolaga ehtiyoj). Reproduktiv maylning ko'p bolali turida farzandlar tug'ilishiga to'la moyillik mavjud, tug'ilishning o'zi esa tabiiy tug'ilishga yaqin yoki to'laligicha mos, deb hisoblaniladi. Ushbu holda noto'liq reproduktiv davrlar maylligi er-xotinning pushtlilik xususiyatlari, abortlar, tug'ilishdan keyingi tozalanish va sut kelishi davrlarining davomiyligi bilan bog'liq.

O'rtacha bolali reproduktiv mayl o'z mohiyatiga ko'ra, oilada farzandlar tug'ilish jarayonini tartibga solish amaliyotini asta-

sekin tadbiriq etish natijasida noto'liq reproduktiv davrlar sonining o'sib borishi bilan tavsiflanadi. Va nihoyat, kam bolali reproduktiv maylda abort-kontraseptiv usullardan foydalanish hollari farzand ko'rishga bo'lgan moyillikdan ancha ustun kelib, oilada farzandlar soni va tug'ilish davrlari qattiq nazorat qilinadi. Kam bolali reproduktiv maylning o'ziga xos turi bu farzandsizlikdir, ya'ni bolalarga ehtiyojning yo'qligidir. Ushbu holatda nikoh juftligi va shaxsning mayli faqat abort-kontratseptiv vositalardan foydalanishga qaratilgan bo'ladi.

**Farzandlarga bo'lgan ehtiyoj** — bu reproduktiv mayldagi eng harakatli komponent hisoblanadi. Zero, u ijtimoiylashish sharoiti, hayotiy tajriba, mayldagi qadriyat tushunchasi va yo'nalishlari, ota-ona oilasi, shuningdek, o'tgan ajdodlardagi reproduktiv mayl me'yorlari ta'sirida shakllanadi. Shu tariqa farzandlarga bo'lgan individual ehtiyojda muayyan jamiyat, shuningdek, shaxs o'ziga yaqin tutgan katta va kichik ijtimoiy guruhlarda qabul qilingan farzandlilik darajasi aks etadi.

Farzandlilikning ijtimoiy me'yorlari hamda shaxsning farzandga bo'lgan ehtiyojini amalga oshirish jarayonidagi shaxsiy yo'nalishlarining o'zaro ta'sir mexanizmini quyidagicha ta'riflash mumkin: agar oiladagi farzandlar soni ushbu me'yorlarga mos kelsa, u holda oila va uning boshlig'i jamiyat tomonidan ma'qullanadi; agar oila, alohida shaxsning reproduktiv mayli ko'pchilikning maylidan keskin farq qilsa, jamiyat tomonidan bunga qarshi qat'iy choralar ko'rilishi mumkin. Masalan, tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan sharoitlarda bolasiz oilalar, nikohsizlar, farzand ko'rishni istamaganlar jamiyat tomonidan tanqid qilingan.

Jamiyatning rivojlanishi insonparvarlik g'oyalariga amal qilingan sari reproduktiv maylda barchaga o'xshamaslik uchun tanqid qilish choralari ancha susayadi, biroq bu oiladagi farzandlar sonining ijtimoiy nazorati yumshaydi yoki yo'q bo'ladi, degani emas, balki u faqatgina uning namoyon etish shakllari o'zgarishi demakdir. Hozirgi zamonda urbanizatsiyalashgan ijtimoiy muhitda uchta farzandi bo'lgan oila ko'p bolali oila sifatida qabul qilinadi, real ko'p bolalik (5 va undan ortiq farzand) oila esa ijtimoiy me'yordan o'tganini bildiradi.

Agar reproduktiv moyillik shaxs maylining ichki tartibga soluvchi omili bo'lsa, reproduktiv mayl me'yorlari esa shaxsga nisbatan tashqi andozalar, muayyan farzandlar sonining tug'ilishini belgilovchi ijtimoiy tavsifdagi mayl namunalari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu me'yorlar guruhi har tomonlama va farq qiluvchi tusga ega. Ular ongda vujudga keladi, mustahkamlanadi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ta'sirida qayta ko'rib chiqiladi, biroq u har doim jamiyat taraqqiyoti nuqtai nazaridan oqilona bo'ladi.

Insoniyat tarixining katta qismida mavjud bo'lib kelgan ko'p bolalik me'yorlari hayotning juda past darajadagi sanitar-gigienik sharoitlari va undan kelib chiqqan o'lim natijasidir. Faqatgina inson pushtliligi yuqori pog'onasiga yetadigan tug'ilish soni insonning biologik tur sifatida yashab ketishini ta'minlab bergan. Tug'ilishni nazorat qilishning ommaviy vositalarini tarqatishni boshlash va farzand ko'rish borasidagi maylda yangi (kam bolali) me'yorlarni shakllantirish uchun insoniyat sivilizatsiyasida ulkan saralash, yuqori o'lim hisobiga sodir bo'ladigan o'lim natijasidagi takror barpo bo'lish jarayonidagi yo'qotishlarni keskin qisqartirish talab qilindi.

O'lim yuqori bo'lgan kapitalistik davrgacha mavjud jamiyatda ishlab chiqarish darajasi past bo'lib, ishchi kuchi doimo yetishmagan, shu sababdan oiladan ko'p farzand ko'rish va bolalardan ishchi kuchi sifatida foydalanish keng tarqalgan, tabiiyki, tug'ilish darajasi ham yuqori bo'lgan. Mazkur holda bola tug'ish sabablari asosida iqtisodiy omillar turgan. Oilaning barcha a'zolari ish bilan bandligi bois farzandlarning ijtimoiylashish bahosi pasayib, ular mehnatining iqtisodiy samaradorligi baland bo'lgan. Ayni vaqtda, katta, murakkab oila kuchli urug'-jamoaga aylangan va uning boshlig'i nafaqat iqtisodiy farovonlikka erishish, balki ijtimoiy salohiyatining hamda obro'ining oshishiga erishgan.

Industrial jamiyatning rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlari va ayollar rolining oshishi nafaqat ijtimoiy, balki individual qadriyatlarining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Shaxs uchun oila yagona tortish markazi bo'lmay qoldi. Barcha oila a'zolarining oiladan tashqari yo'nalishlarda faollashuvi (ayniqsa, ayollarning) farzandlarga bo'lgan ehtiyojning kamayishidagi asosiy omilga aylandi.

Shaxsning ijtimoiy maqomi oilaning kattaligi va farzandlar soni bilan emas, balki ma'lumoti, daromadlari bilan belgilanmoqda.



Iqtisodiyotning rivojlanishi bolalarga tobora ko'proq talablar qo'yimoqda, ayniqsa, ularning ma'lumotiga zarurat o'smoqda. Bu esa, oilaning farzandga bilim berishga ko'proq daromad sarflanishiga olib kelmoqda. Ayni vaqtda, iqtisodiy rivojlanish jarayonida inson vaqtining qiymati oshib, u oila va shaxs farovonligidagi moddiy omil bilan bir qatorda mustaqil omil vazifasini ham bajarmoqda. Shu sababdan har bir keyingi farzandning tug'ilishi, uning «foydaliligini» pasaytiradi.

1960-yillarning birinchi yarmida demograf olim G.Bekker «**tug'ilish iqtisodiyoti**» konsepsiyasini yaratgan. Bu konsepsiyaga ko'ra, ijtimoiy taraqqiyot kechimining o'zi reproduktiv mayl yangi me'yorlarining o'rnatilishiga zamin yaratadi va shunday vaziyat yuzaga keladiki, undan ham jamiyat, ham alohida oila (shaxs) darajalarida inson kapitalining soni va sifati o'rtasida ma'lum tanlov ro'y beradi. Ushbu sharoitlarda reproduktiv moyillik va farzandlarga bo'lgan ehtiyoj shakllanishining asosiy tarkibiy qismini ruhiy moyillik tashkil etib, 1-2 ta farzandga ega bo'lish yetarli, deb hisoblanadi<sup>1</sup>.

Kam bolalik hozirgi zamon jamiyati reproduktiv maylining me'yoriga aylanib bormoqda. Reproduktiv moyillik uzoq evolyutsion davrda shakllanib kelgan reproduktiv mayl va farzandlarga bo'lgan ehtiyoj me'yorlaridan farqli o'laroq, shaxs, oila hayoti va faoliyatini joriy sharoitlarining kuchli ta'sirida bo'lib, bu sharoitlar farzandlarga bo'lgan ehtiyojning qondirilish darajasi uchun zamin yaratadi. Ayni vaqtda turli ijtimoiy guruhlariga mansub shaxs, oilalarga hayotning joriy sharoitlarining ta'sir kuchi bir xil bo'lmaydi, zero, bu sharoitlarga baho berish mezonlari turlicha va sub'yektiv tavsifga ega: bir xil ijtimoiy-iqtisodiy o'lchamlar ba'zi oilalar tomonidan bolalarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun yetarli deb qabul qilinsa, boshqa oilalar ularni xohlagan miqdorda farzand ko'rishlariga to'siq, deb hisoblaydi. Turmush sharoitlarining oilalarning reproduktiv maylga ta'sirini ijtimoiy boshqarish va tug'ilishni nazorat qilish nuqtai nazaridan baholaganda, turli oilalarning farzandlarga bo'lgan ehtiyojlarining qoniqtirilganlik darajasini (bolalik darajasi, daromadi, ijtimoiy maqomi) aniqlash

---

<sup>1</sup> Демография: Учебник для вузов // Под ред. Н.А.Волгина, Л.Л.Рыбаковского. – М.: Лагос, 2005. С.119.

mumkin. Agar oiladagi farzandlar soni er-xotinning farzandlarga bo'lgan ehtiyojini qondirsa, u holda turmush sharoitlarining tubdan yaxshilanishi ommaviy tarzda farzandlar sonini o'zgartira olmaydi, aksincha, farzandlar sonining oshirilishi hamda tug'ilishlar sonining ko'payishiga olib keladi.

Reproduktiv moyillik nikohda birga yashash jarayonida o'zgarib boradi. Doimo birga yashab, birgalikda umumiy turmush vaziyatlarini boshdan kechirib, bir-birlarining dunyoqarashi, mayllaridagi sabab va moyilliklarini qabul qilgani holda o'zlarining moyillik va rejalarini qisman yoki to'laligicha qayta ko'rib chiqadi. Ushbu vaziyatda erkakning ustunlikka egaligi sababli oilaning reproduktiv mayli nikohgacha bo'lgan rejalaridan farq qilishi mumkin. Reprodukativ mayl modellarining o'zgarishi millatlararo nikoh juftliklarida yorqin namoyon bo'ladi. Reprodukativ moyillikdagi o'zgarishlar norasmiy juftliklarda ham sodir bo'lib, odatda ular pasayib borish xususiyatiga ega.

Reprodukativ maylda sterillik, ya'ni bepushtlilikning ham o'rni katta. **Sterillik** — (lotin tilida sterilis — bepusht) jinsiy yetuk shaxsning jinsiy ko'payishga layoqatsizligidir. Demografiyada «sterillik» tushunchasi ko'pincha bepushtlilikka o'xshatiladi, biroq ushbu tushunchalar biroz farq qiladi: bepushtlik sterillikning shaxsiy turlaridan biri sifatida o'z ichiga oluvchi nisbatan keng hodisa sifatida tushuniladi. Bepushtlilikka qator omillar ta'sir ko'rsatadi (6.2-rasm).



6.2-rasm. Bepushtlilikka ta'sir etuvchi omillar.

Bepushtlilik bir qancha turlarga ajratiladi: doimiy (katta yoshlarda menopauzaga yetgandan so'ng; reproduktiv davrda kasallik yoki sterillash oqibati sifatida) va vaqtinchalik (homiladorlik davrida, tug'ruqdan keyingi va abortdan keyingi amenoreya, kontraseptsiya choralarini qo'llash davrida); tabiiy (yosh, homiladorlik, ko'krak bilan emizish va h.k. bilan bog'liq me'yoriy fiziologik sabablarga ko'ra); sun'iy (kontraseptsiya choralarini qo'llash natijasida); patologik (kasallik va jarohatlar oqibati); mutlaq (urug'lanishga butunlay umid bo'lmaganda) va nisbiy (urug'lanishga nisbatan biror bir umid saqlanib qoladi, lekin kam darajada).

Umuman olganda, reproduktiv mayl modellari evolyutsion tarzda avloddan avlodga o'tgan sayin o'zgarib boradi. Biroq, turmush sharoitlaridagi ekstremal o'zgarishlar ushbu mayldagi asosiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanish mexanizmidagi sakrashlarga olib keladi va oxir-oqibatda farzand ko'rishga doir qarashlar keskin o'zgaradi. Bunday ekstremal vaziyatlarga ijtimoiy inqilob, urush, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ular butun ijtimoiy me'yoriy muhitni tubdan qayta ko'rib chiqilishiga turtki bo'ladi, buning natijasida bolalik me'yorlari, reproduktiv moyilliklarning o'zgarishi, bolalarga bo'lgan ehtiyojni ro'yobga chiqarish sharoitlarining yomonlashishi, hatto pasayishiga ham olib keladi.

### 6.3. Tug'ilishning tarixiy tiplari

Tug'ilishning tarixiy tipi — bu tug'ilishning eng asosiy sifat belgilarini aks ettiruvchi mezon hisoblanib, bunda tug'ilish nisbatan bir-biriga o'xshash tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarda kechadigan aholining takror barpo bo'lishi jarayonidagi avlodlarning ketma-ketlikda bir-birining o'rnini to'ldirish jarayonining asosi bo'ladi. Tug'ilishning tarixiy tiplari turli ko'rsatkichlar bilan ifodaladigan tug'ilish tartibida miqdoriy jihatdan aks etadi. Alohida kalendar vaqt davrlaridagi tug'ilish ko'rsatkichlari o'zgarib turishi mumkin, lekin hech vaqtda uning tarixiy tipi bilan belgilangan chegaradan o'tmaydi.

Tug‘ilishni tarixiy tiplarining almashinuvi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarning modernizatsiyalashuvi natijasida sodir bo‘ladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotini tarixiy davrlashtirish, ishlab chiqarish usullari va ijtimoiy tashkil etish shakllari, shuningdek, tug‘ilishning miqdor ko‘rsatkichlari va ularga etishning ijtimoiy uslublaridan kelib chiqqan holda tug‘ilishining to‘rtta tarixiy tipini ajratish mumkin.

**Tug‘ilishning birinchi tarixiy tipi** ibtidoiy jamoa tuzumidan antik davrgacha bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga olgan. Bu tipga pushtlilikning yuqori pog‘onasidagi tug‘ilish xos bo‘lgan, chunki faqat shunday tug‘ilish insonning og‘ir sharoitlarda biologik tur sifatida tirik qolishini ta‘minlagan. Ushbu davrdagi reproduktiv mayl me‘yorlari asosan betartib tarzda ko‘payishning biologik qonunlari ta‘sirida shakllangan.

**Tug‘ilishning ikkinchi tarixiy tipi** — antik davrdan ishlab chiqarishning agrar usulining barham topishi va industrial-kapitalistik jamiyatning shakllana boshlanishigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Ushbu davrda tug‘ilish darajasi yuqoriligicha qolib, u tabiiy jarayondan diniy ta‘limot va dunyoviy jamiyat belgilaydigan me‘yorlar bilan tartibga solinuvchi ijtimoiy hodisaga aylanib borgan. Nikohdagi individual reproduktiv mayl qattiq nazoratga olinib, oilada farzandlar tug‘ilishini rejalashtirish jazolangan. Reproduktiv mayl me‘yorlari oiladagi farzandlar sonining shakllanishidagi asosiy omil bo‘lgan. Bu davrda o‘lim darajasi yuqori bo‘lib, ba‘zi yillarda oiladagi deyarli barcha bolalar yashab qololmay, o‘lavergan. Tug‘ilish sonining yuqori bo‘lishiga erta va universal nikoh me‘yorlari zamin yaratib, nikohsizlik, nikohni kattaroq yoshlargacha kechiktirish jamiyatda ta‘qiqlangan va bunga qarshi ijtimoiy choralar ko‘rilgan. Ishlab chiqarish past bo‘lgan sharoitlarda bolalar oilada ishchi kuchi hisoblangan, shu sababdan ko‘p farzandlilik iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lib, tug‘ilishning yuqori darajada saqlanib turishini ta‘minlagan.

**Tug‘ilishning uchinchi tarixiy tipi** — feodal-agrar jamiyatning barham topishi, kapitalistik munosabatlarning jadal rivojlanishi va birinchi jahon urushiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Ushbu davr demografiya tarixida «demografik o'tish davri» deb ataladi, chunki bu davrda iqtisodiy taraqqiyot natijasida tibbiyot rivojlangan, aholi turmush tarzining sanitariya-gigiena sharoitlari yaxshilangan va taraqqiy etgan mamlakatlarda epidemiologik vaziyat ijtimoiy nazoratga olingan. Yuqori o'lim darajasi bilan bog'liq aholi sonining kamayishi reproduktiv mayl me'yorlarining qayta ko'rib chiqilishida o'z aksini topdi. Aholi takror barpo bo'lishining asosi hisoblangan ko'p bolalik me'yorlari oila doirasidagi tug'ilishlarni muayyan darajada cheklash tomon o'zgarib bordi. Biroq, bu homiladorlikning oldini oluvchi vositalardan va abort yo'lidan foydalanishga ruxsat berildi, degani emas edi. Oiladagi farzandlar sonini tartibga solishning asosini aksariyat iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda nikohning yevropacha modeli — ya'ni erkak va ayollarda nikohga kirish yoshining asta-sekin ko'tarilib borishi tashkil eta boshlagan.

XIX asr oxiriga kelib ko'pchilik mamlakatlarda shaxsning nikoh, oila hamda farzandlar sonini tanlash va unga erishish sohasidagi huquqlarini kengaytirish uchun kurash boshlandi. Abortlar xususidagi qonunchilik avvalgidek qat'iy bo'lgan. Biroq, tug'ilishni kontraseptik nazorat qilish amaliyoti kengaya boshladi; bu haqida XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Yevropa mamlakatlarining tug'ilish darajasiga oid ma'lumotlari guvohlik beradi. Tug'ilish evolyutsiyasining mazkur bosqichi so'ngidagi reproduktiv mayl me'yorlarini o'rtacha bolalilik me'yorlari sifatida tavsiflash mumkin. Biroq, reproduktiv mayl me'yorlari aholining ijtimoiy guruhlariga ko'ra o'zgarib turishini ham e'tiborga olish lozim. Masalan, ijtimoiy jihatdan sust rivojlangan jamiyat tabaqalariga (qishloq aholisi, iqtisodiy jihatdan qoloq hududlar, aholining ma'lumot darajasi past qismi va h.k.) ko'p bolalik, aholining iqtisodiy jihatdan ta'minlangan va ma'lumot darajasi yuqori bo'lgan qismiga, shuningdek, megapolislar aholisiga kam bolalik me'yorlari xos. Ko'p bolalik me'yorlari, birinchi navbatda, bolalarga iqtisodiy ehtiyoj baland bo'lgan hududlarda saqlanib qolgan. Bu ehtiyoj turli ijtimoiy qatlamlarda susayib borgani sari kam bolalik me'yorlari ustun kela boshlagan.

**Tug‘ilishning to‘rtinchi tarixiy tipining** shakllanishi XX asr boshlarida sodir bo‘lgan ijtimoiy va siyosiy hodisalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular nikohning idealligi, oila va uning a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarga bo‘lgan qarashlarni tubdan o‘zgartirib yubordi. Ayolning ozodligi uchun kurash jamiyatda, xususan, oilada jinslar o‘rtasidagi munosabatlarga o‘zgarish olib keldi. Ayni vaqtda muntazam kamayib borayotgan o‘lim ko‘rsatkichi XX asrning ikkinchi yarimida aksariyat aholida kam bola ko‘rish (1-3 ta farzand) farzandsizlik qo‘rquvini engib o‘tdi. Reproduktiv mayl me‘yorlarining pasayishida ayollar ish bilan bandligining oshishi muhim rol o‘ynadi. XX asr davomida oilaning jamiyat bilan munosabatlarida jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi va oila a‘zolari o‘zlarining mayliga oid masalalarda mustaqil qaror chiqara boshladi. Bolalar mehnatidan foydalanishni cheklash natijasida tug‘ilishning yuqori darajasini saqlab qolish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo‘lishiga olib keldi.

Ushbu barcha omillar birgalikda va o‘zaro bog‘langan holda jamiyatning ijtimoiy vazifalariga mos keladigan yangi reproduktiv mayl me‘yorlarining shakllanishiga olib keldi va ular tug‘ilishning hozirgi darajasini belgilaydi. Aksariyat oilalar kam bolali, ayrim hollarda farzandsiz bo‘lib, tug‘ilish darajasi, hatto o‘lim darajasining pastligi sharoitida ham farzandlar avlodi ota-onalar avlodining o‘rnini to‘ldira olmaydigan ko‘rsatkichlargacha pasayib ketdi.

Demograf olim M.R. Bo‘riyeva O‘zbekistonda tug‘ilish jarayonini quyidagi 3 bosqichga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan:

- Oktyabr inqilobiga qadar;
- Sovet hokimiyati yillari;
- Mustaqillik davri<sup>1</sup>.

Oktyabr inqilobiga qadar O‘zbekistonda tug‘ilish juda yuqori, ya’ni biologik asosda bo‘lgan hamda har 1000 ta aholi soniga

---

<sup>1</sup> Буриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. — Т.: Университет, 1997. — 99-132 б.

nisbatan 44-55 tani tashkil etgan. Bu davrda tug'ilishning yuqori bo'lganligi quyidagi omillar bilan izohlanadi: mavjud feodal ishlab chiqarish munosabatlari; qishloq turmush tarzi; ayollarning jamiyatdagi o'rni; islom aqidalarining ta'siri; o'zbek xalqida mavjud bo'lgan mahalliy urf-odatlar; o'zbek oilalarida qizlarni erta turmushga berish va go'daklar o'limining ko'pligi.

Sovet hokimiyati yillaridagi tug'ilish jarayonini demograf olimi M.Bo'riyeva quyidagi 3 bosqichga ajratgan: 1917-1940-yillar; 1941-1945-yillar va urushdan keyingi davr.

Birinchi davrda O'zbekistonda tug'ilish 48,5 %dan 33,6 %oga kamaygan. Mazkur holat aholi tarkibida reproduktiv yoshdagi ayollar ulushining kamligi, nikohga kirish yoshining ko'tarilishi va migratsiya jarayoni bilan izohlanadi. Ikkinchi davr ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda nikohga qobiliyatli yoshdagi erkaklarning yoppasiga armiya safiga chaqirilishi munosabati bilan qizlarning turmushga chiqishi, yangi oilalarning paydo bo'lishi uchun imkoniyat kamaygan. Natijada tug'ilishning umumiy koeffitsienti 1940-yildagi 33,6 %dan 1945 yili 18,1 %o gacha pasayib ketdi.

Uchinchi davrda urush tugab, minglab erkaklarning o'z oilasiga qaytishi, shuningdek, ko'plab yangi oilalarning paydo bo'lishi munosabati bilan tug'ilish darajasi keskin ko'tarildi. Aytish joizki, bu tendentsiya 1970-yillarga qadar davom etdi, bundan keyingi yillarda tug'ilish jaarayoniga kamayish tendentsiyasi xos bo'ldi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tug'ilish jarayonining kamayishi kuzatildi. Jumladan, 1991-yili respublikada tug'ilishning umumiy koeffitsienti 34,5 %o dan 2009 yili 23,2 %o gacha kamaygan. Bu holat urf-odatlarda o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berayotganligi, xalqning munosib turmush sharoitini yaratishga intilishi, omma o'rtasida homiladorlikdan saqlovchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi, har bir oila o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farzandlar tug'ilishini nazorat etishi bilan izohlanadi.

#### 6.4. Tug‘ilish darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi

Tug‘ilish darajasini tahlil qilish uchun ikki xil ma‘lumotlar asos bo‘ladi. Birinchisi, bu tug‘ilganlar mutlaq soni, onaning yoshi, nikohliligi, tug‘ilishning tartib raqami, ikkinchisi, ushbu sonlar taqqoslanadigan aholi guruhlarining mutlaq soni (jami aholi, reproduktiv yoshdagi ayollar, reproduktiv davrdagi ayollarning yosh guruhlari). Mazkur axborot asosida tug‘ilish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi namoyon bo‘ladi.

Tug‘ilishga oid ma‘lumotlarni ishlab chiqish va tahlil qilishda bo‘ylama va ko‘ndalang tahlil, ya‘ni real va shartli avlodlar usullaridan foydalaniladi.

**Real avlodlar usuli.** Real avlodlar deganda, bir yilda (bir necha yil orasida) tug‘ilgan, ya‘ni tengdosh ayollar yoki aynan bir vaqtda nikohga kirgan ayollar tushuniladi. Tug‘ilishni bo‘ylama tahlil qilish usuli turmush sharoitlarining o‘zgarishi holatlaridagi reproduktiv mayl me‘yorlari evolyutsiyasi, aholida avlodlar ijtimoiylashuvi nuqtai nazaridan katta imkoniyat va afzalliklarga ega. Mazkur usulning kamchiligi — bu uzoq davr, ya‘ni 35 yildan kam bo‘lmagan vaqtga oid, aniqrog‘i, ma‘lum avlodning reproduktiv faoliyati davridagi tug‘ilish haqidagi ma‘lumotlarning talab qilinishidir. Shu bois, real avlodlardagi tug‘ilish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar faqat retrospektiv kuzatish usuli, ya‘ni ayollar orasida tug‘ilgan farzandlari soni va qaysi yoshda tug‘ilganlari so‘rov olib borish orqali to‘planadi. Bunday kuzatuv yoppasiga (ro‘yxatga olish) yoki tanlanma bo‘lishi mumkin.

Ushbu usulda olingan axborotni sharhlashdagi asosiy muammo — bu uning haqiqiylikini baholashdir. Birinchi navbatda, bu katta yoshdagi ayollarga tegishli bo‘lib, ularning reproduktiv faoliyatini, bir tomondan, ancha oldin tugagan, ikkinchi tomondan, u go‘daklar va bolalar o‘limi yuqori bo‘lib, ko‘p bolalarning barvaqt hayotdan ko‘z yumgan sharoitlarda kechgan. Qayd qilingan sabablarga ko‘ra, real tug‘ilishlar haqidagi axborotning bir qismi yo‘qolib, yuqori avlodlardagi tug‘ilish darajasi pasaytirib ko‘rsatiladi.



Real avlodlar tug'ilishining ikkita asosiy ko'rsatkichi mavjud. Birinchisi — bu bir avlodga mansub ayollarning ma'lum yoshgacha tuqqan bolalari soni. Tabiiyki, yosh ko'rsatkichlarini birlashtiruvchi umumiy ko'rsatkich, bu mazkur avlodga mansub bir ayolning reproduktiv faoliyati (shartli tarzda — 50 yoshga qadar, amalda farzand ko'rish jarayoni uzoqroq davrgacha davom etishi mumkin) tugashiga qadar tuqqan farzandlarining o'rta hisobdagi soni.

Ikkinchi ko'rsatkich kutilayotgan farzandlar soni, ya'ni har bir shaxsning mavjud reproduktiv moyilliklar va aniq hayotiy hodisalarni hisobga olgan holdagi bugungi kunda va kelajakda istagan farzandlar sonini bildiradi.

Kutilayotgan farzandlar soni to'g'risidagi savol an'anaviy tarzda quyidagicha bo'ladi: «Oilangizda hammasi bo'lib nechta farzand bo'lishini xohlaysiz?», «Bor farzandlaringiz bilan birga oilada yana nechta farzand ko'rishni xohlaysiz?», «Oilangizda yana nechta farzand bo'lishini xohlaysiz?». Odatda, bu savollar reproduktiv yoshdagi ayollarga (15-49 yosh) beriladi. Tug'ilishning maxsus tanlanma tadqiqotlarida turli yoshdagi ayollarning reproduktiv istiqbollariga doir aniq axborotlarga ega bo'lish maqsadida quyidagi tarzda qo'shimcha savollar ham beriladi: «Yaqin 2-3 yilda farzand ko'rish niyatingiz bormi?»; mazkur savol yordamida, ayniqsa, 35 yoshdan katta bo'lgan ayollar reproduktiv rejalarining mustahkamligini aniqlash mumkin.

Kutilayotgan farzandlar soni haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1955-yili AQSHda amerikalik oilalarning demografik istiqbolini tadqiq etish jarayonida qo'lga kiritilgan. Har bir so'rovda qatnashgan ayolga o'z oilasi taraqqiyotining istiqbolini belgilash taklifi bilan murojaat etilgan. Mazkur individual so'rovlar asosida ilk bor mamlakatning demografik kelajagini tavsiflashga harakat qilingan.

O'zbekistonda mazkur savol 1960-yillarning o'rtalaridan boshlab turli aholi guruhlarining reproduktiv moyilliklari, tug'ilishning asosiy sabablaridagi tafovutlarning muhim tavsifi sifatida ko'rib chiqilgan. Reproductiv rejalar to'g'risidagi savol aholini ro'yxatdan o'tkazish dasturlariga 1979 va 1989-yillarda kiritilgan.

Kutiladigan farzandlar soni haqidagi ma'lumotlar demografik vaziyatdagi istiqbol o'zgarishlarni, tug'ilish dinamikasi va

taqsimlanishining etnik mansublik, yosh guruhi, yashash hududining turi va h.k. bilan bog'liq holdagi ko'rsatkichlarni baholashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, kutilayotgan farzandlar soniga izoh berish ularni real kogortda tug'ilgan yiliga ko'ra yoki real nikoh kogortida qo'llanishi bilan bog'liq. Kutilayotgan farzandlar va mavjud farzandlar soni o'rtasidagi farq — bu mazkur kogort vakillarining butun reproduktiv faoliyatlari davrida o'rta hisobda rejalashtirgan farzandlar sonidir.

**Shartli avlodlar usuli** statistik axborot yetarli bo'lganligi sababli tug'ilish tahlilidagi eng asosiy usul hisoblanadi. Mazkur usul joriy statistik qayd etishning standart ma'lumotlariga, ya'ni ma'lum vaqt mobaynida tug'ilganlar va ayollar soniga asoslanadi. Bunda reproduktiv yoshdagi ayollar guruhi turli yilda tug'ilgan, biroq bir vaqtning o'zida yashayotgan ayollardan tashkil topgan shartli avlod sifatida chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, agar real avlodlarga nisbatan «tengdoshlar» tushunchasi qo'llanilsa, shartli avlodlar uchun «zamondoshlar» tushunchasi to'g'ri keladi. Aftidan, shartli avlodga kiruvchi har xil yoshdagi ayollar turli hayotiy tajriba, bolalikka moyillik va h.k. larga ega. Muayyan yillarda tug'ilish darajasi o'zgarib turganligi sababli, shartli avlodni tashkil etuvchi ayollar avlodining soni bir xil emas. Nihoyat, asosiy nikohga moyil va reproduktiv yoshdagi jinslar nomutonositligi muayyan yosh guruhlaridagi tug'ilish miqdoriga ta'sir ko'rsatadi.

Shartli avlodlarning tug'ilish darajasi turli koeffitsientlar yordamida aniqlanadi. Ular ma'lum vaqt davomida (odatda, 1 yilda) tirik tug'ilganlar hamda aholining umumiy soni, shuningdek, uni jinslar, yoshlar, nikoh holatiga ko'ra taqsimlanishi o'rtasidagi mutanosiblikka asosan hisoblab chiqiladi.

Tug'ilish koeffitsientlari an'anaviy tarzda uch guruhga ajratiladi: umumiy, maxsus (erkaklar va ayollar) va qismli (yosh bo'yicha, kumuliyativ, tug'ilishlar ketma-ketligiga ko'ra va h.k.).

Tug'ilish intensivligining umumlashtirilgan ko'rsatkichlari — bu tug'ilishning yig'indi koeffitsienti hamda aholi takror barpo bo'lishining brutto-koeffitsientidir. Aksariyat koeffitsientlar an'anaviy tarzda har 1000 kishi yoki alohida yosh guruhi uchun hisoblanadi. Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti bundan mustasno.

Tug‘ilish ko‘rsatkichlarini tavsiflashda **tug‘ilishning umumiy koeffitsientidan** foydalanilib, u muayyan davrda tug‘ilganlar umumiy miqdorining o‘sha davrdagi aholining o‘rtacha soniga bo‘lgan mutanosibligini ifodalab, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$n = \frac{N}{t \times P} \times 1000 \quad (6.1)$$

Bu yerda:  $n$  — tug‘ilishning umumiy koeffitsienti;  $N$  — o‘rganilayotgan davr mobaynida tirik tug‘ilganlarning umumiy miqdori;  $t$  — o‘rganilayotgan davr davomiyligi (yillar);  $p$  — o‘rganilayotgan davrdagi aholining o‘rtacha soni. Agar koeffitsient bir yil uchun hisoblansa, u holda  $t = 1$  bo‘ladi.

Masalan: 2009-yili O‘zbekistonda tug‘ilganlar soni 649 700 kishini, doimiy aholi soni 28 000 800 kishini tashkil etgan. U holda respublikada tug‘ilishning umumiy koeffitsienti quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$n = \frac{649700}{28000800} \times 1000 = 23,2\%$$

Tug‘ilishning umumiy koeffitsienti, ayniqsa, statistik qayd qilish tizimi sust rivojlangan hududlarda keng qo‘llanilib, axborotni hisoblashning oddiyligi bilan izohlanadi. Tug‘ilish umumiy koeffitsientining asosiy kamchiligi — aholining yosh-jinsiy tarkibi bilan uzviy bog‘langanligi, aniqrog‘i, surat va maxraj o‘rtasidagi aniq namoyon bo‘lgan farqdir. Uning suratida reproduktiv yoshdagi ayollarda tug‘ilgan bolalar soni tursa (ularning jami aholidagi ulushi 25 %dan 30 %gacha bo‘ladi), maxraj esa jami aholi (erkak, ayol, bolalar, mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi va qariyalar) soniga teng. Bu yerdagi asosiy muammo qariyalar soni bilan bog‘liq, ya’ni tug‘ilishning keskin kamayishi aholining quyidan keksayishiga olib keladi. Shu tariqa, tug‘ilishning yosh guruhlari bo‘yicha intensivligi teng bo‘lganda aholi tarkibida qariyalar salmog‘i oshgan sari tug‘ilish umumiy koeffitsienti pasayib boradi. Quyidagi jadvallarda tug‘ilishning umumiy koeffitsientini baholovchi mezonlar keltirilgan.

### BMT ning tasnifi bo'yicha tug'ilishning umumiy koeffitsientini baholash mezonlari

Tug'ilish umumiy koeffitsientining o'lchami, ‰	Tug'ilish darajasi tavsifi
16,0 dan kam	past, farzandlar avlodi ota-onalar avlodi o'rnini to'ldirish uchun etarli emas
16,0 – 24,9	o'rtacha
25,0 – 29,9	o'rtachadan yuqori
30,0 – 39,9	yuqori
40,0 va undan yuqori	juda yuqori

6.2-jadvaldan ko'rinib turganidek, BMT ning tasnifi bo'yicha tug'ilishning umumiy koeffitsienti 16,0 ‰dan kam bo'lsa, shu hududda tug'ilish darajasi past, 30,0 ‰ va undan baland bo'lsa, tug'ilish darajasi yuqori bo'ladi. Bu tasnif bo'yicha O'zbekistondagi holatni baholaydigan bo'lsak, 2009 yili respublikada tug'ilishning umumiy koeffitsienti 23,2 ‰ni tashkil etgan va BMT tasnifi bo'yicha tug'ilish darajasi o'rtacha hisoblanadi.

Tug'ilish darajasini baholashda demograf B. Ulanits tomonidan ishlab chiqilgan tasnif ham keng qo'llaniladi (6.3-jadval).

### B. Ulanitsning tasnifi bo'yicha tug'ilishning umumiy koeffitsientini baholash shkalasi

Har 1000 aholiga nisbatan tug'ilganlar soni	Tug'ilish darajasi tavsifi
10 gacha	Favqulotda past
11-15	Juda past
16-20	Past
21-25	O'rtacha
26-30	O'rtachadan yuqori
31-40	Yuqori
41-50	Juda yuqori
51 va undan yuqori	Favqulotda yuqori

B.Urlianitsning tasnifi bo'yicha tug'ilishning umumiy koefitsienti 10 %ogacha bo'lsa favqulotda past, 16-20 %o bo'lsa past, 31,0 %odan baland bo'lsa yuqori hisoblanadi. Bu tasnif bo'yicha O'zbekiston tug'ilish darajasi (23,2 %o) o'rtacha mamlakatlar qatoriga kiradi.

Tug'ilish darajasiga A.Merkov tomonidan ishlab chiqilgan tasnif bo'yicha baho berish ham maqsadga muvofiq (6.4-jadval).

6.4-jadval

### A.M. Merkovning tasnifi bo'yicha tug'ilish umumiy koefitsientini baholash shkalasi

Ko'rsatkich bahosi	Har 1000 kishiga nisbatan
Juda yuqori	40 dan yuqori
Yuqori	31-40
O'rtachadan yuqori	26-30
O'rtacha	21-25
O'rtachadan past	16-20
Past	11-15
Juda past	10 gacha

6.4-jadvaldan ko'rinib turganidek, tug'ilishning umumiy koefitsienti 31,0 %odan baland bo'lsa tug'ilish darajasi yuqori, 11-15 %o atrofida bo'lsa past hisoblanadi. Qiyosiy tahlillar A.Merkov tomonidan ishlab chiqilgan tasnif demograf B.Urlianitsnikiga deyarli o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Endi A.Merkov tomonidan ishlab chiqilgan tasnif bo'yicha O'zbekistondagi tug'ilish darajasi (23,2 %o) o'rtacha hisoblanadi.

Yuqoridagi tasniflar bilan bir qatorda demograf olim Z.Pavlik tomonidan ishlab chiqilgan tug'ilish darajasini baholash mezonidan ham foydalaniladi (6.5-jadval).

6.5-jadvaldan ko'rinib turganidek, Z.Pavlik tomonidan ishlab chiqilgan tasnif yuqoridagi tasniflardan keskin farq qiladi. Ya'ni, bu tasnif bo'yicha tug'ilishning umumiy koefitsienti 17,5 %ogacha

bo'lsa tug'ilish darajasi past, 20,0 ‰ va undan baland bo'lsa yuqori hisoblanadi.

6.5-jadval

### Z. Pavlikning tasnifi bo'yicha tug'ilishning umumiy koeffitsientini baholash shkalasi

Tug'ilishning umumiy koeffitsienti	Tug'ilish darajasi tavsifi
17,5 gacha	Past
17,5-19,9	O'rtacha
20,0 va yuqori	Yuqori

Tug'ilishning umumiy koeffitsientidagi surat va maxraj o'lchamlarini bir-biriga yaqinlashtirish va maxrajdan tug'ilishga bog'liq bo'lmagan aholi qatlamlarini chiqarib tashlashga qaratilgan urinishlar natijasida tug'ilishning maxsus koeffitsienti paydo bo'lgan; ushbu koeffitsient tug'ilishlar soni va reproduktiv yoshdagi ayollar soni mutanosibligini ifoda etib, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F = \frac{N}{W_{15-49}} \times 1000 = n / w_{15-49} \quad (6.2)$$

Bu yerda:  $W_{15-49}$  — reproduktiv yoshdagi ayollar soni;  $w_{15-49}$  — mazkur aholidagi reproduktiv yoshdagi ayollar ulushi.

Keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, ushbu ko'rsatkich tug'ilishning umumiy koeffitsienti bilan uzviy bog'liq, ya'ni tug'ilishning umumiy koeffitsientida kasr maxrajida jami aholi qo'yilsa, maxsus koeffitsientda esa reproduktiv yoshdagi ayollar miqdori ishlatiladi. Agar reproduktiv yoshdagilar doirasida eng ko'p bola tug'adigan ayollar (30 yoshgacha) ko'proq bo'lsa, tug'ilishning maxsus koeffitsienti yuqori, aksincha, aholi tarkibida reproduktiv salohiyati tugab boradigan yoki tugagan avlodlar ko'p bo'lsa, u holda tug'ilishning maxsus koeffitsienti past bo'ladi. 6.6-jadvalda tug'ilishning maxsus koeffitsientini baholash mezoni keltirilgan.

## Tug'ilishning maxsus koeffitsientini baholash mezonlari

Reproduktiv yoshdagi har 1000 ta ayolga to'g'ri keladigan tug'ilishlar soni	Tug'ilish darajasi tavsifi
64 dan past	Past
64–100	O'rtacha
101–120	O'rtachadan yuqori
121–160	Yuqori
161 va yuqori	Juda yuqori

6.6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tug'ilishning maxsus koeffitsienti 64 %dan kam bo'lsa tug'ilish darajasi past, 121 %dan baland bo'lsa yuqori hisoblanadi. Mazkur mezon bo'yicha O'zbekistondagi holatga baho beradigan bo'lsak, 2008- yili respublikada tug'ilishning maxsus koeffitsienti 84,2 %ga teng bo'lgan. Bu esa, tug'ilishning o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi.

Tug'ilish intensivligini aniq tarzda baholash uchun alohida yosh guruhlariga ajratilgan ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular bir yillik yosh guruhlariga nisbatan hisoblanib, yosh tarkibi xususiyatlaridan to'la mustaqil bo'ladi. Biroq, ushbu hisob-kitoblarni quyidagi ba'zi cheklanishlarga ega: aholining yosh tarkibiga doir to'g'ri ma'lumotlar faqat aholini ro'yxatdan o'tkazilgan davr uchun olinishi mumkin, ushbu sanadan uzoqlashgan sari tug'ilish, o'lim, migratsiyaga oid statistik ma'lumotlar yordamida hisoblab chiqilgan ko'rsatkichlar bilan bog'liq qayta hisoblarda ba'zi noaniqliklar yuzaga keladi. Shu sababli amaliyotda tug'ilishning yosh guruhlariga bo'yicha koeffitsientlari 5 yillik yosh guruhlariga ko'ra hisoblanadi. 20 yoshgacha, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39, 40-44 va 45-49 yoshlar. Ayrim hollarda (tug'ilish yuqori bo'lgan hududlarda) tug'ilish koeffitsientini 50 yoshdan yuqori yoshdakilarda ham aniqlash maqsadga muvofiq.

Sanab o'tilgan yosh guruhlariga orasida eng ko'p muammo 20 yoshgacha bo'lganlarda uchraydi. Chunki, nikohlilik maqomiga

ko'ra, bu guruhga kirgan ayollar tarkibi turlichadir. Aftidan, ushbu guruhdagi tug'ilishlarning asosiy qismi 17 va undan yuqori yoshli ayollarga to'g'ri keladi, sababi O'zbekistonda ayollar uchun nikoh yoshi qilib 17 yosh belgilangan. Shunga ko'ra, so'nggi yillarda ushbu guruhga tegishli uchta koeffitsientni qo'llash keng tarqalgan, bu: 15-17, 18-19, 15-19 yoshlar.

**Tug'ilishning yosh koeffitsienti** — bu  $x$  yoshdagi onalarda bir yilda tug'ilgan bolalar sonining ushbu yoshdagi barcha ayollar soniga bo'lgan munosabati bo'lib, u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F_x = \frac{N_x}{W_x} \times 1000. \quad (6.3)$$

Bu yerda:  $N_x$  —  $x$  yoshli ayollarda tug'ilgan bolalar soni;  
 $W_x$  —  $x$  yoshidagi ayollar soni.

Nikoh va reproduktiv mayl me'yorlarining faol o'zgarishlari sharoitida nikoh haqidagi qarashlarning o'zgarishi va rasmiy qayd qilinmagan juftliklarning keng tarqalishi sababli tug'ilish va uning yoshi bo'yicha xususiyatlarining tahlilida onaning nikohlilik maqomi bilan bog'liq holda tug'ilishning ro'y berishi katta ahamiyatga ega. Bunday tahlilning to'la shakli faqat aholini ro'yxatga olgan yillarda o'tkazilishi mumkin, chunki o'sha davrda turli yoshdagi ayollarning nikoh bo'yicha taqsimlanishiga doir ma'lumotlar jamlanadi. Tug'ilishning joriy qayd qilinishi faqat mazkur yildagi umumiy tug'ilganlar orasida nikohsiz tug'ilganlar ulushini aniqlash imkonini beradi.

Nikohda va nikohsiz tug'ilish holati o'rganilganda qator jihatlarini e'tiborga olish zarur. Birinchidan, ayollarning nikohlilik maqomi ularning so'zlariga ko'ra qayd qilinib, bunda hujjatlar bilan tasdiqlanish talab qilinmaydi. Biroq, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish idoralarida bola qayd etilayotganda esa onaning (ota-onaning) nikohlilik maqomi nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma yordamida aniqlanadi. Ikkinchidan, nikohsiz tug'ilgan bolalar orasida quyidagi ikki toifa mavjud: ota-onaning birgalikda bergan arizasiga ko'ra qayd etilgan va onaning arizasiga ko'ra qayd etilgan bolalar. Birinchi toifa ko'proq uchraydi. Nikohsiz tug'ilishning keng tarqalib borishi norasmiy nikoh ittifoqlarining



soni o'sishi bilan bog'liq. Masalan, statistik ma'lumotlar guvohlik berishicha, Frantsiyada barcha bolalarning 40 foizi nikohsiz (nikohdan tashqari, noqonuniy holda) tug'iladi.

Real avlodlardagi kabi shartli avlodlar uchun ham sun'iy tashkil etilgan avlod tug'ilishi darajasini tasniflovchi umumlashtirilgan ko'rsatkich mavjud. Bu **tug'ilishning yig'indi koeffitsienti** hisoblanib, u berilgan shartli avlodga mansub bir ayol tomonidan hayoti davomida (reproduktiv davrda) dunyoga keltirgan farzandlarning o'rtacha sonini ifodalaydi. 5-yillik yosh guruhlari bo'yicha koeffitsientlardan foydalanilganda, tug'ilishning yig'indi koeffitsientini aniqlash formulasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$F_{sum} = 5 \sum F_x . \quad (6.4)$$

Bu yerda:  $x$  — besh yillik guruhlar bo'yicha yoshiga ko'ra tug'ilishlar.

Hisoblash natijasida hosil bo'lgan qiymat shartli avlodagi bir ayolga to'g'ri keladigan farzandlar sonini tavsiflaydi. Shartli avlodlar uchun hisoblanadigan barcha ko'rsatkichlarning etishmasligi tufayli tug'ilishning yig'indi koeffitsienti asosida tug'ilish darajasining tenglashtirilishidagi eng yuqori aniqlikka faqat bir shartda, ya'ni butun hayot davomida shartli avlodni tashkil etuvchi ayollarda bola ko'rishning yoshlar bo'yicha intensivligi, intergenetik va pretogenetik intervallar, bolalik me'yorlari va h.k. hisob-kitob olib borilgan yildagidek saqlanib kelinganda erishish mumkin. Shunga qaramasdan, aytish mumkinki, tug'ilishning yig'indi koeffitsienti tug'ilish darajasi va aholining takror barpo bo'lishini baholovchi eng aniq ko'rsatkichdir. Mazkur koeffitsientning muayyan miqdoriy chegaralarda uzoq vaqt saqlanib turishi aholi soni dinamikasi yo'nalishlarini (o'sishi, barqarorlashishi va qisqarishi) hamda aholining demografik rivojlanish istiqbollari tavsiflab beradi.

6.7-jadvalda tug'ilishning yig'indi koeffitsientini baholash mezoni keltirilgan.

6.7-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 1,8 dan kamni tashkil qilsa, tug'ilish darajasi juda past, agar u 1,8-2,15 ga teng bo'lsa, tug'ilish darajasi past hisoblanadi va h.k.

Shu bilan birga, ota-onalar avlodi o'rnining farzandlar avlodi bilan oddiy to'ldirilishi (1:1) real tarzda tug'ilishning yig'indi koeffitsienti bir ayolga o'rta hisobda 2,15-2,17 tug'ilish chegarasida bo'lganidagina yuz beradi. Tabiiyki, agar tug'ilishning yig'indi koeffitsienti qiymatlari bundan past bo'lsa, u holda aholining takror barpo bo'lishi tartibi torayadi va aksincha, u balandroq qiymatga ega bo'lgan hollarda aholining takror barpo bo'lishi kengayib boradi.

Endi tug'ilishning yig'indi koeffitsientini baholash mezoni orqali O'zbekistondagi holatga baho berib o'tsak. Ma'lumki, 2008 yili respublikada tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,6 ga teng bo'lgan. Bu esa tug'ilish o'rtacha darajada ekanligini, aholining takror barpo bo'lishi kengaygan shaklga egaligini ko'rsatadi.

6.7-jadval

### Tug'ilishning yig'indi koeffitsientini baholash mezoni

Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti qiymati	Tug'ilish darajasi va aholi takror barpo bo'lish tartibining baholanishi
1,8 dan kam	Tug'ilish darajasi juda past, aholining takror barpo bo'lishi tor doirada kechadi.
1,8 – 2,15	Tug'ilish darajasi past, ushbu darajada uzoq vaqt saqlanib tursa, aholining takror barpo bo'lishi tor doiraga o'tishi muqarrar.
2,15 – 2,17	Aholining oddiy takror barpo bo'lish chegarasi
2,17 – 2,4	Ushbu tug'ilish darajasida, hatto o'lim ancha ko'tarilsa ham aholining oddiy takror barpo bo'lishi davom etadi va o'sishi ham kuzatiladi.
2,4 – 3,0	Tug'ilishning o'rtacha darajasi, aholi takror barpo bo'lishining kengaygan shakli va uning muntazam o'sishi kuzatiladi.
3,0 – 4,0	Tug'ilish darajasi o'rtachadan yuqori, aholining takror barpo bo'lishi keng va tez sur'atlarda o'sib boradi.
4,0 va undan yuqori	Tug'ilish darajasi yuqori, aholining takror barpo bo'lishi keng tarzda kechib, jadal o'sib boradi.

Tug'ilishning yig'indi koeffitsienti hisoblariga ko'ra, reproduktiv yoshdagi barcha ayollar farzand ko'radilar. Shu o'rinda aytish kerakki, tug'ilishni yig'indi koeffitsientining real nikohlilik, o'lim, bevalik, ajralish, ayrim ayollardagi bepushlilik hollarini hisobga olgan holda tuzatish algoritmi 1983 yili A.B.Sinelnikov tomonidan tavsiya etilgan. Uning hisob-kitoblari natijalarining ko'rsatishicha, oddiy avlodlar almashinuviga erishish uchun bir samarali nikohga 2,5-2,6 bola to'g'ri keladigan tug'ilishning yig'indi koeffitsienti qiymati talab qilinadi.

Tug'ilish darajasini ifodalashda farzandlilik koeffitsientining o'rni katta. **Farzandlilik koeffitsienti** deganda, 0-4 yoshdagi bolalar sonining reproduktiv yoshdagi ayollar (15-49 yosh) soniga nisbati tushuniladi. Ba'zida farzandlilik koeffitsientini hisoblashda sur'at sifatida 0-9 yoshdagi bolalar soni olinadi, maxraj sifatida esa - 20-49 yoshdagi ayollar soni olinadi.

Farzandlilik koeffitsienti tarkibiy koeffitsient bo'lishi bilan bir qatorda tug'ilishning yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlari tizimiga kirmaydi, biroq u tug'ilishlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi yoki mavjud emasligida yoki bo'lmasa ishonchli emasligida, uning tavsifi uchun foydalanilishi mumkin. Farzandlilik koeffitsienti quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$C / WR = \frac{Ch_{0-4}}{W_{15-49}} . \quad (6.5)$$

Bu yerda:  $C/WR$  — farzandlilik koeffitsienti;  $Ch_{0-4}$  — 0-4 yoshdagi bolalar soni;  $W_{15-49}$  — reproduktiv yoshdagi ayollar soni.

Farzandlilik koeffitsientini tug'ilishni dastlabki baholash va uning darajasini oldindan aytib berish uchun, ayniqsa, aholining tabiiy harakatini hisobga olish yaxshi yo'lga qo'yilmagan, lekin etarli darajada aniq ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlari bo'lgan mamlakatlarda foydalaniladi. Aytish joizki, farzandlilik koeffitsienti tug'ilish ko'p bo'lgan mamlakatlarda yuqori va aksincha tug'ilish kam bo'lgan mamlakatlarda past bo'ladi.

**Tug'ilishlar taqvimi** aslida tug'ilishlar makoni, oilada muayyan davrda kutiladigan farzandlar soniga erishish jarayonini tavsiflaydi. U aniqroq ravishda protogenetik va intergenetik intervallar o'lchamlari bilan tavsiflanib, aholini ro'yxatga olish natijalari yoki

ayollar orasida maxsus tadqiqot olib borish yo'li bilan olinishi mumkin. Mazkur holda yosh, nikohga kirish yoshi (sanasi) va farzandlarning tug'ilgan sanalari ketma-ketlikda qayd qilinishi lozim. Birinchi farzand tug'ilgan sanadan onaning nikohga kirish sanasini ayirish yo'li bilan protogenetik interval aniqlanadi. Agar tug'ilish ongli, ommaviy tarzda cheklanmagan va ixtiyoriy farzandsizlik tarqalmagan bo'lsa, u aksariyat hollarda bir yildan oshmaydi. Har keyingi farzandning tug'ilgan sanasidan oldingi farzandning tug'ilgan sanasini ketma-ketlikda ayirish yo'li bilan intergenetik interval qiymatlari hisoblanadi va farzandlar tug'ilgan sanalar bilan onaning tug'ilgan sanasini taqqoslab, onaning har bir farzandini dunyoga keltirganidagi yoshini aniqlash mumkin.

Tug'ilishlar taqvimining barqarorligini aniqlash uchun tug'ilishning joriy statistik qayd qilinishiga nisbatan qator ko'rsatkichlar qo'llaniladi.

Eng oddiy ko'rsatkich — bu umumiy tug'ilishlar sonidagi har bir navbatdagi tug'ilishning ulushi va u quyidagi formula yordamida topiladi:

$$d_i = \frac{N_i}{N} \times 100 \quad (6.6)$$

Bu yerda:  $N_i$  —  $i$  navbatidagi tug'ilishlar soni.

Hisob-kitoblar va umumiy tug'ilishlar onaning yoshi bo'yicha ajratib olib berilishi mumkin. Ushbu holda maxrajda mazkur yoshli onada tug'ilganlar soni, suratda esa mos ravishda o'sha yoshdagi onalarda ushbu navbatdagi tug'ilgan bolalar soni yoziladi.

Keyingi qadam — bu tug'ilishning o'rtacha navbatliligini hisoblash. U barcha tug'ilishlar uchun quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$q = \frac{\sum N_i \times q_i}{N} \quad (6.7)$$

Bu yerda:  $q_i$  — tug'ilish navbatliligi raqami.

Mazkur formula orqali alohida yosh guruhlaridagi ayollar uchun hisob-kitoblar ham olib boriladi, u ham maxrajga ushbu yoshdagi ayollarda tug'ilgan bolalar soni, suratga esa alohida navbatlilikdagi tug'ilishlar soni yoziladi.

Xuddu shu usulda har bir navbatlilik uchun o'rtacha tug'ish yoshi aniqlanadi, biroq bu holda formula maxrajida ushbu nav-

batlilikda tug‘ilganlarning umumiy soni, suratda esa berilgan yoshdagi onalarda ushbu navbatlilikda tug‘ilganlarning yig‘indisi yozilib, u mos ravishdagi yosh qiymatlari bo‘yicha taqsimlangan bo‘ladi:

$$X_i = \frac{\sum N_{xi} \times X}{N_i} \quad (6.8)$$

5 yillik yosh guruhlari uchun har bir guruh uchun mos ravishdagi yosh qiymatlari quyidagicha: 15-19 yoshdagilarda — 17,5; 20-24 yoshdagilarda — 22,5 va h.k.

Sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish borasida yoshlik davrlarida va quyi tartibdagi sonlarda tug‘ilishning eng ko‘p to‘planishi, albatta, past tug‘ilishga va aholining toraygan takror barpo bo‘lishiga yo‘naltirilgan tendentsiya mavjudligidan dalolat berishini nazarda tutish lozim. Tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgani sari solishtirma og‘irliklarning yosh guruhlari va farzandlar tug‘ilishi tartibi bo‘yicha taqsimlanishi kengroq bo‘ladi.

Ammo, barcha qayd etilgan ko‘rsatkichlar tug‘ilishlarning mutlaq miqdoriga, reproduktiv yoshdagi ayollarning yosh tarkibiga asoslanadi. Shu bois, tug‘ilishlar taqvimining aniqroq tavsifini **tug‘ilishning kumulyativ koeffitsienti** yordamida berish mumkin.

Akkumulyatsiya yosh koeffitsientlarini ketma-ketlikda qo‘yish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tug‘ilishning kumulyativ koeffitsientini hisoblash tartibi 6.8-jadvalda keltirilgan.

6.8-jadval

### Tug‘ilishning kumulyativ koeffitsientini hisoblash

Yoshga qadar yig‘ilgan tug‘ilishlar soni	Tug‘ilishning yosh koeffitsientlar yig‘indisi
20 yosh	$f_{15-19}$
25 yosh	$f_{15-19} + f_{20-24}$
30 yosh	$f_{15-19} + f_{20-24} + f_{25-29}$
35 yosh	$f_{15-19} + f_{20-24} + f_{25-29} + f_{30-34}$
40 yosh	$f_{15-19} + f_{20-24} + f_{25-29} + f_{30-34} + f_{35-39}$
45 yosh	$f_{15-19} + f_{20-24} + f_{25-29} + f_{30-34} + f_{35-39} + f_{40-44}$
50 yosh	$f_{15-19} + f_{20-24} + f_{25-29} + f_{30-34} + f_{35-39} + f_{40-44} + f_{45-49}$

**Akkumulyatsiya jarayoni** — bu ketma-ketlikdagi amallarga bo'lingan tug'ilishning yig'indi koeffitsientining hisoblanishidir, shu sababli 50 yoshga qadar yig'ilgan tug'ilishlar soni berilgan shartli avlodning tug'ilishning yig'indi koeffitsientiga teng bo'ladi. Tug'ilishlar makonini tavsiflash nuqtai nazaridan kumulyativ koeffitsientlar tug'ilishning ikkita eng muhim ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi, bu tug'ilishning median yoshi va deyarli barcha farzandlilikka moyilliklar amalga oshgan yosh. Bu ko'rsatkichlardan birini hisoblash uchun har bir kumulyativ koeffitsientni tug'ilishning yig'indi koeffitsientiga bo'lish lozim. Median yosh - bu tug'ilishlar soni (yosh koeffitsientlari yig'indisi) tug'ilishning yig'indi koeffitsienti qiymatidan 50 foizga oshganidagi yoshdir. Mazkur shartlilikni hisobga olgan holda ushbu yoshni farzandlar tug'ishdagi o'rtacha yosh deb hisoblash mumkin. Ikkinchi ko'rsatkichga kelsak, bunda so'z yig'ilgan tug'ilishlar soni 85-90 foizga etadigan yosh guruhini topish haqida boradi. Mazkur davrni aksariyat ayollarning reproduktiv moyilliklarini amalga oshirish uchun chegara sifatida qabul qilish mumkin.

Shunday qilib, tug'ilish darajasini aniqlash va unga baho berishda tug'ilishning umumiy, maxsus, yosh guruhlari, yig'indi va kumulyativ koeffitsientlaridan foydalaniladi.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Tug'ilish deganda nimani tushunasiz?
2. «Pushtlilik» tushunchasining mohiyatini ochib bering.
3. «Tabiiy tug'ilish» tushunchasi fanga qachon va kim tomonidan kiritilgan?
4. Reprodukativ maylning qanday turlarini bilasiz?
5. Aholining reproduktiv mayliga ta'sir etuvchi omillarni sanab bering.
6. Progenetik va intergenetik interval tushunchalarini farqini izohlang.
7. Fanda «tug'ilish iqtisodiyoti» kontseptsiyasi qachon yaratilgan?
8. Tug'ilishning tarixiy turlarini sanab bering.
9. Tug'ilishga oid ma'lumotlarni tahlil qilishda qanday usullardan foydalaniladi?
10. Tug'ilishning umumiy koeffitsientini baholashning qanday mezonlarini bilasiz?
11. Farzandlilik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
12. Tug'ilish taqvimini deganda nimani tushunasiz?

---

## 7-bob. AHOLI O'LIMI VA HAYOT DAVOMIYLIGI KO'RSATKICHLARI

### 7.1. O'limning demografik mohiyati va uning tiplari

Demografiya fanida o'lim jarayonini o'rganish o'ta murakkab sanaladi, sababi bu sohada biologik va ijtimoiy asoslar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar keskin namoyon bo'ladi. Oxir-oqibatda o'lim inson organizmini biologik rivojlanishining g'alabasi sifatida barcha ijtimoiy qonuniyatlardan ustun keladi. Ayni vaqtda inson organizmi jamiyatda yashashi davomida sivilizatsiya yutuqlarining ijobiy jihatlaridan bahramand bo'libgina qolmay, balki atrof-muhitning salbiy ta'sirlaridan mutnazam stresslarga ham uchraydi. Shuning uchun davlatning aholi salomatligi va o'limiga nisbatan olib borayotgan siyosatidagi vazifalar faqatgina sanitariya-epidemiologik vaziyatni nazorat qilish bilan cheklanib qolmasligi lozim.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida kuzatiladigan o'limning miqdor ko'rsatkichlari aholining yoshi va o'lim sabablari bilan bog'liq bo'lgan omillar yig'indisi yordamida aniqlanadi. Ushbu omillar shartli ravishda endogen va ekzogen omillarga bo'linadi.

**Endogen omillar** deganda organizmning ichki rivojlanishidan kelib chiqqan holatlar, **ekzogen omillar** deganda esa inson organizmiga tashqi muhit ta'siri tushuniladi.

O'limning endogen omillari yoki inson organizmida u tug'ilganidan to o'lguniga qadar sodir bo'ladigan endogen jarayonlar ko'p jihatdan biologik yoki genetik tabiatga ega va butun organizm yoki uning alohida a'zolarining tabiiy keksayishi bilan bevosita bog'liq. O'limning endogen omillari haqida so'z borganda insonning biologik organizm sifatida keksayib borishi nazarda tutiladi.

Odamni alohida a'zolarining asta-sekin qarishi va ulardagi potologik o'zgarishlar yosh o'sgan sari rivojlanadi. Tabiiyki, o'lim endogen omillar ta'sirida keksa yoshdagilarda o'zining cho'qqisiga

etadi. Aytish joizki, endogen omillardan sodir bo'ladigan barcha o'lim holatlari faqat keksa yoshdagilarga to'g'ri kelmaydi, ya'ni aynan yoshning o'sib borishi natijasida organizmning biologik yoki jismoniy eskirib borishi bilan bog'liq emas. Endogen omillar ta'sirida ba'zi o'lim holatlari insonning yoshlik va bolalik davrida ham kuzatiladi. Bunga irsiy kasalliklar, tug'ma nuqsonlar, genetik buzilish va h.k.larni sabab qilib ko'rsatish mumkin.

«Keksalik» tushunchasining o'zi ham genetik xususiyatlarga ega va u insonlarda bir xil vaqtda sodir bo'lmaydi. Shu sababdan bir xil sharoitda yashab o'tgan insonlarda hayotiy kuchlarning tugash vaqti yoki yoshi ma'lum ko'rsatkich atrofida doimo o'zgarib turadi. Uning maksimal qiymati sifatida hayotning biologik davomiyligi belgilangan bo'lib, u 115-125 yoshni tashkil etadi. Agar endogen omillar aholining muayyan guruhida o'lim holatlarining taqsimlanishini inson yoshi funktsiyasidan kelib chiqqan holda tartibga solib tursa, ekzogen omillar, aksincha, bu tartibni buzadi. Chunki, ekzogen omillar inson yoshiga bog'liq holda sodir bo'lmaydi. Har qanday odam yoshidan qat'iy nazar mazkur omillar ta'sirining obyektiga aylanishi mumkin. Ular insonning darhol o'limiga sababchi bo'lishi yoki bo'lmasligi ham mumkin. Biroq, bunday omillarning organizmga o'tkazgan ta'siri juda kam hollarda asoratsiz kechadi.

Ekzogen omillar insonning yoshligidan o'limiga olib kelmasada, organizmning keksayishi jarayonini tezlashtiradi va barvaqt o'limga sababchi bo'ladi. Mazkur holat o'limning **kvaziendogen omili** deb ataladi.

Ekzogen omillar aholining hayot davomiyligi va turmush sifatini tavsiflovchi omil sifatida talqin qilinishi mumkin. Bunda moddiy ta'minlanganlik (daromad, turar-joy va h.k.), sog'liqni saqlash va tibbiy yordam sifati, sanitariya madaniyati, ma'lumotlilik darajasi, atrof-muhitning holati va boshqalar tushuniladi.

Insoniyat yashab kelayotgan muhitning modernizatsiyalashuvi ikki yo'nalishda kechadi: bir tomondan, sivilizatsiya taraqqiyoti inson hayoti davomiyligini qisqartiruvchi omillarni nazorat qilish imkonini yaratadi; ikkinchi tomondan esa, sivilizatsiyaning o'zi taraqqiy etib borishi davomida biologik mavjudot hisoblanuvchi



insonga qarshi bo'lgan, asosan texnogen tabiatga oid ekzogen omillarni keltirib chiqaradi. Ushbu ma'noda, tashqi omillar yig'indisi muntazam ravishda o'zgaradi, murakkablashadi va kengayib boradi. Bir tomondan o'limni ijtimoiy nazorat qilishning kuchayishi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy va individual xulq-atvorning shakllanishi ekzogen omillar rolini cheklaydi va aksincha endogen omillar rolini oshiradi.

Endogen va ekzogen omillar ta'sirida o'lim holatlarining yuz berganligi bois, ulardagi o'zgarishlarning yig'indisi ikki xil oqibatga olib keladi. Bular o'limni miqdor ko'rsatkichlarining o'zgarishi (yosh o'sib borgani sayin o'lim holatlarining ko'payishi hamda yoshdan qat'iy nazar o'lim hollarining tez-tez uchrashi) va hayot davomiyligining o'sishi. Mazkur hodisalar demografiyada **epidemiologik o'tish** deb nomlanadi. Bunda turli yoshdagi o'lim hamda o'lim sabablari intensiv ravishda evolyutsion o'zgarishi nazarda tutiladi. Ushbu holda **o'lim sabablari** deganda, insonga ekzogen omillar va inson organizmining qarishi jarayoni bilan bog'liq patologiyalarning yuz berish holatlari tushuniladi.

Ekzogen omillar ta'sirida sodir bo'lgan o'lim sabablariga yuqumli va parazitar kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zaharlanish va shikastlanish, nafas yo'llari, shamollash, oshqozon-ichak a'zolarining kasalliklari kiradi.

Endogen tabiatga ega bo'lgan o'lim sabablari qatoriga qon aylanish tizimi, endokrin kasalliklar, shishlar, tug'ma nuqsonlar, qon-tomir tizimining shikastlanishi va bir qator boshqa kasalliklar kiradi. Mutaxassislarining fikricha, ko'p kasalliklarning kelib chiqishi aralash tabiatga ega. Buning yaqqol misoli - xavfli shishlar va o'simtalarning paydo bo'lishi. Zero, ularning vujudga kelishi genetik moyillik bilan bog'liq, lekin, ayni vaqtda, ularning tashqi muhit (kantserogen) omillar ta'sirida ham o'sishi aniqlangan. SHuning uchun o'lim sabablarining ushbu guruhi kvaziendogen sabablar qatoriga kiritiladi.

Demografik tarixni davrlashtirish o'limning quyidagi uchta asosiy tipining mavjud bo'lganligini asoslashga yordam beradi:

1. Arxetip (qadimgi tip);
2. O'limning an'anaviy tipi;
3. O'limning zamonaviy tipi.

**O'limning arxetip tipi** — kishilik jamiyati tarixining eng uzoq davom etgan davrini qamrab oladi. Uning paydo bo'lishi insonning hayvonot dunyosidan ajralib chiqishi va o'zgacha bir biologik turga mansub mavjudotlar guruhining shakllana boshlanishi bilan bog'liq. Uning shakllanishidagi faol davri neolit hamda dastlabki agrar inqilob, ya'ni termachilikdan ishlab chiqaruvchi iqtisodiyotga o'tish davriga to'g'ri keladi. Inson madaniyatining taraqqiyotidagi ushbu qadam yangi mehnat qurollarining paydo bo'lishi, mehnat unumdorligining oshishi, turar-joylarning takomillashishi, joylashuv tizimining o'zgarishi, aholining to'planishi va o'rtoqlashuvining kengayishi atrof-muhit haqidagi bilimlarning oshishiga olib keldi. Bu esa, o'z navbatida, insonning tabiiy kuchlar ta'siridan qaramligini kamaytirdi va uning qo'rsheb turgan dunyodan o'zini himoyalash kuchini oshirdi. Ayni vaqtda ishlab chiqaruvchi iqtisodiyot sharoitlarida, mehnat iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib bordi hamda o'z-o'zidan insonning hayotga bo'lgan munosabatining o'zgarishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar nafaqat odamzotning moddiy dunyosida, balki ijtimoiy munosabatlarida ham ro'y berdi. Uning muhim jihatlaridan biri - bu oilaning faol shakllanishi hamda uning asosiy ijtimoiy institut sifatida e'tirof etilishi bo'ldi. Aholining takror barpo bo'lishi oilada amalga oshirila boshlandi. Shu bilan birga, odamlar o'limning ekzogen omillari bilan kurasha boshladi. Ushbu holat aholi o'limining nisbatan kamayishiga olib keldi. Shunday qilib, o'limning arxetip (qadimgi) tipining e'tirof bo'lishi o'lim dinamikasi ustidan ijtimoiy nazorat o'rnatilishining ilk qadami hisoblanadi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, bu davrdagi sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlarga yuqori baho bermaslik kerak. Chunki, bu davrda insonlarning hayot davomiyligi 21 yoshdan oshmagan.

**O'limning an'anaviy tipi** quldorlik jamiyatidan boshlab shakllana boshlagan va XVIII asr o'rtalariga qadar mavjud bo'lgan. Ko'pchilik mamlakatlarda, masalan, O'zbekistonda u XX asrgacha davom etgan. O'limning mazkur tipining tarqalishi agrar iqtisodiyotning hukm surishi, inqirozi esa industrial jamiyatning rivojlana boshlashi bilan izohlanadi. Uning aksariyat jihatlari o'limning arxetip tipiga o'xshash, chunki, o'limning bu tipida

ham ekzogen omillar va unga xos bo'lgan o'lim sabablari ustunlik qilgan: ommaviy epidemiyalar, ocharchilik, urush oqibatidagi o'lim va h.k. Shunday bo'lsa-da, ushbu o'lim tipi doirasida shartli ravishda normal o'lim va o'lim nihoyatda yuqori ko'rsatkichlariga ega (o'lat, chechak, vabo va boshqalar kabi butun davlatlarni qamragan hamda aholisini ikki marotaba va undan ham ko'pga qisqartirgan kasalliklar natijasida) vaqtlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Normal o'limning asosiy sabablari sifatida ommaviy epidemiyalarni emas, balki hayot va turmush sharoitlaridan kelib chiqqan omillarni ko'rsatish lozim. Ya'ni, bu sifatsiz ozuqa, to'yib ovqatlanmaslik, og'ir jismoniy mehnat, turar-joyning sanitar-gigienik talablarga javob bermasligi va h.k.

Ta'kidlash lozimki, o'sha davrda an'anaviy jamiyatdagi odam bunday holatni tabiiy, ya'ni, me'yor sifatida qabul qilgan. Chunki, yashashning o'zgacha sharoitlari hamda o'limning boshqa tartibini tasavvur qilmagan. Ko'p jihatdan o'zining va o'zgalarning hayotiga bo'lgan munosabatda taqdirga ishonish inson o'lganidan keyin ham hayoti boshqa dunyoda davom etishiga ishontirish talabidan kelib chiqardi. Industrial ishlab chiqarishning vujudga kelishi o'limni ijtimoiy nazorat qilishning kuchaytirilishi uchun moddiy asoslarni yaratishga kuchli turtki berdi. Umuman olganda, industrial ishlab chiqarishning paydo bo'lishi, sanoat va qishloq xo'jaligining taraqqiy etib borilishi Vatan taraqqiyoti uchun, birinchi navbatda, tabiiy fanlar hamda tibbiyotning ravnaqiga qulay zamin yaratdi.

Uyg'onish davridagi madaniy inqilob ko'plab ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'zgartirdi. Inson shaxsini yangi, o'zgacha pog'onaga ko'tardi, ongning asta-sekinlikda individuallashishi bog'lanib, unda hayot va o'lim shaxsiy mulk va shaxsiy yo'qotish sifatida qabul qilina boshlandi. Mazkur hol ham individual, ham ijtimoiy miqyosda hayot va salomatlikka nisbatan bo'lgan munosabatda yangi xulq modelining shakllanishiga sharoit yaratadi.

Tibbiyotning taraqqiyoti natijasida «vaksinatsiya» deb ataluvchi profilaktik kasalliklarning oldini olish usuli yaratildi. Masalan, XVIII asr oxiriga kelib E. Djener chechak kasalligiga qarshi ishonchli immunitet yaratish usulini ishlab chiqdi. Shunisi

muhimki, bu kashfiyotning ommaviy ijobiy ta'siriga qaramay, unda profilaktikaning asosiy omili, ya'ni inson organizmining individual himoyalaniishi jihati namoyon bo'ldi. Asta-sekin zamonaviy vaktsinatsiyalar bilan kasalliklarning oldini olish va tarqalishni to'xtatish hamda davolash mumkin bo'lgan kasalliklar doirasi imkon qadar kengayib bordi. Ular jumlasiga, sil, pnevmoniya, sifiliz va h.k. kasalliklarni kiritish mumkin.

XIX asrda antiseptika, rentgen yordamida tashhislash, jarrohlik va boshqa zamonaviy tibbiyot sohalarida taraqqiyot boshlandi. Mazkur sohalardagi tadqiqot va kashfiyotlar L.Paster, R.Koxa, V.K.Rentgen, I.I.Megnikovlarning nomlari bilan bog'liq. Ushbu yuz yillik oxiriga kelib o'limning pasayishi hamda hayot davomiyligining o'sishi ko'rsatkichlari keskin ko'tarildi. Agar o'rta asrlarda Skandinaviya mamlakatlarida hayot davomiyligining maksimal ko'rsatkichlari 40-42 yoshdan oshmagan bo'lsa, 1905 yilga kelib, u 55-58 yoshga yetdi.

O'limning bu tipida O'zbekistonda aholining o'rtacha umr ko'rish davri 32 yosh bo'lgan. O'lkadagi og'ir turmush sharoiti, tibbiy xizmatlarning juda kamligi, aholi o'rtasida o'limning ko'pligi aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligining kamayishiga olib kelgan<sup>1</sup>.

Shunday qilib, XX asr boshlariga kelib **o'limning yangi zamonaviy tipining** shakllanishi uchun zamin yaratildi. Aftidan, epidemiya, yuqumli va parazitar kasalliklar ustidan o'rnatilgan nazorat hali to'liq darajada o'limning an'anaviy turining tugallanganligini anglatmaydi. Endogen omillar bilan bog'liq o'lim sabablarining ustun kelishi asosan XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Ushbu davrda o'lim sabablari tarkibida qon aylanish tizimi va o'simta kasalliklaridan sodir bo'lgan o'lim hollari etakchi o'rinni egalladi. Biroq, bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kutilayotgan hayot davomiyligi 75-80 yoshdan oshgan bo'lsa-da, ekzogen patologiyalar, ayniqsa, bolalarda tugatilganligi haqida xulosa chiqarishga hali erta. Shu bilan birga,

---

<sup>1</sup> Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. — Т.: Университет, 1997. — 105 б.

bugungi kunda kasallanish ehtimoli yuqori bo'lgan muayyan yosh va kasb guruhlari, epidemiya xavfi yuqori sanaluvchi hududlar, murakkab tabiiy iqlim sharoitiga ega yerlar va h.k. mavjud. Bu esa hayot bir me'yorda kechmayotganligidan dalolat beradi. Ayni vaqtda, XX asr davomida va XXI asr boshlarida o'lim omillari hamda patologiyalar tarkibida sezilarli darajada o'zgarishlar ro'y berdi va buning natijasida yosh guruhlarida o'lim kamaydi va hayot davomiyligi bir muncha oshdi, bunday holat o'limning o'zgacha insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi avvalgi bosqichlaridagidan farqlanuvchi tarixiy turi mavjudligini e'tirof etish imkonini beradi.

## **7.2. O'lim sabablarining xalqaro tasnifi**

**O'lim sabablarining xalqaro tasnifi** tibbiyot fani tomonidan qabul qilingan kasalliklar ro'yxati bo'lib, Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladi va muntazam ravishda qayta ko'rib turiladi. Shunday qilib, turli yillarda kasalliklarni va o'lim sabablarini qayd etish amaliyotidan kasalliklarning xalqaro tasnifining turli shakllari bir-birining o'rnini almashtirib kelgan. Mazkur hol o'limning aniq sababini tenglashtirilishida deyarli aks etmaydi. Agar kasalliklar xalqaro tasnifining urushdan keyingi variantlariga nazar tashlasak, aholining turli guruhlarida sodir bo'lgan o'lim sabablari bir sinfdan boshqa sinfiga o'tkazib turilgan. Xususan, bunday ko'chirishlar oshqozon-ichak hamda parazitlar kasalliklarda amalga oshirilgan. Aytish joizki, ba'zi mamlakatlarda kasalliklarning xalqaro tasnifi ro'yxatlaridan foydalanilmaydi yoki ular asosida o'zining milliy shart-sharoitlariga moslashtirilgan variantlar ishlab chiqiladi. Xususan, 1960-yillarda O'zbekiston Sobiq ittifoq tomonidan ishlab chiqilgan kasallik va shikastlanishlar hamda o'lim sabablari tasnifidan foydalangan va 1970-yilga kelib xalqaro tasnifga o'tgan.

O'lim sabablari xalqaro tasnifining yaratilishi uzoq tarixga ega. O'lim sabablarining dastlabki ro'yxati J. Bertillon tomonidan taqdim etilgan bo'lib, u 1893-yil Xalqaro statistika instituti tomonidan qabul qilingan. 1900-yildan beri o'lim sabablarining xalqaro tasnifi muntazam ravishda qayta ko'rilib kelinmoqda.

Tarkibiy jihatdan o‘lim sabablarining xalqaro tasnifi 19 ta kasallik sinfiga bo‘linadi (7.1-jadval).

O‘lim sabablarining xalqaro tasnifi 19 ta kasallik sinfi bilan bir qatorda 106 ta guruh va 999 bo‘limga taqsimlangan holda tadqiq etiladi.

7.1-jadval

### O‘lim sabablari xalqaro sinfining nomlanishi

Sinflar	Kasalliklar nomi
I sinf	Yuqumli va parazitar kasalliklar
II sinf	Xavfli o‘simtalar va shishlar
III sinf	Qon va qon hosil qiluvchi a‘zolar kasalliklari
IV sinf	Endokrik tizimi kasalliklari, moddalar almashinuvi, ovqatlanish va immunitetning buzilishi
V sinf	Ruhiy faoliyat va xulq-atvorning buzilishi
VI sinf	Asab tizimi kasalliklari
VII sinf	Ko‘z kasalliklari
VIII sinf	Quloq kasalliklari
IX sinf	Qon aylanish tizimi kasalliklari
X sinf	Nafas olish a‘zolari kasalliklari
XI sinf	Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklari
XII sinf	Teri kasalliklari
XIII sinf	Suyak-mushak tizimi va birlashtiruvchi to‘qima kasalliklari
XIV sinf	Tanosil tizimi kasalliklari
XV sinf	Homiladorlik, tug‘ish va tug‘ishdan keyingi davr asoratlari
XVI sinf	Perinatal davrdagi alohida holatlar
XVII sinf	Tug‘ma nuqsonlar, xromosomalarning buzilishi
XVIII sinf	Boshqa bo‘limlarda tasniflanmagan, klinik va laboratoriya tekshiruvlarida aniqlanmagan belgilar va alomatlar
XIX sinf	Baxtsiz hodisalar, zaharlanishlar va shikastlanishlar

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘limni statistik tahlil etish jarayonida quyidagi asosiy sinflar qo‘llaniladi:

1. Yuqumli va parazitar kasalliklar;

2. O'simtali kasalliklar va shishlar;
3. Qon aylanish tizimi kasalliklari;
4. Nafas olish yo'llari kasalliklari;
5. Ovqatni hazm qilish a'zolari kasalliklari;
6. Baxtsiz hodisalar, zaharlanishlar va shikastlanishlar.

Ushbu sabablardan yuz bergan o'lim hodisalari juda kam hollarda umumiy tarzda ko'rib chiqiladi. Har bir sinf doirasida eng ommaviy hisoblangan, natijada ijtimoiy jihatdan muhim sabablar guruhleri va hatto alohida kasalliklar ajralib turadi. Masalan, yuqumli kasalliklar orasida sil, og'ir xavfli infektsiyalar (vabo, o'lat va boshqalar), venerik kasalliklar alohida ajratiladi. O'simtali kasalliklar orasida ayollar ko'krak bezi raki, erkaklarda tomoq raki ajratiladi. Qon aylanish tizimi kasalliklari sinfida uchta guruh ajratiladi: yurakning ishemik kasalligi (miokard infarkti alohida qayd etiladi), yurakning gipertonik kasalligi va nihoyat tserebro - vakulyar kasalligi yoki bosh miya tomirlari kasalligi (shu jumladan, insult).

Baxtsiz hodisa, zaharlanish va shikastlanishlar sinfi ham demografik, ham ijtimoiy nuqtai nazardan muammoli hisoblanadi, chunki uning tarkibiga kirgan barcha sabablar o'z tabiatiga ko'ra ekzogen bo'lib, ularni bartaraf qilish mumkin va ko'p hollarda ushbu hodisalar yoshlik yoki o'rta yoshlik davrda yuz beradi, ya'ni inson organizmining tabiiy qarishi bilan bog'liq emas.

Mazkur sinf holatlari jamiyatga sezilarli darajada iqtisodiy zarar ham etkazishi mumkin, zero ularning oqibatida aksariyat hollarda aholining eng iqtisodiy faol qismi hayotdan barvaqt ko'z yumadi. Ayni vaqtda yoshlik va o'rta yoshlik davrlariga mansub avlodlarning o'limi takror barpo bo'lish ko'rsatkichlariga ham miqdor, ham sifat jihatidan ta'sir etadi.

Ushbu sinfni tashkil qilgan sabablar jumlasiga: yo'l-transport hodisalari, birovning yoki o'z joniga qasd qilish hollari, alkagoldan zaharlanish, tasodifiy hodisalar bilan bog'liq o'limlar, cho'kib ketish va h.k.lar kiradi.

Qolgan o'lim sabablari guruhi barcha o'lim sabablarining 10-15 foizini tashkil etadi, ular «o'limning boshqa sabablari» guruhiga birlashtirilgan, biroq mazkur hol ushbu sabablar dinamikasi nazaridan chetda qoladi, degani emas, albatta. Undan tashqari, so'nggi o'n yilliklar davomida bir qator kasalliklarning tarqalish

darajasida o'zgarishlar kuzatilayotgani bois, ularning, garchi o'lim ko'rsatkichi baland bo'lmasa-da, ijtimoiy ahamiyat kasb etgani sababli ma'lum sinflarga ajratish keng tarqalmoqda, masalan, endokrin, ruhiy va boshqa bir qator kasalliklar.

Reproduktiv salomatlikni tahlil qilish jihatidan yana ikkita sinf alohida e'tiborni tortadi, bu — homiladorlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr asoratlari (ya'ni, onalar o'limi) hamda perinatal davrdagi alohida holatlar. Aytish joizki, ularni chuqur tahlil natijasida go'daklar o'limining sabablarini aniqlash imkoni paydo bo'ladi. Onalar o'limi tarkibida, ayniqsa, sog'liqqa katta zarar etkazuvchi tibbiy muolaja — abortdan sodir bo'lgan o'lim alohida ajralib turadi.

Bugungi kunda kasalliklarning xalqaro tasnifi kengaymoqda va tarkibiy jihatdan murakkablashib bormoqda. Bu holat ikki o'zaro chambarchas sabablarga ko'ra sodir bo'lgan. Birinchisi, insoniyat tsivilizatsiyasining evolyutsiyasi hamda uning oqibatida yuz bergan o'lim sabablari dinamikasi va epidemiologik vaziyatdan ta'sir o'tkazuvchi omillar tarkibidagi o'zgarishlar ma'lum patologiyalarni tenglashtirish jarayoniga aniqliklar kiritilishini talab qiladi. Ikkinchisi, tibbiyot fanining rivojlanishi va diagnostik texnologiyalarning takomillashtirilishi natijasida alohida kasalliklarning kelib chiqishi va kasalliklarning xalqaro tasnifi doirasidagi ma'lum kasallik hamda o'lim sabablari sinfiga mansubligi haqidagi taassurotlarni taftish qilish uchun ob'yektiv sharoitlar yuzaga keldi.

Shunday qilib, yangi kasalliklarni xalqaro tasnifining yaratilishi aslida epidemiologik o'tish evolyutsiyasi va uning demografik o'tishdagi roli haqidagi tasavvurlar rivojlanishining tarixiy jarayonidagi navbatdagi bosqichi bo'ldi.

Yuqorida sanab o'tilgan o'lim sabablarini asosiy sinflarining nomlari o'zgartmadi. Bir qator sinflar bo'lindi (perinatal o'lim sabablari), tashhishlash (klinik va laboratoriya tekshiruvlarda aniqlangan simptom-belgilar va h.k.), kasallik oqibatiga bevosita ta'sir etuvchi omillarning tahliliga (aholining salomatligiga hamda odamlarning tibbiy muassasalarga murojaat etishiga ta'sir etuvchi kasallik va o'limning tashqi sabablari) bo'lgan munosabatlarning o'zgartgani haqida dalolat beruvchi sinflar paydo bo'ldi.



### 7.3. Aholi o'limini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi

Aholi o'limi va hayot davomiyligi tendentsiyalarini tahlil qilishda xuddi tug'ilishdagi kabi ikki turdagi axborot asos bo'ladi. Bulardan birinchilari qatoriga o'lganlarning mutlaq soni va ularning yoshi, jinsi, o'lim sabablariga ko'ra ajratilishi, ikkinchilariga esa mazkur sonlarni solishtirish lozim bo'lgan aholi guruhlarining mutlaq soni (jami aholi, shuningdek, muayyan yoshdagi ayol va erkaklar soni) kiradi. Ushbu axborotlar asosida o'lim holatlari soni va darajasini aniqlovchi hamda kutiladigan hayot davomiyligini hisoblovchi ko'rsatkichlar tizimi yuzaga keladi.

Aholi o'limi va uning darajasini aniqlashda bo'ylama va ko'ndalang tahlil yoki real va shartli avlodlar uslublari qo'llaniladi. Tug'ilishdan farqli o'laroq, o'lim jarayonini tahlil qilishda real avlodlar uslubi keng qo'llaniladi, chunki aksariyat mamlakatlarda ma'lumotlarning etishmasligi muammosi mavjud. Gap shundaki, bir avlod ayollarining reproduktiv maylini sharhlash uchun 35 yil shartli ravishda qabul qilingan va bu aniq reproduktiv davr davomiyligi uchun ma'lumotlar zarur bo'ladi. Bir avlodning o'lishi jarayonini tadqiq qilish uchun esa deyarli yuz yilga oid o'limning yosh guruhlariga doir ma'lumotlar kerak. Ma'lumki, o'lim dinamikasi ko'p jihatdan uzoq o'tmishdagi turmush sharoitlarining emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy muhitning joriy o'zgarishlari zahirida bo'ladi, faqat chuqur iqtisodiy inqiroz yillari bundan mustasno (urush, ocharchilik, epidemiya davrlari). Ayni vaqtda ushbu qiyinchiliklarni boshdan kechirgan insonlar keyinchalik qulay turmush sharoitlariga erishsalar o'zlarining yo'qotgan sog'liq zaxiralarini qisman tiklashlari mumkin.

Demografiyada aholining o'lim holatini statistik tahlil qilish maqsadida qator ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Shulardan o'lim darajasini baholovchi eng oddiy ko'rsatkich — bu **o'limning umumiy koeffitsenti** hisoblanib, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$m = \frac{M}{P} \times 1000. \quad (7.1)$$

Bu yerda:  $M$  — o'rganilayotgan davrdagi o'lganlarning umumiy soni;  $R$  — o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

Mazkur koeffitsient hisoblab chiqishning soddaligi va ma'lumotning mavjudligi sababli keng qo'llaniladi. Ayni vaqtda, ba'zi millat vakillari hamda kichik hududiy aholi manzilgohlari uchun jins va yoshga oid aniq ma'lumotlarni olishning imkoni bo'lmaganligi bois o'limning umumiy koeffitsienti o'lim darajasini aniqlash va baholash uchun qo'llaniladigan yagona uslub hisoblanadi.

Mamlakat (hudud) aholisining o'lim darajasini baholashda o'limning umumiy koeffitsientidan foydalaniladi. 7.2-jadvalda o'limning umumiy koeffitsientini baholash mezonlari keltirilgan.

O'lim darajasini tavsiflovchi mezonlarni tahlil qilish ularning deyarli bir-biriga o'xshash ekanligini ko'rsatadi. Aytish joizki, bugungi kunda mamlakatlarda aholining o'lim darajasini baholashda bu mezonlardan keng foydalanilmoqda.

O'lim darajalarini o'limning umumiy koeffitsienti yordamida solishtirish jarayonida standartlashtirish uslubi qo'llaniladi. O'z mohiyatiga ko'ra, **standartlashtirish** — bu indeksli uslubning soddalashtirilgan varianti yoki o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblashning oddiy usulidir.

7.2-jadval

### O'limning umumiy koeffitsientini baholash mezonlari

I*		II**	
Koeffitsient o'lchami, ‰	Daraja tavsifi	Koeffitsient o'lchami, ‰	Daraja tavsifi
20 dan yuqori	juda yuqori	35,0 va undan yuqori	favqulodda yuqori
16-20	yuqori	25,0-34,9	juda yuqori
13-15	o'rtachadan yuqori	15,0-24,9	yuqori
11-12	o'rtacha	10,0-14,9	o'rtacha
9-10	o'rtachadan past	10 gacha	past
7-8	past		
7 gacha	juda past		

\* Мерков А.М., Сухаребский Л.М. Статистика на службе народного здоровья. - Москва, 1968. - С.48.

\*\* Статистика населения с основами демографии / Г.С.Кильдишев, Л.Л.Козлова, С.П.Ананьева. - М.: Финансы и статистика, 1990. - С.159.

Standartlashtirishning ikki — bevosita va bilvosita uslublari mavjud. Ularning farqi quyidagilardan iborat: birinchi uslubda standart sifatida aholining muayyan yosh tarkibi olinadi. Bilvosita uslubda esa standart sifatida aholining muayyan yosh guruhlaridagi o'lim koeffitsientlari olinadi.

Birinchi uslub yosh tarkibidagi farqlanishlarni aniq ta'riflaydi, lekin uni qo'llashdagi befoydalilik shundaki, agar taqqoslanayotgan hududlarda yosh guruhlari bo'yicha o'lim koeffitsientlari mavjud bo'lsa, u holda standartlashtirishga o'z-o'zidan ehtiyoj qolmaydi.

Ikkinchi uslubda birmuncha noaniqliklar mavjud bo'lsa-da, u yosh guruhlari o'limiga tegishli axborot mavjud emasligida qo'llaniladi.

**Standartlangan o'lim koeffitsientlarini bevosita uslubda hisoblash.** Hisoblashning dastlabki bosqichida — o'limning umumiy koeffitsientining ikki hudud uchun (hududlararo taqqoslaganda) amaldagi mutanosiblik indeksi aniqlanadi.

$$J^{\phi_{ak}} = \frac{m^1}{m^2} \quad (7.2)$$

Bu indeks ikkita taqqoslanayotgan hududda o'limning umumiy koeffitsientlari o'rtasidagi farqlarga ikki omil, ya'ni o'limning yosh xususiyatlari va yosh tarkiblarining ta'sirini umumlashtirilgan ko'rinishda ko'rsatadi. Ularning har biri tomonidan o'tkaziladigan ta'sirni aniqlash uchun quyidagi amallarni bajarish lozim:

Birinchidan, har bir sana (hudud) uchun o'limning standartlangan koeffitsientini hisoblab chiqish:

$$\begin{aligned} m^{1cm} &= m_x^1 \times w_x \\ m^{2cm} &= m_x^2 \times w_x \end{aligned} \quad (7.3)$$

Bu yerda:  $m_x^1$  — 1-hududdagi o'limning yosh guruhlari koeffitsienti,  $m_x^2$  — 2-hududdagi o'limning yosh guruhlari koeffitsienti;  $w_x$  — standart sifatida olingan aholi tarkibidagi yosh guruhining ulushi.

Ikkinchidan, standartlangan koeffitsientlarning mutanosiblik indeksini hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

$$J^{cm} = \frac{m^{1cm}}{m^{2cm}}. \quad (7.4)$$

Mazkur indeks yosh guruhlari bo'yicha o'lim darajalaridagi farqlarning hududlar bo'yicha ko'rsatkichlarning farqlanishlariga qo'shgan hissasini ifodalaydi, uni amaldagi indeks bilan taqqoslaganda yosh tarkibining o'limning umumiy koeffitsenti darajalaridagi mavjud farqlarga qo'shgan hissasi namoyon bo'ladi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$J^w = \frac{J^{cm}}{J^{\phi_{\text{max}}}}. \quad (7.5)$$

**Standartlashgan o'lim koeffitsentlarini bilvosita uslubda hisoblash.** Mazkur uslub ikki taqqoslanayotgan hudud uchun faqat ikkita ko'rsatkich ma'lum bo'lgan hollarda qo'llaniladi, bu o'lganlarning umumiy soni hamda yosh tarkiblari. Mazkur usul asosida quyidagi uslubiy yondashuv turadi: o'lganlarning umumiy soni barcha yosh guruhlari bo'yicha o'lganlar sonining yig'idisi bo'lib, o'z navbatida, bular ushbu yoshdagi aholi sonining yosh guruhlari o'limi koeffitsentining ko'paytmasi ko'rinishida ifodalanadi:

$$M = \sum M_x = \sum P_x \times m_x. \quad (7.6)$$

Keyingi qadam, bu har bir hududdan o'lganlarning standartlangan sonini hosil qilish. Buning uchun har qanday boshqa hudud (standart sifatida olinadigan bu hududdagi o'lim darajalari taqqoslanayotgan hududlarda kutiladigan o'lim darajalaridan keskin farq qilmasligi maqsadga muvofiq) uchun ixtiyoriy yosh bo'yicha o'lim koeffitsentlarini tanlab olish zarur.

Hududda o'lganlarning amaliy sonini standartlangan soniga taqsimlab, hududdagi yosh bo'yicha o'limning amaliy ko'rsatkichining standart sifatida tanlangan yosh bo'yicha o'lim ko'rsatkichidan qanchaga farq qilishini ifodalovchi indeksiga ega bo'linadi.

Hududlararo taqqoslashdan tashqari, standartlashtirish uslubidan muayyan guruhdagi aholi doirasida dinamik tahlil o'tkazish jarayonida foydalanish mumkin. Standart sifatida o'rganilayotgan aholi guruhiga tegishli muayyan songa oid ba'zi

ma'lumotlar yoki boshqa shu guruhga o'xshash aholiga tegishli ma'lumotlar tanlanishi mumkin. Bunda standart uchun tanlangan aholi guruhi epidemiologik o'tish holatining taraqqiyotiga ko'ra tadqiq etilayotgan aholi guruhiga yaqin bo'lishi lozim. Aks holda olingan ma'lumotlar ishonchli bo'lmasligi ehtimoli katta.

O'limning yosh bilan chambarchas bog'liqligi har bir yosh guruhida o'ziga xos o'lim sabablarining mavjudligi va uning yo'nalishlari evolyutsiyasini ta'riflash uchun **yosh guruhlari bo'yicha o'lim koeffitsentidan** foydalaniladi va u o'limning umumiy koeffitsentiga nisbatan aniqroq maxsus ko'rsatkichdir. Ushbu koeffitsentni bir xil yoshdagi aholi guruhlari uchun hisoblash eng yuqori samara beradi. Biroq, ko'pchilik hollarda ularni hisoblash uchun kerakli ma'lumotlar etishmaydi.

Aholi o'limining statistik tahlilida 5 yillik yosh guruhlarga hisoblab chiqilgan koeffitsentlardan foydalanish keng tarqalgan. Yosh guruhlari bo'yicha o'lim koeffitsentlarida jinsiy tarkib guruhlarida katta farq kuzatilgani bois, ushbu koeffitsentlar erkaklar va ayollar uchun alohida hisoblanadi.

Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$M_x = \frac{M_x}{P_x} \times 1000 \quad (7.7)$$

Bu yerda:  $M_x$  —  $x$  yoshida o'lganlar soni (jinsi bo'yicha);  $R_x$  — yoshidagi aholining o'rtacha yillik soni (erkaklar yoki ayollar).

Yosh guruhi bo'yicha o'lim koeffitsentlari o'limning alohida sabablariga ko'ra ham hisoblanishi mumkin. Bu holda, formulada surat qismida o'lganlarning umumiy soni o'rniga mazkur yoshda ma'lum sabablardan vafot etganlar soni yoziladi. Agar bunday hisob-kitoblarda barcha o'lim sabablari uchun bajariladigan bo'lsa, olingan koeffitsentlar yig'indisi ushbu aholi guruhi uchun umumiy yosh guruhi bo'yicha o'lim koeffitsentini ifodalaydi.

#### 7.4. Chaqaloqlar o'limi

Chaqaloqlar o'limi aholi salomatligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, aholining demografik holatini, tibbiy xizmat sifatini,

sanitariya-epidemiologiya, profilaktika va davolash ishlarining samaradorligini ko'rsatuvchi barometr indikatoridir.

**Chaqaloqlar o'limi** deganda, bir yoshgacha bo'lgan (ya'ni, 0 oydan 12 oygacha) bolalar o'limi, **bolalar o'limi** deganda esa 1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan aholi guruhining o'limi tushuniladi.

Bir yoshgacha bo'lgan o'lim ko'rsatkichlarining aksariyati boshqa yosh guruhlari o'limidan yuqoriroq bo'lib, ushbu davrdagi o'lim ehtimolini 55 yoshga yetganlarning o'lim ehtimoli bilan taqqoslash mumkin. Mazkur ko'rsatkichning boshqa yosh koefitsientlaridan farqi shundaki, u o'ziga xos hisoblash usuli yordamida aniqlanadi hamda muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Chaqaloqlar o'limi onalar o'limi darajasi bilan bir qatorda u reproduktiv salomatlik holatini hamda pediatriya va boshqa xizmatlar sifatini ham ko'rsatadi.

Inson hayotining birinchi yili quyidagi uch davrga ajratilib, bu davrlar o'lim ehtimoli ustun keluvchi patologiya bilan tavsiflanadi.

**1. Perinatal davr** — homilaning 28 haftadan boshlab, chaqaloq hayotining dastlabki 7 sutkasigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. «Perinatal o'lim» tushunchasi birinchi marta S. Pepler (1948 y.) tomonidan qo'llanilgan bo'lib, tarjima qilinganda «tug'ruq atrofidagi yo'qotish», degan ma'noni anglatadi.

Perinatal davr homila va yangi tug'ilgan chaqaloq hayotidagi eng muhim davr bo'lib, unda o'lim ehtimoli yuqori bo'ladi (o'z vaqtiga yetmay erta tug'ilgan chaqaloqlarni ham hisobga olgan holda). Ushbu davrga hayotning birinchi yilidagi o'limining 70 foizi to'g'ri keladi.

Mazkur davrga homila rivojlanishidagi sharoit va mexanizmlarning kompleks ta'siri, uning tug'ilish va hayotning dastlabki 7 sutkasi (168 soat) sharoitlari, shuningdek, uning tug'ilishiga, tug'ilayotganida yoki tug'ilishi bilanoq o'lishi ehtimolini nazarda tutuvchi perinatal o'lim tushunchasi va ko'rsatkichiga xosdir. Uning kattaligi (ayniqsa, hududlararo va davlatlararo taqqoslanganda) onaning reproduktiv salomatligi hamda hayotining darajasi, tug'ishda yordam ko'rsatuvchi xizmat holati va umumiy

tibbiy hamda ijtimoiy rivojlanishning boshqa tomonlarini tavsiflaydi.

Perinatal o'lim dinamikasi (ko'rsatkichning keskin o'zgarib turishida), shuningdek, chaqaloqlar o'limining statistik qayd etilishidagi noaniqliklarni aks ettirishi mumkin, chunki ushbu davrdagi o'lganlar soni ham tirik, ham o'lik tug'ilganlarning umumiy soni bilan taqqoslanadi.

$$p = \frac{r + l}{t} \times 1000 \quad (7.8)$$

Bu yerda:  $r$  — perinatal o'lim koeffitsienti;  $r$  — o'lik tug'ilganlar soni;  $l$  — hayotining birinchi 7 kunigacha o'lganlar soni;  $t$  — barcha tug'ilganlar soni (tirik va o'lik).

Perinatal davrdagi homilaning o'limidagi asosiy sabablar asfiksiya (45 foiz atrofida), respirator kasalliklar (20 foiz atrofida), tug'ma kamqonlik (13-15 foiz), tug'ishdagi shikastlanish (7-9 foiz) va bachadon ichidagi infeksiyalar (2 foiz atrofida) hisoblanadi.

**2. Neonatal davr** bolaning tug'ilganidan to 28 kunigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkich go'daklar o'limining asosiy qismlaridan biri bo'lib, chaqaloqlarning shu davrga to'g'ri keladigan o'lim salmog'i qancha baland bo'lsa, go'daklar o'limining darajasi shunchalik past bo'ladi.

Neonatal o'lim quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$n = \frac{y}{t} \times 1000 \quad (7.9)$$

Bu yerda:  $n$  — neonatal o'lim koeffitsienti;  $y$  — 0-27 kunlik davrida o'lgan chaqaloqlar soni;  $t$  — tirik tug'ilgan bolalar soni.

Masalan: 1 kalendar yilida tirik tug'ilgan bolalar soni 1150 nafarni, 0-27 kun mobaynida o'lganlar soni esa 25 nafarni tashkil etgan bo'lsin. U holda neonatal o'lim ko'rsatkichi quyidagiga teng:

$$n = \frac{25 \times 1000}{1150} = 21,7\%.$$

Neonatal o'lim doirasida ikkita davr ajratiladi: barvaqt va kechki. Barvaqt neonatal o'lim quyidagi formula orqali topiladi:

$$n = \frac{\rho}{t} \times 1000 \quad (7.10)$$

Bu yerda:  $\rho$  — 0-6 kunlik (168 soat) davrda o'lgan chaqaloqlar o'limi;  $t$  — tirik tug'ilgan bolalar soni.

Kechki neonatal o'lim ko'rsatkichi chaqaloqlar hayotining dastlabki 2-4 haftalik davrini o'z ichiga olib, quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$n = \frac{\vartheta}{t} \times 1000. \quad (7.11)$$

Bu yerda:  $\vartheta$  — 2-4 haftalik davrda o'lgan chaqaloqlar soni;  $t$  — tirik tug'ilgan bolalar soni.

Neonatal o'lim tug'ma nuqsonlar, tug'ilish paytidagi shikastlanishlar, neonatal davrdan keyingi asfiksiyalar, tug'ma pnevmaniya tufayli yuz beradi.

**3. Postneonatal davr.** Bu neonatal davrdan keyingi davr bo'lib (28 kundan 1 yoshga to'lgunga qadar), quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\varpi = \frac{\delta}{t-y} \times 1000. \quad (7.12)$$

Bu yerda:  $\varpi$  — postneonatal o'lim koeffitsienti;  $\delta$  — 28 kundan 1 yoshgacha bo'lgan davrda o'lgan chaqaloqlar soni;  $t$  — tug'ilgan bolalar soni;  $y$  — 0-27 kunlik davrda o'lgan bolalar soni.

Endogen omillar bilan ko'proq bog'langan, ya'ni ona salomatligi va homiladorligi davridagi hayot tarzi bilan belgilanuvchi neonatal o'limdan farqli ravishda, postneonatal davrda bola salomatligiga tashqi omillarning ta'siri ortib boradi. Bular jumlasiga parvarish qilish, ovqatlantirish, pediatr xizmatining sifati va h.k.larni kiritish mumkin.

**Chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari.** Chaqaloqlar o'limini hisoblash uchun alohida ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular qatoriga chaqaloqlar o'limining umumiy koeffitsienti kirib, quyidagicha hisoblanadi:

$$m = \frac{M}{N} \times 1000. \quad (7.13)$$

Bu yerda:  $M$  — joriy yilda o'lgan chaqaloqlar soni;  $N$  — joriy yilda tirik tug'ilgan go'daklar soni.



Masalan: bir yilda tuman bo'yicha tirik tug'ilgan bolalar soni 1150 nafarni, bir yoshgacha o'lgan bolalar soni 42 nafarni tashkil qilgan bo'lsin. U holda:

$$m = \frac{42 \times 1000}{1150} = 36,5\%.$$

Ushbu usulni 2 yil oralig'ida (o'tgan va joriy yillar) tirik tug'ilgan chaqaloqlar soni o'rtacha bir xil bo'lganda qo'llash tavsiya etiladi. Yil davomida 1 yoshgacha o'lgan bolalar soni orasida joriy yilda tug'ilgan bolalar bilan bir qatorda o'tgan yili tug'ilgan bolalar ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham 1 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi kattaligini aniq hisoblash uchun 1920 yilda nemis demografi va matematigi Yoxannes Rats (1854-1933 yy) tomonidan taqdim etilgan quyidagi usuldan foydalaniladi:

$$m_0^t = \frac{M_0^t}{2/3N^t + 1/3N^{t-1}} \times 1000. \quad (7.14)$$

Bu yerda:  $M_0^t$  — joriy yilda bir yoshgacha o'lgan bolalar soni;  $2/3N^t$  — joriy yilda tirik tug'ilgan bolalarning  $2/3$  qismi;  $1/3N^{t-1}$  — o'tgan yilda tirik tug'ilgan bolalarning  $1/3$  qismi.

Masalan: joriy yilda tirik tug'ilgan bolalar soni 1150 tani, bir yoshgacha o'lgan bolalar soni 42 tani, o'tgan yili tirik tug'ilgan bolalar soni esa 1300 tani tashkil qilgan bo'lsin.

$$m_0^t = \frac{42 \times 1000}{2/3 \cdot 1150 + 1/3 \cdot 1300} = \frac{42000}{767 + 433} = 35,0\%$$

Birinchi uncha aniq bo'lmagan usul bo'yicha go'daklar o'limi 1000 nafar tirik tug'ilganlarning 36,5 %ni tashkil etdi, bu esa ikkinchi usulda aniq topilgan o'lim ko'rsatkichidan 4,3 % ko'pligini ko'rsatib turibdi. Xuddi shu usulda chaqaloqlar o'limining ayrim sabablari, masalan, oshqozon-ichak kasalliklaridan yoki zotiljamdan o'lganlar kattaligini hisoblash mumkin. Buning uchun kasr chizig'ining suratiga tegishli kasalliklardan o'lgan chaqaloqlar sonini qo'yib hisoblash kifoya.

Bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi ko'rsatkichini eng aniq hisoblash usuli — bu R.Bek tomonidan taklif qilingan xalqaro usul hisoblanib, quyidagicha aniqlanadi:

$$D_0 = \frac{M_0}{N_0} + \frac{M_1(N_0 - M_0)}{N_0(N_1 - M_2)} \quad (7.15)$$

Bu yerda:  $D_0$  — bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi ko'rsatkichi;

$M_0$  — joriy yilda tug'ilgan bolalardan shu kalendar yilda o'lganlar soni;

$M_1$  — o'tgan yili tug'ilgan bolalardan joriy kalendar yilida o'lganlarning soni;

$M_2$  — o'tgan yili tug'ilganlardan o'sha yili o'lganlar soni;

$N_0$  — joriy yilda tug'ilgan bolalar soni;

$N_1$  — o'tgan yili tug'ilgan bolalar soni.

Ammo, bu usul nisbatan murakkabligi va ko'p mehnat talab qilganligi uchun ham sog'liqni saqlash amaliyotida keng o'rin olmagan. Odatda, amaliyotchilar yuqoridagi birinchi va ikkinchi usuldan keng foydalanadi.

7.3-jadvalda go'daklar o'limi koeffitsientini baholash mezoni keltirilgan.

7.3-jadval

### Chaqaloqlar o'limi koeffitsientini baholash mezoni

Chaqaloqlar o'limi koeffitsientining miqdori, ‰	Chaqaloqlar o'limi darajasining tavsifi
10 dan kam	Past
10–19	O'rtacha
20–29	Yuqori
30 va undan ko'p	Juda baland

O'zbekistonda har ming nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan o'lganlar soni respublikada — 14,9, shaharda — 10,7, qishloq joylarida esa 17,4 nafarni tashkil etadi. 7.3-jadvaldagi baholash mezonidan ko'rinib turganidek, respublika va uning hududlarida chaqaloqlar o'limi o'rtacha darajada hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda chaqaloqlar o'limi yil sayin kamayib bormoqda. Mazkur holat, birinchi navbatda, quyidagi demografik omillarga bog'liq: oilada tug'ila-

yotgan bolalar sonining kamayishi, farzandlar tugʻilishi orasidagi davrning uzayishi, tugʻish yoshi yuqori chegarasining pasayishi, goʻdak yoshidagi bolalarning sogʻligini mustahkamlash, onalikni muhofaza qilish, emizishni targʻib qilish, bolalarda oʻtkir respirator va diareya kasalliklariga qarshi kurashish.

Shunday qilib, chaqaloqlar oʻlimi aholining takror barpo boʻlishida muhim hisoblanib, tibbiy xizmat sifati, sanitariya-epidemiologiya, profilaktika va davolash ishlarining samaradorligiga bogʻliq.

### 7.5. Oʻlim jadvali va uni tuzish tartibi

Demografiyaning asosiy vazifalaridan biri aholining oʻrtacha umr koʻrish darajasini aniqlashdan iborat. **Umrning oʻrtacha davomiyligi** deganda, joriy yilda tugʻilgan avlodning (ularning hayoti davomida shu yilda hisoblangan har xil yoshdagi oʻlim koʻrsatkichi oʻzgarmas boʻlib qolganda) oʻrtacha umrga - yashashga toʻgʻri kelgan yosh soni tushuniladi. Umrning oʻrtacha uzunligini aniqlash uchun demografiyada oʻlimni tahlil qilishning asosiy usullaridan biri boʻlmish oʻlim jadvalini (baʼzan hayot yoki yashash jadvali deb ham ataladi) tuzish kerak boʻladi. Joriy yilda ayrim yoshlardagi oʻlim koʻrsatkichlariga asoslangan holda aholining hayoti mobaynida kamayib borishini koʻrsatuvchi va bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlgan koʻrsatkichlar tizimidan tashkil topgan jadvalga **oʻlim jadvali** deyiladi.

Oʻlim jadvali aholisi 100 000 dan kam boʻlmagan hududlarda, shahar va qishloqlarda erkaklar va ayollar uchun alohida hisoblanadi. Odatda, bunday jadvallar davlat tomonidan aholini roʻyxatdan oʻtkazish davriga bogʻlab tuziladi va bosqichma-bosqich hisoblashlar va maʼlumotlar olish natijasida umrning oʻrtacha davomiyligi koʻrsatkichi olinadi va u aholi salomatligining asosiy koʻrsatkichlaridan biri hisoblanadi. Oʻlim jadvalini inglizcha, **hayot jadvali** (life tables) deyilishi bejiz emas, chunki u faqat oʻlim haqidagi model boʻlmay, balki avlodlar harakati haqidagi model hamdir.

Oʻlim jadvalining ikkita asosiy varianti farqlanadi: real (bir yilda tugʻilganlar, yaʼni tengdoshlar) va shartli (bir kalendar yilda yashovchi

zamondoshlar) avlodlar. Birinchi guruh o'lim jadvaliga bir vaqtda demografik hodisani (masalan, nikohga kirish) boshidan kechirgan insonlar guruhi uchun hisoblangan jadvallar kiradi. O'lim dinamikasi uchun amalda shartli avlodlarning o'lim jadvali qo'llaniladi.

Boshlang'ich axborot bilan bog'liq holda (yosh guruhlari bo'yicha o'lim koeffitsientlari) to'liq va qisqa o'lim jadvallari farqlanadi.

**To'liq o'lim jadvali** — bu bir yillik koeffitsientlar asosida hisoblab chiqariladigan o'lim jadvali. Mazkur holda o'lim jadvali qadami 1 ga teng bo'ladi. Odatda, ular 0 dan 100 gacha bo'lgan yosh davrini qamrab oladi.

**Qisqa o'lim jadvalida** bir qadam 5 yilga teng bo'ladi. Biroq, bunda aksariyat hollarda hayotning birinchi yili alohida ajratiladi (o'lim jadvalida 0 belgisi yoziladi) va butun birinchi besh yillik bir yillik guruhda ko'rib chiqiladi. Bu albatta, asoslidir, chunki mazkur yosh intervalida o'lim darajalari yil sayin o'zgarib boradi va ushbu o'zgarishlar ancha sezilarlidir, shu bois go'daklar o'limi va hayotning to'rtinchi yilidagi holati kelgusi hisoblashlardagi katta xatolarga olib keladi.

BMT tavsiyalarida qisqa o'lim jadvalini 85 yosh va yuqori yosh guruhiga qadar hisoblash zarurligi ta'kidlanadi; Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti amaliyotidagi o'lim jadvalini 75 va yuqori mezoni qo'llaniladi.

Dastlabki o'lim jadvali 1662-yili Londonda D.J.Graund tomonidan tuzilgan va E.Galley va I.Zyusminlx tomonidan takomillashtirilgan (1741-yil).

Demografik uslub, ya'ni o'lim jadvalini o'limning yosh guruhlari bo'yicha koeffitsientlari asosida tuzilishi ilk Shvetsiyada P.Vargentik tomonidan (1757-y.), keyinchalik esa Belgiyalik demograf A.Ketli va ingliz demografi U.Farri tomonidan Angliya (1835-y.) va Uels (1842-y.) uchun qo'llanilgan.

**Asosiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash uslublari.** O'lim jadvali — bu o'ziga xos ko'rsatkichlarga ega hamda hisoblanishning ketma-ketligini aks ettiruvchi ustunlar qatoridir.

O'lim jadvalining birinchi ustunida  $lx$  —  $x$  yoshgacha yashab yetadiganlar soni qayd etiladi. Aytish joizki, o'lim jadvalining o'zagi

$l_0$  (100 000 yoki 10 000) ga teng bo'ladi va keyingi ko'rsatkichlar o'lganlar sonini ketma-ketlikda ayirib borish yoki keyingi yoshga yashash ehtimoliga mos bo'lgan ko'rsatkichga ko'paytirish yo'li bilan hosil qilinadi.  $d_x - x$  yoshidan  $x = 5$  yoshi oraliq'idagi o'lchamlar soni. Ushbu holda,

$$l_{x+5} = l_x - d_x \quad (7.16)$$

$q_x - x$  yoshidan  $x + 5$  yoshi oraliq'ida o'lish ehtimoli.

Mazkur ko'rsatkichni uch uslubda hisoblash mumkin, agar  $l_x$  qiymatlarining ketma-ketligi mos ravishdagi yosh guruhlari oraliq'ida o'lganlar sonini ketma-ketlikda oshirib borish yo'li bilan hisoblab chiqarilgan bo'lsa, u holda o'lim ehtimoli quyidagi formula yordamida hisoblanishi mumkin:

$$q_x = \frac{l_{x+5}}{l_x}. \quad (7.17)$$

Aftidan, ma'lum yoshgacha yashab ketganlar va shu oraliqda o'lganlar sonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli o'lim ehtimolini yana bir usulda hisoblab chiqish mumkin:

$$q_x = \frac{d_x}{l_x}. \quad (7.18)$$

Hisoblashning uchinchi usuli bevosita yosh guruhlari bo'yicha o'lim koeffitsientlaridan kelib chiqadi va quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$q_x = \frac{2m_x}{2+m_x}. \quad (7.19)$$

O'lim jadvalining keyingi ko'rsatkichi — bu  $x$  yoshidan  $x + 5$  yoshigacha yashab yetish ehtimolidir. Yashab yetish ehtimoli hamda o'lim ehtimoli bir-birini istisno etuvchi ikkita ehtimol bo'lganligi bois, ularning yig'indisi 1 ga teng. Shunday qilib,  $x + 5$  yoshigacha yashash ehtimoli quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$p_x = 1 - q_x. \quad (7.20)$$

Qisqa o'lim jadvalida oxirgi sanaluvchi «85 yosh va undan yuqori» yosh oraliq'iga yetib borilganda hisob-kitoblarni yakunlash uchun quyidagi amallarni bajarish lozim: o'lim ehtimoli 1 ga,

keyingi yosh guruhigacha yashab yetish ehtimoli esa mos holda 0 ga tenglashtiriladi.

$r_x$  qiymati mavjud holda yashab yetganlar soni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$l_{x+5} = l_x \times p_x. \quad (7.21)$$

O'lim jadvalidagi birinchi to'rt ustun ko'rsatkichlari yangi o'zaro bog'lanishlar, ulardan uchtasini oson yo'l bilan biridan-biri usulida (o'lganlar soni bundan mustasno) chiqarish mumkinligini yuqoridagi misollarda kuzatib o'tdik.

Sanab o'tilgan ko'rsatkichlar kelgusi hisob-kitoblar uchun juda muhim bo'lib, agregat ko'rsatkichlar hamda bevosita kutilayotgan hayot davomiyligini hisoblash jarayoniga o'tish uchun zamin yaratadi. Yashab yetganlar soni, garchi ular o'lim tartibining egri chizig'ini ta'riflasa-da, diskret tarzda o'zgaradi. Ayniqsa, mazkur qisqa o'lim jadvaliga tegishli, aslida esa avlod soni ancha ravon va muntazam tarzda pasayib boradi. Shu sababli, muayyan avlodning real kattaligini aniqlash uchun boshqa ko'rsatkich, ya'ni  $x$  yoshi bilan  $x+5$  yoshi oralig'idagi yashovchilar sonidan foydalaniladi, buning uchun  $x$  yoshigacha yashab yetganlar soniga  $x+5$  yoshigacha yashab yetganlar soni qo'shiladi, yig'indi esa ikkiga bo'linadi, ya'ni oddiy o'rtacha arifmetik ko'rsatkich hisoblanadi. Natijada berilgan besh yillik oralig'idagi har bir xil guruhiga kiruvchi odamlarning o'rtacha soni hosil bo'ladi, so'ng bu son 5 ga, ya'ni oraliq uzunligiga ko'paytiriladi, so'ngi variantida ushbu formula quyidagi ko'rsatkichga ega bo'ladi:

$$L_x = \frac{l_x + l_{x+5}}{2} \times 5. \quad (7.22)$$

O'lim jadvali hisoblashdagi keyingi qadam bu berilgan o'lim tartibi saqlanishi sharoitida ma'lum kalendar yilida tug'ilganlarning yashashi lozim bo'lgan yillar sonini aniqlash. Bu ko'rsatkich barcha  $L_x$  qiymatlarining yig'indisi bo'lib, bunda qo'shish quyidan yuqoriga bo'lgan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. O'lim jadvaliga teng bo'lgan, ya'ni 10 guruhi uchun u «85 yosh va yuqori» yoshidan «0» yoshigacha yashaganlar soni yig'indisiga teng.

$$T_0 = \sum L_x \quad (7.23)$$

Boshqa har bir yosh guruhi uchun mos ravishda «85 yosh va yuqori» yoshidan  $x$  yoshigacha yashaganlar soni yig'indisini tashkil qiladi.

$$T_x = \sum L_x . \quad (7.24)$$

O'lim jadvalining yakuniy ko'rsatkichlari — bu yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun hayot davomiyligi hamda oraliq hayot davomiyligi, ya'ni ma'lum yoshgacha yashagan insonlarning kelgusida yashaydigan hayot davomiyligi ko'rsatkichlarining ketma-ketligini ifodalovchi sonlar.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning kutilayotgan hayot davomiyligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$e_0 = \frac{T_0}{l_0} . \quad (7.25)$$

Mos ravishda har bir boshqa yosh guruhi oralig'igacha yashab yetganlarning hayot davomiyligi ushbu formula bo'yicha hisoblanadi.

$$e_x = \frac{T_x}{l_x} . \quad (7.26)$$

O'lim jadvalida birinchi yosh guruhidan tashqari, boshqa barcha guruhlardagi aholi yoshining o'sib borishi bilan ular umrining o'rtacha uzunligi kamayib borishi tabiiy hol (7.4-jadval).

Tanlangan uslub va boshlang'ich axborotning haqqoniy-ligidan qat'iy nazar o'lim jadvali ko'rsatkichlarining aniqligi ko'p jihatdan hisoblash ob'yekti bo'lgan guruhning kattaligiga bog'liq. Bunday ehtimoliy uslublar statistik qonunlarga bo'y-sunuvchi katta sonlar qonuniyatidan kelib chiqishini yodda tutmoq lozim.

O'lim jadvalining asosiy ko'rsatkichlari hisobi natijalari yordamida hisoblab chiqiladigan miqdor ko'rsatkichlari orasida ma'lum yosh oralig'i boshlanishigacha yashab yetmaganlarning o'rtacha hayot davomiyligi ko'rsatkichi alohida qiziqish uyg'otadi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasida qishloq aholisining o'lim jadvali (2008 yil)

Yosh	Yoshlar bo'yicha olingan o'lim ko'rsatkichi $m_x$	Yashayotganlar soni $l_x$	O'lganlar soni $d_x$	O'lim ehtimolligi $q_x$	Yashash ehtimolligi $P_x$	Yashagan soni $L_x$	Yashagan odamlar yoshi sonlar-da $T_x$	Kelajakdagi hayotning o'rtacha davomiyligi $e^0_x$
0	0,0127	1 000	13	0,0126	0,987	991	71 592	71,59
1-4	0,0014	987	6	0,0056	0,994	3 936	70 600	71,50
5-9	0,0003	982	2	0,0016	0,998	4 906	66 664	67,89
10-14	0,0003	980	2	0,0017	0,998	4 898	61 758	63,00
15-19	0,0005	979	2	0,0025	0,998	4 887	56 861	58,10
20-24	0,0008	976	4	0,0041	0,996	4 871	51 974	53,24
25-29	0,0012	972	6	0,0060	0,994	4 847	47 102	48,44
30-34	0,0016	966	8	0,0080	0,992	4 813	42 255	43,72
35-39	0,0021	959	10	0,0102	0,990	4 769	37 442	39,05
40-44	0,0027	949	13	0,0135	0,987	4 713	32 673	34,43
45-49	0,0039	936	18	0,0191	0,981	4 636	27 961	29,87
50-54	0,0069	918	31	0,0339	0,966	4 514	23 324	25,40
55-59	0,0121	887	52	0,0588	0,941	4 305	18 811	21,20
60-64	0,0214	835	85	0,1015	0,899	3 963	14 506	17,37
65-69	0,0334	750	116	0,1540	0,846	3 462	10 543	14,05
70-74	0,0541	635	151	0,2381	0,762	2 796	7 081	11,16
75-79	0,0878	484	174	0,3601	0,640	1 982	4 285	8,86
80-84	0,1133	309	137	0,4414	0,559	1 206	2 303	7,44
85+	0,1576	173	0	-	1,000	1 097	1 097	6,35



$$e_{(x+t)} = \frac{T_{(x+t)} - T_x}{l_{(x+t)}}. \quad (7.27)$$

Mazkur ko'rsatkichning ahamiyati shundaki, u aniq yosh oralig'idagi o'lim hisobiga hayot davomiyligi yillaridagi real yo'qotiladigan yillar sonini aniqlash imkonini beradi.

Buning uchun hosil bo'lgan qiymatni berilgan yosh oralig'i uzunligidan ayirish lozim. Masalan, agar 20-30 yosh oralig'ida hisoblangan hayot davomiyligi 9,5 yoshga teng bo'lsa, oraliqning amaldagi uzunligi 10 yil bo'lsa, u holda joriy o'lim darajasi saqlangan vaziyatda har bir 20 yoshga to'lganlar uchun yo'qotishlar 0,5 yilga teng bo'ladi. Ushbu guruh uchun 20 yoshlilarning amaldagi sonini bilib, mazkur aholi avlodi kelgusi 10 yil mobaynida duch keladigan yo'qotishlarning yig'indisini aniqlash mumkin. Ular quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$dT = 0,5 \times P_{20}. \quad (7.28)$$

O'lim jadvali o'limning joriy holati va yosh bo'yicha guruhlardagi dinamikasi tahlilining mukammal vositasidir. O'lim jadvalining yakuniy ko'rsatkichi hisoblangan yangi tug'ilgan chaqaloq uchun kutiladigan hayot davomiyligining ko'rsatkichi ko'rinishida, bir tomondan, o'lim darajasini tavsiflaydi, ikkinchi tomondan esa har qanday mamlakat, hududlarning o'lim darajalarini taqqoslash imkonini beradi, ya'ni bir demografik guruhning boshqasiga nisbatan holatini epidemiologik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, hayot sifati nuqtai nazaridan taqqoslash imkonini beradi. Shu sababdan hayotning kutilayotgan davomiyligi aholi ijtimoiy-iqtisodiy farvonligining asosiy o'lchamlari sifati deb qaraladi.

Demografiyada alohida olingan kasalliklar bo'yicha umrning o'rtacha uzunligini aniqlash uchun shu kasallikdan o'lganlar sonini  $dx$  dan ayirib tashlanib, o'lim jadvali tuziladi. Natijada ayrim kasalliklarning umrning o'rtacha uzunligiga ta'siri o'rganiladi.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. O'lim jarayoni qanday omillar ta'sirida vujudga keladi?
2. «Kzaziendogen omillar» deb nimaga aytiladi?

3. «Epidemiologik oʻtish» deganda nimani tushunasiz?
4. Demografik tarixni davrlashtirish oʻlimning nechta tipi mavjudligini koʻrsatadi?
5. Oʻlim sabablarining dastlabki roʻyxati kim tomonidan tuzilgan?
6. Oʻlimning umumiy koeffitsienti qanday aniqlanadi?
7. Standartlangan oʻlim koeffitsientlarini bevosita va bilvosita uslubda hisoblash tartibini tushuntirib bering.
8. Inson hayotining birinchi yili qanday davrlarga ajratiladi?
9. «Perinatal oʻlim» tushunchasi qanday maʼnoni anglatadi?
10. Barvaqt va kechki neonetal oʻlim qanday aniqlanadi?
11. «Umrning oʻrtacha davomiyligi» deganda nimani tushunasiz?
12. Qisqa oʻlim jadvalini tuzish tartibini tushuntirib bering.

---

## **8-bob. AHOLI SALOMATLIGI**

### **8.1. «Salomatlik» tushunchasining mohiyati va tarkibi**

Aholi salomatligi borgan sari yuqori darajadagi ijtimoiy rivojlanishning integratsiyalashgan ko'rsatkichiga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan aholining salomatligini mustahkamlash, sog'liqni saqlash muassasalarining kasalliklarning oldini olish va profilaktika qilish borasidagi faoliyatining samaradorligini oshirish iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Aholi salomatligining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni, kasalliklar va ularning oldini olish, aholi salomatligini mustahkamlash borasidagi siyosat to'g'risida gapirishdan oldin, «sog'liq» tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish lozim.

Garchi bugungi kunga qadar sog'liq, salomatlikka bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda turli uslubiy yondoshuv va kategoriyalarga asoslangan qator tushunchalar berilgan bo'lsa-da, «sog'liq» tushunchasining umume'tirof etilgan talqini mavjud emasligini tan olish kerak. «Sog'liq» tushunchasining mohiyatiga bo'lgan turli qarashlar va yagona kelishilgan fikrni ishlab chiqishga muayassar bo'linmaganligini salomatlikning juda murakkab hodisa ekanligi, uning o'ziga xos va muhim jihatlarini qisqa hamda bir ma'noli tarzda ifodalash mushkulligi bilan izohlash mumkin.

«Sog'liq» va «kasallik» tushunchalarining mazmun va mohiyati, ularning asosiy tavsifi, ko'rsatkichi, baholarini yoritib berish nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat ham kasb etadi. Ular kasallanish miqyosini hamda bu bilan bog'liq turli davolash-profilaktik yordam tomonlari va sog'liqni saqlash tizimining alohida bo'g'in, bo'linmalari o'rtasida moddiy, mehnat, moliya zaxiralarning taqsimlanishini aniqlash uchun boshlang'ich yo'naltiruvchi tayanch hisoblanadi. Shuningdek, ular mamlakatdagi hayot va

mehnat resurslari, salomatlik omilining ishlab chiqilishiga hamda ishlab chiqarish samaradorligiga qisqa va uzoq istiqbolda ko'rsatadigan ta'sirini baholashga, tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini tobora rivojlantirish yo'llarini belgilashga xizmat qiladi.

«Sog'liq» tushunchasiga berilgan mavjud talqinlarni batafsil va tanqidiy ko'rib chiqish imkoni bo'lmaganligi bois, biz ba'zi ta'rif va yondoshuvlarga to'xtalib o'tamiz.

Ta'kidlash lozimki, «sog'liq» tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflarda insonning ruhiy-salomatlik holati, sog'liqning sub'yektiv yoki ob'yektiv baholanishi, individning biologik va ijtimoiy vazifalarni amalga oshirish qobiliyati kabi mezonlar o'z aksini topgan. Jumladan, «salomatlik» tushunchasiga birinchi mezonning qo'llanilishi, ya'ni insonning ruhiy-salomatlik holatlari — normal fiziologik va patologik holatlari «kasallik» hamda «qoniqarsiz sog'liq» kabi tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday yondoshuv yetarlicha samarali emas, chunki uning doirasida salomatlik va kasallik o'zlarining qarama-qarshiligida statik holatlar sifatida namoyon bo'lishi tushuniladi. Shuningdek, «salomatlik» tushunchasiga berilgan ta'riflarda uni sub'yektiv jihatdan baholash mezonini ham qo'llanilgan. Jumladan, Gippokrat: «Salomatlik — bu insonning sub'yektiv-ruhiy hissi bo'lib, u to'liq jismoniy va ruhiy kuchlarni his qilgan tarzda sub'yektiv shikoyatlarning yo'qligidir»<sup>1</sup> — deb talqin qilgan. Salomatlikni baholashdagi bunday sub'yektiv mezonning qo'llanilishi ma'lum shubhalarni tug'diradi. Masalan, bir qator kasalliklar organizmning ichki muhitida ro'y beradigan patologik o'zgarishlar bilan birga salbiy sub'yektiv hislarsiz kechishi mumkin. Ayni vaqtda insonning sub'yektiv hislarini etarlicha hisobga olmaslik ham mumkin emas. Chunki, ular ko'pchilik hollarda kasallikning rivojlanish tarixi asosini tashkil qiladi. Mazkur omil, o'z navbatida, kasallik holatlarini aniqlashdagi hamda davolash-profilaktik choralarni o'z vaqtida qo'llanilishidagi muhim dastlabki manba sanaladi.

---

<sup>1</sup> Степанов А.Д. Норма, болезнь и вопросы здравоохранения. — М.: Финансы и статистика, 1975. — С.248-249.

Inson organizmining funktsional holatlarini faqat ob'yektiv baholaganda «salomatlik» kishi organizmining atrof-muhit talablariga optimal moslashishi sifatida, «kasallik» esa moslashishdagi funktsional yetishmovchilik sifatida talqin qilinadi. Mazkur talqinning qo'llanilishi salomatlikning ham sifat, ham miqdor tavsiflarining hisobga olinishini talab qiladi.

Bugungi kunda aholi salomatligini ob'yektiv baholash mezonining individning o'ziga xos bo'lgan biologik va ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy foydali faoliyatini bajarish qobiliyati sifatida qo'llanilishi «sog'lom inson» tushunchasining vujudga kelishiga zamin yaratdi. Bunday holatda organizmda mavjud patologik o'zgarishlar kishining ahvoli va qobiliyatiga sezilarli darajada ta'sir qilmaydi. Biroq, mazkur holatda inson organizmining mehnatga qobiliyatlikka sarf qiladigan qiymati hisobga olinmaydi.

Bizning nazarimizda, yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, salomatlikning yagona integral mezon sifatida ta'riflanishi o'zini oqlamaydi. Chunki, inson organizmidek murakkab tizimda kechadigan jarayonlar dialektikasi, ularni o'rganishga bo'lgan tizimli omillar salomatlik holatini baholashda kompleks mezonlarni ishlab chiqish va qo'llashni talab etadi. Mazkur ko'rsatkichlarga sub'yektiv, ob'yektiv, funktsional va fiziologik ko'rsatkichlarni kiritish lozim.

Ta'kidlash joizki, «kasallik» va «sog'liq» tushunchalari o'rtasida ko'plab o'tish holatlari mavjud. Masalan, ikki ming yil muqaddam Galen quyidagi uchta holatni ajratib ko'rsatgan: sog'liq, kasallik va o'rta holatlar. Ibn Sino olti toifali tasnif yaratgan: birinchi to'rttasi sog'liqning turli holatlariga mos, qolgan ikkitasi — har xil darajadagi kasalliklar<sup>1</sup>. Ko'pchilik hozirgi olimlar sog'liqni kishining optimal tarzda fiziologik, ruhiy va ijtimoiy-tuyg'uli faoliyatiga layoqatligi sifatida talqin qiladi. Biroq, amaliyotda unga kasallikning bor yoki yo'qligiga ko'ra baho beriladi. Ammo, bunday yondoshuv qo'llanilganda kasallikdan oldingi davr degan holat nazardan chetda qolib, ushbu holda kasallik hali mavjud bo'lmasada, organizmning to'ldiruvchi imkoniyatlari pasayadi va funk-

---

<sup>1</sup> Микулин А.А. Активнос долголетие. — Москва, 1976. — С.30.

tsional hamda bioximik darajalarda hali ochiq namoyon bo'lmagan o'zgarishlar vujudga keladi. Ana shunday holatda sog'liq bilan kasallik o'rtasidagi o'tish holatini «uchinchi holat» deb ataydilar. «Uchinchi holat» nafaqat o'ziga xos ruhiy-fiziologik maqomdagi insonlarga xos bo'ladi (masalan, tuqqunga qadar va tug'ishdan keyingi davr, klimaks), balki bular qatoriga alkogol ichimliklarni muntazam iste'mol qiluvchi, tamaki chekuvchi va umuman antigigienik turmush kechiruvchi insonlar ham kiradi. «Uchinchi holat»da (deyarli sog' bo'la turib) kishilar ko'p yillar, hatto butun umr davomida yashashlari mumkin.

Inson salomatligi va uni baholovchi mezonlarga bo'lgan uslubiy yondoshuvlar turlicha qarashlarni vujudga keltiradi. Masalan, «salomatlik» tushunchasining ko'pchilik talqinlarida uni insonning optimal fiziologik, ruhiy va ijtimoiy faolikka layoqatlilik sifatida tushuntiriladi. Nafaqat kasalligi yoki jismoniy nuqsonlari yo'qligi, balki aynan yaxshi faoliyatga ega bo'lishini ham nazarda tutishadi. Ba'zi olimlar «salomatlik» tushunchasini kasallikni moslashuvchi mexanizmlar «sinishi»ning natijasi, deb talqin qiladi. Xususan, I.V.Davidovskiy — «salomatlikni kishida jamlangan barcha biologik va ijtimoiy qobiliyatlar to'liq namoyon bo'ladigan hamda organizmning barcha muhim hayotiy tizimlari imkon qadar jadal va katta tezlikda faoliyat ko'rsatadigan holatidir»<sup>1</sup> — deb sanagan. D.D.Venediktov esa salomatlikni «organizmning atrofdagi tabiat va ijtimoiy muhit bilan dinamik tenglashish holati»<sup>2</sup> — deb ta'riflagan.

So'nggi yillarda sog'liqni baholovchi turli integral uslublar tavsiya etilib, ularda vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik, profilaktik ko'rik ma'lumotlari, ayrim kasalliklarning uyg'unlashuvi, atrof-muhit ta'sirida sog'liqning buzilishi va hakoazolalar hisobga olingan. Bunda alohida sabab omillari va ularning inson sog'ligiga ta'siri darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash masalasi katta amaliy

---

<sup>1</sup> Давидовский И.В. Демографические факторы здоровья. — М.: Статистика, 1988. — С.68

<sup>2</sup> Вenediktov Д.Д. Глобальные проблемы здравоохранения и пути их решения. // Ж. Вопросы философы. 1979. №1979. — С.106.

ahamiyat kasb etgan. Zero, bunday axborotga tayangan holda salbiy omillarni bartaraf etish hamda ijobiy omillar ta'sirini kuchaytirish orqali aholi sog'lig'ini boshqarish mumkin bo'ladi. Aynan shu haqda N.A.Vinogradov ijtimoiy gigienani «aholi sog'lig'ini saqlashning holati va dinamikasini hamda ularni shakllantiradigan muhit omillarini, ayniqsa ijtimoiy omillarni o'rganadi, sog'liqqa ijobiy ta'sir etuvchi omillarning rivojlanishiga sharoit yaratadi hamda sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etadi»<sup>1</sup> — deb yozgan edi.

Iqtisodchi olimlar inson salomatligini «sarflar — daromadlar» nuqtai nazardan baholaydilar. Masalan, amerikalik iqtisodchi K. Uinslou tarbiya, ta'lim, tibbiy yordamga sarflanadigan mablag', so'ngra oilasi hamda jamiyat uchun mehnat bilan qaytargan mablag'ni hisoblab chiqqan. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, 20 yoshgacha bo'lgan davrda harajatlar 20 ming dollarni tashkil etgan, 40 yoshlarga kelib harajatlar qoplana boshlaydi, 60 yoshga kelib «daromad» taxminan 20 ming dollarni tashkil etadi. Shu tariqa sog'lom insonlarda mehnatlari evaziga salomatligining narxi oshib borsa, kasallarda esa u pasayib boradi<sup>2</sup>.

Salomatlik nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlarning mavjud emasligi, balki ijtimoiy sog'liqning holatidir. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-gigienik statistikada salomatlik deganda — kasallikning mavjud emasligi (individual darajada) yoki nogironlik va kasallik, o'lim darajasining kamayish jarayoni (populyatsion darajada) va sog'liqni his qilish darajasining oshishi tushuniladi.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan «salomatlik» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «**Salomatlik** — bu nafaqat kasalliklar va boshqa jismoniy nuqsonlarning mavjud bo'lmasligi, balki, shu bilan birga, to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan ijobiy holat hamdir». Mazkur ta'rifni biz mukammal va qoniqtiradigan darajada, deb sanaymiz. Chunki, birinchidan, u juda ham umumiy va noaniq tusga ega bo'lgan «ijobiy» degan so'zga asoslangan; ikkinchidan, bu ta'rif doirasida sog'lom kishi

---

<sup>1</sup> Виноградов Н.А. География здоровья. — М.: ИНФРА-М. 2002. — 53.

<sup>2</sup> Уинслоу К. Резервы здоровья. — Санкт-Петербург, 2006. — С.45-46.

aslida statik tizim sifatida talqin qilingan. Vaholanki, inson organizmi doimiy o'zgarishlar va taraqqiyot kechimida bo'ladi va bu dinamika jismoniy hamda ruhiy sog'liqning muhim shartlaridan biridir.

Nazarimizda «salomatlik» tushunchasiga akademik V.P.Kaznacheev tomonidan berilgan ta'rif to'laroq: «Salomatlik — deb yozadi u — faol hayotning maksimal davomiyligida insonning fiziologik, biologik qobiliyatlari, uning optimal mehnatga layoqatliligi, ijtimoiy faolliklarini saqlash va rivojlantirish jarayonidir»<sup>1</sup>. Fikrimizcha, ushbu ta'rifni ham aniqlashtirish va to'ldirish lozim ko'rinadi. Avvalo, ta'kidlash joizki, unga kiritilgan «optimal mehnatga layoqatlilik» tushunchasi insonning bu qobiliyat turini avtomatik tarzda va mos holda yuqori darajada namoyon qilishini, uning iqtisodiy, shu jumladan, ishlab chiqaruvchi va umumiy ishlab chiqarishdagi izlanuvchanlik xulqini faollashtiruvchi jihatlarini nazarda tutmaydi.

Bizningcha, salomatlikni insonning jismoniy, ma'naviy, ijtimoiy to'kis holati sifatida e'tirof etish mumkin. Bunday holatda kishi organlari, butun tanasi atrofdagi ishlab chiqarish va ijtimoiy muhit bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu ta'rifda salomatlikni tashkil etuvchi uch xil jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihat mavjud. **Jismoniy salomatlik** barcha organlar va butun organizmning to'kis ishlab turgan tabiiy holati. **Psixologik salomatlik** — inson tafakkuri darajasi va sifati, diqqat-e'tibori va xotirasining rivoji, ruhiy barqarorligi va irodasining nechog'lik mustahkamligi bilan belgilanadi. **Ijtimoiy salomatlik** — inson salomatligining eng oliy darajasi hisoblanadi va uning muayyan jamiyatdagi hayoti va faoliyatini, ijtimoiy turmushining asosini tashkil etuvchi axloqiy tamoyillarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ijtimoiy salomatlikni kishilarning unumli va sifatli hayot kechirishiga imkon beruvchi vosita, milliy xavfsizlikni ta'minlashga yordam beruvchi jamiyatning potentsial va tibbiy-ijtimoiy resurs sifatida qarash lozim. U ijtimoiy, ahloqiy va biologik omillarning majmuali ta'siriga bog'liqdir.

---

<sup>1</sup> Kazначеев В.П. Проблемы адаптации человека. — Новосибирск, 1977. Т.1 — С.3.



O'z tabiatiga ko'ra, salomatlik tovar, pul tasnifiga kirmaydi, inson uchun oliy qadriyat hisoblansa-da, bozor bahosiga ega emas. Ayni paytda sog'liqni saqlash, mustahkamlash va tiklash katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurs talab qiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiy salohiyatining rivojlanish darajasi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan chambarchas bog'liq.

Aholi salomatligi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya hisoblanib, unga qator omillar ta'sir ko'rsatadi (8.1-jadval).

8.1-jadval

### Aholi salomatligiga ta'sir etuvchi omillar

Obyektiv omillar	Sog'lom turmush tarzi	Subyektiv omillar
<ul style="list-style-type: none"> <li>• atrof-muhit sifati;</li> <li>• mehnat sharoitlari;</li> <li>• ma'lumot darajasi;</li> <li>• oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lish imkoniyati;</li> <li>• daromadlar darajasi;</li> <li>• yashash sharoitlari;</li> <li>• infratuzilmaning rivojlanganligi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• oqilona ovqatlanish;</li> <li>• harakatlanishning faolligi;</li> <li>• sog'liqqa oqilona munosabatda bo'lish;</li> <li>• shaxslarning o'zaro munosabatlari;</li> <li>• bo'sh vaqtning tashkil etilishi.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• yashash joyidan qoniqish;</li> <li>• mehnatning sanitariya gigiyenik va psixologik shart-sharoitlaridan qoniqish;</li> <li>• yashash sharoitlaridan mamnun bo'lish;</li> <li>• dam olish va davolash imkoniyatlaridan qoniqish;</li> <li>• jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish imkoniyatlaridan qoniqish;</li> <li>• ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarning rivojlanganligi;</li> <li>• sog'liqning qadri to'g'risida axborotga ega bo'lish darajasi.</li> </ul>

Salomatlik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

- ijtimoiy salomatlik har bir fuqaroning salomatligi singari, davlatning strategik maqsadi, milliy xavfsizligining muhim shartidir.

Bashariyat tarixidan ma'lumki, aholi sonining keskin kamayib ketishi, jumladan, yuqumli kasalliklar tarqalishi, umr ko'rish va tug'ilish darajasining pastligi, o'limning ko'pligi sababli butun-butun davlatlar yo'qlikka yuz tutgan. Ijtimoiy salomatlik jamiyatning odamlar turli kasalliklar, jismoniy, psixologik va turmush tashvishlari bilan bog'liq ko'ngilsizliklarga duch kelmaydigan yashash sharoiti, boshqacha aytganda, sog'lom turmush tarzini shakllantirish imkoniyati yaratilgan holatidir. U mamlakatning sog'lom mehnatga oid salohiyatini ta'minlashning muhim sharti, samarali davlat boshqaruvi mezonidir;

- salomatlik — jamiyatning iqtisodiy resursi va salohiyatini qayta tiklashning asosiy shartidir. Faqat sog'lom va bilim darajasi yuqori aholigina mamlakatning iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini ta'minlashga qodir. Bu har bir davlat uchun hozir, ayniqsa, jahon globallashib borayotgan sharoitda behad muhimdir.

Shunday qilib, aholi salomatligi eng oliy qadriyat bo'lib, mehnat resurslarining takror barpo bo'lishida asosiy omillardan hisoblanadi.

## **8.2. Aholi salomatligini baholashga doir axborot manbalari**

Bugungi kunda aholi salomatligini baholashning bir nechta axborot manbalari mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- aholi o'limi statistikasi;
- kasallanishlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

Aholi o'limi statistikasi demografik hodisalarni joriy qayd qilish doirasida shakllanadi. Uning o'ziga xosligi shundaki, demografik hodisalar ularni yuridik rasmiylashtirish jarayonida kuzatuvga olinadi. Hozirgi davrda demografik hodisalarning joriy qayd qilinishi shahar va tumanlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'linmalari, qishloqlarda esa mahalliy hokimiyat organlari (qishloq fuqarolar yig'ini) tomonidan yoziladigan fuqarolik holatini qayd etish yozuvlari asosida bajariladi.

O'lim holati to'g'risidagi ma'lumotga marhumning qarindoshlari yoki boshqa shaxslar tomonidan uch kundan kech bo'lmagan muddatda, suiqasd qilib o'ldirish, o'z joniga qasd qilish,

baxtsiz hodisa tufayli sodir bo'lgan o'lim holati haqidagi xabar esa jasad aniqlangani yoki o'lim sodir bo'lganidan keyin bir sutkagacha muddatda berilishi lozim.

O'lim holati marhum yashagan hududda yoki o'lim sodir bo'lgan joyda shifokor ma'lumotnomasi asosida qayd qilinadi. Shifokorning o'lim to'g'risida guvohnomasi — bu insonning o'limi va buning sababini tasdiqlovchi hujjatdir. Uni bemorni davolagan yoki o'lim sababini aniqlagan shifokor to'ldiradi.

Ushbu guvohnomada quyidagilar qayd qilinadi: o'lim sodir bo'lgan joy (shifoxona, uy, boshqa joyda), marhumning doimiy yashash joyi, jinsi, familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan va o'lgan sanasi (sana, oy, yil), o'limga olib kelgan kasallik, baxtsiz hodisa (ishlab chiqarish bilan bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan), suiqasd, o'z joniga suiqasd qilish natijasida ro'y berganini aniqlab ko'rsatilishi, o'lim sababi qaysi shifokor tomonidan aniqlangan (endigina o'limni qayd etgan, marhumni davolab turgan, patologo-anotom, sud-tibbiy eksperti) va qanday tibbiy muassasa tomonidan guvohnoma berilgani.

Tibbiyot muassasasida shifokor bo'lmagan holatda o'lim haqidagi guvohnoma feldsher tomonidan yozilib, uning mazmuni shifokor yozib beradigan guvohnoma bilan bir xil bo'ladi. Bola o'lik tug'ilganda yoki hayotining birinchi haftasi davomida o'lganda perinatal o'lim haqidagi ma'lumotnoma to'ldirilib, unda yuqorida sanab o'tilgan jihatlar bilan birga onaga va homiladorlik davriga tegishli ba'zi tavsiflar ko'rsatiladi.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga muvofiq o'lim to'g'risidagi guvohnomada quyidagilar qayd etiladi: o'limning bevosita sababi — shikastlanish, kasallik yoki uning o'limga olib kelgan asorati; o'limga sabab bo'lgan kasallik; asosiy (dastlabki) kasallik, shuningdek, boshqa o'lim holatiga ma'lum tarzda sabab bo'lgan kasalliklar.

O'lim to'g'risidagi guvohnoma ma'lumotlari o'lim haqidagi dalolatnomani yozish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur dalolatnomada quyidagilar ko'rsatiladi: o'lim sanasi, joyi va sababi, marhumning tug'ilgan joyi va sanasi, yoshi, jinsi, doimiy yashash joyi va u yerda yashagani davomiyligi, shuningdek, marhumning

ba'zi ijtimoiy-demografik tavsiflari; bir yoshgacha bo'lgan davrda o'lganlarda onasining mos ravishdagi tavsiflari, shuningdek, o'lgan farzand nechanchisi bo'lgani va onaning yoshi.

Dalolatnoma ikki nusxada to'ldiriladi, birinchi nusxa fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish bo'limida qoladi, ikkinchi nusxa esa statistik ishlanmalar uchun tuman (shahar) statistika bo'limiga jo'natiladi.

Aholi salomatligi haqida axborot beruvchi yana bir manba - bu kasallanishlar to'g'risidagi ma'lumotlardir.

**Kasallanish** deganda, aholi orasida yoki uning ayrim guruhlari ichida tarqalgan kasalliklar tushuniladi. Kasallanishlarni o'rganish sog'liqni saqlash muassasalari uchun muhim ahamiyatga ega. Xususan:

- kasallanishlar aholi salomatligini, uning sanitar holatini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi;

- kasallanishlar sog'liqni saqlash muassasalari ish faoliyatining sifati va samarasini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi;

- kasallanishlarni o'rganish va uni kamaytirish sog'liqni saqlash, sanitariya-epidemiologiya, davolash-profilaktika muassasalarining bosh vazifalaridan biridir. Shu bilan birga, kasallanishlarni muayyan hududlarda tashqi muhit, turmush va mehnat sharoitlari bilan bog'lab o'rganish aholi salomatligini yaxshilash uchun aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishga zamin hozirlaydi;

- kasalliklarning dinamikasini o'rganish natijasida aholi orasidagi patologik jarayonlarning o'zgarishi haqida chuqur ma'lumotlarga ega bo'linadi va buning asosida aholining tibbiy yordamga bo'lgan ehtiyojini har tomonlama aniqlab, uni qayta tashkil etishga olib keladi.

Aholi orasidagi kasallanishlarni o'rganishning boshlang'ich va asosiy manbalaridan biri bemorlarning davolash-profilaktika muassasalariga tibbiy yordam olish maqsadidagi murojaati hisoblanadi. Umumiy kasallanishlar haqidagi ma'lumot barcha kasalliklarni joriy ro'yxatga olishga asoslangan. Shuningdek, har bir kasallik bo'yicha joriy yildagi birlamchi murojaatlar kuzatuv birligi sifatida qabul qilingan. Surunkali kasallik bo'yicha bemor yil davomida davolash-profilaktika muassasalariga bir necha marta murojaat

qilishidan qat'iy nazar, u kuzatuv birligi qilib bemorning birinchi murojaatida hisobga olinadi.

Aholi orasida tarqalgan kasalliklarni 8.2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'rganiladi.

8.2-jadval

### Aholi orasida tarqalgan kasalliklarni o'rganish tartibi

Kasalliklar haqida ma'lumotlar to'plashning asosiy manbalari	Kasallanish turlari
1. Aholining tibbiyot muassasalariga murojaati	Birlamchi kasallanish
	Umumiy kasallanish
	Yuqumli kasalliklar bilan kasallanish
	Muqim noepidemik kasalliklar bilan kasallanish
	Mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotishga olib keladigan kasalliklar
	Shifoxonada muqim yotgan bemorlarning kasallanishlari
	Nogironlik
2. Tibbiy ko'rik ma'lumotlari	Tibbiy ko'rik natijasida aniqlangan kasalliklar bilan kasallanish
3. O'lim sabablarini o'rganishdan olingan ma'lumotlar	O'limga sabab bo'lgan kasalliklar bilan kasallanish

Aholining davolash-profilaktika muassasalariga murojaati natijasida o'rganilgan kasallanishlar tahlil qilinganida, ma'lumotlarning to'liqligiga ta'sir etuvchi tibbiy yordamning yaqinligi, vrachlar bilan ta'minlanganlik, aholi yashash joyida ixtisoslashgan tibbiyot muassasalariga murojaati, aholining sanitariya madaniyatining darajasi, ularning o'z sog'ligiga munosabati kabi omillar inobatga olinishi kerak.

Umumiy kasallanishlarni o'rganishning asosiy manbalaridan yana biri — bu aholi orasida o'tkaziladigan profilaktik va maqsadli tibbiy ko'riklar hamda dispanser kuzatuvlaridir. Bu usul orqali

yashirin kechuvchi, oldindan ma'lum bo'lmagan yoki aholini faol ravishda tibbiy yordam olish uchun murojaat etishga majbur qilmagan surunkali kasalliklar aniqlanadi. Tibbiy ko'rik ma'lumotlari, aholining murojaati natijasida olingan ma'lumotlar bilan qo'shib kasalliklar haqidagi materiallarni yanada to'ldiradi, ularga bir muncha aniqlik kiritadi va aholining umumiy kasallanishlarini yanada to'laroq yoritishga yordam beradi.

Aholining umumiy kasallanishlari haqidagi ma'lumotlardan foydalangan holda quyidagi statistik ko'rsatkichlar keltirib chiqariladi:

1. Birlamchi kasallanishlar.

$$t_{b.k.} = \frac{B}{A} \times 1000. \quad (8.1)$$

Bu yerda:  $V$  — joriy yilda birinchi marta ro'yxatga olingan kasalliklar soni;  $A$  — aholining o'rtacha yillik soni.

2. Umumiy kasallanishlar.

$$t_{y.k.} = \frac{U}{A} \times 1000. \quad (8.2)$$

Bunda  $U$  — joriy yilda ro'yxatga olingan jami kasalliklar soni;  $A$  — aholining o'rtacha yillik soni.

3. Kasalliklar tarkibi (jami kasalliklar tarkibida ayrimlarining ulushi, sinflar, nozologik shakllar).

$$t_{k.m.} = \frac{S}{U} \times 100. \quad (8.3)$$

Bu yerda:  $S$  — ma'lum kasalliklar soni;  $U$  — umumiy kasalliklar soni.

4. Tibbiy ko'rikda aniqlangan kasalliklar ko'rsatkichi.

$$t_{m.k.} = \frac{P}{R} \times 1000. \quad (8.4)$$

Bu yerda:  $P$  — tibbiy ko'rikda aniqlangan kasalliklar soni;  $R$  — tibbiy ko'rikdan o'tkazilgan shaxslarning umumiy soni.

**Yuqumli kasalliklar.** Yuqumli kasalliklar aholi uchun xavf tug'diradi, chunki yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida oldi olinmasa, ular tez tarqalib epidemiyaga aylanib ketishi mumkin. Shu munosabat bilan ularni nazorat qilish uchun har bir yuqumli kasallikni

o'z vaqtida qayd etib tuman (shahar) sanitariya-epidemiologiya stantsiyalariga shoshilinch xabar berish lozim.

Yuqumli kasalliklar aniqlanganda yoki ular to'g'risida gumon qilinganda shoshilinch xabar majburiy bo'lgan kasalliklar ro'yxati sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi va bu ro'yxat barcha tuman, shaharlar uchun majburiy hisoblanadi.

Yuqumli kasalliklarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Karantin kasalliklar (o'lat, vabo, qora chechak, sariq bezgak, qaytalanuvchi terlama).

2. Sanitariya-epidemiologiya stantsiyalari bilan bir vaqtning o'zida maxsus ixtisoslashtirilgan davolash profilaktika muassasalarida axborot to'planadigan kasalliklar (sil, zaxm, so'zak, traxoma, zamburug'li kasalliklar, moxov).

3. Davolash-profilaktika muassasalari sanitariya-epidemiologiya stantsiyalariga faqat yig'ma ravishda axborot beradigan kasalliklar (gripp, yuqori nafas olish yo'li infeksiyalari).

4. Har bir kasallik va kasal haqida maxsus axborot beriladigan kasalliklar (oshqozon tifi, paratif, ichburug', qizamiq, ko'kyo'tal, menengit, entsefalit, infeksiyon gepatit, skarlatina, qoqshol, quturish, toshmali tif, suvchechak, epidemik parotit va boshqalar).

Yuqoridagi kasalliklar guruhi bo'yicha mavjud qonunga asosan yuqumli kasallikni birinchi bo'lib aniqlagan yoki gumon qilgan har bir shifokor, o'rta tibbiyot xodimi sanitariya-epidemiologiya stantsiyasiga shoshilinch xabar yuborishi zarur.

**Muqim noepidemik kasalliklar.** O'tishi jihatidan og'ir, atrofdagi odamlar va kelajak avlod uchun xavf tug'dirishi jihatdan muhim bo'lgan noepidemik kasalliklar alohida hisobga olib boriladi. Bunday kasalliklar jumlasiga sil, yuqumli tanosil kasalliklar, zamburug'li kasalliklar, traxoma va xavfli o'smalar kiradi. Har qanday davolash-profilaktika muassasasining shifokorlari shunday kasalliklarni aniqlaganda maxsus ixtisoslashtirilgan dispanserlarga tegishli hujjatni to'ldirish orqali axborot beradi. Joylardagi dispanserlar tashhisni aniqlagandan so'ng ularni ro'yxatga oladi va bemorni kuzatib boradi. Dispanserlarda kasallik tasdiqlangandan so'ng bemor haqidagi xabar tegishli viloyat dispanserlariga yuboriladi va u yerda ayrim kasalliklar bo'yicha 6 oyda, boshqa bir kasalliklar bo'yicha

1 yilda 1 marta hisobot tayyorlanadi. Ana shu hisobot ma'lumotlariga asoslanib hududlar bo'yicha kasallanish ko'rsatkichlari har 100 000 kishiga nisbatan hisoblanadi.

**Mehnatga qobiliyatini vaqtinchalik yo'qotishga olib keladigan kasalliklar.** Bu kasallanishlar bemorlarga shifokor tomonidan beriladigan mehnatga yaroqsizlik varaqalariga qarab o'rganiladi va u aholining ishlaydigan qismiga taalluqli bo'ladi. Mehnatga yaroqsizlik varaqasi bir vaqtning o'zida xodimlarning sababli ishga chiqmasligini tasdiqlovchi statistik, huquqiy hamda vaqtinchalik mehnatga yaroqsizligi uchun nafaqa to'lanadigan moliyaviy hujjat hisoblanadi.

Mehnatga yaroqsizlik varaqalariga qarab xodimlarning orasida kasallanish hollari korxonalar va tashkilotlar bo'yicha ishlab chiqiladi. Keyinchalik kasallanish to'g'risidagi ma'lumotlarni viloyat kasaba uyushmalari qo'mitasi va respublika kasaba uyushmalari federatsiyasining statistika bo'limi jamlaydi, qayta ishlab chiqadi (hisobga oladi).

Mehnatga qobiliyatini vaqtincha yo'qotishga olib boradigan kasalliklar to'g'risida uchta asosiy ko'rsatkich mavjud:

1. Xodimlarning 100 tasiga to'g'ri keladigan mehnatga yaroqsizlik holatlarining soni

$$F = \frac{v}{A} \times 100. \quad (8.5)$$

Bu yerda:  $v$  — mehnatga yaroqsizlik hollari soni;  $A$  — xodimlar soni.

2. Xodimlarning 100 tasiga to'g'ri keladigan mehnatga yaroqsizlik kunlar soni

$$S = \frac{\eta}{A} \times 100. \quad (8.6)$$

Bu yerda:  $\eta$  — mehnatga yaroqsizlik kunlari soni;  $A$  - xodimlar soni.

3. Bitta mehnatga yaroqsizlik holatining o'rtacha muddati

$$P = \frac{\eta}{v}. \quad (8.7)$$

Mehnatga qobiliyatini vaqtincha yo'qotishga sabab bo'lgan kasalliklarni o'rganishda 100 xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha



ko'rsatkichlarini hisoblab chiqishdan tashqari, bemorlar kontingentini hisobga olish katta ahamiyatga ega. Xodimlarning ma'lum bir qismida mehnatga yaroqsizlik holatlari umuman bo'lmashligi amaliyotda ma'lum: ko'pchilik qismi yiliga 1-2 marta, ayrim xodimlar esa yiliga 5 marta va undan ortiq kasallanadi. Biroq, hammadan ko'p mehnatga yaroqsizlik holatlari va kunlari xodimlarning mana shunday tez-tez va uzoq kasallanib turadigan ozgina qismiga to'g'ri keladi.

Bemorlar kontingenti bo'yicha kasallanishni o'rganishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardir:

1. Salomatlik indeksi (mehnat jamoasida yil bo'yi kasal bo'lmagan xodimlar ulushini anglatadi).

$$Z = \frac{\delta}{A} \times 100. \quad (8.8)$$

Bu yerda:  $\delta$  — mazkur jamoada yil bo'yi kasal bo'lmagan xodimlar miqdori;  $A$  — xodimlar soni.

2. Bemor xodimlar ko'rsatkichi

$$J = \frac{\beta}{A} \times 100. \quad (8.9)$$

Bunda  $\beta$  — joriy yilda mehnat qobiliyatini yo'qotgan xodimlar miqdori.

**Muqim shifoxonada yotganlar kasallanishi.** Muqim shifoxonadagi o'rinlar, mutaxassislar sonini aniqlashda va ayrim ixtisoslashgan kasalxonalarni tashkil etishni rejalashtirishda muqim shifoxonada davolanganlar soni bilan bir qatorda ularning kasallanish ko'rsatkichlari katta ahamiyatga ega.

Hozirgi paytda shifoxonalardagi kasallanishlarni ro'yxatga olish va o'rganish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Har bir shifoxonaga yotqizilish holati kuzatuv birligi hisoblanadi. Bemor kasalxonadan chiqayotganda ularning har biriga statistik karta to'ldiriladi. Muqim shifoxonada yotgan kasallanishlar ko'rsatkichi tuman, shahar, viloyat, respublika bo'yicha har 1000 aholiga hisoblanadi. Bundan tashqari, muqim shifoxonalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin:

- tashhislar ko'pligi, ularning kattaligi, tavsifi, asosiy kasalliklar, ularning asorati;

- shifokor qo'ygan tashhisning sifati, ularni poliklinika tashhisarlari va o'lim holatlari yuz berganda patologoanatomik tashhislar bilan mos kelishi;

- turli kasalliklar bo'yicha bemorlarni muqim shifoxonalarda davolash muddati;

- muayyan kasalliklar bo'yicha o'z vaqtida kasalxonaga yotqizilmaganligi va ularning son kattaligi;

- muqim shifoxonada yotgan bemorlarning yosh, jins, kasb, klinik holatlar bo'yicha tarkibi;

- turli davolash usullarining samaradorligi (jarrohlik, terapevtik, medikamentoz, fizioterapevtik davolashlar);

- shifoxonada davolanishlarning oqibati (sog'ayish, qisman sog'ayish, yomonlashish, o'lim holatlari);

- bir yil davomida muayyan bir kasallik bilan takror yotqizishlar soni.

**Nogironlik.** Nogironlik (lotincha *invalidus* — kuchsiz, quvvatsiz) — kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan jarohatlar yoki nuqsonlar oqibatida hayot faoliyatining cheklanishiga olib keluvchi va uning ijtimoiy himoyaga muhtojligini keltirib chiqaruvchi organizm funksiyalarining barqaror bajarilishining izdan chiqishi oqibatidagi inson salomatligining buzilishidir. Bunda hayot faoliyatining cheklanishi deganda, shaxs tomonidan imkoniyatlarining to'liq yoki qisman yo'qotilishi yoki o'z-o'ziga xizmat qilish, mustaqil harakatlanish, mo'ljal olish, muloqot qilish, o'z xulqini nazorat qilish, ta'lim olish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yo'qotilishi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining «Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonuniga muvofiq organizm funksiyalarini buzilishi darajasiga va hayot faoliyatining cheklanganligiga bog'liq holda nogironlar deb tan olingan shaxslarga nogironlik guruhi, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarga esa «nogiron-bola» toifasi belgilanadi.

Shaxsning nogiron deb tan olinishi tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Nogironlikni belgilash uchun hayot faoliyati cheklanganligining darajasi aniqlanishi kerak, ya'ni sog'liqning buzilishi oqibatida

inson faoliyatining me'yoridagidan chetga chiqishning kattaligi aniqlanadi.

Inson organizmi asosiy funksiyalarining buzilishi tasnifi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Psixik funksiyalar buzilishi (muomala, e'tibor berish, xotira, fikr yuritish, muloqot, hissiyotlar, erkinlik).

2. Sensor funksiyalarning buzilishi (ko'rish, eshitish, hid bilish, his qilish).

3. Statodinamik funktsiyaning buzilishi.

4. Qon aylanishi, nafas olish, ovqat hazm qilish, ajratish, moddalar va energiya almashinuvi, ichki sekretsiya funksiyalarining buzilishi.

Nogironlik bo'yicha o'rnatiladigan asosiy hayot faoliyati toifalari quyidagicha tasniflanadi:

1. O'z-o'ziga xizmat ko'rsata olish qobiliyati — mustaqil ravishda o'zining asosiy fiziologik ehtiyojlarini qondira olishi, kundalik maishiy faoliyat bilan shug'ullana olishi va shaxsiy gigiena ko'nikmalarini amalga oshira olishi.

2. Mustaqil ravishda harakatlana olishi — makonda mustaqil ravishda harakatlana olishi, to'siqlardan o'ta olishi, bajarilayotgan maishiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyat doirasida tananing tik turishini saqlay olishi.

3. Ta'lim olish qobiliyati — olingan bilimlarni (umumta'lim, kasbiy va h.k.) ang'lay olishi va yetkazib bera olishi, ko'nikma hamda ijtimoiy, madaniy va maishiy bilimlarga ega bo'la olish qobiliyati.

4. Mehnatga qobiliyati — ishning mazmuniga, hajmiga va bajarish sharoitlariga mos ravishdagi talablarga muvofiq faoliyat ko'rsata olish qobiliyati.

5. Mo'ljal olish qobiliyati — vaqt va makonni ang'lay olish qobiliyati.

6. Muloqot qilish qobiliyati — ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va o'tkazish orqali odamlar orasida muloqot o'rnatish qobiliyati.

7. O'z xulqini nazorat qilish qobiliyati - ijtimoiy-huquqiy me'yorlarni inobatga olgan holda o'zini ang'lay olishi va o'zini tutish qobiliyati.

Inson organizmi funksiyalarining barqaror buzilishini tavsiflab beruvchi turli sifat va miqdor ko'rsatkichlarni kompleks baholash quyidagi buzilishlarning to'rtta darajasini ajratib ko'rsatishni nazarda tutadi:

1-daraja — funksiyalarning ahamiyatsiz buzilishi;

2-daraja — funksiyalarning o'rtacha (mo'tadil) buzilishi;

3-daraja — funksiyalarning namoyon bo'lgan buzilishi;

4-daraja — funksiyalarning ahamiyatli namoyon bo'lgan buzilishi.

Namoyon bo'lish darajalari bo'yicha hayot faoliyatini cheklashlar uch darajaga bo'linadi. Masalan, mustaqil ravishda harakatlana olish qobiliyatini cheklashlar quyidagicha tasniflanadi:

1-daraja — uzoq vaqt sarflab harakatlanishida, ishni qisman bajarilishi va masofani qisqarishida mustaqil harakatlanish qobiliyati;

2-daraja — yordamchi vositalardan foydalanib yoki boshqa shaxslar yordamida mustaqil harakatlana olish qobiliyati;

3-daraja — mustaqil harakatlana olmaslik va boshqa shaxslar yordamiga to'laligicha bog'liqlik.

Mehnat faoliyati qobiliyati bo'yicha cheklovlar quyidagicha tasniflanadi:

1-daraja — ishlab chiqarish faoliyati hajmining kamayishi yoki malakaning tushishi sharoitlarida mehnat faoliyatini bajara olish qobiliyati, o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlarni bajara olmasligi;

2-daraja — yordamchi vositalardan foydalangan holda maxsus yaratilgan sharoitlarda yoki maxsus jihozlangan ish o'rnida, boshqa shaxslar yordamida mehnat faoliyatini amalga oshira olish qobiliyati;

3-daraja — mehnat faoliyatiga qobil emasligi.

Nogironlarga nisbatan olib borilayotgan ijtimoiy siyosat ularning hayotda va jamiyat taraqqiyotida faol qatnashish imkoniyatlarini kengaytirishga, moddiy ahvollarini yaxshilashga qaratilgan. Hayot faoliyatining buzilishi darajasiga qarab birinchi, ikkinchi nogironlik guruhi belgilanadi.

Birinchi guruh nogironlikni belgilash uchun kasalliklar, jarohatlar, tug'ma nuqsonlar oqibatida organizm hayot faoliyatining yaqqol ko'rinib turgan cheklanishlari asos bo'ladi.

### **Birinchi guruh nogironlik** quyidagi hollarda belgilanadi:

- o'ziga o'zi xizmat qilish, harakat qilish yoki o'z xulq-atvorini nazorat qilish (o'qish, muomala qilish, harakatlanish), shuningdek, mehnat faoliyatida qatnashish mumkin bo'lmagan, bu esa o'z navbatida boshqalarning doimiy parvarishiga, yordamiga yoki nazoratiga ehtiyoj sezishga olib keladigan, to'la ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotish hollarida (tetraplegiya, og'ir tetraparez, og'ir surunkali psixozlar, inkurabel xatarli o'smalar);

- harakat qilish, o'z o'ziga xizmat, o'qish yoki muomala qilish, o'zini idora qilish, o'z xulq-atvorini nazorat etish, shuningdek, oddiy ishlab chiqarish sharoitida mehnat faoliyatida qatnashish ancha qiyinlashgani oqibatida, agar ko'rsatilgan buzilishlar doimo o'zgalarning parvarishi, yordami yoki nazorati zarurligini taqozo etuvchi ancha yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslanuvchanlikni yo'qotish hollarida (oyoqlarning doimiy falaji, har ikki qo'lning cho'ltoqligi, ya'ni har ikki panjadagi hamma barmoqlarning yo'qligi, yuqoridan uchdan bir darajada har ikki sonning cho'ltoqligi, butunlay ko'rmaslik).

### **Ikkinchi guruh nogironlik** quyidagi hollarda belgilanadi:

- salomatligining holatiga ko'ra mehnat faoliyatida qatnasha olmaslik oqibatida ancha yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotishda yoki mehnat faoliyati ta'sirida kasallik kechishining yomonlashishi, og'ir asoratlar paydo bo'lishi xavfi tug'ilganda, shuningdek, muomala qilish, o'zini idora qilish, o'qish, o'z xulq-atvorini nazorat qilishga yaqqol qiynalish, ammo o'zgalarning yordamiga, parvarishiga yoki nazoratiga ehtiyoj bo'lmaganda (yurakning klapan apparati shikastlanganligi yoki qon aylanishining II- va III-darajali doimiy buzilgandagi miokard, tez avj oluvchi, tez-tez krizislarga moyil ikkinchi bosqich gipertoniya kasalligi, o'pka tsirrozi, takroriy miokard infarkti, qisqa vaqt ichida takrorlangan insult, yaqin masofani ko'rolmaslik);

- og'ir surunkali kasalliklar, tayanch-harakat a'zolarining o'zaro bog'liq nuqsonlari va ko'rish qobiliyatini ancha yo'qotish oqibatida yaqqol ko'rinib turgan ijtimoiy moslashuvchanlikni yo'qotganda, shuningdek, muomala qilish, o'zini idora qilish, o'qish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish hamda oddiy sharoitdagi

mehnat faoliyatida qatnashish qiyin bo'lganda, ammo o'zgalarning yordamiga, parvarishiga yoki nazoratiga ehtiyoj bo'lmaganda (ovqatlanishning kamayishi va qisqa muddatli remissiyalar ko'rinib turgan yazva kasalligining og'ir shakli, zaharlanish, tez-tez zo'rayib turadigan bronxoektatik kasallik, tez-tez xuruj qiladigan tutqanoq kasalligi, qadam bosishni bir muncha buzib turadigan oyoq paraparezi).

Shunday qilib, aholi salomatligi ijtimoiy rivojlanishning integrallashgan ko'rsatkichi hisoblanib, uni baholashda aholi o'limi statistikasi va kasallanishlar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. «Salomatlik» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Aholi salomatligiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Ijtimoiy salomatlik deganda nimani tushunasiz?
4. Aholi salomatligini baholashda qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?
5. Aholi o'limi statistikasini yuritish tartibini tushuntirib bering.
6. «Kasallanish» deganda nimani tushunasiz?
7. Kasalliklar to'g'risida ma'lumotlar to'plashning asosiy manbalarini aytib bering.
8. Salomatlik indeksi qanday aniqlanadi?
9. Mehnatga qobiliyatini vaqtinchalik yo'qotishga olib boradigan kasalliklar to'g'risidagi ko'rsatkichlarni sanab bering.
10. «Nogironlik» so'zi qanday ma'noni anglatadi?
11. Shaxs kim tomonidan nogiron deb topiladi?
12. Nogironlikning ukkita guruhi o'rtasidagi farqlarni aytib bering.

---

---

## 9-bob. AHOLINING TAKROR BARPO BO'LISH QONUNIYATLARI

### 9.1. Aholining takror barpo bo'lishi va uning turlari

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonining o'sib borishini ta'minlovchi biologik jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir.

«**Aholining takror barpo bo'lishi**» deganda, aholining soni va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'rni to'ldirishi orqali yangilanishi tushuniladi.

«Aholining takror barpo bo'lishi» tushunchasining mohiyatini keng va tor ma'nolarda tushunish mumkin.

Keng ma'noda, «aholining takror barpo bo'lishi» tushunchasi o'z ichiga yoshi, jinsi, ijtimoiy guruhlari, millati, oilaviy holati, ta'lim darajasi, kasbiy tarkibi bo'yicha aholi tarkibining rivojlanishi va yangilashini qamrab oladi. Tor ma'noda, aholining takror barpo bo'lishi — bu inson avlodining tug'ilish va o'lim natijasida yangilanishidir.

Shunday qilib, har bir insonning hayoti chegaralanganligiga qaramay aholi o'zining soni va tarkibini o'zgartirib yoki saqlagan holda mavjud bo'lishda davom etadi.

Aholi takror barpo bo'lishining quyidagi uch turi farqlanadi:

**1. Toraygan takror barpo bo'lish** — bunda yashayotgan aholi o'zining o'rnini to'ldiruvchilarni takror barpo qilmaydi. O'tayotgan avlodlarning soni hayotga qadam qo'yayotgan avlodlarning sonidan ortiq bo'ladi.

**2. Oddiy takror barpo bo'lish.** Aholi takror barpo bo'lishining mazkur turida hayotga qadam qo'yayotgan avlod bilan keksa avlod soni teng bo'ladi va aholining statsionar turi vujudga keladi.

**3. Kengaygan takror barpo bo'lish.** Bu turda hayotga qadam qo'yayotgan har bir avlod ketayotgan avlod soniga nisbatan ko'pligi

bilan tavsiflanadi. Aholida yosh-jinsiy tarkibining progressiv turi vujudga keladi, uning mutlaq soni esa osha boradi.

Toraygan, oddiy va kengaygan takror barpo bo'lishlarni ikki nuqtai nazar bo'yicha qarab chiqish mumkin:

- kogortlar bo'yicha avlodlar almashinuvi, ya'ni muayyan bir yilda tug'ilgan, o'z hayotining mahsuldorlik davridagi erkak yoki ayolning ketayotgan kogorti o'zidan keyin o'rniga qancha miqdordagi avlodni qoldirib ketayotganligi;

- aholini ro'yxatdan o'tkazish davridagi zamondoshlarning ketayotgan har bir jamlanmasi avlodlar o'lim darajasini hisobga olgan holda o'zidan keyin hayotga qadam qo'yayotganlarning qancha miqdorini qoldirib ketayotganligi bo'yicha.

Shunday qilib, aholining takror barpo bo'lishi inson avlodining muntazam yangilanib turishi bo'lib, uning toraygan, oddiy va kengaygan turlari bir-biridan farq qiladi.

## 9.2. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy ko'rsatkichlari

Aholining takror barpo bo'lishini o'rganishda qator demografik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular jumlasiga tug'ilganlar va o'lganlarning mutlaq sonini taqqoslash asosida hisoblab chiqilgan quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

**1. Yashovchanlik koeffitsienti** yoki Pokrovskiy-Pirl indeksi. Ushbu indeks 1897-yilda rus olimi V.I.Pokrovskiy va 1921-yilda amerikalik olim R.Pirl tomonidan taklif qilingan. Yashovchanlik koeffitsienti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_x = \frac{N}{M}, \quad (9.1)$$

bu yerda:  $N$  — vaqtning ma'lum bir davrida tug'ilganlar soni;  $M$  — berilgan joydagi vaqtning xuddi shu davri uchun o'lganlar soni.

Mazkur koeffitsient shuni ko'rsatadiki, bir o'lgan odam soniga to'g'ri keluvchi tug'ilganlarning soni ketayotgan avlodlarning kelayotgan yangi avlod tomonidan o'rnini bosishi to'g'risida taxminiy bahoni berish uchun foydalaniladi.



## 2. Tabiiy o'sish sur'ati ko'effitsienti:

$$K_{n-m} = \frac{N-M}{S} * 1000 = n - m, \quad (9.2)$$

bu yerda:  $n$  — tug'ilishning umumiy ko'effitsienti;  $m$  — o'limning umumiy ko'effitsienti;  $\bar{S}$  — aholining o'rtacha soni.

Agar  $n > m$  bo'lsa, aholining tabiiy o'sishiga, aksincha,  $n < m$  bo'lsa, aholi sonining kamayishiga ega bo'lamiz hamda bu aholining toraygan takror barpo bo'lish davriga kirganligi to'g'risida birlamchi xabar beradi.

## 3. Aholining aylanma ko'effitsienti:

$$K_{\text{aylanma}} = n + m. \quad (9.3)$$

Bu ko'effitsient bizga har 1000 kishiga nisbatan aholi sonining o'rtacha yillik o'sishi qancha bo'lishini ko'rsatadi. Masalan, O'zbekistonda 1960 yilda aholining aylanma ko'effitsienti  $39,8\% + 6,0\% = 45,8\%$ , 1991 yilda  $34,5\% + 6,2\% = 40,7\%$ , 2009 yilda esa  $23,2\% + 4,7\% = 27,9\%$  ni tashkil qilgan.

## 4. Aholi takror barpo bo'lishining foydalilik ko'effitsienti:

$$K_{a.m.k.} = \frac{n-m}{n+m}; \quad (9.4)$$

U aholi tabiiy o'sish sur'atining uni umumiy aylanmasidagi hissasini ko'rsatib beradi.

$$K_{1960} = \frac{39,8\% - 6,0\%}{39,8\% + 6,0\%} = \frac{33,8\%}{45,8\%} = 0,73;$$

$$K_{1991} = \frac{34,5\% - 6,2\%}{34,5\% + 6,2\%} = \frac{28,3\%}{40,7\%} = 0,69;$$

$$K_{2009} = \frac{23,2\% - 4,7\%}{23,2\% + 4,7\%} = \frac{18,5\%}{27,9\%} = 0,66.$$

Bu shuni anglatadiki, aholi umumiy aylanmasida tabiiy o'sish sur'atining hissasi 30 yil ichida (1960 yildan 1991 yilgacha) 0,04, 2009 yilga esa 0,07 punktga kamaygan, ya'ni aholi o'sishining foydaliligi borgan sari kamayib borgan.

Ushbu barcha ko'rsatkichlar hisoblashning oddiyligi bilan farqlanadi, lekin aholining takror barpo bo'lishi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini bermaydi, chunki ularga quyidagi kamchiliklar xosdir:

A) tug‘ilish va o‘lim darajalarining turlicha bo‘lishiga qaramay koeffitsientlarning bir xil kattaliklari qo‘shiladi. Masalan, tabiiy o‘shish sur‘atining koeffitsienti 10‰ bo‘lganda, u quyidagicha hisoblanishi mumkin.

$$K_{n-m} = 20‰ - 10‰ = 10‰ \text{ va}$$

$$K_{n-m} = 40‰ - 30‰ = 10‰,$$

bunda birinchi holatdagi aholi aylanmasi koeffitsienti 30‰ ni tashkil qilsa, ikkinchi holatda u 70‰ ga teng bo‘ladi.

B) tug‘ilganlar va o‘lganlarning mutlaq soni kattaligini yashovchanlik koeffitsientiga hisoblab chiqilayotganda tug‘ilish va o‘limlarning umumiy koeffitsientlarini kattaligiga aholining yosh-jins tarkibi ta‘sir ko‘rsatadi.

Aholining takror barpo bo‘lish xususiyatlari haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lish uchun yosh-jins tarkibiga bog‘liq bo‘lmagan ko‘rsatkichlardan foydalanish lozim. Aholining takror barpo bo‘lish ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- tug‘ilishning yig‘indisi koeffitsienti;
- takror barpo bo‘lishning brutto koeffitsienti;
- takror barpo bo‘lishning netto koeffitsienti;

**Tug‘ilishning yig‘indi koeffitsienti** bir ayoldagi bolalarning o‘rtacha sonini ko‘rsatadi. Mazkur koeffitsient aholi takror barpo bo‘lishining birlamchi umumiy tavsiflaridan hisoblanadi, lekin u bir qator kamchiliklarga ega. Xususan:

- tug‘ilishning yig‘indi koeffitsienti yangi avlodning takror barpo bo‘lishida, keyinchalik ayollar o‘zidan so‘ng qoldiradigan qizlar miqdorini ko‘rsatib bermaydi. Aytish joizki, bolalarni tug‘ish ayollarning vazifasi hisoblanadi;
- tug‘ilish paytidagi bolalarni onasining yoshiga yetmasdan, o‘zidan avlod qoldirmasdan va bola tug‘ish yoshiga yetgan tengdoshlariga nisbatan bolalar sonini qisqartirgan holda qanchasi o‘lib ketishi mumkinligini e‘tiborga olmaydi.

Birinchi kamchilikdan takror barpo bo‘lishning brutto-koeffitsienti, birinchisi va ikkinchisidan netto-koeffitsient xolidir.

**Aholi takror barpo bo‘lishining brutto-koeffitsienti.** Bu koeffitsient har bir ayolning reproduktiv davrida nechta qiz bola

ko'rihi mumkinligini aniqlab beradi hamda quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$R = \delta \sum_{15}^{49} fx, \quad (9.5)$$

bu yerda:  $R$  — aholi takror barpo bo'lishining brutto-koeffitsienti;  $\delta$  — tug'ilganlar orasidagi qizlarning ulushi (u 0,488 deb qabul qilingan va ayollarning barcha yosh guruhlari uchun bir xil bo'ladi);  $\sum_{15}^{49}$  — 15-49 yosh guruhidagi tug'ilish koeffitsientining yig'indisi;  $fx$  — yosh guruhlari bo'yicha tug'ilish koeffitsienti.

Ushbu ko'rsatkichning afzalliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, uning kattaligiga aholining yosh tarkibi ta'sir ko'rsatmaydi, ikkinchidan, u fertil yoshdagi ayollarning yosh tarkibini hisobga oladi. Aholi takror barpo bo'lishini brutto-koeffitsientining kamchiligi fertil yoshdagi ayollarning o'limini hisobga olmasligi hisoblanadi.

Aholi takror barpo bo'lishini yanada to'liqroq tavsiflash uchun **netto-koeffitsientidan** ( $R_n$ ) foydalaniladi. U bir ayolning butun hayoti davomida tuqqan qizlarining o'rtachasini anglatadi va qizlarning tug'ilish paytidan onasining yoshiga yeta olishligini ko'rsatib beradi. Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsienti aholi soni o'sishining yaqin kelajagini emas, balki mavjud davrdagi tug'ilish va o'lim darajasining umumiy tavsifini o'zida namoyon etadi. Uni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$R_n = RLx, \quad (9.6)$$

bu yerda:  $R_n$  — aholi takror barpo bo'lishining netto-koeffitsienti;  $R$  — aholi takror barpo bo'lishining brutto-koeffitsienti;  $Lx$  — onasining yoshigacha yashagan qizlar.

Aholi takror barpo bo'lishining netto-koeffitsienti quyidagi qator afzalliklarga ega: birinchidan, u o'lim jadvali tuzish davrida ayollarning ayrim yosh guruhlaridagi tug'ilish darajasini hisobga oladi, ikkinchidan, netto-koeffitsientni hisoblashda aholining o'lim darajasi, keyingi yosh guruhigacha yashab qolish ehtimoli hisobga olinadi. Shunday qilib, aholi takror barpo bo'lishining netto-koeffitsienti yangi avlodning eskisining o'rnini bosish jadalligini

tavsiflab beradi, bunda tug‘ilish va o‘limning mavjud darajada va kelajakda saqlanib qolishining shartlari inobatga olinadi.

Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsientini baholash shkalasi qabul qilingan va u 9.1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsienti nafaqat ayollar, balki erkaklar uchun ham hisoblab chiqilishi mumkin. U o‘g‘il bolalarning tug‘ilish paytida otasining yoshiga eta olishligini inobatga olgan holda har bir erkak o‘zidan so‘ng qancha o‘g‘il bola qoldirishini ko‘rsatib beradi.

9.1-jadval

### Aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsientini baholash shkalasi

$R_n$	Aholi takror barpo bo‘lish tavsifi
$< 1$	Toraygan (keksa avlod miqdori hayotga qadam qo‘yayotgan avlod miqdoridan ortiq bo‘ladi).
$= 1$	Oddiy (bolalar avlodi bilan ota-onalar avlodining miqdori teng bo‘ladi).
$> 1$	Kengaygan (bolalar avlodi ota-onalar avlodidan ko‘p bo‘ladi).

**Avlod uzunligi** — bu ota-onalar avlodi o‘rnini ularning bolalari bosishi uchun kerak bo‘ladigan o‘rtacha vaqtdir. Ayol aholi uchun avlod uzunligi  $30 \pm 2$  yil atrofida tebranadi, erkak aholi uchun esa u nisbatan kattaroqdir. Avlod uzunligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$T = \frac{1}{Q} \ln R_n, \quad (9.7)$$

bu yerda:  $T$  — bola tug‘ilish paytidagi onalarning o‘rtacha yoshi yoki avlod uzunligi;  $R_n$  — aholi takror barpo bo‘lishining netto-koeffitsienti;  $Q$  — tabiiy o‘sish sur‘atining haqiqiy koeffitsienti; natural logarifmdan ( $\ln$ ) o‘nlik logarifimga o‘tish ( $\lg$ ) moduli 2,302359 ga teng.

Aholi takror barpo bo‘lishining zamonaviy turiga ota-onalar bilan farzandlarining bir necha avlodlari yashashlari xosdir, bu

aholi tarkibida keksalar ulushining ortishiga, tug'ilish va tabiiy o'sish sur'atlari umumiy koeffitsientlarining kamayishiga, o'lim koeffitsientlarining ortishiga, takror barpo bo'lishning toraygan turiga o'tishiga olib keldi.

### 9.3. Demografik o'tish va uning bosqichlari


«Demografik o'tish» deganda, aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga o'tishi tushuniladi. Masalan, demografik jarayonlarning o'zgarishi tufayli aholi kengaygan takror barpo bo'lishdan oddiy yoki toraygan takror barpo bo'lishga o'tadi.

«Demografik o'tish» atamasi birinchi marta 1945-yili amerikalik demograf F.Noutstayn tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan. Demografik o'tishning birinchi konsepsiyasi 1909-1934-yillarda fransuz demografi L.Landri tomonidan yaratilgan. Bu nazariyani ishlab chiqishga shveysariyalik kriminolog Leon Rabinovich (1929-y.), amerikalik olimlar Uorren Tompson (1930-y.) va Kingsli Devis (1949-y.) katta hissa qo'shgan.

Jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida aholining takror barpo bo'lishida chuqur o'zgarishlar yuz bergan. Masalan, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda jamiyatda demografik jarayonlar — tug'ilish, o'lim va nikohni boshqarish jarayoni keng tarqalgan. Natijada taraqqiy etgan mamlakatlarda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar aholining demografik mayliga bevosita ta'sir etib, aholining farzandlar soniga bo'lgan munosabati o'zgardi, ya'ni ko'p bolalik o'rnini o'rtacha bolalik, kam bolalik egallay boshladi. Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayoni va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, omma o'rtasida homiladorlikdan saqlovchi tibbiy vositalarning keng tarqalishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligining ortishi kabi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar oilalarning ko'p farzandga bo'lgan ehtiyojining asta-sekin kamayishiga olib keldi. Shuningdek, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning yaxshilanishi, sog'liqni saqlash tizimida zamonaviy texnologiyalarning joriy qilinishi, davolash maskanlarining zamonaviy uskunalari bilan jihozlanishi, bu sohada yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash hamda sohani

yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga e'tiborning kattaligi aholi o'rtasida o'lim holatlarining kamayishiga, o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishiga sabab bo'ldi.

Aksariyat mamlakatlarda tug'ilishning yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi aholi sonining yuqori sur'atda o'sishiga olib keldi. Bu jarayon ilmiy adabiyotlarda «**demografik portlash**» deb nomlangan. Shu o'rinda «demografik portlash» tushunchasining mohiyatini yoritib o'tamiz. Bu tushuncha 1950 yillardan so'ng paydo bo'lgan. Demografik portlash aholi takror barpo bo'lishining me'yorida ortishi, ya'ni tug'ilishning yuqoriligi, o'limning kamligi tufayli aholi mutlaq sonining yuqori sur'atda o'sish hamda aholining kengaygan takror barpo bo'lish holatida vujudga keladi. Demografik portlash muammosi qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (oziq-ovqat, ish bilan ta'minlash va h.k.) keltirib chiqaradi.



9.1-chizma. Aholi sonining o'sishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.

Buning natijasida har bir oila o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda farzandlar tug'ilishini nazorat eta boshlaydi. Bu esa, o'z navbatida, aholi sonining kamayishiga olib keladi.

Demografiya fanida aholi mutlaq sonining kamayishi «**depopulyatsiya**» deb nomlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda yuz bergan bu demografik tanazzulni, eng avvalo, tug'ilish jarayoni bilan bog'lash mumkin. Tug'ilishning kamayishi va uning qisqa vaqtdagi keng qamrovi boshqa demografik jarayonlardan yaqqol ajralib, oila hayotiga o'z ko'lankasini solmoqda va inqiroz tamg'asini bosmoqda. Tug'ilishga iqtisodiy vaziyat ham ta'sir qiladi, ya'ni aholining yashash darajasining ko'tarilishi tug'ilishning ko'payishiga, aksincha yashash sharoitlarining pastligi hissiy tuyg'ularni jilovlashga olib keladi. Aholi sonining kamayishiga ta'sir etuvchi navbatdagi omil o'lim (chaqaloqlar, onalar va mehnatga layoqatli yoshdagi aholi, keksalar) darajasining ortishidir. Depopulyatsiya jarayoni ishchi kuchi va mehnat salohiyatining qisqarishiga, buning oqibatida ishlab chiqarish va iqtisodiy faollikning kamayishiga hamda aholining keksayishiga olib keladi. Natijada iqtisodiy o'sishning kamayishi kuzatiladi.

Shunday qilib, demografik o'tish konsepsiyasiga muvofiq, barcha mamlakatlar va xalqlar o'zining demografik rivojlanishida aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga bosqichma-bosqich o'tadi.

Demografik o'tishning to'rtta bosqichi mavjud.

Birinchi bosqichda tug'ilish darajasiga o'sish, o'lim jarayoniga esa kamayish tendentsiyasi xos bo'ladi. Natijada aholining tabiiy o'sishi juda yuqori sur'atda kechadi. Demografik o'tishning ikkinchi bosqichida aholi o'limining kamayishi davom etadi va eng kulminatsion nuqtaga etadi. Bu bosqichda tug'ilish jarayoni ham kamaya boshlaydi, natijada aholining tabiiy o'sishi sekinlashadi. Uchinchi bosqichda tug'ilish jarayoni yanada kamayadi va aholining oddiy takror barpo bo'lishi sodir bo'ladi. Shu bilan birga, o'limning kamayishi natijasida aholining o'rtacha umr ko'rish muddati uzayadi.

Demografik o'tishning to'rtinchi bosqichida aholi tarkibida keksa yoshdagilar ulushining ko'pligi sababli o'lim jarayoni yuqori

sur'atda o'sadi. Yana bu bosqichda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari tenglashadi. Natijada aholining tabiiy o'sishi kuzatilmaydi, aksincha depopulyatsiyaga yuz tutadi.

Shunday qilib, demografik o'tish aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga o'tishi hisoblanib, uning yuqorida aytib o'tilgan to'rtta bosqichi farqlanadi. Bu jarayonlar hududlarning demografik rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Aholining takror barpo bo'lishi deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi takror barpo bo'lishining qanday turlarini bilasiz?
3. Takror barpo bo'lishning qaysi turida o'tayotgan avlodlar soni hayotga qadam qo'yayotgan avlodlarnikidan yuqori bo'ladi?
4. Yashovchanlik koeffitsienti qanday aniqlanadi?
5. Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsienti nimani anglatadi?
6. Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsienti qanday aniqlanadi?
7. Netto koeffitsientni baholash mezonini aytib bering.
8. Avlod uzunligi deganda nimani tushunasiz?
9. «Demografik o'tish» atamasi qachon fanga kiritilgan?
10. Demografik o'tishning birinchi konsepsiyasi kim tomonidan yaratilgan?
11. «Demografik portlash» va «depopulyatsiya» atamalarining mohiyatini ochib bering.
12. Demografik o'tish bosqichlarini sanab bering.



---

## **10-bob. AHOLI MIGRATSIYASI**

### **10.1. Aholi migratsiyasi va uning tasnifi**

Aholi migratsiyasi — bu odamlarning (migrantlarning) u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o'zgartirayotgan yoki qisqa yoxud uzoq muddatga yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko'chishidir.

Migratsiya so'zi lotincha «migratio» so'zidan olingan bo'lib, «ko'chish» ma'nosini anglatadi.

Aholining turli maqsadlarda, ya'ni yangi yerlarni o'zlashtirish, daromad topish, o'qish, yashash hamda siyosiy nuqtai nazardan yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o'zgartirishiga «aholining mexanik harakati» deyiladi<sup>1</sup>.

Demograflar orasida haligacha migratsiya demografiyaning predmeti hisoblanishi yoki mustaqil fanligi to'g'risida bahslar davom etib kelmoqda. Migratsiyani demografiyaning bir tarkibiy qismi sifatida ko'rilishiga qarshi bo'lgan demograflarning keltiradigan asosiy dalili shundan iboratki, migratsiya dunyo aholisining umumiy soniga hech qanday ta'sir o'tkazmaydi, chunki u doimo nolga teng, ya'ni immigrantlarning soni emigrantlar sonida teng. Professor V.A.Iontsevning fikriga ko'ra, migratsiya aholining takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir o'tkazishi mumkin, ya'ni demografik jarayon sifatida faqatgina ko'chishlar yoki qaytmaydigan migratsiya shaklida yuzaga chiqishi mumkin va faqat ushbu shaklda u demografiya predmetiga bevosita kiradi<sup>2</sup>.

Migratsiya demografik jarayonlarga bevosita ta'sir o'tkazishi bilan birga, u mamlakatning demografik rivojlanishiga ham

---

<sup>1</sup> Тожиєва З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойлаиши. Монография. — Т.: Fan va texnologiya, 2010. — 113 б.

<sup>2</sup> Введение в демографию. Учебное пособие. — М.: ТЕИС, 2002. — С.344.

bilvosita ta'sir o'tkazishi mumkin. Masalan, AQSHga mehnat qilish maqsadida borgan migrantlar oilasida tug'ilgan chaqaloq mamlakat fuqarosi hisoblanadi va shu yo'sinda uning demografik rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Migratsion harakatning umumiy tasnifi makon-vaqt tarkibiy qismlariga asoslanadi. Aholi migratsiyasining bir qancha tasniflari mavjud bo'lib, ularning asosiga: migratsiya turlari, holati (ko'rinishi), shakllari, sabablari va bosqichlari kiritilgan.

**Migratsiya turlari.** Migratsion harakat nafaqat bir mamlakat ichida, balki mamlakatlararo ham sodir bo'lishi mumkin. Shuning uchun migratsiyaning ikki turi farqlanadi: xalqaro (mamlakatlararo, tashqi) va ichki (mamlakat ichida).

**Xalqaro migratsiya** uchun aynan «immigratsiya» va «emigratsiya» kabi tushunchalar xosdir. Immigratsiya aholining biror mamlakatga ishgа joylashish yoki o'qish uchun doimiy yoki vaqtinchalik (odatda, uzoq muddatga) yashash uchun ko'chib kirishini bildiradi. Shuningdek, uning ko'pchilik hollarda fuqarolikni almashtirish (masalan, oilalarni birlashtirish) bilan bog'liq bir qator sabablari ham bor. Emigratsiya aholining boshqa mamlakatga doimiy yoki vaqtinchalik (uzoq muddatga) yashash uchun (ixtiyoriy yoki majburiy) ko'chishini bildiradi.

Xalqaro migratsiya kontinentlararo (masalan, Yevropadan AQSHga yoki Avstraliyaga) va kontinent ichidagi (masalan, Yevropa hududi bo'yicha) kabi turlarga bo'linadi.

**«Ichki migratsiya»** deganda, mamlakat hududi doirasida bir manzilgohdan ikkinchi manzilgohga ko'chayotgan aholi tushuniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida aholining ko'chishi ichki migratsiya hisoblanadi.

Ichki migratsiya oqimlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha farqlanadi: shahardan-shaharga, qishloqdan-qishloqqa, qishloqdan-shaharga, shahardan qishloqqa. Ushbu yo'nalishlar ma'lum bir ma'noda xalqaro migratsiya uchun ham xosdir.

**Migratsiya ko'rinishlari.** Migratsiyani (tashqi va ichki) ko'rinishlari bo'yicha tasniflayotganda odatda ular quyidagicha farqalanadi: doimiy (umrbod), vaqtinchalik, majburiy, qonuniy, noqonuniy, mehnat.

**Doimiy (umrbod) migratsiya** doimiy yashash joyini butunlay almashtirish bilan bog'liq: boshqa mamlakatga yoki qishloqdan shaharga va h.k.

**Vaqtinchalik migratsiya** yetarlicha uzoq muddatga, lekin cheklangan, ko'pincha oldindan belgilangan muddatga ko'chishini bildiradi. Masalan, ko'pchilik ishchilarning kam sonli aholi yashaydigan hududlarga shartnoma bo'yicha bir necha yil ishlash uchun ko'chishi vaqtinchalik migratsiya hisoblanadi.

**Majburiy migratsiya** migratsiyaning zamonaviy ko'rinishlaridan biri bo'lib, u siyosiy sabablarning natijasi hisoblanadi. Masalan, sobiq ittifoqda aholini ommaviy deportatsiya qilish majburiy migratsiyaning shakllaridan biri hisoblangan. U bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilgan. Quloqlar deb nomlanuvchi odamlarga nisbatan bir qator deportatsiyalar qo'llanilgan. Ular 1930-yillarning boshida kollektivlashtirish va quloqlarni yo'qotish shiori ostida amalga oshirilgan. Ushbu rejalar bo'yicha Ukrainadagi quloqlar — Shimoliy va markaziy Qoratuproq hududlariga, Quyi va O'rta Volga bo'ylari va Belorussiyadan — Sibirga, Shimoliy Kavkazdan Ural va Qozog'istonga ko'chirilgan. G'arbiy hududlar aholisi Sharqiy Sibir va Uzoq Sharqqa ko'chirilgan. Umuman olganda, ushbu ko'chirishlarda quyidagi tendentsiyalar kuzatilgan: birinchidan, ularni vatanlaridan iloji boricha uzoqroqqa ko'chirib o'tishga intilish, ikkinchidan, umuman boshqa tabiiy iqlim sharoitlariga jo'natish. 1931-yildagi quloqlarni surgun qilish geografiyasida shimoliy va uzoq hududlarni o'zlashtirish rejalaridan hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning mahalliy va amaliy vazifalarini echishga o'tish kuzatildi.

Sovet deportatsiyalarining yana bir turi — «chegaralarni tozalashtirish» hisoblanadi. 1930 va 1934-1935 yillardan boshlab chegara hududlarda yashovchi odamlar o'z vatanlaridan ko'chirila boshladi: g'arbdan finlar, nemislar, polyaklar; janubdan — kurdlar, eronliklar; Uzoq sharqdan esa koreyslar.

Va, nihoyat, Ikkinchi jahon urushi yillarida butun bir xalqlar va elatlarni mamlakatning uzoq hududlariga deportatsiya qilish jarayoni kuzatildi (masalan, O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sibirga).

Ittifoqning parchalanishi bilan majburiy migrantlar paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtga ularga quyidagilar kiradi: qochoqlar;

vaqtinchalik qochoqxona berilgan shaxslar; majburiy ko'chib ketganlar; ichki ko'chirilgan shaxslar.

«**Qochoq**» maqomini muayyan bir mamlakat fuqarosi bo'lmagan, ma'lum bir alomatlar bo'yicha: irqi, dini, millati, ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansubligi, siyosiy qarashlari bo'yicha ta'qib qilinish qurboni bo'lishdan qo'rqayotgan va o'z fuqaroligi bo'lgan davlatning himoyasidan foydalana olmaydigan yoki foydalanishni xohlamaydigan kishilar oladilar. Bular qatoriga ma'lum bir fuqaroligi bo'lmagan, o'zining avvalgi yashash joyi davlatiga bora olmaydigan yoki borishni istamaydigan shaxslarni ham kiritish mumkin. Tinchlikka, insoniylikka nisbatan jinoyat sodir qilgan yoki boshqa og'ir qasddan jinoyat sodir qilgan shaxslar qochoq sifatida tan olinmaydilar.

**Vaqtinchalik qochoqxona olgan shaxslar** qatoriga ularni qochoq deb tan olinishi uchun asoslari bo'lgan, lekin mamlakat hududida vaqtinchalik qolish imkonini berish uchun iltimosnoma arizasi bilan cheklangan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarni kiritish mumkin. Ular qochoqlar deb tan olinishi uchun asosga ega bo'lmasliklari ham mumkin, lekin insoniylik yuzasidan mamlakatdan tashqariga deportatsiya qilinmaydi.

Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan respublika hududida muqaddam yashagan, fuqaroligi bo'lgan, mamlakatda qochoq maqomini olgan, keyinchalik fuqaroligini olishi bilan avvalgi maqomini yo'qotgan shaxs majburiy ko'chuvchi sifatida tan olinishi mumkin. Lekin, bunda shunday holatlar e'tiborga olinishi kerakki, ularni qochoq maqomi amaldagi davrida mamlakat hududida joylashishiga xalaqit beradigan holatlar e'tiborga olinishi zarur.

**Majburiy ko'chuvchi** sifatida xohlagan mamlakat fuqarosi ham tan olinishi mumkin, u mamlakatning biror bir sub'yektidagi yashash joyini almashtirishga majbur bo'lgan va boshqa sub'yektga ko'chib o'tgan yoki xorijiy davlat hududidagi yashash joyini tashlab ketishga majbur bo'lgan va mamlakatiga kelgan shaxs bo'lishi mumkin. Ular qatoriga qonuniy asoslarga ko'ra O'zbekiston hududida doimiy yashovchi va uning chegaralari doirasida yashash joylarini o'zgartirgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo'q bo'lgan shaxslar ham kirishi mumkin.

Tinchlikka, insoniylikka nisbatan jinoyat sodir qilgan yoki boshqa og'ir qasddan jinoyat qilgan shaxslar majburiy ko'chuvchi sifatida tan olinmaydi.

**Ichki ko'chirilgan shaxslar** — mamlakat hududida doimiy yashovchi, millatlararo janjallar natijasida doimiy yashash joylarini tashlab ketgan, lekin majburiy ko'chuvchi maqomiga ega bo'lmagan fuqarolardir.

Agar gap tashqi migratsiya haqida ketadigan bo'lsa, uning yana bir ko'rinishi — noqonuniy (yashirin) migratsiyani ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bu holat noqonuniy bo'lib, qonunni buzish bilan bog'liq. Bunday migratsiyaning sub'yektlari — nazorat qilinmaydigan shaxslar va noqonuniy migrantlar hisoblanadi. Shuningdek, noqonuniy migrantlarga mamlakatga noqonuniy kirib kelayotgan xorijlik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar; maqsadlari ma'lum qilingan istaklariga muvofiq bo'lmagan shaxslar ham kiradi. Bunda noqonuniy migrantlar — bu qonuniy va noqonuniy asoslarda, keyinchalik noqonuniy holatga o'tayotgan va noqonuniy ishga joylashayotgan, boshqa mamlakatga ish topish maqsadida kirib kelayotgan shaxslar (turist sifatida va h.k. sabablarga ko'ra xususiy chaqirilayotgan shaxslar) ham kiradi.

**Mehnat migratsiyasi** — bu mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida doimiy yashayotgan odamlarning bir hududdan ikkinchi hududga (mamlakatga) qonuniy asoslarda ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tishidir. Tashqi mehnat migratsiyasining sub'yektlari bo'lib fuqaroligi bo'lmagan davlatda mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan va amalga oshirayotgan shaxslar hisoblanadi. Tashqi mehnat migratsiyasi xorijlik ishchilarni ishga jalb qilish va o'z fuqarolarini boshqa mamlakatlarga jo'natish bilan bog'liqdir. Xalqaro mehnat tashkilotining baholariga ko'ra, har yili ish qidirib 20 mln.ga yaqin qonuniy migrantlar dunyo bo'yicha ko'chib yuradi va ushbu jarayon 100 dan ortiq mamlakatni qamrab oladi.

Mehnat migratsiyasi aholining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'nikishining shakli sifatida, ba'zan aholining ayrim qismining farovonligini oshirishning yagona imkoniyati sifatida yuzaga chiqadi. Unga turli kasb, ijtimoiy maqom, jins, yosh va ta'lim darajasiga ega odamlar tortilgan.

Mehnat migratsiyasi haqida keyingi paragraflarda batafsil to'xtalib o'tamiz.

**Migratsiya shakllari.** Migratsiya amalga oshirilish shakllari bo'yicha ijtimoiy-tashkillashtirilgan (davlat yoki ijtimoiy organlar ishtirokida va ularning iqtisodiy ko'magi yordamida amalga oshiriladigan) va ijtimoiy-tashkillashtirilmagan (individual, ya'ni tashkilotlarning tashkiliy va moddiy yordamisiz migrantlar o'zlarining mablag'lari va kuchlari hisobiga amalga oshirilgan) shakllarga bo'linadi.

**Migratsiya sabablari.** Migratsiyani sabablar bo'yicha tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy va iqtisodiy, ularni ko'pincha ajratish qiyin bo'ladi (bo'sh qishloq xo'jalik yerlari va ish qidirish bilan bog'liq ko'chishlar; yuqoriroq daromadlarni qidirish bilan; turmush tarzini o'zgartirish maqsadida qishloqdan shaharga ko'chib o'tish va aksincha; yanada yuqoriroq ijtimoiy maqomga ega bo'lish va h.k.larga ko'ra ko'chishlar);

- siyosiy - siyosiy ta'qiblardan, irqiy va diniy siquvlardan qochish, siyosiy sharoitlar yoki davlat chegaralarining o'zgarishi bilan bog'liq repatriatsiya (qochoqlar va ko'chirma bo'lganlarning o'z vataniga qaytishi);

- harbiy - evakuatsiya, reevakuatsiya va deportatsiya;

- etnik (milliy);

- demografik (oilalarni birlashtirish, nikoh migratsiyasi);

- tabiiy sharoitlar (iqlim);

- ekologik sharoitlar — atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik halokatlar natijasida aholi ko'chib ketishga majbur bo'ladi.

**Migratsiya bosqichlari.** Migratsiya jarayoni uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich — ko'chish to'g'risida qaror qabul qilish.

Ikkinchi bosqich — bevosita hududiy ko'chish. U davlat, turli jamoat tashkilotlari yordamida yoki mustaqil amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchi bosqich — migrantlarning yangi yashash, ish joyiga va mos ravishda ularning samarali hayot va mehnat faoliyatiga

ko'nikishi. Bu bo'yicha barcha migrantlarni sprinter va stayer-migrantlarga ajratish mumkin (bu yerda gap noodatiy va og'ir iqlimiy sharoitlari bo'lgan hududlarga ko'chish haqida ketmoqda). Sprinter-migrantning yangi joydagi mehnati faqat birinchi 2-3 oyliklarda samarali bo'ladi va ularning keyingi ko'nikishi qiyinchiliklar tug'diradi. Stayer-migrantlarda esa mehnatning samaradorligi me'yorlashadi, bir necha oylar mobaynida oshib boradi va ko'nikish jarayoni borgan sari engillashib hamda tezlasha boradi. Migrantlarni aynan shu turkumidan hududning doimiy aholisi shakllanishi va mehnat migratsiyasining samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin.

## **10.2. Migratsiyani hisobga olish usullari va ko'rsatkichlari**

Aholi migratsiyasini hisobga olish nihoyatda murakkab masalalar qatoriga kiradi. Migratsiya haqidagi ma'lumotlar manbaiga asoslanib, uni hisobga olish usullarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh migratsiyani hisobga olish usullarining bevosita usullariga asoslanib, ularning asosida migratsion jarayonlarni joriy ro'yxatga olish. Bu yerda migrantlarni ketish va kelish joyidagi har bir alohida harakatlanish vaziyatlarini bevosita ro'yxatga olish nazarda tutilmoqda. Lekin, ushbu ma'lumotlar aholini tabiiy harakatlanishi dalolatnomalarini ro'yxatga olishga nisbatan reprezentativligi ancha past. Shuning uchun keluvchilar va ketuvchilar o'rtasidagi farq sifatidagi migratsiyaning saldosi aniqlash har doim ham ishonchli bo'lavermaydi.

Bunday holatda migratsiyani hisobga olishning bilvosita usullari qo'llaniladi, ular hisob-kitob xususiyatiga ega va aholini ro'yxatdan o'tkazish hamda tanlama tadqiqotlarga asoslanadi. Masalan, har bir bolaning tug'ilgan joyidagi aholini ro'yxatdan o'tkazishda amalga oshirilgan ro'yxatga olishga asoslanadi. Tug'ilgan va yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni solishtirib mahalliy bo'lmagan yashovchilarning son ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin va u migratsiya saldosi bilvosita tavsiflab beradi.

Migratsiyaning miqdoriy tahlili uning o'lchamini aniqlashdan boshlanadi. Migratsiya o'lchamlari ikki nuqtai nazar bo'yicha ko'rib chiqilishi mumkin:

1. Har bir ochiq aholi uchun uni boshqa ochiq aholi bilan migratsion o'zaro aloqadorligini tavsiflab beruvchi ko'rsatkichlarni belgilab olish mumkin. Bu yerda hudud chegaralaridan tashqariga ketuvchilarning va chegaralar tashqarisidan kelayotganlarning umumiyi nazarda tutiladi (tashqi migratsiyaga nisbatan aytilganda emigratsiya va immigratsiya haqida gap ketadi). Keluvchilar va ketuvchilar soni o'rtasidagi farq «sof migratsiya» deb yuritiladi (netto-migratsiya yoki migratsiya saldos). Keluvchilar va ketuvchilar sonining yig'indisini «**yalpi migratsiya**» deyiladi (yoki brutto-migratsiya).

2. Har bir aholi uchun ushbu aholi harakatchanligining umumiy darajasini ko'rsatib beruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin. Harakatchanlikning ushbu ko'rsatkichlari:

- yopiq (berk) aholi uchun harakatchanlik kelish va ketish miqdoriga to'g'ri keladi;
- ochiq aholi uchun harakatchanlik berilgan hudud chegarasi tashqarisidan kelish va ketishlarning barcha sonining yig'indisiga teng.

Migratsion jarayonlarni yanada to'liqroq tahlil qilish uchun ko'pincha uning oqimlarini differentsiatsiya qilish va ularni qiyosiy tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi.

Umumiy migratsiyani differentsiatsiya qilish asosiga turli alomatlar qo'yilishi mumkin (masalan, migrantlarning demografik, ijtimoiy, kasbiy kabi turli tavsiflariga bog'liq ravishdagi alomatlar). Turli yosh guruhlaridagi ayollar va erkaklarning, shahar va qishloq aholisining migratsiyasini ko'rib chiqish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar mutlaq kattaliklarni aks ettiradi. Lekin, ular jarayonning jadalligini aks ettirmaydi. Shuning uchun nisbiy kattaliklarni — migratsiyaning jadallik ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish lozim bo'ladi.

Migratsiyaning jadallik koeffitsienti migratsiya o'lchamining ko'rilayotgan hudud aholisining umumiy miqdoriga nisbati sifatida hisoblab chiqiladi. Aholining tabiiy harakati koeffitsienti singari u har ming kishiga (promille) nisbatan hisoblanadi.



Shunday qilib, aholining migratsiya jarayonlarini hisobga olishda bevosita va bilvosita usullardan, migratsion jarayonlarni to'liqroq tahlil qilish maqsadida esa migratsiyaning jadallik koef-fitsientidan foydalaniladi.

### 10.3. Mehnat migratsiyasi

**Mehnat migratsiyasi** deganda, odatda mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq makoniy ko'chib yurishi tushuniladi.

Halqaro Mehnat Tashkilotining tasnifi bo'yicha mehnat migratsiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

- **shartnoma asosida ishlovchilar.** Bu holda migrantlarni qabul qiluvchi davlat tomonidan ularning mazkur mamlakatda bo'lish muddatlari aniq belgilab qo'yiladi. Migratsiyaning mazkur turi asosan ish kuchini mavsumiy (masalan, qishloq xo'jaligi, qurilish) ishlarga jalb qilish bilan bog'liqdir;

- **malakali kadrlar migratsiyasi.** Migratsiyaning bu turiga yuqori malakali mutaxassislar yoki ishchilarni imtiyozli tartibda (yuqori ish haqi, boshqa imtiyozlar hisobiga) ishga taklif qilinishi misol bo'la oladi;

- **noqonuniy migratsiya.** Bu noqonuniy ravishda boshqa mamlakatlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdir;


- **qochoqlar.** Migratsiyaning bu toifasiga hayoti xavf ostida qolishi oqibatida boshqa joylarga ko'chishga majbur bo'lganlar kiradi;

- **ko'chmanchilar.** Ular doimiy yashash uchun boshqa joyga ko'chib borganlardir.

Mehnat migratsiyasi hudud, ish kuchi malakasi, davomiyligi bo'yicha hamda qonun jihatidan tasniflanadi (10.1-rasm).

Hudud bo'yicha ichki va tashqi mehnat migratsiyasi bir-biridan farqlanadi. Ichki mehnat migratsiyasi bir mamlakat miqyosida, mintaqalar, tuman va shaharlar o'rtasida bo'ladi. «Tashqi mehnat migratsiyasi» deyilganda ish kuchining bir davlatdan boshqa davlatga ko'chib o'tishi tushuniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi;



10.1-rasm. Mehnat migratsiyasi tasnifi.

Manba: Зокирова Н., Абдурахмонов О. Инқироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. - Т.: Fan va texnologiya, 2009. - 177 б.

- rivojlangan mamlakatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi.

Ish kuchlari malaka bo'yicha yuqori malakali hamda past malakali ish kuchlari migratsiyasiga bo'linadi.

Mehnat migratsiyasi davomiyligiga qarab:

- doimiy yoki uzoq muddatga mo'ljallangan (boshqa mamlakatga doimiy ko'chib ketish yoki qishloq joylaridan shaharga doimiy yashashga ko'chib ketish);
- vaqtinchalik (masalan, shartnoma asosida boshqa mamlakatga muayyan davrga ishlash uchun borish);

- mavsumiy (masalan, qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etish);
- tebranuvchan (ish kuchining bir hududdan ikkinchisiga, masalan qishloq joylaridan shaharlarga muntazam qatnab ishlashi).

Mehnat migratsiyasi qonuniy, ya'ni mamlakatda amal qilayotgan qonunchilik, xalqaro huquq me'yorlari, davlatlararo huquqiy bitimlar asosida hamda noqonuniy bo'lishi mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi ommaviy tus olgan. Masalan, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlariida ekspertlar xulosalariga ko'ra, mehnat migrantlari ish bilan band bo'lgan aholining taxminan 4,0-5,0 foizini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda noqonuniy, ya'ni ro'yxatga olinmasdan mehnat faoliyatini olib borayotgan migrantlar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha faol davlat siyosati amalga oshirilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 12 noyabrdagi 505-son qaroriga muvofiq mamlakat fuqarolarining xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirish tamoyillari belgilab berilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakat qonun hujjatlariga muvofiq hukumatlararo, idoralararo shartnoma va bitimlar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqish huquqiga ega. Xususi mehnat shartnomalari bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarda ishlash uchun faqat O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar bo'yicha chiqish mumkin.

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi mamlakatda ish kuchining tashqi migratsiyasini tartibga solish va boshqarish bo'yicha vakolatli davlat tuzilmasi hisoblanib, uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mehnat migratsiyasi sohasidagi xalqaro hamkorlik loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda va xorij fuqarolarini O'zbekiston Respublikasida ishga joylashtirish uchun kvotalar ajratish va ruxsatnomalar berish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qilish;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini ro‘yobga chiqarishda ishga joylashtirish, xorijda ishga joylashtirishga nomzodlar bilan dastlabki ko‘nikuv tadbirlarini o‘tkazish yo‘li bilan ularga ko‘maklashish;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijlardagi va xorijlik fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasidagi mehnat faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

- fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha xo‘jalik hisobidagi mintaqaviy byurolar, shuningdek, xorijga ketayotgan fuqarolarni oldindan ko‘niktirish va o‘qitish markazi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- xorijiy ish kuchlarini yollovchi xorij firmalari (korxonalar, muassasalar, kompaniyalar) bilan hamkorlikni rivojlantirish;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorij mamlakatlariga jo‘natish uchun nomzodlarni tanlab olish bo‘yicha idoralararo komissiyaning qaroriga muvofiq ruxsatnomalar berish yoki mavjud ruxsatnomalarning amal qilish muddatini uzaytirish;

- yuridik shaxslarga xorijiy ish kuchlarini jalb etish uchun ruxsatnomalar berish yoki mavjud ruxsatnomalar amal qilish muddatini uzaytirish.

Shu bilan bir qatorda Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha agentlik mamlakat fuqarolarining xorijda ishga joylashtirish uchun kvotalar ajratish masalalarini hal etadi. Bu to‘g‘risida tegishli mamlakatlar migratsiya xizmatlari bilan shartnoma va bitimlar tuzadi hamda ularning bajarilishini muvofiqlashtirib boradi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari takliflariga muvofiq tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tahlil etadi, aholi mehnat migratsiyasini rivojlantirishning uzoq muddatli va o‘rta muddatli prognozlarini hisobga olgan holda xorijiy fuqarolarga mamlakat hududida mehnat faoliyatiga tasdiqnomalar beradi. Shuningdek, agentlik Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy organlari bilan birgalikda xorijga yuborilgan fuqarolar mamlakatga qaytganlaridan

keyin ishga joylashtirilishini tashkil etadi. Shu bilan birga, u xorijiy mamlakatlarning mehnat bozorini o'rganadi, chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirishni xohlovchi fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantiradi.

Shunday qilib, fuqarolarning chet ellardagi mehnat faoliyatida ularning huquqiy, ijtimoiy, sog'liqni saqlash masalalari qonuniy ta'minlanishi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan bir qatorda mintaqalardagi fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish bo'yicha xo'jalik hisobidagi byurolar zimmasidadir.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. «Migratsiya» so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. «Aholi migratsiyasi» deganda nimani tushunasiz?
3. Migratsiyaning qanday turlarini bilasiz?
4. Aholi migratsiyasining qanday shakllari mavjud?
5. Migratsiyaning sabablarini tushuntirib bering.
6. Migratsiyani hisobga olishning qanday usullarini bilasiz?
7. Aholi migratsiyasining ko'rinishlarini sanab bering.
8. Xalqaro Mehnat Tashkilotining tasnifi bo'yicha mehnat migratsiyasi qanday turlarga ajratiladi?
9. O'zbekistonda mehnat migratsiyasi masalalari bilan qaysi tashkilot shug'ullanadi?
10. «Sprinter-migrant» va «stayer-migrant» tushunchalarining farqini tushuntiring.

## 11-bob. OILA VA UNING DEMOGRAFIK TARAQQIYOTI

### 11.1. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi

Oila jamiyat ijtimoiy tizimining dastlabki va birlamchi bo'g'inidir. Ijtimoiy hayot oiladan boshlanadi. Oila – kishilarning qon-qarindoshlik, mulk, manfaat umumiyligi va talab-ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo'lgan mikroijtimoiy tuzilmadir. Iqtisodiy jihatdan qaraganda oila uy xo'jaligi bo'lib, mikroiqtisodiy tizimning asosiy bo'lagi hisoblanadi. Uning boshqa qismini esa firma, korxon va iqtisodiy sektor tashkil etadi. Oila shu qismlar bilan birgalikda makroiqtisodiy tizimga, ya'ni milliy iqtisodiyotga birikadi (11.1-rasm).




11.1-chizma. Iqtisodiy tizimda oila.

Demografik amaliyotda oila bir necha belgilari bilan birlashgan quyidagi shaxslar guruhini tashkil qiladi: birgalikda yashash; qarindoshlik yoki quda-andalik munosabatlari; umumiy budjetning mavjudligi.

11.2-rasmda oila shakllanishining ijtimoiy, iqtisodiy va demografik asoslari keltirilgan.

Oila eng muhim ijtimoiy yacheyka sifatida ko'plab ijtimoiy fanlar (sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot, huquq, etnografiya, pedagogika, demografiya)ning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Bu fanlardan har biri predmetiga muvofiq ravishda oilaning faoliyati va rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini tadqiq qiladi. Jumladan, iqtisodiyotning diqqat markazida iqtisodiy, ishlab chiqarish va iste'molchilar yacheykasi sifatida oila yoki uy xo'jaligi turadi.



11.2-rasm. Oila shakllanishining ijtimoiy, iqtisodiy va demografik asoslari.

Sotsiologiya nikohga asoslangan va muayyan ishlarni bajaruvchi ijtimoiy institut sifatida diqqat qaratadi.

Demografiya esa oilani aholining takror barpo bo'lish yacheykasi sifatida o'rganadi, shu munosabat bilan birinchi o'ringa uning reproduktiv mayli, oilaning hosil bo'lish va rivojlanish jarayonining o'zi yoki uning demografik rivojlanishi ko'tariladi. Boshqacha qilib aytganda, demografiya oilaning hayotiy siklini o'rganadi. U qator davrlarga bo'linadi:

- oilaning paydo bo'lishi (birinchi nikohdan o'tish);
- farzand tug'ilishining boshlanishi (birinchi farzandning tug'ilishi);
- farzand tug'ilishining tugashi (oxirgi farzandning tug'ilishi);
- «bo'sh uya» — oxirgi farzandning nikohga kirishi va oiladan ajralib chiqishi;
- oila hayotining tugashi.

Oilani hayot siklining boshqa versiyalari ham mavjud bo'lib, ularni quyidagi davrlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

- sirdoshlik, yaqinlik: er-xotinlarning shakllanish bosqichidagi o'zaro munosabatlar. Bu davrdagi vazifa — bir-biriga ko'nikish, moslashishdir;

• to'lishish, boyish: oilada farzandlarning dunyoga kelish davri. Vazifa — oila a'zolarida tarbiyaviy qobiliyat va imkoniyatlarni rivojlantirish;

• individuallashish, oila a'zolarining ajralib chiqishi: oiladagi bolalar maktabga bora boshlagan payt. Vazifa — ota-onalar shaxsini bola shaxsidan ajratib olish va oilada ham, undan tashqarida ham yordam ko'rsatish;

• o'rtoqlik munosabatlari: oilada o'smir bolalar mavjud bo'lgan davr. Vazifa — bola va ota-ona o'rtasida uning o'sib borayotgan mustaqilligini tushunishga asoslangan munosabatlarni o'rnatish;

• qayta guruhlanish: voyaga yetgan farzandlar ota-ona uyini tashlab ketadi. Vazifa — avlodlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'zgartirish, ota-onalar va bolalar o'rtasida «kattalar kattalar bilan» singari o'zaro munosabatlarga o'tish;

• tiklash — oilada ota-ona tashvishlari to'la yo'qoladi. Vazifa — bolalarsiz er-xotin juftligi munosabatini tiklash. Bolalar va ota-onalar munosabatlari ham o'zgarib ketadi;

• o'zaro qo'llab-quvvatlash — ota-onalar pensiyada, er-xotin ko'pincha buva va buvi bo'lib qoladi. Vazifa — avlodlar o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish.

Iqtisodiyotda «uy xo'jaligi» degan tushuncha bor, lekin buni ro'zg'ordagi xo'jalik ishlari deb tushunish noto'g'ri. Bu tushuncha iqtisodiy faoliyat yurituvchi xonadonni anglatib, bunda oilasizlar va oilalar tushuniladi. Uy xo'jaligining aksariyat qismini oila tashkil etadi. Bu xo'jalik iqtisodiyotning faol subyekt, ya'ni ishtirokchisi bo'lib, u iqtisodiy oborotda qatnashadi. Bu oborot mazmunan jamiyatda yaratilgan mahsulotlar, xizmatlar va ular qiymatining ifodasi bo'lgan pul mablag'larining aylanma harakatining bildiradi. Masalan, oila resurs bozoriga o'z tovarini: ish kuchi, ko'chmas mulki, yeri (agar u xususiy bo'lsa) va kapitalini chiqarib sotadi hamda evaziga pul oladi. Oilaga tegishli resurslarni firmalar va davlat sotib oladi. Oila o'z qo'liga tekkan pulga mahsulot va xizmatlar bozoriga firmalar yetkazib bergan tovarlarni, firmalar aksiyasini sotib oladi va shu hisobidan dividendga ega bo'ladi.

Oilaning davlat bilan munosabati o'ziga xosdir. Oilaning daromad keltiruvchi a'zolari davlatga soliq to'laydilar va shu



hisobidan davlatning ijtimoiy xizmatlaridan (xavfsizlik, obodonchilik, bilim olish, davolanish) foydalanadi.

Iqtisodiyotning bir maromda rivojlanishi uchun resurslar, eng avvalo, ishchi kuchi zarur bo'lib, ularni oila etkazib beradi. O'z navbatida yaratilgan mahsulot va xizmatlar sotilishi hamda iste'molga kelib tushishi kerak. Iste'molchilar esa oilada jamlangan, chunki kamdan-kam hollarda iste'molchi oiladan tashqarida yashovchi yakka kishilardan iborat bo'ladi. Oila mahsulotlarni xarid etmasa, ishlab chiqarish to'xtab qoladi, chunki ular sotilmaydi.

Oilaning faoliyatiga firmalar ishi, davlat tuzumining barqarorligi ta'sir qiladi. Oilani mikroiqtisodiyotning bir ko'rinishi deb qaraladi. Mikroiqtisodiyot makroiqtisodiyotga (milliy iqtisodiyotga) bog'liq bo'ladi. Shu sababli oilaning milliy iqtisodiyot uchun ahamiyati katta va buni oilaning iqtisodiy vazifalarida ko'rish mumkin. Bu vazifalar shartli ravishda 3 qismga ajratiladi:

1. Mehnat resurslarini yetkazib berish.
2. Iste'mol etish va uy xo'jaligini yuritish.
3. Ishlab chiqarish.

Iqtisodiyotda "inson kapitali" degan tushuncha bor. Bu insonning aqliy va jismoniy qobiliyati bo'lib, ishchi kuchi shakliga ega. Oilada bola tug'iladi, tarbiya topib voyaga yetadi va mehnat resurslariga kelib qo'shiladi. U ulg'aygach, moddiy ne'matlar va xizmatlar yaratishda qatnashadi hamda jamiyatning iqtisodiy salohiyati va uning milliy boyligini oshirishga hissa qo'shadi.

Oilada inson kapitalini shakllantirish farzandning tug'ilishidan boshlanadi. Farzand voyaga yetib oyoqqa turgunicha, oiladan anchagina moddiy va mehnat sarfini talab qiladi. Jamiyat rivojlangan sari bolalar tarbiyasi oila uchun serxarajat ishga aylanadi, shu sababli ota va ona bolalar sonining me'yorli bo'lishiga intiladi. Inson kapitalini shakllantirish bolalarni yedirib-ichirish va kiyintirish bilan cheklanmaydi, balki ularni mustaqil hayotga tayyorlash, iqtisodiy sharoitga moslashtirishni ham bildiradi. Oila zimmasiga ulg'aygan bolalarni amaliy ishga jalb etish ham yuklatiladiki, bu ularni oilaviy biznesga tortish, uy xo'jaligini yurgizishga jalb etish va yollanib ishlab pul topishni ham taqozo etadi.

## 11.2. Oilaning vazifalari, tarkibi va turlari

Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik mohiyati oila vazifalari, uning tarkibi kabi tushunchalar orqali ifodalanadi.

Oilaning vazifalari jamiyat, oila va uning barcha a'zolarining o'zaro birgalikdagi harakati tizimini aks ettiradi. Har qanday jamiyat faoliyati uchun oilalar ham umuminsoniy rolni, ham undan jamiyat talab qiladigan qator eng muhim rollarni bajarishlari kerak. Bu umuminsoniy ehtiyojlarning dastlabki ta'minoti, bolalar tarbiyasi, ijtimoiy, madaniy an'analarning davom ettirilishidir. 11.1-jadvalda oilaning asosiy vazifalari keltirilgan.

Oilaning eng muhim vazifasi — bu har doim farzandlarning tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan. Bola shaxsi, uning hayoti ijtimoiy munosabatlar ta'siri ostida shakllanadi. Biroq, otionalarning madaniyat, shu jumladan, axloqiy madaniyat darajasi, ularning hayotiy rejaları va intilishlari, ijtimoiy aloqalari va oilaviy an'analari shaxsning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Farzandning ko'pgina shaxsiy sifatleri (or-nomus, qadr-qimmat, oliyanoblik, mehnatsevarlik, yaxshilik, sobitqadamlik) oilada shakllanadi va rivojlanadi.

1990-yillargacha oilaning ishlab chiqaruvchilik vazifasi cheklangan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdan iborat bo'lgan. Bu faoliyat (ayniqsa, ayollarniki) bolalar tarbiyasi, dam olish, mulkni boshqarish va uni meros bo'yicha berishning faqat qisman imkoniyati, sezilarli darajada oila o'rnini bosuvchi ijtimoiy ta'minot, bolalarni jamoatchilik asosida tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi oilaning mamlakat iqtisodiyoti va rivojlanishidagi ahamiyatining o'sishiga olib keldi. So'nggi yillarda oilaning iqtisodiy vazifasi o'zgarishining asosiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- amalga oshishida oilaning barcha a'zolari ishtirok etadigan oilaviy biznesning rivojlanishi;
- qator xo'jalik-maishiy faoliyat turlarining oiladan tashqaridagi institutlardan qaytadan oilaga qaytishi;
- ayollarning oilaviy ishlab chiqarishga qaytishi;

## Oilaning asosiy vazifalari

Oilaviy faoliyat shakli	Jamoaviy vazifalar	Individual vazifalar
Reproduktiv	Jamiyatning biologik takror barpo bo'lishi	Farzandlarga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi
Tarbiyaviy	Yosh avlodning ijtimoiylashuvi. Jamiyatning madaniy uzluksizligini ta'minlash	Ota-onalikka, farzandlar bilan muloqotga, ularni tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi
Xo'jalik-maishiy	Jamiyat a'zolarining jismoniy sog'lig'ini saqlash	Oilaning bir a'zosining ikkinchisiga xo'jalik-maishiy xizmat ko'rsatishi, farzandlarni parvarish qilish
Iqtisodiy	Jamiyatning voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz a'zolarini iqtisodiy ta'minlash	Oilaning bir a'zosining ikkinchisidan moddiy yordam olishi (mehnatga layoqatsizlik holatlarida)
Ma'naviy muloqot	Oila a'zolarining shaxsini rivojlantirish	Oila a'zolarining ma'naviy yuksalishi.
Ijtimoiy-maqom	Oila a'zolariga ma'lum ijtimoiy maqomning berilishi. Ijtimoiy tarkibning takror barpo bo'lishi	Ijtimoiy intilishga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi
Dam olish	Oqilona dam olishni tashkil etish. Dam olish sohasida ijtimoiy nazoratni amalga oshirish	Oila a'zolarining birga dam olishga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilishi, dam olishga bo'lgan qiziqishlarning o'zaro boyitilishi
Emotsional (psixoterapevtik)	Shaxsning emotsional barqarorlashuvi, ularni ruhiy davolash	Oiladagi individlarga ruhiy yordam berish, emotsional qo'llab-quvvatlashni ta'minlash.
Jinsiy	Jinsiy nazorat	Jinsiy ehtiyojlarning qondirilish
O'zini-o'zi muhofaza qilish	Oila a'zolarini xavfsiz, sog'lom, to'laqonli yashashlarini ta'minlashga asoslangan oilaviy vazifalar balansi	Individual va jamoaviy yashashning ehtiyojlarini qondirish va mahalliy hamjamiyat qiziqishlarining asosini tashkil qilish

• bolalarning ota-onalar ixtiyoriga iqtisodiy jihatdan kechroq berilishi va ota-onalarning o'z farzandlaridan shaxsiy yordamchi xo'jalikda, kichik biznesda xodim sifatida borgan sari ko'proq foydalanishlari va bundan manfaatdorligining bir paytning o'zida borayotgan jarayoni chog'ida, oila tomonidan ularga harajatlarning ko'payishi;

Oila va uy xo'jaliklarini ishlab chiqarish hamda iqtisodiy faoliyatiga ko'ra ishlab chiqaruvchilik va noishlab chiqaruvchilik turlariga ajratish mumkin.

Uy xo'jaliklarining ishlab chiqaruvchilik vazifasi o'z ichiga quyidagilarni oladi:

• shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni yuritishni, ya'ni qishloq xo'jaligi, jumladan, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini uy xo'jaligida yetishtirish, iste'mol qilish va tashqarida sotish, ishlab chiqarish uchun barcha turdagi yer maydonlaridan (tomorqa, bog', dala-hovli, poliz, hovli) foydalanishni;

- kasanachilikni rivojlantirishni;
- aholiga turli xil maishiy xizmatlarni ko'rsatishni;
- oilaviy biznesni.

Iqtisodiy noishlab chiqarish vazifalari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

• oilaviy lizing, ya'ni uy-joy maydonlarini, dala-hovlilarni, yerlarni, uzoq muddat foydalaniluvchi predmetlarni, asbob-uskunalarni, avtomobillarni, garajlarni ijaraga berish;

• qimmatli qog'ozlar va valyuta sotib olish hamda ulardan foydalanish, banklarga omonatlar qo'yish bilan operatsiyalarni amalga oshirish.

Oila bozor xo'jaligida xaridorning kuchi yetadigan tovarni yaratishning eng muhim omilidir. Ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar, boshqa daromadlar oila darajasida uning a'zolari miqdoriga, ularning ijtimoiy-demografik xususiyatlariga muvofiq qayta taqsimlanadi, bu o'z navbatida, ularni aynan oila a'zolari sifatida iste'mol qilishga ta'sir qiladi.

Shunday qilib, oila vazifalarining bajarilishi bir-biri bilan bog'liq holda ro'y beradi. Ular o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Rivojlanish jarayonida oila vazifalari bir-biriga omil sifatida ta'sir etadi. Masa-

lan, oilada farzandlar tug'ilishi. Oilada farzandning sog'-salomat tug'ilishi ona salomatligiga, ona salomatligi va tug'ilgan farzandning sog'lom o'sishi esa oilaning iqtisodiy vazifasining bajarilish darajasiga, ya'ni moddiy ta'minlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Oilada tug'ilgan farzandning etuk inson bo'lib shakllanishi oilaning ta'lim-tarbiyasiga, bola dunyoqarashining shakllantirilishiga, ya'ni oilaning ijtimoiy vazifalarining bajarilishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, oilada farzandlar sonining oshib borishi ham oilaning iqtisodiy vazifalarining bajarilish darajasiga ta'sir etadi. Boshqacha qilib aytganda, oilada istiqomat qilayotgan oila a'zolarining ko'payib borishi oilaning moddiy imkoniyatini ko'tarishni, ya'ni oilaning iqtisodiy vazifasini bajarish darajasini tezlashtirishni talab etadi. Yoki oilaning ijtimoiy vazifasini olib ko'raylik. Oilada farzandga berilgan ta'lim-tarbiya uning dunyoqarashining shakllanishida, hayotga, yashashga bo'lgan munosabatlarida asosiy omildir.

Farzand oila muhitida katta bo'lar ekan, uning barcha xulq-atvori, atrof-muhitga, oilaga bo'lgan munosabati, kelajakda o'zining oila qurishi, farzandlar ko'rishi haqidagi fikrlari shakllanib boradi. Agar oilaning ijtimoiy vazifasi ijobiy bajarilsa, ya'ni bolada oilaga, ota-onaga, keksalarga hurmat, o'zaro yordam kabi xislatlar shakllansa, u kelajakda oila qurgach, o'zi ham farzandlarini xuddi shunday tarbiyalashga intiladi. Demak, yangi avlodning oila qurishida, yangi oilaning shakllanishida oiladagi ijtimoiy vazifalarning bajarilishi asosiy omillardan biri hisoblanadi<sup>1</sup>.

«**Oila tarkibi**» deganda, uning a'zolari o'rtasidagi qarindoshlik, ma'naviy, axloqiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Oilalarning avtoritar va egalitar tarkibi mavjud. **Avtoritar oilalar** xotinning erga qat'iy bo'ysunishi va odatda, ota-onalar va bolalarning o'zaro munosabatlaridagi qattiq intizom bilan ajralib turadi. **Egalitar oilalar** er-xotinning shaxsiy sifatlari va qobiliyatlariga muvofiq taqsimlanishiga, ulardan har birining qarorlar qabul qilishda teng ishtirok etishlariga, vazifalar va bolalar tarbiyasining ixtiyoriy taqsimotiga asoslangan.

---

<sup>1</sup> Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. — T.: Universitet, 1997. — 10-11 b.

**Oilaning turlari.** Oilalar demografik tarkib va qarindoshlik munosabatlariga bog'liq ravishda turlarga ajratiladi.

Oilalar ichida eng keng tarqalgan turi — bu oddiy (nuklear) oilalar bo'lib, bunday oilalar farzandli yoki farzandsiz er-xotin juftligidan iborat oilalar hisoblanadi. Ota va onaning bolalar bilan qarindoshligi, aka-ukalar va opa-singillar o'rtasidagi qarindoshlik er-xotinlikning nuklear asosiga qo'shimchadir, shuning uchun demograflar ularni ba'zan er-xotinlik oila deb atashadi.

Agar oiladagi bolalardan ba'zilari nikohga kirgan bo'lsa, kengaygan yoki murakkab oila hosil bo'ladi. U birga yashaydigan va umumiy xo'jalik bilan bog'langan uch yoki undan ko'p avlodlarni, ularning bitta yoki har xil avlodga tegishliligi yoki tegishli emasligidan qat'iy nazar o'z ichiga oladi. Kengaygan oilada ota-onalar va bolalarning, aka-ukalar va opa-singillarning qon-qarindoshligi ta'kidlab ko'rsatiladi, shuning uchun ularni ba'zan qon-qarindoshlar deb ataladi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, kengaytirilgan oila barham topayotgan oila turi hisoblanadi. Chunki, sanoat inqilobi katta xo'jalik, ko'p sonli a'zolar, jumladan, bitta uyda yashovchi ko'p bolalar, katta yoshdagi aka-ukalar, opa-singillar, ularning farzandlari, buvalar va buvilar xos bo'lgan ushbu oila turini barbod qiladi. Bitta-ikkita ota-ona va bir necha farzandlardan iborat bo'lgan va qarindoshlar bilan cheklangan aloqalarga ega bugungi nuklear oila sanoatlashtirish natijasidir.

Oilaning boshqa tipologiyalari ham mavjud:

- er-xotinning mavjudligiga ko'ra **tugal** (oilada er va xotin mavjud) va **tugalmas** (er yoki xotinning bittasi yo'q) oilaga ajratiladi;

- oilani yana quyidagi turlarga ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) **patriarxal oila.** Unda ota oilaning rasmiy boshlig'i bo'ladi va hokimiyatni amalga oshiradi;

- b) **matriarxal oila.** Ona rasmiy boshliq hisoblanuvchi shakli.

Oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash ko'pchilik hollarda uning iqtisodiy faoliyati bilan bog'liq. Shu bois, har qanday oila uy-ro'zg'ordagi maishiy muammolarni hamjihatlikda hal etib, o'zini-o'zi iqtisodiy jihatdan ta'minlagan taqdirdagina barqaror

bo'lishi, jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning faol sub'yektiga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, oila jamiyatning birlamchi ijtimoiy-iqtisodiy bo'g'ini hisoblanib, unda aholi daromadlari shakllanadi va uning a'zolarining moddiy-iqtisodiy hamda iste'mol ehtiyojlari qondiriladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, oilalar iqtisodiy ta'minlanganlik darajasi bo'yicha beshta guruhga ajratiladi:

1. Kambag'al oilalar. Bu toifa oilalarda bir kishiga to'g'ri keladigan daromad tirikchilik minimumiga teng yoki undan kam bo'ladi.

2. Kam ta'minlangan oilalar. Oilaning bu turida bir kishiga to'g'ri keladigan daromad tirikchilik minimumidan ko'p, biroq o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'ladi.

3. Ta'minlangan oilalar. Bu oilalarda bir kishiga to'g'ri keladigan daromad o'rtacha ko'rsatkich atrofida bo'ladi.

4. To'q oilalar — daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori.

5. Boy oilalar. Bu toifa oilalarga daromadi oqilona iste'mol budjetidan yuqori bo'lgan oilalar kiradi.

Oilada er-xotin va farzandlarning manfaatlari uyg'unlashib, ularning sa'y-harakati bilan pul topib, ro'zg'or tebratish kabi iqtisodiy vazifalar bajariladi. Buning natijasida oilaning iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, oilaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning bir qator tamoyillari borki, ularga rioya etish lozim. Ular quyidagilar:

- oilaning sa'y-harakati barcha oila a'zolari talab-ehtiyojini qondirishga bo'ysunishi talab qilinadi;

- oilaning iqtisodiy faoliyatiga oid qarori demokratik asosda qabul qilinishi kerak;

- oila iqtisodiy ratsionalizm qoidalariga rioya etishi kerak, ya'ni oila o'z farovonligini oshirishning eng nafli yo'lidan borishi kerak;

- muqobil tanlov qoidasiga amal qilish kerak. Oilaning ehtiyoji ko'p bo'ladi, lekin uning topgan daromadi cheklanib, hamma ehtiyojlarni birdaniga qondirishga etmaydi. Shu bois ehtiyojlarning eng zaruri tanlab olinishi va ularning kam sarf bilan qondirilishi lozim bo'ladi;

- iqtisodiy murosaga kelish qoidasiga amal qilish lozim. Bunda oila a'zolari oila farovonligini oshirish uchun kim nima ish qilishi, kimning individual ehtiyojini qachon qondirish haqida bir qarorga kelish va uni hamjihatlik bilan amalga oshirish talab qilinadi;

- oila daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish, ularning bir-biriga muvofiqligini ta'minlab, oila budjetidagi kamomadga yo'l bermaslik kerak.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tamoyillar bevosita oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularga amal qilish oilalar farovonligini oshirishga yordam berishi shubhasizdir.

### **11.3. Oilaning iqtisodiy faoliyati**

Oilaning iqtisodiy faoliyati uning budjetida mujassamlashadi. Oila budjeti oila daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi miqdoriy munosabatdir. Budjet oila qancha daromad topib, qancha xarajat qilganini, aniqrog'i, oilaning kirim-chiqimi, ya'ni moliyaviy ahvolini bildiradi.

Oilada daromadi — bu muayyan davrda (yil, oy) oilaga kelgan barcha moddiy va pul tushumlaridir. Hozir O'zbekistondagi oila daromadi bozor islohotlarining ta'siri va iqtisodiyotning umumiy ahvoriga qarab shakllanadi. Bozor munosabatlari o'tilishi oila daromadining yangi turlariga yo'l ochdi. Islohotlar sharoitida tabiatan yangi bo'lgan bozor daromadlari paydo bo'ldiki, bu asosan tadbirkorlik daromadi, tomorqa daromadi, mulkdan kelgan daromad va bozorga ishlovchi korxonalarda yollanib ishlashdan olingan ish haqidani iborat. Bozor daromadi, bu ishlab topilgan daromad, ya'ni ishchi kuchi, kapital, er yoki boshqa boylikni o'z egasi tomonidan naqadar samarali ishlatilishiga qarab topiladigan daromaddir.

Oilada daromadlari tarkibida tomorqadan olinadigan daromadning o'rni katta. Tomorqa haqida gap ketganda, bu xo'jalik aholining kattagina qismini bozordan mahsulot sotib olishdan xolos etadi, ya'ni tomorqada yaratiladigan mahsulotdan oilaning o'zida ham iste'mol etiladi, bu «natural iste'mol» deb ataladi. Natural iste'mol tufayli oila bozordan mahsulot xarid etish tashvishidan qutiladi,



bu ishning xarajatlaridan ham ozod bo'ladi, shuningdek sifatini o'zi kafolatlagan mahsulotni o'zi iste'mol etadi. Inflyasiya sharoitida oila o'zini-o'zi mahsulot bilan ta'minlashga ko'proq moyildir, chunki jamg'arilgan pul o'z qadrini yo'qotsa-da, jamg'arilgan mahsulotning qadri ortib boradi.

Tomorqa oila daromadi resursi sifatida yaqin orada o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki u mohiyatan bozor xo'jaligidir. Shu sababli uning daromadini ham bozor daromadi deb hisoblash mumkin.

Yollanib ishlash bor yerda mehnat daromadi mavjud bo'ladi. Ish haqi tabiatan mehnat daromadi hisoblanadi. Uning miqdori mehnat samaradorligiga bog'liq, chunki bozor iqtisodiyotida har qanday daromad resurslarning qanchalik unumli ishlatganining natijasi bo'ladi. Shu bois ish haqi miqdori mehnat unumdorligi darajasidan kelib chiqadi. Bu qoida moddiy ishlab chiqarish sohalariga (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport va h.k.) xos bo'ladi. Nomoddiy sohalardagi (ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va h.k.) ish haqi ishlab chiqarishda yaratilgan daromadlarning budjet orqali taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli budjetdan moliyalashtiruvchi tashkilot va muassasalardagi ish haqi budjetning imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

Islohotlar oila daromadi tarkibiga ta'sir etib, undagi ish haqi hissasini pasaytirib yuboradi. Mazkur hodisaning ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Ijobiysi shuki, bozor daromadlari tez o'sgan sharoitda ish haqining oila uchun ahamiyati kamaydi. Ilgarilari oila davlatga qaram bo'lganidan, davlatga nisbatan «bersang — yeyman, ursang — o'laman» qabilida ish tutishgan. Endilikda kishilar erkin bo'lib, o'zlari daromad topish imkoniga ega bo'ldilar. Ilgarilari davlat nima berar ekan deb kutgan ishchi, xizmatchi va dehqonlarning aksariyat qismi tadbirkorlik yo'lga o'tib, bozor daromadiga ega bo'ldilar.

Oilaning nobozor daromadlari — bu bozor qoidalariga bog'liq bo'lmagan, ya'ni yollanib ishlash, kapital va mulkka aloqasi bo'lmagan daromaddir. Bu daromad resurslarini samarali ishlatilishi bilan bog'liq emas, aksincha mavjud resurslar yaratgan daromadni qayta taqsimlab, uning bir qismini ayrim oilalarga

berish natijasida yuzaga keladi. U amalda budjetdan aholiga beriladigan transfert to'lovlari bo'lib, tarkiban pensiya, nafaqa va stipendiyalardan iborat.

Oila o'zining hayotiy ehtiyojlarini qondirishi uchun moddiy mahsulot va xizmatlarni xarid etishi talab qilinadi, binobarin u xarajat qilishi zarur. Oilalarning xarajatlari yakka tartibda olib boriladi, chunki ularda istiqomat qiluvchi kishilarning didi, yoshi, kasbi, jinsi, jismoniy salohiyati, salomatligi farqlanadi va bu oila talabini tabaqalashtiradi. Oila xarajatlari bir tomondan uning ehtiyojiga, ikkinchi tomondan uning daromadiga bog'liq bo'ladi. Ehtiyoj ma'lum miqdordagi mahsulotlar va xizmatlar oila uchun zarurligini anglatadi, ammo ularni xarid etish uchun pul kerak bo'ladiki, uning miqdori daromadga borib taqaladi. Daromad qanchalik ko'p bo'lsa, oilaning xarid qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi, ya'ni oila sarf-xarajatlari ko'payadi.

Oilalar qanchalik farqlanmasin, baribir ular xarajatlarning umumiy jihati borki, bu oiladagi kishilarning umuminsoniy ehtiyoji mavjudligidan kelib chiqadi. Ovqatlanish, kiyinish, bilim olish, madaniy hordiq chiqarish, bolalarni tarbiyalash xarajatlari turli oilalarda miqdoran farqlansa-da, hamma yerda zarur bo'ladi.

Oila xarajatlari uning tarkibiga ham bog'liq. Oilaning ko'p yoki kam bolali bo'lishi, birinchidan, uning jon boshiga daromadini farqlantirsa, ikkinchidan, uning jon boshiga xarajatlari miqdorini va pulning nimaga sarflanishidagi tafovutni keltirib chiqaradi, chunki bolalar soni oilaning kundalik ehtiyojini o'zgartirib yuboradi. Ko'p bolali oilalarda ovqatlanish, kiyinish, bilim olish, transport va tomosha ko'rish xarajatlari yuqori bo'ladi. Bolasi kam oilalarda bu xarajatlarning salmog'i oz bo'ladi.

Oilaning xarajati uning madaniy saviyasiga ham bog'liq. Madaniyat yuqori joyda oila ehtiyoji sog'lom va oqilona bo'ladi yoki aksincha. Oiladagi ko'pchilik noo'rin sarflar uning iste'mol madaniyatining pastligi bilan izohlanadi.

Soliqlar va badal puli kabi to'lovlar oila daromadidan chegirilib, uning xarajatlari tarkibiga kiradi, biroq bu sarf oila ixtiyorida bo'lmaydi. Aksincha, daromadni jamg'arish uchun sarflash oilaning ishidir.

Oila ehtiyojlari qondirilishi muddati jihatidan 3 turli bo'ladi: a) joriy yoki kundalik ehtiyoj, u darhol qondiriladi, chunki uni kechiktirib bo'lmaydi; b) zarur, ammo pul yetishmaganidan qondirilishi kechiktirilgan ehtiyoj; v) bo'lg'usi, ya'ni bir necha yildan keyin yuzaga keladigan va qondiriladigan ehtiyoj. Ehtiyojning ikkinchi va uchinchi turi oiladan jamg'arishga moyillik uyg'otadi. Kerakli mahsulot bozorda topilmasa yoki topilgan taqdirda ham unga pul yetishmay qolsa, ma'lum vaqt pul jamg'arilib boriladi. Chunonchi, mebel, avtomashina, kvartira yoki hovli-joy sotib olish pulning jamg'arilib borishini talab qiladi. Qarilikni ta'minlash, bolalarni uy-joylik va oilalik qilish ehtiyojlari ham jamg'arishni yuzaga keltiradi. Xullas, oilada daromadning bir qismi jamg'arilishi turgan gap, lekin buning imkoni har xil bo'ladi. Jamg'arish oila daromadi miqdoriga to'g'ri mutanosiblikda bo'ladi. Shu sababli o'ziga to'q oilalarda jamg'arish ko'p bo'lsa, muhtoj oilalarda u oz bo'ladi yoki umuman bo'lmaydi. Oilada jamg'arishning darajasini jamg'arish koeffitsiyenti belgilaydi, bu ko'rsatkich oila daromadining qanday qismi jamg'arilishini bildiradi:

$$J_k = \frac{J}{D}$$

Bu yerda:  $J_k$  — jamg'arish koeffitsiyenti;  $J$  — jamg'arish miqdori;  $D$  — daromad miqdori. Har doim  $J_k < 1$  bo'ladi, chunki hech qachon oila daromadining hammasi jamg'arilmaydi. Bu koeffitsiyent 0 bilan 1 oralig'ida o'zgaradi.

Jamg'arishga moyillik oila a'zolarining yoshiga ham bog'liq bo'ladi. Keksalarda umr oxirlanib qolganidan topgan-tutganini iste'molga sarflashga moyillik bo'ladi. Aksincha, yoshlarda hayot oldinda bo'lganidan kelajakni ko'zlab jamg'arishga intilish kuchliroq bo'ladi.

Oilada jamg'arish shakllari ularning oila uchun naqadar qulay va foydali bo'lishiga bog'liq. Jamg'arish ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho buyumlar, bankdagi yoki uydagi pul shaklida bo'ladi. Oilaga qaysi shakl ma'qul bo'lsa, shuni tanlab oladi.

Oila iqtisodiyotining muhim talabi daromadlar bilan xarajatlarning teng bo'lishidir, chunki oila budjetida kamomadga yo'l

qo'yib bo'lmaydi. Agar xarajat ortib borsa, oila qarzdor bo'lib qoladi va o'z mulkini sotishga to'g'ri keladi. Shu bois daromadlar va xarajatlarni muvofiqlashtirish borish oila budjetini tuzishdagi muhim tamoyil hisoblanadi. Oila ro'zg'orini pala-partish yuritish ma'qul emas, chunki bozor iqtisodiyotidagi noaniqlik oilani chetlab o'tmaydi. Oila kutilmaganda daromadning bir qismini yo'qotishi yoki mo'ljallanmagan xarajatga duch kelishi mumkin. Shu sababli oilada pul zahirasi kerak. Oila budjeti rejalashtirilganda uning taxminiy miqdori belgilanadi, chunki daromad va xarajatlarni oldindan aniq belgilash mushkul ish, ular oila xohishiga qat'iy nazar o'zgarib turadi. Ish yurishmasa, daromad qisqaradi, bozor narxi ortsa, xarajat ortadi. Oila hamma manbadan keladigan tushumlarni o'z rejasida belgilaydi, chunonchi ish haqi, mukofot, biznesdan tushgan pul, tomorqa va buyumlarni sotishdan kelgan pul, natural tushum, mulkdan kelgan daromad, pensiya, stipendiya jamlanib daromad miqdori aniqlanadi. Shunga qarab xarajatlar summasi aniqlanadi.

Shunday qilib, har bir oila, hatto u boy bo'lsa ham, o'z budjetini rejalashtirib borishi bozor iqtisodiyotining qat'iy talabi hisoblanadi. Shundagina oila bozor iqtisodiyotining qonun-qoidalariga moslasha oladi.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. «Oila» tushunchasiga ta'rif bering.
2. Oila qaysi fanlarning tadqiqot ob'yekti hisoblanadi?
3. Oilaning asosiy vazifalarini sanab bering.
4. «Oila» va «uy xo'jaligi» tushunchalarining farqini ayting.
5. Oilaning reproduktiv vazifasini tushuntirib bering.
6. «Aholining oilaviy tarkibi» deganda nimani tushunasiz?
7. Oilaning qanday turlarini bilasiz?
8. Iqtisodiy ta'minlanganlik darajasi bo'yicha oilalar qanday guruhlarga ajratiladi?
9. Oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning qanday yo'nalishlarini bilasiz?
10. Oila budjeti deganda nimani tushunasiz?

---

## 12-bob. DEMOGRAFIK PROGNOZLASHTIRISH

### 12.1. Demografik prognozlarning mohiyati va turlari

**Demografik prognoz** — bu aholi harakatining asosiy parametrlarini va istiqboldagi demografik vaziyatni, aholining son va sifat tavsiflarini, yosh-jins va oilaviy tarkibini, tugʻilish, oʻlim, nikoh, ajralish, migratsiya jarayonlarini ilmiy asoslangan holda oldindan koʻra bilishdir. Prognoz tugʻilish va oʻlimning u yoki bu tavsiflarini kelajakdagi dinamikasiga nisbatan qoʻyilgan ayrim gipotezalar asosida amalga oshiriladi.

**Demografik prognoz turlari.** Ijtimoiy prognozlashtirishda quyidagi toʻrtta yoʻnalishni ajratib koʻrsatish mumkin: ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-biologik va harbiy-siyosiy. Demografik prognozlar ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashtirish majmuasiga kiradi.

Bugungi kunda demografik prognozlashtirishning ikkita asosiy yoʻnalishi ajralib chiqqan: global va mintaqaviy.

**Global prognozlar** dunyo miqyosidagi demografik rivojlanishning global muammolarini yechish imkonini beradi. Prognozlashtirishning mazkur turida aholini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining koʻplab omillari va parametrlari bilan oʻzaro murakkab aloqadorligini tavsiflovchi modellar qoʻllaniladi.

**Mintaqaviy prognozlar** bevosita rejalashtirish bilan bogʻliq. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirayotganda aholi takror barpo boʻlishining oʻziga xos xususiyatlari, demografik jarayonlarning tavsiflari hisobga olinadi. Shuningdek, mintaqaviy prognozlar hudud aholisi soni va tarkibining istiqboldagi dinamikasi haqidagi maʼlumotlarni beradi, bu esa taʼlim, sogʻliqni saqlash, uy-joy siyosati, sport, savdo va maishiy xizmat koʻrsatish, aholini isteʼmol tovarlari bilan taʼminlash va ularni ishlab chiqarish sohasida rejalashtirish uchun foydalaniladi.

Shuningdek, aholi harakatining istiqboldagi ko'rsatkichlarini baholash uchun ekstrapolyatsiya, yoshni siljitish, ekspert baholash, ekonometrik modellashtirish, imitatsion modellashtirish va boshqa usullardan keng foydalaniladi.

Masalan, **ekspert baholash** usuliga ko'ra, aholining istiqboldagi takror barpo bo'lishi demografiya bilan shug'ullanuvchi tajribali mutaxassislar tomonidan aniqlanadi. Mazkur holatda aniq baholarga erishish uchun ekspert axborotlarni tahlilining ma'lum bo'lgan usullari, ya'ni ekspertlar orasida maxsus uslubda so'rov o'tkazishni qo'llash maqsadga muvofiq.

**Ekonometrik prognoz** usullarida aholining tabiiy harakat ko'rsatkichlari matematik bog'lanishlar vositasida aniqlangan ijtimoiy-iqtisodiy omillar darajalari bilan bog'liq o'zgaruvchilar sifatida ko'riladi. Xususan, demograflar orasida uzoq davr mobaynida tug'ilishning o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi bilan (D) U-shakldagi bog'lanishi xususida uzoq vaqtgacha tortishuvlar bo'lgan. Bunday bog'lanish m-guruhi uchun quyidagicha ifodalanadi:

$$b_m(t) = a_0 + a_1 \times D(t) + a_2 \times D^2(t). \quad (12.1)$$

Migratsion harakat ko'rsatkichlarining tashqi omillar bilan bog'liqligi xususida ham bir qator qiziqarli gipotezalar ilgari surilgan. Masalan, migratsion harakatlarni prognoz qilishda quyidagi ko'rinishdagi gravitatsion modellar qo'llanilishi mumkin:

$$y^{nr} = k(Z^n)^\alpha (xr)^\beta / c_{nr}. \quad (12.2)$$

Bu yerda:  $Z^n$  — odatda  $n$  — hududining tortishini tavsiflab, masalan, mehnat sarflanadigan joylar soni orqali ifodalanadi;  $c_{nr}$  — ushbu hududlar o'rtasidagi masofani ifodalovchi o'zgaruvchi;  $k$ ,  $\alpha$ ,  $\beta$  — model konstantalari. Shunday qilib,  $r$  hududidan  $n$  hududiga bo'lgan migratsiya  $n$  hududi tortishi va  $r$  hududi aholisi soniga mutanosib bo'lib, ular o'rtasidagi masofaga (masofa kvadratiga) teskari proporsionaldir.

Tug'ilish va o'lim tavsiflarining **imitatsion modellarini** qo'llash orqali baholashga urinishlar qilingani ham ma'lum. Masalan, «Mir-2» va «Mir-3» Rim klublarining modellarida bu tavsiflarning istiqboldagi qiymatlari, ovqatlanish sifati, atrof-muhit holati va

h.k.lar bilan bog'liq. Boshqa hollarda tug'ilishning yosh koefitsientlari er-xotinlarning reproduktiv maylini ularning ijtimoiy-iqtisodiy holati, fe'l-atvori, farzand ko'rish istagi, organizm fiziologiyasi va boshqa stoxastik tabiatga ega omillarni hisobga olib yasama qilish asosida aniqlangan. Modeldagi ushbu omillarning qiymatlari tasodifiy tarzda ularning ehtimoliy zichligining eksperimental yo'l bilan taqsimlanishidan kelib chiqadi.

**Demografik prognoz shakllari.** Demografik prognozlar tahlilii, me'yoriy va ogohlantiruvchi shakllarda bo'ladi. **Tahlilii prognozlar** — bu prognoz ob'yektining kutilayotgan holatini turli omillar ta'sir darajasiga, shu jumladan, rivojlanishning dastlabki shart-sharoitlariga bog'liq ravishda aniqlashdir. Bunda prognoz asosiga kiritiladigan gipotezalar turli xil bo'lishlari mumkin. Masalan, asosiga yaqin istiqbolda o'limni xatarli yangi paydo bo'luvchilardan xalos etish imkonini beruvchi yangi preparatlar va usullarni yaratilishi haqidagi gipoteza kiritilgan demografik prognoz tahlilii prognoz hisoblanadi.

**Me'yoriy prognozlar** kelajakda muayyan bir maqsadlarga erishish uchun aniq tavsiyalardan iborat bo'ladi (bunday prognozlarga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari ancha yaqin).

**Ogohlantiruvchi prognozlar** kutilayotgan salbiy va hatto ijtimoiy rivojlanishning halokatli oqibatlarini ajratib ko'rsatish uchun tuziladi, ularning oldini olish uchun esa chora-tadbirlarni qabul qilinishi zarur bo'ladi.

Demografik prognozlar qisqa (5-10 yil), o'rta (25-30 yil) va uzoq muddatli (ko'plab o'n yilliklar va hattoki yuz yillarga mo'ljallangan) bo'ladi.

Aholi prognozlarining asoslanganligi, aniq va to'g'ri ekanligini aniqlash hamda baholash muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda bunday baholash **prognozlarning tasdiqlanishi** deb ataladi.

Prognozlarning tasdiqlanishi asosan olingan prognoz natijasining sifatini har tomonlama, ko'rilyotgan jarayonlar taraqqiy etishi qonuniyatlarining nazariy konsepsiyalari, tanlangan prognoz uslubi, yechimlarning foydaliligi va samaradorligiga asoslangan holda tadqiq etilishini nazarda tutadi.

Prognozlarni tasdiqlashning maqsadi — prognoz modelini shakllantirish, prognoz fonini aniqlash, prognoz ko'rsatkichlarini hisoblash va h.k. jarayonlarida qilinishi mumkin bo'lgan xatolarni aniqlash va bartaraf etishdir. Bunda ko'rilayotgan jarayon va hodisalar, prognoz foni darajalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tusiga doir noto'g'ri gipotezalarni qabul qilish natijasida vujudga keladigan xatolar xususida so'z yuritiladi. Odatda, bunday xatolar yig'ilishi oqibatida prognoz noto'g'ri bo'lib chiqadi.

Demografik prognozlarni tasdiqlash jarayonida ikkita tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin, bular sifat va miqdoriy tasdiqlar. Sifat tasdig'i prognoz yechimining ilmiy asoslanganligiga jarayonlar, hodisalar, prognoz fonining o'zaro bog'liqliklari, ularning tanlangan uslubga mos kelishiga doir qilingan boshlang'ich gipotezalar to'g'ri ekanini isbotlash yo'li bilan baho berilishini nazarda tutadi. Miqdoriy tasdiqlash prognoz aniq va to'g'ri ekanligiga baho berishni nazarda tutadi. **Prognozning aniqligi** deganda, prognozdagi qiymatning ko'rilayotgan jarayonning «real» miqdoridan bo'lgan farqini baholovchi miqdoriy tavsif tushuniladi. Uni dalillarga asoslangan tarzda, ya'ni avval qilingan prognoz hamda keyinchalik o'rin olgan jarayon qiymatini taqqoslash va dalillarga asoslanmagan tarzda, ya'ni ko'rilayotgan jarayonning asl qiymati noma'lum bo'lgan holda bajarilgan prognozning ishlab chiqilishi bosqichida aniqlash mumkin.

**Prognozning ishonchliligi** deganda, odatda uning qiymatini jarayon rivojlanishi sharoitlarining saqlanishi holatida berilgan ishonch intervaliga tushish ehtimolining bahosi tushuniladi. Ishonch intervalining kengligi shu ehtimoliylik bilan bog'liqligini hisobga olib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: prognozning aniqligi va ishonchliligi o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, bu aniqlik tavsifi ishonchli ehtimoliylik asosida belgilanishi va shuning aks holati, ya'ni ishonchlilik aniqlikka tayanishining kuzatilishida namoyan bo'ladi.

**Demografik prognozashtirishning ahamiyati.** Demografik prognozlar aholining takror barpo bo'lish tendentsiyalarini, shu jumladan, urbanizatsiyaning keyingi rivojlanishini, aholining ta'lim va madaniyat darajasining o'sishini, o'limning kamayishi va hayot



davomiyligining oshishini, ko'pfarzandlilik an'analarning asta-sekin yo'q bo'lib borishini, oila vazifalarining o'zgarishini, aholining ijtimoiy va hududiy safarbarligining oshishini, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va etnik omillar bilan bog'liq bo'lgan turli mintaqalarning demografik rivojlanishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Demografik prognozlar istalgan ijtimoiy rejalashtirish asosida tuzilganligi bois quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- mehnat resurslarining istiqboldagi miqdori va tarkibini aniqlash;

- ijtimoiy-demografik guruhlarning turli tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini baholash (iste'molning yosh-jinsni hisobga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlariga, kiyim-kechakka, uy-joyga, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarga va h.k.larga bo'lgan ehtiyojlari). Masalan, oila uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarning asosiy iste'molchisi hisoblanadi. Shuning uchun ularga bo'lgan talabni hisob-kitob qilishda aholining oilaviy tarkibini bilish lozim;

- ijtimoiy soha ob'yektlarining rivojlanishi va joylashtirilishini baholash;

- marketingni rivojlantirish;

- ijtimoiy ta'minot, tibbiy xizmat ko'rsatishning aniq shakllarini rivojlantirish bo'yicha davlat chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Aholining keksayishi sharoitida pensionerlar sonini, ularning oilaviy ahvolini, sog'ligini prognozlashtirish dolzarbdir;

- ijtimoiy siyosat, ya'ni bandlik, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash sohasidagi siyosatni rivojlantirish yo'nalishlarini rejalashtirish. Masalan, aholining milliy va til tarkibi dinamikasining prognozlari mamlakatda, ayrim mintaqalarda madaniyatni rivojlantirishni rejalashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, demografik prognozlar mahsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlash, suv ta'minoti, energiyani ishlab chiqarish va iste'mol qilish, atrof-muhitni ifloslantirish, sog'liqni saqlash tizimi, ijtimoiy sug'urta va boshqa sohalarda hisobga olinadi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishning asosini tashkil qiladi.

## 12.2. Aholi soni va tarkibini prognozlashtirish

Demografik prognozlarni shartli ravishda ikkita guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga aholi sonining prognozlari kirib, ular ekstrapolyatsiya va regression modellarga asoslangan, ikkinchi guruhga esa nafaqat aholining umumiy soni, balki aholining tarkibini ham hisoblashga qaratilgan usullar kirib, ular yoshni siljitish usulni qo'llash yordamida hisoblanadi.

Ma'lumki, demografik jarayonlar inertsion xususiyatga ega, ya'ni vaqt davomida sekin o'zgaruvchi ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri bilan bog'liq holdagi o'zining rivojlanish parametrlari va asosiy xususiyatlarini yetarli darajada uzoq saqlab turish xususiyatiga ega. Shuning uchun aholining istiqboldagi takror barpo bo'lishi parametrlari va asosiy xususiyatlarini saqlanib qolishi mumkinligini inobatga oluvchi istiqbolli hisob-kitob usullaridan foydalanish kerakligi oddiy hol bo'lib qoladi. Bunday usullar qatoriga ekstrapolyatsiyaning turli usullarini kiritish mumkin, ular ko'pincha aholining umumiy soni dinamikasini istiqbolli baholashda qo'llaniladi.

Ma'lumki, ekstrapolyatsiya usuli doimo ma'lum bir boshlang'ich ma'lumotlarni tahlil qilish va o'rganilayotgan hodisa yoki jarayonning istiqboldagi o'zgarish tavsifiga nisbatan shart-sharoitlarni qo'llashga asoslanadi. Qabul qilingan shart-sharoitlarga tanlangan ekstrapolyatsiya uchun analitik funktsiya (chiziqli, eksponentsial, kvadratik yoki mantiqiy) mos tushishi kerak.

Sanab o'tilgan matematik funktsiyalardan eng soddasi - bu chiziqli funktsiyadir. U aholining mutlaq o'sishi yoki kamayish shartlarining mavjudligi faraz qilinganda qo'llanilishi mumkin va uning tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S_t = S_0(1 + kt), \quad (12.3)$$

bu yerda:  $S_t$  — aholining istiqboldagi soni;  $S_0$  — aholining boshlang'ich (bazaviy) soni;  $k$  — aholining o'rtacha yillik o'sishi;  $t$  — davr oralig'i (yillarda).

Eksponentsial funktsiya aholining nisbiy o'sishi yoki kamayishi shartlarida qo'llaniladi va uning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$S_t = S_0 \cdot e^{kt}, \quad (12.4)$$

bu yerda:  $e = 2.712828\dots$ ga teng bo'lgan natural logarifmlarning asosi.

Kvadratik funktsiyada aholi sonining mutlaq o'sishi barqaror emas, balki doimiy kattalikka nisbatan o'zgarish tendentsiyasiga ega, deb faraz qilinadi. Boshqacha holda, kvadratik funktsiya aholini doimiy kattalikka mutlaq o'sishi yoki kamayishining o'zgarishi shartlarida, ya'ni parabola bo'yicha rivojlanishi shartida qo'llaniladi. Bunda ikkinchi tartibli parabola juda ko'p qo'llaniladi:

$$S_t = a + bt + ct^2, \quad (12.5)$$

bu yerda:  $a, b, c$  — ushbu parabolaning parametrlari bo'lib, ular eng kichik kvadratlar usuli bo'yicha topilishi mumkin.

Aholi sonini istiqbolli baholashda «Gomperts egri chizig'i» deb nomlanadigan S-shaklidagi egri chizikli funktsiya ham ko'p qo'llaniladi. Uning tenglamasi quyidagi shaklga ega:

$$y_t = k \cdot a^{bt} \quad (12.6)$$

Ushbu egri chiziq ko'pincha emperik ma'lumotlarga juda mos tushadi va shuning uchun ham hisoblash usuli anchayin soddaroq. Bunday egri chiziqni qo'llanilishiga misol qilib Komperts-Makegama formulasi bo'yicha o'lim jadvalining yashovchanlik ( $p_x$ ) ehtimolini hisoblash va 70 yoshdan yuqori bo'lgan yoshdagilar uchun kutilayotgan hayotning o'rtacha davomiyligini hisoblashni keltirish

$$p_x = a \cdot b^{cx} \quad (12.7)$$

yoki uning logarifmik ko'rinishdakisini keltirish mumkin:

$$\lg p_x = \lg a + \lg b \cdot c^x. \quad (12.8)$$

Bir qator hollarda noldan farqlanuvchi, faqatgina asimptotaga ega bo'lgan xuddi shunday egri chizikli tenglama qo'llaniladi. Statistika bunday egri chizikli tenglama modifikatsiyalangan eksponenta nomlanishini olgan va uning tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$y_t = k + ab^t. \quad (12.9)$$

Grafik tasviri logistik egri chiziq yoki «Ferxyulst-Pirl (Pirl va Rid) egri chizig'i» deb nomlanuvchi logistik funktsiya, boshlanishida uzluksiz va borgan sari tezlashuvchi, populyatsiya soni o'sishi sur'atining o'sayotganligini, keyin esa o'sishni deyarli to'alaligicha to'xtashigacha sekinlanishini nazarda tutadi.

Logistik egri chiziq tenglamasi S-shaklidagi egri chizikli tenglamaning boshqacha turi hisoblanib, uning formulasi aholi haqidagi emperik ma'lumotlar dinamikasini muvofiq tarzda tasvirlab beradi va quyidagi ko'rinishga ega:

$$y_t = \frac{k}{1+be^{-at}}, \quad \text{yoki} \quad \frac{1}{y^t} = k + ab^t. \quad (12.10)$$

Shunday qilib, logistik egri chizikli tenglamasiga ko'rgazmali funktsiya ko'rinishi beriladi. Aynan xuddi shunday ko'rinishda u aholi sonini istiqbolli hisob-kitob qilishda qo'llanilishi mumkin. Aholi soni prognozlarini matematik funktsiyalar yordamida hisoblashdagi eng murakkab bosqich bo'lib egri chizikli tenglamani eng mos tushadiganini tanlash hisoblanadi. Ushbu muammoning echimini hal etish ko'p jihatdan ekstrapolyatsiya natijalari bilan belgilanadi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, aholi soni dinamikasi qatorlari ekstrapolyatsiyasi kelajakdagi o'zgarishlarning rasmiy matematik qonuniyatini qabul qilishga asoslanadi. Odatda, amaliyotda aholi sonining faktik dinamikasi hisoblashlar natijalariga qaraganda farqli bo'lib chiqadi. Ushbu holat ko'pincha tadqiqotchilar bu usulni aholi rivojlanishining sifat jihatdan turli bosqichlariga nisbatan qo'llashga harakat qilganliklari va ushbu jarayonni qandaydir bitta matematik funktsiya yordamida tasvirlashga harakat qilganliklari bilan bog'liq bo'ladi. Biroq, hisob-kitob qilinayotganda tadqiq qilingan davr bir xil va tarixiy rivojlanishning bitta bosqichiga tegishli ekanligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Faqatgina shu holatda ekstrapolyatsiya usullarini qo'llanilishi ijobiy natijalar berishi mumkin.

Oxirgi yillarda demografik prognozlarda «regression modellar» deb nomlanadigan usul ham ko'p qo'llanilmoqda. Ushbu usul aholi yoki uning ayrim guruhlari umumiy sonining dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillarni inobatga oluvchi ko'p o'lchovli modellarga

asoslangan. Bunda barcha omillar mustaqil o'zgaruvchilar, hisob-kitob qilinayotgan miqdor esa bog'liq o'zgaruvchi sifatida ko'riladi. Misol sifatida etarli darajada oddiy bo'lgan, ishchi kuchi, milliy daromad va mehnat samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni keltirish mumkin:

$$S_{\text{ishchi kuchi}} = \frac{I}{m}, \quad (12.11)$$

bu yerda:  $I$  — milliy daromad miqdori;  $m$  — mehnat samaradorligi.  
Bundan

$$S_{\text{ishchi kuchi}} = \frac{I}{\frac{I}{t}}, \quad (12.12)$$

bu yerda:  $t$  — daromad birligini yaratish uchun kerak bo'ladigan ishlab chiqarish fondlarining hajmi yoki kapital qo'yilmalar kattaligi.

Mos ravishda,

$$S_{\text{ishchi kuchi}} = I \cdot t. \quad (12.13)$$

Ishchi kuchi miqdori mehnat samaradorligi o'zgarmagan holda milliy daromad miqdorining o'sishiga proporsional ravishda o'sadi, deb faraz qilaylik. Agar mulohazalarni soddalashtirish uchun yana barcha aholi va ishchi kuchi o'rtasidagi nisbat doimiy, deb faraz qiladigan bo'lsak, keltirilgan formulalarga muvofiq aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad agar mehnat samaradorligi ham o'zgarmay qolsa o'zgarmaydi. Bunday holda aholi sonining o'sishi muammolar keltirib chiqarmaydi. Ushbu mulohazadan xulosa qilish mumkinki, milliy daromadning o'sishiga aholi o'sishining ta'siri darajasini aniqlash muammosining mohiyati ishchi kuchi yoki aholining o'sishida mehnat samaradorligini o'zgarishidan iborat bo'ladi. Endi bilvosita ko'rsatkichlar yordamida mehnat samaradorligini bizning bog'liqliklarimizga kiritishga harakat qilamiz:

$$m = \frac{I}{S_{\text{ishchi kuchi}}} = \frac{\frac{I}{S_{\text{ishchi kuchi}}}}{\frac{I}{I}} = \frac{I}{S_{\text{ishchi kuchi}}}, \quad (12.14)$$

bu yerda:  $T$  — ishlab chiqarish fondlari (asosiy va aylanma) yoki barcha kapital;  $i$  — mehnatning texnik ta'minlanganligi, u mehnatni texnik ta'minlanganligi va kapital kattaligi funksiyasi sifatida mehnat samaradorligini ko'rsatib beradi.

Kapital qo'yilmalar kattaligi, ijtimoiy mehnat samaradorligi mexanik ta'minlanganlikka proporsional holda o'zgaradi, deb faraz qiladigan bo'lsak, boshqa holda mehnat samaradorligi o'sadi, ishlab chiqarish fondlari ishchi kuchining o'sishiga nisbatan tez o'sadi va texnik ta'minlanganlikning kamayishida esa qisqaradi.

Ushbu oddiy model nima uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining tezkor o'sishi bilan bog'liq bo'lgan jiddiy iqtisodiy muammolar mavjudligini tushuntirib beradi. Chunki, ushbu mamlakatlarda yanada jadal iqtisodiy rivojlanish uchun ishlab chiqarish fondlari aholiga nisbatan tezroq o'sishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa kapital qo'yilmalarga mablag'lar talab etiladi. Biroq, kishi boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad kam bo'lgan mamlakatlarda jamg'armani (kapital qo'yilmalar manbai) yanada yuqori sur'atlarini ta'minlash juda qiyin, chunki aholi o'z daromadlarining juda katta qismini o'zlarining kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun sarflaydi.

Aksincha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda texnik ta'minlanganlikni yuksaltirish bunday muammolarni keltirib chiqarmaydi, chunki bir tomondan, ularda aholi sekinroq o'sadi va ikkinchi tomondan esa umume'tirof etilgan qonuniyat ta'sir qiladi, unga ko'ra, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad qanchalik ko'p bo'lsa, uning katta qismi ham o'z navbatida jamg'armaga olib qo'yiladi.

Demografik prognozlashtirishda qo'llaniladigan usullardan yana biri regression modellar bo'lib, ular odatda, aholi dinamikasi va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning muayyan bir darajadagi bog'liqligining taxminiga asoslanadi. Ko'pincha maxsus adabiyotlarda prognozlarning ushbu shakli «demografik prognozlarning iqtisodiy ko'rinishi» deb nomlanuvchi shakli sifatida ko'rib chiqiladi.

Regression modellar yordamida amalga oshiriladigan prognozlar matematik ekstrapolyatsiya usullari orqali amalga oshiriladigan hisob-kitob natijalariga nisbatan mantiqiy (mazmuniy) tahlilga

muvofig keladi. Regression modellarda aholi dinamikasining bir qator tadqiq etilayotgan omillarga bo'lgan bog'liqligi yaqqol namoyon bo'ladi. Vaholanki, regression modellar uchun ko'pgina kamchiliklar xos, xususan, ular demografik o'sish va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'zaro sabab-oqibat alaqadorligini juda soddalashtirib yuborsa ham, demografik prognozlashtirishda ma'lum bir miqdorda qiymatga egadir.

Aholining istiqboldagi umumiy miqdorini baholashning qulay va sodda yechimlari haqidagi masalaga qaytadigan bo'lsak, murakkab foizlar formulasi bo'yicha hisob-kitoblar usulini aytib o'tishimiz kerak bo'ladi. Murakkab foizlar formulasi (algebra kursidan ma'lum bo'lgan) quyidagi ko'rinishga ega:

$$a = a_0 \left(1 + \frac{P}{100}\right)^t \quad (12.15)$$

$$a = \lg a_0 + t \lg \left(1 + \frac{P}{100}\right),$$

bundan

$$t = \frac{\lg a - \lg a_0}{\lg \left(1 + \frac{P}{100}\right)}, \quad (12.16)$$

bu yerda:  $a$  - progressiyaning istalgan hadi;  $a_0$  — progressiyaning boshlang'ich hadi;  $\frac{P}{100}$  — o'sish sur'ati jadalligi;  $t$  — yillar soni (o'rtacha muddat).

Aholining bunday hisob-kitoblarida quyidagi asosiy qoidalarni e'tiborda tutish lozim:

1. Murakkab foizlar bo'yicha o'stirish. Agar aylanma davr 1 yildan ortiqroq bo'lsa, oddiy foizlar bo'yicha o'stirishdan ko'proq bo'ladi, aksincha oddiy foizlar bo'yicha o'stirish ko'proq natijaga ega bo'ladi.

2. Murakkab foizlar bo'yicha aholi miqdorini ikki marotabaga o'sishi vaqtini aniqlash uchun 70 sonini foiz kattaligiga bo'lish kerak.

Masalan: yiliga 2 foizlik o'sishda aholi qancha yil davomida ikki marotaba ortadi?

Javob:  $\frac{70}{2} = 35$  yil davomida.

70 sonini foiz kattaligiga bo'lib yuborilishiga sabab quyidagicha:

$$1\%(1,01)^{70} = 2$$

$$2\%(1,02)^{35} = 2$$

$$3\%(1,03)^{24} = 2$$

$$4\%(1,04)^{18} = 2$$

$$5\%(1,05)^{14} = 2$$

Biroq, bu taxminiy hisob-kitob anchayin aniqroq hisob-kitoblar va ushbu berilgan qoidani asoslashni quyidagicha amalga oshirish mumkin.

Masala quyidagicha shakllantiriladi:  $R\%$  bo'yicha o'suvchi «a» kattaligi qancha vaqt mobaynida ikki marotabaga ortadi, ya'ni  $2a$  qanchaga teng bo'ladi? Murakkab foizlar formulasi bo'yicha quyidagicha ega bo'lamiz:

$$t = \frac{\lg 2a - \lg a}{\lg\left(1 + \frac{P}{100}\right)} \quad \text{yoki} \quad t = \frac{\lg 2 + \lg a - \lg a}{\lg\left(1 + \frac{P}{100}\right)} = \frac{\lg 2}{\lg\left(1 + \frac{P}{100}\right)}. \quad (12.17)$$

$\frac{P}{100}$  nisbatini  $b$  orqali belgilaymiz va xuddi shuning o'zini natural logarifmlar orqali aks ettiramiz:

$$t = \frac{\ln 2}{\ln(1+b)} = \frac{0,693}{\ln(1+b)}.$$

$\ln(1+b)$  ni bir qatorga yoyib chiqamiz. Bizga ma'lumki,

$$\ln(1+b) = b - \frac{b^2}{2} + \frac{b^3}{3} - \frac{b^4}{4} + \dots$$

$b$  nisbatan kichik kattalik bo'lganligi uchun, katta xatolikka yo'l qo'ymaslik maqsadida yoyib chiqilganlarni faqatgina ikkita hadi bilan cheklanib qolamiz. Shunda



$$t = \frac{0,693}{b \frac{b^2}{2}}, \quad \text{yoki} \quad t = \frac{0,693}{b \left(1 - \frac{b}{2}\right) \dots}$$

Ikkinchi maxraj ko'paytmasining kattaligi  $b$  0,02ga teng bo'lsin, deb taxmin qilamiz, ya'ni yiliga 2% ga o'sib bormoqda. Bunda

$$t = \frac{0,693}{b \left(1 - \frac{0,02}{2}\right)} = \frac{0,693}{b \cdot 0,99} = \frac{0,7}{b}.$$

Oxirgi kasrdagi surat va maxrajni 100 ga ko'paytirib, quyidagini hosil qilamiz:

$$t = \frac{70}{P}.$$

3. Aholi sonining ikki marotabaga o'sishi davrini arifmetik progressiya bo'yicha hisoblash juda oson. Buning uchun ushbu yildagi aholi sonini quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqilgan ma'lum bo'lgan vaqt oralig'idagi aholining o'rtacha o'sish sur'atiga bo'lib yuborish kerak.

$$\Delta = \frac{S_t - S_0}{t}, \quad (12.18)$$

bu yerda:  $\Delta$  — o'rtacha yillik o'sish sur'ati;  $S_t$  — oxirgi ro'yxatga olish bo'yicha aholi soni (ushbu berilgan vaqt davomidagi);  $S_0$  — avvalgi ro'yxatga olish bo'yicha aholi soni (oxirgi vaqt davomidagi);  $t$  — yillarda keltirilgan vaqt davri.

4. Aholining istiqboldagi miqdorini hisoblash uchun formulani tanlashda murakkab foizlar formulasiga ustunlik berish kerak bo'ladi (ayniqsa, agar aholi miqdorini baholash anchayin oldingi muddat uchun qilinayotgan bo'lsa). Murakkab foizlar formulasi bo'yicha hisob-kitoblar oddiy foizlar formulasi bo'yicha baholashga nisbatan ancha haqiqatga yaqinroq bo'lgan natijalar beradi.

Istiqboldagi aholining umumiy miqdorini baholash uchun foydalaniladigan murakkab foizlar formulasi bo'yicha ayrim misollar keltiramiz (raqamlar shartli ravishda olingan).

1-misol:  $S_0$  — 10 000 kishi. O'sish yiliga 5%. 30 yil ichida  $S_t$  qancha bo'ladi? Ushbu masalaga murakkab foizlar formulasini qo'llab  $a = 10\,000 (1+0,05)^{30}$  ni hosil qilamiz.

Logarifinga qo'yib:

$$\lg a = \lg 10000 + 30 \lg 1,05 = 4,635679.$$

Bu yerda  $a=43\ 219,43$ . Bu biz istayotgan  $S_{30}$ .

2-misol:  $S_0 = 10\ 000$  kishi.  $t = 25$  yil.  $S_t = 26658,36$ .  $R$  topilsin (o'rtacha yillik o'sish sur'ati jadalligi).

Murakkab foizlar formulasi bo'yicha quyidagini topamiz:

$$\lg a = \lg a_0 + 25 \lg \left( 1 + \frac{P}{100} \right).$$

Bu yerdan

$$\lg \left( 1 + \frac{P}{100} \right) = \frac{\lg a - \lg a_0}{25}$$

Ma'lumotlarimizni formulaga qo'yib:

$$\lg \frac{26658,36 - \lg 10000}{25} = 0,0170333.$$

Bu yerdan

$$1 + \frac{P}{100} = 1,04, \quad \text{ya'ni} \quad P = 4\%.$$

3-misol: O'sish sur'ati jadalligi yiliga 4%ga teng. Aholini ikki marotabaga ko'payish davrini topish. Yana murakkab foizlar formulasidan quyidagini aniqlaymiz:

$$(1,04)^n = 2;$$

$$n \cdot \lg(1,04) = \lg 2;$$

$$n = \frac{\lg 2}{\lg(1,04)} = \frac{0,30103}{0,01703} \approx 17,7 \text{ yil.}$$

Aholini ikki marotabaga ko'payish davri 17 yil 1 oy va 7 kunning tashkil qiladi.

4-misol. O'sish sur'ati jadalligi yiliga 3%ga teng. Aholi 20 marotabaga ko'payadi. Aholi soni 20 marotabaga ko'payish davrini qanday topamiz?

Murakkab foizlar formulasi bo'yicha quyidagini topamiz:

$$(1,03)^n = 20;$$

$$n = \frac{\lg 20}{\lg(1,03)} = \frac{1,30103}{0,01284} \approx 101,3 \text{ yil}$$

Mos ravishda aholining boshlang'ich soni 20 marotabaga ko'payishi davri 101 yil 4 oyni tashkil qiladi.

Demografik tadqiqotlarda aholining istiqboldagi soni aholining yosh-jins tarkibi bo'yicha prognoz qilinadi va unda aholining yosh-jins tarkibidagi o'zgarishlar nisbatan aniq yoritiladi. Aholini yoshi bo'yicha prognoz etishda «yoshni siljitish» usulidan foydalaniladi. Bunda aholining istiqboldagi soni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$L_x \times P_x = L_{x+1}, \quad (12.19)$$

bu yerda:  $L_x$  —  $x$  yoshgacha yashashi mumkin bo'lgan aholi soni;  $P_x$  —  $x + 1$  yoshgacha yashashi mumkin bo'lgan ehtimollik koeffitsienti;  $L_{x+1}$  —  $x + 1$  yoshgacha yashashi mumkin bo'lgan aholi soni.

Demak, har bir yoshdagi aholi soni ( $L_x$ ) har bir yosh yashashi mumkin bo'lgan ehtimollik koeffitsienti ( $P_x$ ) yordamida bir yoshdan ( $L_x$ ) ikkinchi yoshga ( $L_x + 1$ ) siljtiladi.

Masalan, 2010 yilda 55 yoshdagi aholi soni 123557 ga teng, 55 yoshdan 56 yoshgacha, ya'ni bir yilda shu guruh aholisining yashash ehtimollik koeffitsienti 0,98588 ga teng. Bu koeffitsientni topish uchun asosiy yosh guruhlari bo'yicha har 1000 kishiga hisoblangan o'lim ko'rsatkichidan foydalanildi. Aytaylik, aholining 55-59 yoshdagi guruhi uchun o'limning maxsus ko'rsatkichi 14,12 %oga teng yoki har 1000 ta 55-59 yoshdagi aholida o'lganlar soni 14,12 ni tashkil etgan

$$P_x = \frac{1000 - 14,12}{1000} = 0,98588.$$

Shundan so'ng 55 yoshdagilar soni — 123557 topilgan koeffitsient 0,98588 ga ko'paytirilib, keyingi yilda 56 yoshga kiradiganlar soni hisoblanildi. Yoshdan yoshga o'tib borgan sari yashash ehtimollik koeffitsienti ham o'zgarib boradi. Bu koeffitsient respublikada aholining yosh guruhlari bo'yicha so'nggi besh yillikdagi

o'limning maxsus koeffitsienti asosida hisoblab chiqildi. Shu tariqa istiqboldagi aholi soni prognoz qilindi.

Shunday qilib, ekstropolyatsiya, matematik funksiyalar, yoshni siljitish va boshqa bir qator usullardan foydalanib aholi sonining istiqbol ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### 12.3. Tug'ilish tendentsiyalarini istiqbolli baholash

Tug'ilish dinamikasiga juda ko'p omillar va vaziyatlar ta'sir o'tkazadi, ular rivojlanishining haqiqiy yo'nalishini oldindan aytib berish juda mushkul, ko'pincha esa umuman iloji yo'q. Istiqbolda tug'ilish darajasiga eng ko'p ta'sir ko'rsatuvchi uchta omilni ajratib ko'rsatish mumkin:

- demografik to'liqlar, ya'ni oraliqdagi reproduktiv kogortlar miqdoridagi tebranishlar;

- kogortlar qatori mahsuldorligining tugashi;

- ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlar.

Hammasidan ham ko'ra, demografik to'liqlar osonroq baholanadi, chunki reproduktiv yoshdagi ayollar soni va ularning yosh tarkibidagi tebranishlar, avvalambor, joriy tug'ilish darajasida emas, balki tug'ilayotganlar sonida aks etadi.

2003-2005 yillar oralig'ida 1980-yillarning ikkinchi yarmida tug'ilganlarning ko'plab avlodlari reproduktiv yoshda bo'lib qolmoqda. Biroq, 2008-2010 yillarga kelib 1990-yillarning boshlarida kuzatilgan tug'ilishning keskin kamayib ketishining oqibatlari o'zining to'liq kuchini ko'rsatadi.

Demografik to'liqlar tug'ilishga uning yosh bo'yicha jadalligiga bilvosita nikoh orqali ta'sir qilishi, aniqroq aytadigan bo'lsak — nikohga qodir bo'lgan kontingentlar tarkibi orqali ta'sir qilishi mumkin.

Kogortlar mahsuldorligining tugashi vaqt bo'yicha ancha cheklangan. Masalan, 1989 yilda 15 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan ayollar reproduktiv yosh chegaralarini 2019 yildan keyin tark etadi. Lekin, ushbu paytgacha ular tug'ilish darajasiga ta'sir ko'rsata oladi.

**Kogort** — lotincha so'z bo'lib, bir tomondan rim piyodalarning taktik birligini anglatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, odamlarning

mustahkam jipslashgan guruhiga nisbatan qo'llaniladi. Demografik tadqiqotlarda ko'pincha yangi demografik holatga kirgan shaxslarning jamlanmasi ko'rib chiqiladi. Masalan, o'lim tug'ilish yillari bo'yicha shakllantirilgan kogortlar bo'yicha o'rganiladi, mahsuldorli — fertil yoshining boshlanishiga yoki ularning nikohga kirish yoshiga yetgan ayollarning jamlanmasi bo'yicha o'rganiladi. Shuning uchun kogort tahlili yordamida reproduktiv ayollar yoshi yoki ular nikohining davomiyligiga bog'liq holda o'lchanishi mumkin. Agar kogortning shakllanish asosi sifatida ayollarning tug'ilish yili olinadigan bo'lsa, unda  $t$  yilda tug'ilgan barcha ayollar reproduktiv yoshi intervalida ko'rib chiqiladi. Ayollar yoshini  $x$  bilan belgilaymiz ( $x$  15, 16, ..., 49 yoshlarni qamrab oladi), unda  $t+x=y$   $t$  yilda tug'ilgan bitta onaning bolasi tug'ilishi davri bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib,  $y$  o'lchanayotgan hodisa vujudga keladigan vaqt oralig'ini (ko'pchilik hollarda yil), bizning holatimizda esa bolaning tug'ilishini anglatadi.  $x$  yoshdagi  $t$  yilda tug'ilgan ayollar sonini  $G$  bilan belgilaymiz.  $x$  yoshdagi  $t$  yilda tug'ilgan ayollarda tug'ilgan  $G_x$  bolalar soni  $G(t; x)$  ga teng bo'ladi. Bu yerdan  $x$  yoshdagi  $t$  yilda tug'ilgan ayollar mahsuldorligining kattaligi quyidagini tashkil qiladi:

$$f(t, x) = \frac{G(t; x)}{F(t; x)} \times 1000, \quad (12.20)$$

$f(t, x)$  har 1000 taga nisbatan o'lchanadi va  $x$  yoshdagi bitta yilda tug'ilgan 1000 ayolga o'rtacha hisobda qancha bola to'g'ri kelishini ko'rsatib beradi. Bunda  $t$  - konstanta hisoblanib, aksincha  $x$  esa o'zgaruvchan bo'ladi.

Hisob-kitoblarni sodda deb o'ylagan P.K.Velpton kogortlarni kalendar yillar bo'yicha emas, balki tug'ilish davrini 1,7 yildan keyingi yilning 30,6 bo'lgan qismi bilan chegaralab olib shakllantirgan. Bu shunday afzallikka egaki, bunda bir yilda tug'ilgan barcha ayollar 1,7 yildan 30,6 yilgacha bo'lgan davr ichidagi ayollarning taqsimoti bo'yicha ularning o'rtacha yoshi 1,1 ga teng bo'ladi.

Turli  $x$  yoshdagi  $t$  bir yilida tug'ilgan ayollarning sonini kogortli tahlil qilish yordamida, shu jumladan tug'ilganlar soni shunday

olinadiki, bunda ularning soni ushbu yoshdagi mos ravishdagi o'lim va mahsuldorlik nisbatlarini aks etirishi kerak. Shunday qilib, dinamikada ayrim yoshlar bo'yicha mahsuldorlik hisobga olinadi. Bunday yo'l bilan hosil qilingan kogortlar real kogortlar deb yuritiladi.

Mahsuldorlik gipotetik kogortlar uchun ham o'rganilishi mumkin. Bunday holatda yoshlar bo'yicha farqlanishlar chiqarib tashlanadi. Ushbu usul xuddi o'lim jadvallariga nisbatan qo'llanilgani kabi mahsuldorlik jadvallarini hisoblashda, nikohlilik jadvallarini tuzishda ishlatilishi mumkin.

$f(t, x)$  mahsuldorlik ko'rsatkichlari jamlanishi kerak, bunda

$$\sum_{x=15}^h (f(t, x) = f(t)) \quad \text{uchun} \quad k = 16, 17, \dots, 44 \text{ yil}$$

va  $t$  barcha ko'rib chiqilayotgan tug'ilish yillari uchun. O'z ko'rinishi bo'yicha umumiy mahsuldorlik ko'rsatkichiga o'xshaydigan ushbu jamlanma yordamida  $t$  yilda tug'ilgan bitta ayol tomonidan o'zining mahsuldorlik davrida ko'rishi mumkin bo'lgan tug'ishining o'rtacha ko'rsatkichini aniqlash mumkin.

Umumiy mahsuldorlikning ko'rsatkichlarida ko'rib chiqilayotgan bir davr, turli yilda tug'ilgan ayollar uchun mahsuldorlikning yoshlar bo'yicha maxsus koeffitsientlari hisob-kitob qilinayotgan bir vaqtda, bizning holatimizda bitta kogortaga mansub bo'lgan ayollarning tug'ilishlari soni, ya'ni mahsuldorlikning intervalining (xususiy jamlanmalar) ma'lum bir  $k$  yiliga yetib kelgan yoki ushbu yoshning oxiriga yetgan bir yilda tug'ilgan ayollarning jamlanmasi ko'rib chiqiladi. Agar ushbu tahlil faqatgina tug'ilganlar uchun hisoblansa, ya'ni agar  $\sum f(t, x)$  yig'indisi tirik tug'ilganlar orasidan qiz bolalarning hissasiga ko'paytirilsa, biz kogortning brutto-koeffitsientini olishimiz mumkin bo'ladi. Kogortning netto koeffitsienti agar mahsuldorlik ko'rsatkichlari  $f(t, x)$  tirik tug'ilganlar orasidan qiz bolalarning hissasiga qo'shilishi va aniqlanishi oldidan o'lim jadvalidagi  $\bar{L}_x^{\text{ayol}}$  ayollarning mos ravishdagi soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Takror barpo bo'lishning brutto va netto ko'rsatkichlari bir yilda tug'ilgan ayollar o'zlarini miqdoriy jihatdan qanchalik takror barpo qilishlarini ko'rsatib beradi.

Shunday qilib, kogort tahlilida ikki xil: intervalli va kumulyativ ko'rsatkichlardan foydalaniladi. O'z navbatida, intervalli ko'rsatkichlar ma'lum bir yosh intervalidagi kogort ayollarining mahsuldorligini tavsiflasa, kumulyativ ko'rsatkichlar esa ayollarning ushbu yoshga yetgunigacha bo'lgan butun umri davomidagi mahsuldorligini, ya'ni  $x$  aniq yoshdagi mahsuldorlikning jami kattaligini tavsiflab beradi.

Kogortli tahlil yordamida mahsuldorlikning istiqboldagi ko'rsatkichlari dinamikasiga nisbatan gipotezalarni shakllantirish mumkin. Biroq, bunda ushbu kogortdagi ayollar o'zlarining yoshlari mahsuldorligining oxiriga yetgan bo'lishlari yoki yuqorida ta'kidlanganidek, maksimal mahsuldorlik yoshidan o'tib ketgan bo'lishlari kerak. Faqat shu holatdagina tugallanmagan mahsuldorlikka ega bo'lgan ayollar uchun mos ravishdagi koeffitsientlarning asoslangan ekstrapolyatsiyasini amalga oshirish mumkin.

Kutilayotgan bolalar soni, bolalarning ideal soni ayollar orasida so'rovnomaga o'tkazish yo'li bilan olinadi va ular tug'ilish tendentsiyalarini prognozlashtirishda qo'llaniladi. Ko'pincha ushbu ko'rsatkich oilaning bolalar soniga nisbatan rejalari amalga oshirildimi yoki oshirilmaganligiga, shuningdek, ushbu kogortning nikoh davomiyligi bo'yicha qaysi davrida amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, tahlilning kogort uslubi, birinchidan, mahsuldorlikka ta'sir qiladigan omillarni aniqlashga, ikkinchidan esa:

- demografik prognozlarda oilaning yakuniy kattaligi chegaralarini aniqlashga;
- oilaning yaqin kelajakda qancha farzand ko'rishi haqidagi gipotezalarni ishlab chiqishga;
- aholining turli guruhlarida va qatlamlarida vujudga kelgan bolalarga bo'lgan ehtiyoj haqidagi ma'lumotlar asosida demografik siyosatning samarali yo'llari va yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ma'lumki, oldinlari mahsuldorlikning kutilayotgan o'zgarishlarini joriy statistik qayd etish va ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlariga asoslangan. Biroq, hozirgi vaqtda ko'pgina mamlakatlarda mahsuldorlikni o'rganish masalalariga ro'yxatga olish varaqalarida ko'p o'rin ajratilishiga qaramay, ushbu ma'lumotlar aholining rivojlanishini tavsiflovchi prognozlarini tuzish uchun yetarli bo'lmayapti, chunki ro'yxatga olish varaqasidagi savollarning ro'yxati cheklangandir.

Shu bilan birga, reproduktiv mayl, qadriyatlar tizimi va bolalarga bo'lgan ehtiyojning, ya'ni demograflar ancha vaqtlardan beri umuman shug'ullanmagan hodisalarning tug'ilishning istiqboldagi darajasini shakllanishiga qanchalik katta ta'sir ko'rsatishi ravshan bo'lib qoldi. Aynan shuning uchun kogort tadqiqot dasturlari oxirgi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida borgan sari ko'proq qo'llanmoqda. Ularga mamlakatda tug'ilishning u yoki bu darajasini shakllantiruvchi «tug'ilish muammosi atrofidagi ma'naviy muhit»ni aniqlashga imkon beruvchi savollar ham kiritilmoqda. Ular — tug'ilishni boshqarish imkonini beradigan chora-tadbirlarning majmuasi bo'lib, borgan sari oilada bolalarning kutilayotgan va ideal soni o'rtalaridagi farqlanishlarning kamayishiga olib kelmoqda.

Tug'ilganlar sonini yanada to'liqroq hisoblash uchun takror barpo bo'lish tartibi ko'rsatkichlarining kengaytirilgan tizimidan foydalanish kerak bo'ladi, unda har bir yosh uchun ayollarning tug'ilishi nikohlilik (nikoh davomiyligi bilan ham) va tug'ilgan bolalar miqdori bilan bog'langan bo'ladi. Biroq, bunday kengaytirilgan tizimni hosil qilishda bir qator qiyinchiliklar bilan to'qnash kelamiz. Elektron texnikaning paydo bo'lishiga qadar to'siqlardan biri uni hisoblashning juda ham murakkabligi bo'lgan. Ko'rsatkichlarni yetarli darajada detallarga ajratish bilan ushbu maqsadga erishish uchun oilalar bo'yicha hisoblashni amalga oshirish mumkin. Lekin, bu yerda qiyinchiliklar yanada ko'proq. Kogortlar usuli amaliy jihatdan aniq hisoblashga nisbatan yaqin kelish imkonini beradi. Bu yerda hisoblashning asosi bo'lib boshlang'ich davrga nisbatan ayollarning turli kogortlari tomonidan



erishilgan tug‘ilishlar soni xizmat qilib, unda ayollarning umumiy tug‘ilishlar soni va uning yillar bo‘yicha taqsimoti taxmin qilinadi.

Ushbu usul agar oiladagi bolalarning umumiy belgilangan miqdori yosh-jins tug‘ilishlarga nisbatan barqaror bo‘lsa, u holda yosh-jins tug‘ilishlar usulini qo‘llashga nisbatan afzallikga ega. Biroq, kogort usuli bo‘yicha hisoblash nisbatan yaqin kelajak uchun aniq natijalar berishi mumkin. Hisoblashga boshlang‘ich davrda hali bolalik yoshida bo‘lgan va hali tug‘ilmagan avlodlarning kiritilishini qo‘shilishi bilan ahamiyatli darajadagi mavhumlik unsuri vujudga keladi.

Tug‘ilish darajasining istiqbol ko‘rsatkichlarini aniqlashda yoshni siljitish uslubining o‘rni katta. Bu uslub bilan prognoz amalga oshirilganda, prognoz qilinayotgan davr boshidan keyingi yil uchun tug‘ilganlar soni, ya‘ni «R» yoshdagilarni aniqlash lozim bo‘ladi. Masalan, prognoz qilinayotgan davr 2010 yildan boshlansa, 2010 yilda tug‘ilganlar, ya‘ni «O» yoshdagilar miqdori aniq, ular 2011 yilda I yoshga to‘ladi. Lekin, 2011 yil uchun tug‘ilajak bolalar sonini aniqlash uchun reproduktiv yosh guruhlaridagi ayollar sonini shu yosh guruhidagi tug‘ilish koeffitsientiga ko‘paytiriladi va keyingi yili shu guruhdagi har 1000 ta ayol nechta farzand ko‘rishi aniqlanadi. Masalan, 2010 yilda 15-19 yoshli ayollar «X» ni tashkil etgan. Shu yili 15-19 har 1000 ta ayolga nisbatan «U» farzand tug‘ilgan. Demak,  $X_{2010}^{15-19} \cdot Y_{2010}^{15-19} = Z_{2011}^{15-19}$  ga teng. Ana shunday uslub bilan har bir yosh guruhida keyingi 2011 yilda tug‘ilajak bolalar soni aniqlanadi. Har bir yosh guruhida tug‘ilishi mumkin bo‘lgan bolalar soni aniqlanib, hammasi qo‘shiladi:

$$Z_{2011}^{15-19} + Z_{2011}^{20-24} + Z_{2011}^{25-29} + \dots + Z_{2011}^{45-49} = \sum Z_{2011}^{15-49}.$$

Mazkur yo‘l bilan 2011 yilda tug‘ilishi kutilayotgan bolalar soni aniqlanadi.

Shu tariqa keyingi prognoz qilinayotgan yillar uchun ham tug‘iladigan bolalar soni aniqlanadi. Buning uchun yosh guruhlari bo‘yicha tug‘ilish koeffitsientlari, tug‘ilishdagi o‘zgarishlar, o‘lim holatlari, migratsiya, aholining reproduktiv maylidagi o‘zgarishlar hisobga olinishi kerak.

Shunday qilib, kogort tadqiqotlarining natijalari demografik tahlilda borgan sari kengroq qo'llanilmoqda, bu esa, o'z navbatida, demografik prognozlashtirishda tug'ilish tendentsiyasining istiqbollarini asoslash uchun ularning ahamiyatining oshirishni belgilab bermoqda.

#### **12.4. O'lim tendentsiyalarini istiqbolli baholash usullari**

Demografik prognozlashtirishda o'lim ko'rsatkichlarining istiqboldagi dinamikasi bo'yicha gipotezalarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Buning uchun necha yoshda, qancha yil va qanday sabablar oqibatida insonlarning o'rtacha hayot davomiyligi o'zgarishini hisoblab chiqishimiz lozim bo'ladi. Faqat shunday holatdagina prognozlar yosh va jins, sabablar bo'yicha o'lim ko'rsatkichlarining chuqur tadqiqiga asoslanadi.

Aholi o'limining yosh-jins ko'rsatkichlarining istiqboldagi o'zgarishlarini inobatga oladigan turli usullar mavjud. Bunday usullardan biri tarixiy analogiyalar (o'xshashliklar) usulidir. Bu usul muayyan vaqtda biron-bir mamlakat yoki hudud aholisining yoshi va jinsi bo'yicha o'lim ko'rsatkichlarining shunday taqsimotini tanlashi kerakki, unga ko'ra, u istiqbolli hisob-kitob qilina-yotgan aholining zamonaviy o'lim ko'rsatkichlari, uning istiqboldagi dinamikasini aniqlash uchun eng yaxshi analog bo'lib xizmat qilsin. Bunday analog sifatida istiqbolli baholash amalga oshirilishi uchun tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarga o'zining yosh-jins taqsimoti tavsifi bo'yicha eng yaqin bo'lgan o'lim ko'rsatkichlari tanlanadi. O'lim dinamikasining istiqbolli hisob-kitoblarida tarixiy analoglar usulining qo'llanilishi juda ham sodda bo'lib ko'rinsada, aslida bu juda murakkab masaladir. Amaliyotda kamdan-kam hollarda mos tushadigan tanlovni amalga oshirish mumkin bo'ladi, chunki o'limning yosh-jins ko'rsatkichlari muayyan bir aholining yosh-jins taqsimoti xususiyatlariga bog'liq bo'ladi va biron-bir yosh guruhidagi o'lim darajasi keyingi guruhdagi u yoki bu o'lim darajasini oldindan belgilab beradi. Shuning uchun istiqbolli hisob-kitob qilinayotgan aholi uchun haqiqatda o'limning yosh-jins

ko'rsatkichlari o'rtasidagi boshqacha bog'liqlik xos bo'lgan o'lim ko'rsatkichi mos tushadigan boshqa aholini tanlab olish mumkin emas. Ko'rsatib o'tilgan sabablarga ko'ra, tarixiy analogiyalar usuli faqatgina tadqiq etilayotgan aholi o'limining istiqbolli dinamikasini baholashning juda ham o'xshash bo'lgan usuli sifatida qo'llaniladi.

Aholi o'lim darajasining istiqbolli dinamikasini aniqlash uchun hozirgi kundagi yetarli darajada keng qo'llanilayotlan usullardan yana biri — ekspert baholashlar usulidir. U tibbiyot va sog'liqni saqlash mutaxassislarining aholining o'limi va kasallanishi dinamikasining taxminiy istiqboli haqidagi fikrini bilish uchun imkoniyat sifatida, shu jumladan, inson o'limining eng keng tarqalgan va eng og'ir sabablariga qarshi kurash bo'yicha tadqiqot yo'nalishlari sifatida qo'llaniladi. Ushbu usul shunisi bilan yaxshiki, u istiqbolli hisob-kitoblarda, birinchidan, o'lim ko'rsatkichlarining istiqboldagi o'zgarishlariga nisbatan qo'llaniladigan gipotezalar haqida asosli tarzda gapirish imkonini, ikkinchidan esa ayrim yosh-jins guruhlarida yoki ayrim sabablar bo'yicha o'lim natijasida aholi ko'rayotgan yo'qotishlarni baholash nuqtai nazaridan o'limni prognozlashtirish imkonini beradi.

Sabablar bo'yicha aholi o'limini prognozlashtirish mashhur frantsuz demograflari D.Burjua-Pisha va R.Presslarning ishlariga asoslaniladi. Ushbu mualliflar o'limning ekzogen omillariga rivojlanishning tug'ma nuqsonlari bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni kiritgan va ularni davolab bo'lmaydi, shuningdek, ular ushbu kasalliklar tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi rivojlanishga hech qanday bog'liq bo'lmaydi, deb ta'kidlashgan. O'limning endogen sabablariga keladigan bo'lsak, bu real hayotda yo'q qilinishi mumkin bo'lgan sabablar hisoblanadi.

O'lim sabablarining tahliliga asoslangan ko'rsatkichlar yosh-jins dinamikasining istiqbolli hisob-kitoblari, shuningdek, o'lim sabablarini qisman yoki to'liq yo'qotilish imkoniyatlarini inobatga olinishi u yoki bu yoshga yetganlar uchun o'rtacha hayot davomiyligi necha yilga qisqarishi yoki uzayishini ko'rsatib beruvchi miqdoriy natijalarni olish uchun asos bo'la oladi.

Ayrim yosh-jins guruhлари uchun o'lim ko'rsatkichlarining istiqbolli dinamikasini bevosita miqdoriy baholash aholining

kutilayotgan o'rtacha hayot davomiyligi va o'lim jadvallari ko'rsatkichlaridan birining tahlili asosida amalga oshiriladi. Ko'pincha bunday holatlarda o'lib ketish ehtimoli ( $q_x$ ) ko'rsatkichi asosida u yoki bu o'lim sababidan o'limning pasayishi (ko'payishi) yoki to'liq yo'q bo'lib ketishi samarasining hisob-kitoblari qo'llaniladi. Bunda xulosalar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Agar berilgan yosh-jins guruhi uchun ( $q_x$ ) o'lim ehtimoli o'limning ayrim sabablari bo'yicha ehtimollardan  $q_x^{\cdot}, q_x^{\prime\prime}, q_x^{\prime\prime\prime}, \dots$  iborat bo'ladi, deb taxmin qilsak, bunda ushbu umumiy ehtimolni qisman ehtimollarning yig'indisi sifatida tasavvur qilish mumkin:

$$q_x = q_x^{\cdot} + q_x^{\prime\prime} + q_x^{\prime\prime\prime} + \dots + q_x^w. \quad (12.21)$$

Yosh-jins guruhlari bo'yicha aholi o'limining pasayishini hisob-kitob qilish yuqorida keltirilgan formula qatori A.Boyarskiy tomonidan taklif etilgan hisob-kitoblar bo'yicha amalga oshiriladi va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$q_x^{\cdot} = q_x \left( \frac{1 - Q_x}{1 - 0,5Q_x q_x} \right), \quad (12.22)$$

Bu yerda:  $q_x^{\cdot}$  — muayyan bir o'lim sababidan vafot etishning pasayishini hisobga olgan holdagi x yilga teng bo'lgan yoshdagi o'lim ehtimoli;  $Q_x$  — x yoshdagi barcha o'limlardan berilgan o'lim sababining ulushi;  $q_x$  — o'lim jadvallari bo'yicha x yilga teng bo'lgan yoshda o'lim ehtimoli.

Berilgan har bir o'lim sabablari kasallik (har 1000 kishiga to'g'ri keladigan kasallanganlar soni) va o'lim holati bilan aniqlanadi.

U yoki bu profilaktik tadbirlar natijasida kasallanishning kamayishi bir qator holatlarda miqdoriy jihatdan aniqlanishi mumkin. Masalan, bezgakni to'liq bartaraf qilishni oldindan rejalashtirish mumkin yoki u bilan kasallanishni muayyan bir miqdorga u yoki bu tumanlarda mos ravishdagi suv havzalariga ishlov berish va boshqa tadbirlarni qo'llash orqali kamaytirish mumkin. Yuqumli kasallik bilan og'rigan bemorlarni majburiy hospitalizatsiya qilishni kiritishda avvalgi hospitalizatsiya qilishning,

kasallikning qanchaga kamayganligi tajribasini umumlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkin. Profilaktik emlashlarni kiritishda va uning keng qo'llanilishini amalga oshirishda qanchalik miqdorda kasallikni kamaytirishga qodir ekanligi ma'lum.

Shunday qilib, kasallanish va o'limni kamaytiruvchi chora-tadbirlarning samaradorligini birgalikda olib borish orqali ayrim sabablar (kasalliklar) bo'yicha o'lim darajasining umumiy miqdorini kamaytirishni baholash mumkin.

### **12.5. Aholining oilaviy tarkibini prognozlashtirish**

Hozirgi kunda istiqboldagi aholining oilaviy tarkibi va oilalar miqdorini hisoblashning turli hisob-kitob usullari mavjud. Ko'pgina mamlakatlarda, masalan, Frantsiya, Irlandiya, Buyuk Britaniya va AQSHda bunday hisob-kitoblar ikkinchi jahon urushidan buyon amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda qo'llanilayotgan hisob-kitoblar usuli qo'yilgan maqsadi, shu jumladan, ma'lumotlar bazasining mavjudligi bilan ham farqlanadi. Bundan tashqari, usullarning o'zlari ham ancha oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. U yoki bu usulni tanlash statistik ma'lumotlarning to'liqligiga bog'liq bo'ladi.

Nikoh — oila tarkibini istiqbolli hisob-kitob qilish usullari avlodlarning tahliliga yoki muayyan bir vaqtdagi aholi tavsiflarini ko'rib chiqishga asoslangan bo'lishi mumkin. Birinchi holatda shaxslar guruhi hayotining boshlang'ich davridan, masalan, ularning nikohga kirishi davridan to ushbu oila parchalanib ketishigacha bo'lgan davr ko'rib chiqiladi. Avlodlar bo'yicha hisob-kitoblar shaxslar jamlanmasining dinamikasida, rivojlanishida amalga oshadigan jarayonlarni kuzatish va bir vaqtning o'zida ushbu omillarni tahlil qilish imkonini beradi, chunki ushbu omillar turli demografik o'zgarishlarning kelib chiqishini taqozo qiladi. Bunda real avlodlarda kogort, shartli avlodlarda esa demografik jadvallar usuli qo'llaniladi.

Oilalarning rivojlanishini prognoz qilishda kogort usulining qo'llanilishi qator murakkabliklar bilan bog'liq. Avvalambor, ushbu

usul oilaning hozirgi vaqtdagi emas, balki ko'p jihatdan avvalgi davrga taalluqli bo'lgan hodisalarini oila hayotida vujudga kelishini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, kogort usulida zarur ma'lumotlarni olish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar ham mavjud. Kogortlarni tahlil qilish uchun yig'iladigan ma'lumotlarga asoslangan oilalarning anamseptik kuzatishni amalga oshirish juda qiyin va aniq bo'lmagan ma'lumot olish xatari ham mavjud. Keyinchalik parchalanib ketadigan oilalar hayotini retrospektiv jihatdan tahlil qilishning amalda imkoni yo'q va ular birlamchi jamlanmadan tushib qoladi. Shu bilan birgalikda, ushbu oila kategoriyalari oilaning rivojlanish qonuniyatlarining bir shakli hisoblanadi va ularni tadqiq etmasdan turib oilaning rivojlanish tendentsiyalarini to'liq va yorqin tahlilini amalga oshirish mumkin emas. Bir vaqtning o'zida migratsiya oqibatida oilaning rivojlanish jarayonini tahlil qilishda ham murakkabliklar vujudga keladi. Shunday qilib, oilalar sonining istiqbolli hisob-kitoblarida kogort usulidan foydalanish qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, turfa va boy statistikaga ega bo'lgan bir qator mamlakatlar haligacha oilalar tarkibini va miqdorini kogort usuli bo'yicha istiqbolli hisob-kitoblarini amalga oshira olmagan.

Demografik jadvallar usulidan foydalanish esa umuman boshqa masala. Unga ko'ra, muayyan bir shaxslar jamlanmasining hayoti kuzatilib boriladi, lekin ushbu jamlanma shaxslarning gipotetik miqdorini tashkil etib, ular hayotining ma'lum bir davrining konkret alomatlarini tavsiflarini o'zida namoyon etadi. Mohiyatan, aholining nikoh-oilaviy tarkibini o'rganish uchun demografik jadvallar usulini qo'llash aholining oilaviy holati va o'lim jadvallarining kombinatsiyalashgan jadvallarini tuzishni nazarda tutadi.

Aholining nikoh-oilaviy tarkibini istiqbolli hisoblashda demografik jadvallar usulidan foydalanish matematik-statistik modellari yordamida oilalarning vujudga kelishi va parchalanib ketishi jarayonini kuzatish va shu bilan unga ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sir qilishini inobatga olish imkonini beradi.

Kanadalik olim V. Illing oilalar sonini prognoz qilish uslubi-yotini ishlab chiqqan va u quyidagicha amalga oshiriladi:

$$E_1 = E_0 + \overset{t}{E}(M_i - D_i^m - S_i + N_i^m), \quad (12.23)$$

bu yerda:  $E$  — istiqboldagi oilalar soni;  $E_0$  — ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha oilalar soni;  $M_i$  — nikohlar soni;  $D_i^m$  — nikohda bo'lganlar orasidagi o'lganlar soni;  $S_i$  — ajralishlar soni;  $N_i^m$  —  $t$  vaqt davomidagi oilalar migratsiyasining saldosini.

Ushbu berilgan usul aholining tabiiy harakatlanish tendentsiyasini inobatga olishga asoslangan, uning qo'llanilishi kelajakdagi nikoh, o'lim, ajralish, shu jumladan, prognoz qilinayotgan davrda emigratsiya va immigratsiya qilgan oilalarning soniga nisbatan ma'lum bir gipotezalarni qabul qilish va ishlab chiqilishini nazarda tutadi. Odatda, hisob-kitoblarning ushbu barcha komponentlari vaqt davomida o'zgarmas deb qabul qilinadi, biroq ushbu jarayonlar dinamikasining tendentsiyalari ancha batafsilroq ishlab chiqilishi mumkin.

Bugungi kunda oilalar (uy xo'jaliklari) tarkibi va miqdorini prognozlashtirish uslubi keng qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu usul birinchi marta 1930-yili AQSHda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida uy xo'jaliklari prognozlarini ishlab chiqishda qo'llanilgan. 1950-yillarda esa ushbu usul Yevropaning ko'pgina mamlakatlarida qo'llanila boshladi, chunki bu paytga kelib aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida aholining (oila) tarkibi haqida yetarli darajada statistik to'liq va ishonchli ma'lumotlar yig'ilgan.

Oila boshliqlari koeffitsientini hisoblash usuli bo'yicha aholining oilaviy tarkibini prognozlashtirish nafaqat istiqboldagi oilalar, balki ularning o'rtacha kattaligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ham olish imkonini beradi. Ushbu usul yordamida aholining real yosh-jins tarkibining kelajakdagi oilalar va uy xo'jaliklari soni dinamikasiga ta'sir ko'rsatish darajasini baholashni amalga oshirish mumkin. Yoshlar va jinslar bo'yicha oila boshliqlarining (uy xo'jaliklari) taqsimoti istiqbolda oilalarning shakllanishiga turli ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini ko'rib chiqish orqali tahlilni chuqurlashtirish imkonini beradi.

Oila boshliqlari koeffitsientini hisoblash usuli bo'yicha oilaviy holatning hisob-kitoblari aholining yosh-jins tarkibi va miqdorini prognozlashtirish ma'lumotlariga asoslangan. Ushbu hisob-kitoblardagi birinchi qadam — bu oilaviy holat bo'yicha har bir yosh-jins guruhlaridagi aholini istiqboldagi miqdorining taqsimlanishidir. Bu taqsimlashni aks ettiruvchi koeffitsientlar yordamida amalga oshiriladi, masalan, avvalgi yillar uchun. Koeffitsientlar quyidagicha hisoblanadi:

$i$ -jinsdagi va  $j$ -yosh guruhlaridagi aholining miqdori  $S_{ij}$ ;  $i$ -jinsdagi va  $j$ -yosh guruhlaridagi shaxslarning  $k$ -oilaviy holati bo'lgan aholining soni  $S_{ij,k}$  ga teng bo'lsin.

Unda

$$P_{i,j,k} = \frac{S_{i,j,k}}{S_{i,j}}, \quad (12.24)$$

bu yerda:  $i = 15-19$ ,  $k = X$  (bo'ydoqlar)

20-24 B (nikohda bo'lganlar)

... V (bevalar)

70+ R (ajralishganlar)

Ushbu koeffitsientlar asosida aholining oilaviy holati bo'yicha tarkibi  $t$  yildan keyin quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{i,j,k}(t) = S_{i,j} \cdot P_{i,j,k}. \quad (12.25)$$

Hisob-kitoblarning ikkinchi bosqichi — bu oila boshliqlarining yosh, jins va oilaviy holati bo'yicha koeffitsientlarini aniqlashdir. Ushbu koeffitsientlar oila boshliqlari (uy xo'jaliklari) sonining  $H_{ij,k}$  hisob-kitoblar uchun asos bo'ladigan xuddi o'sha yosh-jins guruhidagi va ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha xuddi o'sha oilaviy holatda bo'lgan aholining soniga nisbati sifatida aniqlanadi.

Bundan oila boshliqlari (uy xo'jaliklari)ning kelajakdagi soni  $t$ -yildan keyin  $H_{i,j,k}t = S_{i,j,k} \cdot h_{i,j,k}$  ni tashkil qiladi.

Oila boshliqlarining umumiy soni oilalarning umumiy soni bilan mos tushadi. Xuddi shunday yo'l bilan to'liq bo'lmagan oilalar boshliqlari va yakka yashovchilarning soni hisoblab chiqiladi.

Oilalarda yashovchi oilaning boshqa a'zolarining soni barcha aholining soni va tugal, tugal bo'lmagan oilalar hamda yakka



yashovchilarning sonlari o'rtasidagi farq sifatida kelib chiqadi. Oilaning boshqa a'zolarining soni istiqbolda oilalarning o'rtacha kattaligini hisob-kitob qilishda yordam beradi. Natijada oilaning o'rtacha kattaligi  $t$ -yilda quyidagiga teng bo'ladi:

$$\bar{F}(t) = \frac{H(t)+M(t)}{H(t)}; \quad (12.26)$$

bu yerda:  $N$  — oila boshliqlari (uy xo'jaliklari) soni;  $M$  — boshqa oila a'zolarining soni.

Oila boshliqlari koeffitsienti usuli orqali aholining oilaviy tarkibini hisob-kitob qilishdagi asosiy uslubiy muammo turli yosh-jins guruhlari uchun oilaviy holat bo'yicha ushbu koeffitsientlarning istiqboldagi dinamikasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ushbu holatda oddiygina qilib oilaviy holat bo'yicha aholi hisob-kitoblari, uning yosh-jins tarkibi bo'yicha ham bir xil deb, taxmin qilish maqsadga muvofiq. Bu istiqboldagi davrda aholining oila turlari bo'yicha tarkibidagi asosiy o'zgarishlarni tavsiflaydi.

#### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Demografik prognozlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Demografik prognozlashtirishning qanday yo'nalishlarini bilasiz?
3. Aholi harakatining istiqboldagi ko'rsatkichlarini baholash uchun qanday usullardan foydalaniladi?
4. Demografik prognozning qanday shakllari mavjud?
5. Prognozning tasdiqlanishi deganda nimani tushunasiz?
6. Demografik prognozlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushuntirib bering.
7. Aholi soni va tarkibini prognozlashtirishda qanday usullar qo'llaniladi?
8. Kogort uslubining mohiyatini tushuntirib bering.
9. Aholi o'limini prognozlashtirishda qaysi usullardan foydalaniladi?
10. Oilalar sonini prognoz qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?

---

## 13-bob. DEMOGRAFIK SIYOSAT

### 13.1. Demografik siyosatning mazmuni va uni o'tkazish uslublari

Demografik siyosat deganda, hozirgi davr hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholining takror barpo bo'lishi va dinamikasi sohasida muayyan bir sifat va miqdorga erishishni nazarda tutuvchi birlashgan vositalar va fikrlar birligining davlat miqyosida qabul qilingan tizimi tushuniladi.

Demografik siyosatni o'tkazish quyidagi shart-sharoitlarga rioya qilishni talab etadi:

- siyosatning maqsadini tavsiflovchi vazifa va vaqtini belgilovchi konsepsiyaning mavjudligi;
- qabul qilingan konsepsiya doirasida siyosatning barcha tadbirlarini moliyalashtirishga sarflanishi zarur bo'lgan resurslar;
- o'tkazilayotgan siyosatning asosiy strategik fikrlarini qo'llovchi o'zaro mutanosib fikrlar.

Aytish joizki, demografik siyosatni o'tkazish uchun iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy va ijtimoiy-psixologik uslublardan foydalaniladi.

**Iqtisodiy uslub** asosan tug'ilish darajasi aholi ko'payishini ta'minlay olmagan hollarda qo'llaniladi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador ayollarga farzand ko'rgandan keyin va farzandi 2-3 yoshga to'lnunga qadar maxsus nafaqalar ajratiladi hamda turli imtiyozlar beriladi.

**Ma'muriy-huquqiy uslub**da aholining takror barpo bo'lishiga qonun hujjatlari orqali ta'sir ko'rsatiladi. Masalan, bu uslub abortlarni qonun yo'li bilan ta'qiqlash, nikohga kirish yoshini ko'tarish, aholining migratsion harakatini cheklash yoki rivojlantirish, er-xotin ajrashganda ona va bola huquqlarini himoya qilish, homilador ayolni ishga qabul qilishda yoki bo'shatishda

ularning huquqlarini himoyasi va boshqa tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Demografik siyosat o'tkazishning **ijtimoiy-psixologik uslubi** aholini «demografik tarbiyalash» deb ham ataladi. Aholini demografik tarbiyalash orqali yosh avlodning oilaga, oilada kutilayotgan farzandlar soniga bo'lgan munosabatini davlat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi salomatligiga mos ravishda shakllantiriladi. Bunda oila asosiy tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarning «demografik savodxonligi»ga katta e'tibor beriladi. Demografik tarbiyaning yana bir muhim o'chog'i ommaviy axborot vositalari orqali aholining demografik mayliga ta'sir o'tkazish hisoblanadi.

Demografik siyosatning istalgan strategiyasi doirasida davlat o'zining ijtimoiy jarayonlarini boshqarish huquqini amalga oshiradi. Shu bilan bir vaqtda, davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosatning maqsad va vazifalari oqimida borayotgan aholi qismining xarajatlarini qoplash ham davlat zimmasida bo'ladi. Bunday siyosat turli ijtimoiy-demografik guruhlar, hududiy va etnik jamoalarning hayotiy qiziqishlari va qadriyatlariga mos ravishda maksimal differentsiallashgan bo'lishi lozim. Shundagina demografik dasturning u yoki bu jihatiga qiziquvchilarning soni kamayib, dasturlarni amalga oshirish xarajatlarining samaradorligi oshishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, siyosatchilar tug'ilish darajasining kamayishi bilan bog'liq bo'lgan demografik rivojlanishning salbiy tendentsiyalariga qaramay, demografik siyosatni olib borishda to'g'ri chiziqli qarorlarni qabul qilish, ya'ni konkret tor doiradagi demografik maqsadlarni ilgari surishni xohlaydi. Bunda ijtimoiy rivojlanishning global dasturlarida demografik yoki an'anaviy integratsiya siyosatiga ahamiyat beriladi. Demografik dasturlarga nisbatan bunday ehtiyotkorona munosabatalarni shakllantiruvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- ong va xulqning individuallasuvi davlatning bu yo'nalishdagi har qanday harakatlarini ommalashtirmaydi;
- demografik investitsiyalar tez va muhim ijobiy natijalarga erishish imkonini bermasligi sababli davlat arboblarning siyosiy imidjini oshirmaydi;

- demografik dasturlar xarajatlarni talab etadi. Masalan, bir marta erishilgan tug‘ilish va o‘lim darajasini bir maromda ushlab turish uchun ketadigan xarajatlar vaqt o‘tishi bilan rasmiy ravishda oshirilib borishi lozim. Buning hisobiga demografik dasturlar, umuman jamiyatga foyda keltirmaydigandek bo‘lib ko‘rinadi. Bundan tashqari, aholi taklif qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga tezda moslashib, keyinchalik ularga e‘tibor qilmay qo‘yadi.

Shunday qilib, demografik siyosat aholi siyosatining uzviy qismi hisoblanib, u orqali kutilgan, istalgan aholining takror barpo bo‘lish turiga erishish mumkin.

### **13.2. Tug‘ilish va oila sohasidagi demografik siyosat**

Bugungi kunda dunyoda aholi sonining yuqori sur‘atda o‘sib borishi yoki kamayishi muammosidan tashvishga tushib, tug‘ilish darajasini tartibga solishga harakat qilmayotgan deyarli birorta davlat qolmadi. Tug‘ilishni tartibga solishga urinayotgan barcha mamlakatlar diametral qarama-qarshi maqsadlari va qiziqishlari bilan farqlanuvchi ikki guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarda demografik o‘tish hali tugallanmagan va tug‘ilish darajasi nisbatan yuqori bo‘lib, ularni asosan aholining o‘sish sur‘atlarini kamaytirish va shu yo‘l bilan mamlakat iqtisodiyoti va resurslariga bo‘lgan demografik bosimni pasaytirish masalasi tashvishga soladi. Ushbu masalada eng faol pozitsiyani aholisi soni jihatidan eng ko‘p hisoblangan Xitoy va Hindiston mamlakatlari egallaydi. Bu mamlakatlar turli xil, jumladan, regressiv chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘li bilan aholini keskin o‘sishini to‘xtatishga urinmoqdalar. Ikkinchi guruhga esa sanoati yuksak darajada rivojlangan, biroq tug‘ilish hatto avlodlar almashinuvini ham ta‘minlab beraolmaydigan, ko‘pincha depopulyatsiyaga olib keladigan darajada past bo‘lgan mamlakatlar kiradi. Bu mamlakatlarning barchasi ham depopulyatsiya muammosining kelib chiqish vaqti, uning davomiyligi, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sabablariga ko‘ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Buning hisobiga bu mamlakatlarda qator muhim

masalalar bo'yicha yaqqol differentsiatsiya namoyon bo'ladi. Tug'ilish darajasi va tipi o'xshash bo'lgan mamlakatlarda demografik siyosatni o'tkazish yoki aksincha, uni rad etish haqida qaror qabul qilinishining sabablari orasidan quyidagilarni ajratish mumkin: tug'ilishning haqiqiy darajasi, uning tendentsiyalari va aholi soni dinamikasini baholash, ulkan kataklizmalar (birinchi navbatda, urushlar) natijasida aholi orasidagi yo'qotishlar, strategik (iqtisodiy, geosiyosiy, siyosiy-ma'naviy) rejadagi muammolarni yechish zaruriyati. Bu sabablarning birlashishi ba'zi mamlakatlarda ziddiyatlidir. Shu ma'noda tug'ilish sohasida demografik siyosatni olib borish zaruriyatini ochiqdan ochiq rad qiluvchi ikkita mamlakat — AQSH va Buyuk Britaniya alohida qiziqish uyg'otadi. Bu mamlakatlardagi tug'ilish darajasi, hatto aholining takror barpo etilishini ham ta'minlay olmasligiga qaramay, har ikkala mamlakat ham o'zlaridagi tug'ilish darajasini ichki va tashqi qarashlar hamda ehtiyojlarni qonuniylashtirish uchun yetarli, deb hisoblashadi. Ikkala mamlakatda ham «farzandlarning tug'ilishi, oila va insonning shaxsiy ishi, aholining o'sishi esa davlatga iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy foyda keltirmaydi», degan fikr ilgari suriladi. AQSH va Buyuk Britaniyadan tashqari Italiya, Irlandiya va bir necha boshqa mamlakatlar tug'ilish darajasiga ta'sir etuvchi choralarni ishlab chiqish borasida o'rtacha pozitsiyani egallamoqda. Bu mamlakatlar farzandlar tug'ilishini tartibga solishni ma'naviy va etnik me'yorlarga mos kelmaydi, deb hisoblaydi hamda bu masalada katta miqyosda hech qanday siyosat olib borilmaydi. Bu mamlakatlarning hukumati hamda jamoatchilikning nikoh-oila munosabatlari, shuningdek, abort va kontratsepsiya masalalarida konservativ fikr bildiriladi.

Hududi, aholisining soni, iqtisodiy rivojlanish darajasi va boshqa belgilari jihatidan xilma-xil bo'lgan bu mamlakatlarni ikkita holat birlashtiradi. Birinchidan, bu mamlakatlardan birortasi ham XX asr davomida ulkan insoniy yo'qotishlarni boshdan kechirmagan, ikkinchidan, demografik o'sish zarurati bilan bevosita bog'liq bo'lgan strategik (birinchi navbatda, geosiyosiy va iqtisodiy) qarashlar mavjud emas.

XX asrdan boshlab Frantsiya, Belgiya va Germaniyada demografik siyosatga butunlay o'zgacha qarashlar mavjud edi. Bu mamlakatlar XIX asrning oxiridan XX asrning boshiga qadar sodir bo'lgan ketma-ket urushlar oqibatida kattagina yo'qotishlarni boshdan kechirdi, iqtisodiy muvozanat buzildi va uni tiklash avj olib borayotgan depopulyatsiya sharoitida juda mushkul bo'ldi. Shu bilan birga, bu mamlakatlar Yevropadagi geosiyosiy tenglikni saqlash zaruriyatiga suyangan holda o'zining demografik salohiyatini qayta tiklashiga harakat qildilar. Aslida Frantsiyada 1870-yildan 1910-yilgacha bo'lgan butun davr mobaynida pronatalistik kayfiyat hukm surib keldi.

Turli mamlakatlardagi farzandli oilalarga beriladigan yordam choralarini tahlil qilish, ularni to'rt guruhga ajratish imkonini beradi:

1. Qonuniy choralar;

2. Farzandli oilalardagi moddiy qiyinchiliklarni kamaytirishga va talab qilinayotgan reproduktiv xulq evaziga shakllangan mukofotlarni taqdim etishga qaratilgan iqtisodiy choralar;

3. Ayollar bandligi va onalikka xalaqit beruvchi qarama-qarshiliklarni yengishga qaratilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar;

4. Olib borilayotgan siyosat va uning maqsadlariga jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ruhiy ta'sir choralari.

**Qonuniy chora-tadbirlar.** Tug'ilishni tartibga solishning huquqiy sohasiga quyidagi masalalar kiradi:

- nikohga kirishning minimal yoshini belgilashdagi nikoh-oilaviy huquq, ajralish huquqi, nikohda va nikoh bekor qilingandan so'ng tug'ilgan farzandlar uchun ota-onalarning mas'ulligi;

- abort, kontratsepsiya va sterilizatsiyani amalga oshirish huquqini qonuniy tartibga solish.

Qonuniy chora-tadbirlarni mamlakatlararo qiyoslash juda murakkab, sababi huquqiy dalolatnoma, oila kodeksi va shunga o'xshash qonun hujjatlarini qabul qilish yoki bekor qilinishi aksariyat mamlakatdagi tarixiy an'analar, diniy qarashlar, milliy mentalitet, shuningdek, o'tmishdagi demografik siyosat tajribalari natijalarining tahlillari asosida amalga oshiriladi.

Nikoh-oila qonunchiligi va nikohdagi xulq tipini tartibga solish masalasida O'zbekiston yuqorida qayd etilgan mamlakatlardan tubdan farq qiladi. Gap shundaki, bu mamlakatlarning barchasida nikohning Yevropa tipi, ya'ni kech nikohga kirish, nikohsizlik darajasining yuqoriligi, nikohdan oldin norasmiy birgalikda yashashning keng tarqalganligi, aksariyat farzandlarning norasmiy nikohda tug'ilishi ustun turadi.

O'zbekistonda birinchi nikohga kirishning o'rtacha yoshi Yevropa standartlariga ko'ra past (ayollar uchun — 17, erkaklar uchun — 18 yosh) va voyaga etgandan so'ng darhol tuzilgan nikohlar sonining ko'pligi holatida nikohga kirish minimal yoshining o'zgarishi, reproduktiv natijalarning taqdiriga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Abortlar, kontrasepsiya, sterilizatsiya masalasidagi qonunchilik barcha mamlakatlarda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, tarixiy jihatdan oila va shaxsning bu masalada mustaqil qaror qabul qilishini ta'qiqlashdan tortib to to'la hajmli tolerantlikkacha rivojlangan. Hozirgi kunda bor yo'g'i sanoqli mamlakatlargina (Irlandiya, Portugaliya, Malta) abortlarning legalizatsiyasiga qarshi keskin pozitsiyani egallab turibdi. O'z navbatida, qonunni kuchaytirishga qaratilgan har qanday urinishlar jamoatchilik fikrining qat'iy qarshiliga duchor bo'lmoqda.

Abortlar haqidagi qonunchilik tarixi 1810-yildan, ya'ni Frantsiyada Napoleon kodeksi qabul qilingan davrdan boshlangan. Chamasi, abortlar masalasiga e'tibor bundan ancha ilgari qo'llanilib kelgan, biroq aynan hozirgi davrga kelib davlat siyosatining predmeti tarzida shakllandi. Abort qotillikka tenglashtirilib, uning ishtirokchilari jiddiy jazolangan, bu huquqiy me'yorlar Frantsiyada 1975-yilga qadar saqlanib kelgan va butun o'tgan davr mobaynida nafaqat ulkan jarimalar, balki qamoq jazosi ham tayinlangan. Ko'pchilik mutaxassislar fikriga ko'ra, bunday chora-tadbirlar qo'yilgan maqsadga, ya'ni tug'ilish darajasini oshirishga xizmat qilmasdan kriminal abortlar sonining oshishiga olib keladi. Abort masalasidagi qonunchilikni ommaviy liberalashtirish 1960-yillardan boshlanib, 1970-yillarning o'rtalarida abortni butunlay ta'qiqlagan mamlakatlar deyarli qolmadi.

**Iqtisodiy chora-tadbirlar.** Demografik siyosatning ushbu guruh choralari juda xilma-xildir. Ularda farzandli oilalarga nafaqa ajratishdan tashqari, farzandlari bor yoki farzand ko'rgan oilalarga (ota-onalarga) turli imtiyozlar berishni nazarda tutadi. Shu o'rinda oilalarga ajratilgan nafaqa uchun sarflanadigan mablag'larga nisbatan, farzandli oilalardagi moddiy diskriminatsiyani bartaraf etishga qaratilgan, ijtimoiy siyosat sohasiga tegishli imtiyozlarni berishga ko'proq mablag' sarflanadi. Shu usul bilan investitsiyalar ustidan maksimal davlat nazorati o'rnatiladi.

Tug'ilishni iqtisodiy rag'batlantirishning turli mamlakatlardagi tajribasi asosida eng keng tarqalgan yo'nalishlar quyidagilardir:

1. Farzandli oilalarga beriladigan nafaqalar.

- oyma-oy beriladigan nafaqa yoki oiladagi farzandlarning soni, tug'ilish ketma-ketligi va oilaning umumiy daromadiga qarab belgilanadigan nafaqa;

- farzand tug'ilishi munosabati bilan bir martalik beriladigan nafaqa;

- homiladorlik va tug'ruqda qisman yoki to'liq haq to'lanadigan ta'til;

- homilador ayollar, tuqqan ayollar hamda yangi tug'ilgan chaqaloqlar salomatligini tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar.

2. Ishlovchi ota-onalar uchun beriladigan soliq imtiyozlari hamda ularga uy-joy uchun ajratiladigan kreditlar va subsidiyalar.

**Oyma-oy to'lanadigan yoki oilaga belgilanadigan nafaqalar.**

Ushbu nafaqa turi eng keng tarqalgan bo'lib, mamlakatlarda nafaqaning bu turini belgilash tartibi turlicha. Masalan, Avstriya va Daniyada nafaqa barcha farzandli oilalarga oilaning daromadidan qat'iy nazar tayinlanadi, Frantsiya va Germaniyada nafaqaning miqdori oilaning daromadi va farzandlar soniga bog'liq. Buyuk Britaniyada oiladagi farzandlar sonidan qat'iy nazar faqatgina kam daromadli oilalar nafaqa olish huquqiga ega. Italiya va boshqa bir qancha mamlakatlarda oila daromadining yuqori chegarasi belgilangan bo'lib, shu miqdordan ortiq daromad oluvchi oilalarga nafaqa berilmaydi.

Oyma-oy to'lanadigan nafaqa miqdori oiladagi farzandlar sonining oshishi bilan ortib boradi, sababi ko'pchilik mamlakatlarda



siyosatning ushbu yo'nalishi oilada farzandlar tug'ilishi, ularni tarbiyalash va ma'lumot berish bo'yicha xarajatlarni maksimal darajada kompensatsiya qilish davlatning burchi ekanligini nazarda tutadi.

Nafaqa olishning yuqori chegarasi turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, u 16-18 yoshgacha belgilangan. Ko'pchilik mamlakatlarda nafaqa yoshining kattalashishi bolaning ma'lumot olishi bilan bog'liq (Germaniya, Niderlandiyada 27 yoshgacha). Eng ko'p miqdordagi oilaviy nafaqalar Belgiyada belgilangan (o'rta oyluk maoshning 70 foizigacha). Biroq, bunda ko'proq oiladagi farzandlar soni emas, oilaning moddiy ta'minlanganlik darajasi hisobga olinadi. Oilaga beriladigan nafaqalarni moliyalashtirish har doim ham budjet mablag'lari hisobiga amalga oshirilmaydi. Masalan, Avstriyada oilaviy nafaqalar markazlashtirilgan holda yagona kompensatsion jamg'arma hisobidan to'lanadi. Jamg'arma mablag'lari quyidagi manbalardan shakllanadi:

1. Tadbirkorlar to'lovlari;
2. Davlat va mahalliy budjetdan ajratmalar;
3. Hududlardagi aholining soniga mutanosib ravishdagi to'lovlar.

Belgiyada nafaqalar milliy ijtimoiy himoya boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv jamg'armalari tadbirkorlardan tushgan to'lovlar asosida shakllanadi. Italiya va Lyuksemburgda oilaviy nafaqalar ijtimoiy sug'urta jamg'armalari hisobiga moliyalashtiriladi.

O'zbekistonda voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga oyma-oy to'lanadigan nafaqa 16 yoshgacha (umumta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotganlarga 18 yoshgacha) bolalari bo'lgan oilalarga tayinlanadi va to'lanadi. Nafaqa ota-onalardan birining shaxsiy arizasi asosida 6 oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi, ushbu muddat tugagach, arizachi yangi muddatga nafaqa to'lashni davom ettirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Oilaga nafaqa:

- bir bolali oilalar uchun — eng kam oyluk ish haqining 50 foizi miqdorida:

- ikki bolali oilalar uchun — 100 foizi miqdorida;
- uch bolali oilalar uchun — 140 foizi miqdorida;
- to‘rt va undan ko‘p bolali oilalar uchun — 175 foizi miqdorida belgilanadi.

Agar belgilangan tartibda nafaqa belgilangan davr mobaynida eng kam oylik ish haqi miqdori o‘zgarsa, nafaqa miqdori eng kam oylik ish haqi miqdori o‘zgargan oydan boshlab tegishli ravishda ko‘payadi.

Respublikada quyidagi voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan oilalar nafaqalar olishda imtiyozli huquqqa ega:

- nogiron chaqaloqli (bolali) oilalar;
- ota-onaning ikkalasi ham bo‘lmagan, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug‘ullanishadigan oilalar;
- bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo‘lgan oilalar:
  - ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo‘lgan, mehnat organida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar.

O‘zbekistonda oyma-oy to‘lanadigan nafaqalarning to‘g‘ri hisoblanishini, o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish Moliya vazirligining nazorat-taftish Bosh boshqarmasi va uning joylardagi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**Farzand tug‘ilishi munosabati bilan beriladigan bir martalik nafaqa.** Nafaqaning bu turi oyma oy beriladigan nafaqalarga nisbatan kamroq tarqalgan.

O‘zbekistonda bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi. Ish haqiga koeffitsient qo‘llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan ayollarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishli ish yoki o‘qish joyidan to‘lanadi. Ishlamaydigan va o‘qimaydigan ota-onalarga bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari tomonidan tayinlanadi va to‘lanadi. Agar ayol homiladorlik bo‘yicha ta‘til davrida ishdan bo‘shab, shu davr mobaynida homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa olgan bo‘lsa,

bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi. Bola o'lik tug'ilgan hollarda nafaqa to'lanmaydi.

Shunday qilib, bo'lg'usi farzand xususida davlatning olib boradigan siyosati ikki qismdan iborat bo'ladi. Bir tomondan homiladorlik va tug'ruqning sog'lom kechishi uchun barcha sharoitlarni yaratsa (homiladorlarni tekshirish, tug'ruqqacha va tug'ruqdan keyingi ta'til, homiladorlarning ish o'rinlarini saqlab qolish va h.k), ikkinchi tomondan, davlat qaysidir ma'noda tug'ilgan farzandlarni boqish, tarbiyalash va ularga ma'lumot berishda ishtirok etadi, aslida farzandning tug'ilishi va vaqtini uning ota-onasi belgilaydi va uni ta'minlash asosan ularning vazifasidir. Umuman olganda, bir martalik nafaqalar bilan ta'minlash tamoyili pronatalistik siyosatning boshqa chora-tadbirlarga qaraganda ancha differentsiallashgan hamda ko'p darajada ijtimoiy manzil tavsifiga ega bo'lib, oilaning daromadlari va ijtimoiy maqomiga bevosita bog'liq.

**Homiladorlik va tug'ruq bo'yicha ta'til hamda uni to'lash tartibi.** Mamlakatlar bo'yicha homiladorlik va tug'ruq uchun ta'til berish tartibi turlicha bo'lib, undagi asosiy farqlar davlat va xususiy sektorda ishlovchi ayollar orasida kuzatiladi. Ularga beriladigan ta'til davomiyligi to'lovning miqdorlari va moliyalash mablag'lari bir biridan farq qiladi. Odatda, davlat sektorida ishlovchi ayollarga uzoqroq davom etuvchi ta'til va katta o'lchamdagi kompensatsiyalar beriladi.

Bunday hollarda ta'tilga haq to'lash yoki to'liq davlat budjeti mablag'lari hisobiga yoki kompensatsiyalashgan shaklda (ijtimoiy va tibbiy sug'urta budjeti va jamg'armalari) amalga oshiriladi. Xususiy sektorda ishlovchi ayollar esa mablag'larni turli sug'urta jamg'armalaridan oladi. Ko'pincha kompensatsiyalar miqdori xususiy sektordagi tadbirkorlar faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Qator mamlakatlarda homiladorlik va tug'ruq bo'yicha ta'til huquqi, sug'urta badallarini to'lash va homiladorlikka qadar shu ishda qancha muddat ishlaganligiga bog'liq.

Masalan, O'zbekistonda homiladorlik va tuqqandan keyingi davrlar ta'tili sifatida ayollarga tuqqaniga qadar 70 kalendar kun va tuqqanidan keyin 56 kalendar kun (tug'ish qiyin kechgan

yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan hollarda - 70 kalendar kun) ta‘til beriladi. Bu nafaqani tayinlash va to‘lash uchun belgilangan tartibda mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo‘ladi hamda ko‘rsatilgan barcha davr uchun to‘lanadi. Oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarini tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa ayol ishga kelishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi. Ishni vaqtinchalik to‘xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo‘shimcha ta‘til davrida homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘til berilgan holda, nafaqa ko‘rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi. Xodim yillik ta‘tilda va bolani parvarishlash uchun ta‘tilda bo‘lgan vaqtda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta‘tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta‘til davri uchun nafaqa ta‘rif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta‘til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o‘rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo‘lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsienti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa, shu jumladan, ayrim hollarda, ya‘ni mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko‘ra bekor qilingandan keyin bir oy ichida vaqtincha mehnatga layoqatsizlik yoki homiladorlik va tug‘ish ta‘tili boshlangan bo‘lsa, nafaqa yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limi tomonidan ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

**Homilador ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlar sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan choralar.** Bu guruhga kiruvchi chora-tadbirlar ko‘proq sog‘liqni saqlash va ijtimoiy profilaktik tavsifda bo‘lib, tug‘ilishni rag‘batlantirish bilan bevosita bog‘liq emas. Bu choralar homiladorlik bo‘yicha ayollarni o‘z vaqtida ro‘yxatga olish va qonun tomonidan belgilangan tartibda

tekshiruvdan o'tish zaruriyatini nazarda tutadi. Bunday tadbirlarning asosiy maqsadi homila va homiladorlik patologiyalarini erta aniqlash, homiladorlikning kechish monitoringini olib borish, homilador ayollarda kuzatiladigan ijtimoiy patologiyalar — nar-komaniya, alkogolizm va boshqa kasalliklarni profilaktika qilishdan iborat.

Ayollar homiladorlik davridagi adekvat xulqi turli shakldagi moddiy rag'batlantirishlar, ya'ni tibbiy va ijtimoiy sug'urta, bir martalik nafaqa olish huquqi, homiladorlik va tug'ruq ta'tiliga haq to'lash, oilaviy nafaqalar bilan bog'liq.

**Soliq imtiyozlari.** Soliq imtiyozlari xilma-xil bo'lib, ularni qo'llash tajribasi mamlakatlar bo'yicha bir-biridan farq qiladi.

Soliq imtiyozlarini qo'llashning umumiy belgilariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- er va xotinning daromadlarini alohida hisobga olish;
- oilaviy nafaqalar (kamdan kam holatlarni hisobga olmaganda) soliqqa tortiladigan daromad miqdoriga kiritilmaydi;
- yashash minimumi soliqqa tortilmaydi;
- oilaning uy-joy sharoitini yaxshilash uchun sarflanadigan xarajatlari qisman yoki to'liq soliqdan ozod qilinadi;
- qator hollarda uy-joy solig'i kamaytiriladi (masalan, Germaniyada har bir farzandga 10 foizdan);
- oilada boquvchining zimmasiga to'g'ri keladigan har bir oila a'zosining (boqimanda)ning hisobidan kelib chiqqan holda soliq stavkalarini kamaytirish.

**Uy-joy sotib olish uchun kreditlar.** Tug'ilishni barqarorlashtirish yoki rag'batlantirish siyosatini olib boruvchi mamlakatlarning ko'pchiligida uy-joyni kreditlashning maxsus dasturlari mavjud emas. Oilalarga uy-joy krediti berilgan hollarda ham bu kreditlash asl demografik maqsadlarni emas, balki oilaning tarkibiga, undagi farzandlarga bog'liq bo'lmagan holda, oilaning yashash sharoitini yaxshilashni ko'zlab amalga oshiriladi. Daniya davlati bundan mustasno bo'lib, bu yerda farzandli oilalarning uy-joy sharoiti aholining boshqa qismiga nisbatan yaxshiroq, mamlakatda uy-joyni ijaraga olish uchun subsidiyalar maksimal 15 foizgacha, qo'shimcha subsidiya har bir farzandga 15 foiz miqdorda ajratiladi.

Shunday qilib, ikki nafar farzandi bor oilaga ajratiladigan subsidiya miqdori 45 foizni tashkil etadi.

Qonunga ko'ra, hozirgi davrda har bir yetarli daromad darajasiga ega bo'lgan oila omonat banki yoki boshqa tijorat bankidan ma'lum foiz hisobida kredit olishi mumkin. Mavjud uy-joy kreditlash tizimini ipoteka krediti misolida ko'rib chiqsak.

Kreditning asosiy shartlari:

- kredit oluvchida sotib olinayotgan uy-joyning 20-30 foizidan kam bo'lmagan pul mablag'larining mavjud bo'lishi;
- kreditni oyma-oy oila budjetining 40 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lash imkoniyati;
- kredit oluvchi tomonidan zayomning ta'minlanishi.

Ipoteka krediti miqdori 17 000 dollardan 20 000 dollargacha bo'lib, 15 foiz ustama bilan 10-15 yil muddatga beriladi. Kredit miqdoridan qat'iy nazar kreditni reallashtirish uchun ketadigan xarajat taxminan 2,5 ming dollarni tashkil qiladi. Ko'rinib turibdiki, kreditlashning bunday sxemasida ko'pchilik salohiyatli istemolchilar bozordan uzilib qoladi. Sababi, yosh oilalar ham, ko'p bolali oilalarda ham kreditni ko'pgina shartlarini bajarish, ayniqsa, birinchi kredit uchun mablag'ni to'lash va garovga mulk qo'yish imkoniyati yo'q.

Tug'ilishning turg'unligini ta'minlash va uni rag'batlantirishning turli chora-tadbirlarini amalda qo'llagan turli mam-lakatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, bu borada aniq muvafaqqiyatga olib keluvchi universal strategiya mavjud emas. Demografik siyosat investitsiyalari samaradorligini kamayishining asosiy sababi oiladagi farzandlar soni va ularning tug'ilish muddatlari masalasida individual qabul qilinish lozim bo'lgan qarorlarga tashqaridan ta'sir qilishga nisbatan jamoatchilik fikrining o'zgarishidir.

**2. Tug'ilishning iqtisodiy rag'batlashtirishi** miqyoslarini aniq-lashda uchta fikr-mulohazadan kelib chiqish lozim. Birinchidan, bolali oilalarga beriladigan nafaqalarning miqdori farzandlarni boqishga ketadigan real xarajatlar miqdoriga mos kelmaydi va hech bo'lmaganda rag'batlantiruvchi natijaga erishish uchun nafaqalarni printsiplial oshirish lozim. Mutaxassislarning fikricha,

bolalarga to'lanadigan nafaqalar aholining ko'pchilik qismini qiziqtiradi, biroq bu nafaqalar oiladagi farzandlarga kun sayin oshib boruvchi xarajatlarini qoplash darajasida yetarli bo'lgandagina samara beradi.

Ikkinchidan, nafaqalar miqdori oshirilganda davlat budjetidan sarflanadigan mablag'lar miqdori ham oshadi. Bunday sharoitdan chiqishining yagona yo'li nafaqalarning manzillilik tamoyillarini amalga oshirishdir. Ko'proq e'tibor hali reproduktiv faoliyatini to'liq amalga oshirishga ulgurmagani bitta farzandi bor yoki farzandi yo'q yosh oilalarga qaratilishi ularning ichida daromadi kam bo'lgan yuqori xavf guruhlarini ajratish lozim. Kam bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash nogiron farzandi bo'lgan va shunga o'xshash oilalarni qo'llab-quvvatlashga teng bo'lib, bu ijtimoiy himoya tizimining vazifasidir.

Uchinchidan, nafaqat bolali oilalarning yashash darajasiga, balki samaradorlikka erishish imkoniyatlariga qarab ham nafaqalar miqdorining hududiy differentsiatsiyasini yo'lga qo'yish lozim. Sababi, qishloq joylarida yashovchi aholi orasida farzand ko'rishning avvalgi me'yorlari saqlanib qolgan.

Shunday qilib, tug'ilish sohasidagi demografik siyosat tug'ilish darajasini tartibga solish (kamaytirish yoki o'stirish) maqsadida amalga oshiriladi.

### **13.3. O'limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash sohasidagi siyosat**

Aholi salomatligini mustahkamlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosat tug'ilishni tartibga solish siyosatiga nisbatan ijtimoiy siyosatga yaqinroq integrallashgan. Bunday mustahkam integrallashuvning asosiy sababi, uning ikki turda namoyon bo'ladigan universaligidadir.

Birinchiidan, har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyatdan ushbu sohada siyosat maqsadining o'zi universaldir. Inson hayotini uzaytirish, uning sifatini, ya'ni sog'lom va faol hayot davrini yaxshilash asosiy ijtimoiy qadriyatlar jumlasiga kiradi. Shu sababli, bu sohada olib boriladigan siyosatning maqsadlari hech qanday

bahs-munozaralarni keltirib chiqarmaydi; kishilik jamiyati rivojlanishining muayyan davrlari va epidemiologik o'tishning turli bosqichlarida bo'lgan konkret aholi guruhlariga nisbatan harakatlarning doimiy yo'nalishlari o'zgartiriladi va maqsadga erishishning adekvat va samarali usullari hamda choralari tanlanadi.

Ikkinchidan, aholi sog'lig'ini saqlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosat ijtimoiy siyosat kabi barvaqt keksayish, kasalliklarning ko'payishi, salomatlikning pasayishi oqibatida aholini yo'qotishlarni kamaytirishga qaratiladigan ushbu siyosat ta'sir jihatdan universal, chunki bu siyosatning maqsadlari barcha aholi uchun yagona bo'lib, aholining jamiki ijtimoiy, demografik, hududiy va boshqa guruhlarini, davlat oldida sog'liqni saqlash va inson hayotini uzaytirish dasturlarini amalga oshirishda teng ekanligi va salomatlik sohasidagi ehtiyojlarini qondirishdan hech qanday kamsitishga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadi.

Aholining sog'lig'ini mustahkamlash va umrini uzaytirish bo'yicha uzoq muddatli siyosatni ishlab chiqishda har qanday davlat uchun bu siyosatning ikkita o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarini farqlash lozim. Birinchisi — aholi salomatligini va o'limning yosh-jins bo'yicha shakllanish tarixi va hozirgi tendentsiyalarning holati haqida umumiy va alohida hududiy, ijtimoiy, etnik hamda boshqa adekvat tasavvurlarning mavjudligi. Ushbu holatning batafsilligi olib boriladigan siyosatning yaqin va uzoq istiqbolli dasturlarini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Aholi salomatligini mustahkamlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosatning ikkinchi tarkibiy qismi taxmin qilinayotgan siyosatning chora-tadbirlari, yo'nalishlari va tamoyillarini qo'yishdan maqsad doirasida umumlashtiruvchi konsepsiyadir. Nisbatan kontsentrlangan holatda ushbu konsepsiya Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining dunyodagi o'limni kamaytirish sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan mamlakatlarning tajribalarini umumlashtiruvchi «Salomatlik barcha uchun» strategiyasida o'z aksini topgan. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, insonlar faqat iqtisodiy rivojlanishga erishish vositasi sifatida qaralмай, insoniyat inson omilidan iborat bo'lib qolmasdan va iqtisodiy o'sish kishilik



jamiyatining hisobiga emas, aksincha ularning qiziqishlari yo'lida amalga oshirilsagina strategiya samarali bo'lishi mumkin. Bu siyosat deklaratsiya emas, biroq real faoliyatning zamonaviy ta'minotidir. Bu faoliyat natijasida rivojlangan mamlakatlarda ilgari ham, hozirda ham inson kapitalini rivojlantirishga anchagina mablag'larning investitsiyasi davom etib kelmoqda. Buni sog'liqni saqlash strategiyasida qo'llanilganda eng kamida quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilishni anglatadi.

**Sog'liq huquqini insonning eng muhim huquqlaridan biri deb tan olinishi.** Davlat har bir insonning qadrini, shuningdek salomatlik borasida barcha insonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklarining tengligini tan oladi va tasdiqlaydi.

**Salomatlik va uni muhofaza qilish masalasida adolatlilik.** Salomatlik va uni muhofaza qilish ikkita asosiy jihatni o'z ichiga oladi: kambag'allik va u bilan bog'liq salomatlik va xavf soluvchi amallarni qisqartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib borish; alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan (sog'lig'idagi muammolar, ijtimoiy va iqtisodiy holatga ko'ra) aholi guruhlarini izolyatsiyadan himoyalash va ularga kerakli tibbiy-sanitar yordamni olishlari uchun imkon yaratish.

**Alohida insonlar, aholi guruhlari, tashkilotlar va jamoat sektorlarining sog'liqni saqlash faoliyatidagi ishtiroki va javobgarligi.** Bu tamoyil salomatlik fenomenining multifaktor tabiatini tushunishga asoslangan va ikkita asosiy elementdan: barcha sektorlar salomatlik uchun javobgarlikni tan olishlari va ularni sog'liqni saqlash faoliyatiga jalb qilishining samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda sog'liqni saqlash masalalariga tegishli siyosatni ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida aholining ishtirokidan iborat.

Salomatlikni mustahkamlash va o'limni kamaytirish sohasidagi siyosatni ishlab chiqishda epidemiologik o'tish tarixi va epidemiologik jarayonlarning hozirgi holatini hisobga olish inson hayotini, uning faol va sog'lom davrini maksimal uzaytirish singari uzoq muddatli ulkan maqsadlar bilan bir qatorda real holatda adekvat bo'lgan maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yishni nazarda tutadi. Bunday masalalar jumlasiga aholining ba'zi yosh-jins

guruhlari, ijtimoiy xavf yuqori (ishsizlar, nogironlar, yolg'iz qariyalar va hokazo) guruhlari orasidan o'lim va kasallanishning alohida sabablari dinamikasidagi salbiy tendentsiyalarni yengish zaruriyati kiradi. Bu maqsadlar doirasida amalga oshiriladigan dasturlar ko'p jihatdan shoshilinch tavsifga ega bo'lsa-da, kishilarning hayoti va salomatligini saqlash uchun kurashlarning bosh strategiyasiga qarshilik qilmaydi. Bundan tashqari, salomatlik va o'lim trendlarining ko'pchilik salbiy o'zgarishlari ushbu sohadagi ijtimoiy siyosatning kontseptual va taktik kamchiliklari natijasida yuzaga kelganligi sababli, inqirozga qarshi dasturlar bosh strategiyaning asosiy to'g'rilovchi dastagi bo'lib xizmat qiladi.

Kambag'allik va qashshoqlikning ko'payib ketishi alohida bir muammolar guruhini vujudga keltiradi. Tibbiy yordam va doridarmonlarning qimmatlashuvi, bepul yordamning kamayishi va uning sifati pasayishi sog'liqni saqlash sohasida ijtimoiy tartibsizlikka olib keladi hamda xatarni kuchaytiradi. Shunday guruhlardan biri qariyalar o'lim ko'rsatkichining o'sib borishida ko'rinadi. Kam ta'minlangan, ko'pbolali va notugal oilalarda ham shunday holat uchraydi.

Kelib chiqqan holatni, muammoni yechishga qaratilgan masalalar quyidagilardan iborat:

- yosh bolalar va o'smirlarning sog'lig'ini mustahkamlash va jarohatlanish, zaharlanish, chekish, spirtli ichimliklarni va narkotiklarni iste'mol qilishdan saqlash;

- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish;

- aholi salomatligini nazorat qilish va tibbiy yordamni kuchaytirish;

- aholining salomatligini, birinchi navbatda, ish yurita oladigan yoshdagilarda jarohat zaharlanish oldini olish va qon aylanish tizimi kasalliklarini hamda yuqumli patologiyalarning nuqsonlarini bilib olish;

- keksalarning sog'lig'ini saqlash, onkologik, endokrin va yuqumli kasalliklarning oldini olish.

Aholining ko'p qismi doimiy stress holatida bo'lishi, tibbiy yordamning dolzarblik ahamiyatini oshiradi. Shu o'rinda aytish kerakki, tibbiy yordamni nafaqat davlat tashkilotlari, balki nodavlat

tashkilotlar ham ko'rsatsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, aholi salomatligini mustahkamlashga va o'lim holatlarini kamaytirishga yordam beradi.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Demografik siyosatning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Demografik siyosatni o'tkazishning qanday uslublarini bilasiz?
3. «Demografik tarbiyalash» deganda nimani tushunasiz?
4. Tug'ilish sohasida demografik siyosatni o'tkazishdan maqsad nima?
5. Farzandli oilalarga beriladigan yordam choralari qanday guruhlariga ajratiladi?
6. O'zbekistonda oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida nafaqalarning qanday turlari beriladi?
7. Respublikada yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida qanday imtiyozlar berilgan?
8. O'zbekistonda o'limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

## IZOHLI LUG'AT

**Abort** — abort (lotincha «abourts» — homilaning tushishi) homiladorlikning 28 haftagacha bo'lgan davrda, homilani hali hayotga moslashmagan davr ichida olib tashlashdir.

**Avlod** — muayyan bir vaqtda tug'ilgan insonlarga tegishli bo'lib, ko'pincha bir kalendar yiliga teng. Shu bilan birga, demografiyada ota-onalar nolinni, ularning farzandlari birinchi, nevaralari esa ikkinchi avlod hisoblanadi.

**Avlod uzunligi** — bu ota-onalar avlodi o'rnini ularning bolalari bosishi uchun kerak bo'ladigan o'rtacha vaqtdir. Ayol aholi uchun avlod uzunligi 30<sup>e</sup>2 yil atrofida tebranadi, erkak aholi uchun esa u nisbatan kattaroqdir.

**Ajralish** — avlodagi nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohning bekor qilinishidir.

**Akkumulyatsiya jarayoni** — bu ketma-ketlikdagi amallarga bo'lingan tug'ilishning yig'indi koeffitsientining hisoblanishidir, shu sababli 50 yoshga qadar yig'ilgan tug'ilishlar soni berilgan shartli avlodning tug'ilishning yig'indi koeffitsientiga teng bo'ladi.

**Amaliy demografiya** — «Amaliy demografiya» atamasi ilmiy adabiyotlarida XX asrning 60-yillarida paydo bo'lgan, fanning asosiy maqsadi aholining ko'payish qonuniyatlarini o'rganishning amaliy asoslarini ko'rsatib berishdan iborat. Fan demografik jarayonlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradi va bu istemol tovarlarini ishlab chiqarish, uy-joylarni qurish va rejalashtirish, kommunal xo'jaligi, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot sohalarida qo'llaniladi.

**Aniq yosh** — imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o'lchangan, tug'ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.

**Aholining jins tarkibi** — aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir.

**Aholining yosh tarkibi** — bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

**Aholining keksayishi** — aholi umumiy sonida ulug' yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog'ining kamayishi, shu bilan bir vaqtda

o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishida o'z ifodasini topadi. Ta'kidlash joizki, aholining keksayishi deganda, nafaqat bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining ham ortishi tushuniladi.

**Aholi migratsiyasi** — bu odamlarning (migrantlarning) u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o'zgartirayotgan yoki qisqa yoxud uzoq muddatga yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko'chishidir.

**Aholi registrlari** — bu muayyan hududda muntazam yashovchi har bir shaxs yoki uy xo'jaligi haqida axborotga ega bo'lgan kartotekadir. Aholi registrida har bir insonning asosiy ijtimoiy-demografik tavsiflari to'g'risida ma'lumotlar jamlanadi.

**Aholi ro'yxati** — aholi haqidagi muhim axborot manbalaridan biri bo'lib, aholi soni va uning harakati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir. BMT ta'rifiga ko'ra, aholi ro'yxati - bu ma'lum vaqtda mamlakatda yoki uning cheklangan bir qismida yashovchi jami aholi haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, tahlil qilish va nashr etish jarayonidir.

**Aholi soni** — muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiy miqdori hisoblanadi. Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida muntazam o'zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o'zgaradi.

**Aholi tarkibi** — bu aholining muayyan bir alomatlariga ko'ra taqsimlanishidir yoki demografiya tili bilan aytganda qandaydir o'zgaruvchilarga asoslangan taqsimotdir. Masalan, aholining yosh tarkibi, jins tarkibi.

**Aholining takror barpo bo'lishi** — aholining miqdori va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'rni to'ldirishi orqali yangilanishidir.

**Vaqtinchalik yashovchilar** — bu mazkur hududda doimiy yashab qolishni istamagan, lekin bu yerda ro'yxatga olish davrida bo'lgan aholi. Vaqtinchalik ketganlar — bu mazkur hududda doimiy yashaydigan, biroq ro'yxatga olish davrida u yerda bo'lmaganlar.

**Geodemografiya** — aholi takror barpo bo'lishining hududiy xususiyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

**Gerontodemografiya** — aholining keksayishi, uning shakllanishini, turlarini, omillarini va demografik, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

**Demografiya** — aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. «Demografiya» atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, demos — xalq va grapho — yozaman, ya'ni xalqni yozaman

ma'nosini anglatadi. Demografiya fan sifatida XVII asrning ikkinchi yarmidan so'ng shakllana boshlagan.

**Demografik vaziyat** — demografik jarayonlar holati, aholining umumiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi jamiyat rivojlanishining ob'yektiv ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarining muayyan tarzda namoyon etilishidir.

**Demografik jarayon** — tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish bo'lib, demografiyada aholining takror barpo bo'lishi sifatida, tegishli demografik hodisalarning vujudga kelishi natijasida sodir bo'ladi.

**Demografik inqiroz** — aholining takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar tufayli sodir bo'ladigan jarayon. Demografiya tarixida XIX asrning oxiriga qadar demografik inqirozga ocharchilik, epidemiya va urushlar sabab bo'lgan. Bu omillarga tayangan holda aholining o'limi ortgan va o'z-o'zidan aholi sonining kamayishiga, dunyoning ba'zi mamlakat va mintaqalarida, alohida hududlarda umuman odamlarning qirilib ketishiga olib kelgan. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tug'ilish sonining keskin pasayishi aholi mutlaq sonining kamayishiga, ya'ni demografik inqirozga olib keldi.

**Demografik prognoz** — bu aholi harakatining asosiy parametrlarini va istiqboldagi demografik vaziyatni, aholining son va sifat tavsiflarini, yosh-jins va oilaviy tarkibini, tug'ilish, o'lim, migratsiya jarayonlarini ilmiy asoslangan holda oldindan ko'ra bilishdir.

**Demografik siyosat** — hozirgi davr hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholining takror barpo bo'lishi va dinamikasi sohasida muayyan bir sifat va miqdorga erishishni nazarda tutuvchi birlashgan vositalar va fikrlar birligining davlat miqyosida qabul qilingan tizimdir.

**Demografik statistika** — demografiyaning eng qadimgi tarmog'i bo'lib, uning predmeti aholini takror barpo bo'lishining statistik qonuniyatlari hisoblanadi. Demografik statistika fanining asosiy vazifalariga statistik kuzatuv usullarini ishlab chiqish, demografik hodisalar va jarayonlarni o'lchash, aholining takror barpo bo'lishi to'g'risidagi birlamchi statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash kiradi.

**Deometriya** — (yunoncha «demos» aholi va «metreo» o'lchayman) matematik usullarni demografiyaga qo'llash orqali demografik jarayonlarni o'lchash.

**Demografik o'tish** — aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga o'tishidir. Masalan, demografik jarayonlarning o'zgarishi tufayli aholi kengaygan takror barpo bo'lishdan oddiy yoki toraygan takror barpo bo'lishga o'tadi.

**Demografik portlash** — tug'ilishning juda yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi natijasida aholi sonining yuqori sur'atda o'sishidir.

**Depopulyatsiya** — tug‘ilishning darajasining pasayishi, o‘limning ko‘payishi natijasida aholi mutlaq sonining kamayish jarayonidir.

**Doimiy aholi** — ma‘lum hududda ro‘yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezoni sifatida olti oyga teng davr olinadi.

**Yosh** — bu insonning tug‘ilishidan to uning hayotidagi u yoki bu daqiqasigacha oqib o‘tgan vaqtdir. Yosh yillarda, oylarda (hayotning birinchi yillarida), haftalarda (hayotning birinchi oylarida), kunlarda va soatlarda hisoblanadi.

**Yosh akkumulyatsiyasi** — bu aholining ma‘lum bir yoshlaridagi sonining qo‘shnilariga nisbatan ko‘proq yig‘ilib qolishidir. Yosh akkumulyatsiyasi odamlarning psixologik ta‘sir ostida sonli o‘zgaruvchilarni yaxlitlab yuborishga moyilligi ostida vujudga kelib, ular aniq sonlar o‘rniga yaxlitlangan, yaqin bo‘lgan kattaliklarni aytishadi.

**Yosh-jins piramidasi** — ikki tomonlama chiziqli diagrammani o‘zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo‘yicha birgalikda taqsimlangan, bunda grafikning bir tomonida (o‘ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o‘qi yosh shkalasini o‘zida namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo‘linib, 0 yildan boshlanadi va yuqori yosh yoki ochiq yosh intervali bilan tugallanadi.

**Yosh kontingenti** — bu umumiy yosh, shuningdek, ayrim demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa alomatlar bo‘yicha birlashtirilgan shaxslar guruhidir.

**Jismoniy salomatlik** — barcha a‘zolar va butun organizmning to‘kis ishlab turgan tabiiy holati.

**Yillar to‘lgandagi yosh** — bu aniq yoshning to‘liq sonlarga ega bo‘lmagan qismidir, u oxirgi tug‘ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo‘yicha odatda «Yoshingiz nechada?» degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to‘liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

**Intergenetik interval** — bu birinchi, ikkinchi va undan keyingi farzandlar tug‘ilishi o‘rtasidagi vaqt.

**Iqtisodiy demografiya** — aholi va iqtisodiy rivojlanishning o‘zaro aloqadorligini, aholi takror barpo bo‘lishining iqtisodiy oqibatlarini, demografik rivojlanishga iqtisodiy omillarning ta‘sirini o‘rganadi.

Kalendar yillarning farqi sifatida hisoblangan yosh o‘z ta‘rifidan ham nimani anglatishini bildirib turibdi. Agar kishining tug‘ilgan yili ma‘lum bo‘lsa (masalan, 1979 yil), bunda uning kalendar yillar

farqi bo'yicha yoshi joriy tug'ilgan yilning farqiga tengdir (masalan, 2010-1979=31).

**Kogort** — lotincha so'z bo'lib, bir tomondan rim piyodalarning taktik birligini anglatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, odamlarning mustahkam jipslashgan guruhiga nisbatan qo'llaniladi. Demografik tadqiqotlarda kogort sifatida yangi demografik holatga kirgan shaxslar jamlanmasi ko'rib chiqiladi.

**Mayl** — bu sub'yektning qandaydir ob'yektga nisbatan ma'lum bir faollik va harakat qilishiga moyilligi, tayyorligidir; reproduktiv mayl xulq-atvorning ruhiy regulyatori, turli harakatlarning muvofiqligini, ma'lum miqdordagi bolalarning tug'ilishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarni belgilab beruvchi shaxsning moyilligidir.

**Matematik demografiya** — o'z rivojining ma'lum bir pog'onasiga ko'tarilgan bo'lib, uning predmetini demografik jarayonlar va hodisalarning o'zaro aloqadorligini o'rganish uchun matematik usullarni ishlab chiqish va qo'llash, ularni modellashtirish va prognozlashtirish tashkil qiladi. Demografik modellar qatoriga - tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jadvallari, statsionar va muqim aholi modellari, demografik jarayonlarning imitatsion modellari va h.k.larni kiritish mumkin.

**Mehnat migratsiyasi** — mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq makoniy ko'chib yurishidir.

**Neonatal davr** — bolaning tug'ilganidan to 28 kunigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'rsatkich go'daklar o'limining asosiy qismlaridan biri bo'lib, chaqaloqlarning shu davrga to'g'ri keladigan o'lim salmog'i qancha baland bo'lsa, go'daklar o'limining darajasi shunchalik past bo'ladi.

**Nikoh** — ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlangan va jamiyat tomonidan tartibga solinuvchi shaklidir. Nikoh insonlar populyatsiyasida er-xotin juftligining shakllanish jarayonidir. Nikoh demografik tahlilda real yoki gipotetik avlodga nisbatan qaraladi va u qonun yoki an'anaga binoan nikoh yoshiga etgan, lekin hali nikohdan o'tmagan insonlar (erkak va ayol) o'rtasida tuziladi.

**Nikoh aylanasi** — nikohdagi juftliklar yig'indisidan iborat bo'lib, jamiyatdagi qonunchilik, ma'naviy-etnik me'yorlar, juftliklarning shaxsiy sifatlari va ijtimoiy-iqtisodiy holatlari bilan belgilanadi.

**Nikoh bozori** — bu nikohga layoqatli aholining turli guruhlaridagi nisbatlar tizimini ko'rsatuvchi shartli belgidir. Mazkur bozordagi holat nikohga kirish ehtimolligiga, muayyan hudud aholisining jinsiy tarkibiga va nikohga layoqatli aholi tarkibidagi salohiyatli nikoh juftliklarining miqdoriga bog'liq.



**Nikoh davomiyligi** — nikoh boshlanishidan to tugatilishigacha bo'lgan davrni tavsiflovchi ko'rsatkich. Odatda nikoh davomiyligi yillarda, kamdan kam hollarda oylarda o'lchanadi. Nikoh davomiyligi real, gipotetik yoki kogort sifatida ko'rib chiqiladi.

**Nikoh tanlovi** — berilgan nikoh aylanasi ichida nikoh juftliklarini tanlashdan iborat bo'lib, unga ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, psixologik va antropologik mezonlar ta'sir o'tkazadi hamda ularning har birining ta'siri vaqt davomida o'zgarib turadi.

**Nogironlik** (lotincha *invalidus* — kuchsiz, quvvatsiz) — kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan jarohatlar yoki nuqsonlar oqibatida hayot faoliyatining cheklanishiga olib keluvchi va uning ijtimoiy himoyaga muhtojligini keltirib chiqaruvchi organizm funktsiyalarining barqaror bajarilishining izdan chiqishi oqibatidagi inson salomatligining buzilishidir.

**Oila** — fiziologik-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishning nikoh asosida tartibga solinadigan tizimi bo'lib, bir-biri bilan ijtimoiy-ruhiy jihatdan qarindosh-urug'chilik munosabatlari asosida iqtisodiy jihatdan mulkiy munosabatlar uyg'unligida birgalikda faoliyat yurituvchi kishilar birligidir.

**Paleodemografiya** — paleodemografiya (yunoncha «*palaios*» — qadimgi) qadimgi kishilik jamiyatida sodir bo'lgan demografik jarayonlarni o'rganadigan demografiyaning bo'limi hisoblanadi. Bu fanning ma'lumotlar bazasini qadimgi yozma hujjatlar, epitafiyalar, paleoantropologik (odam suyaklari qazilmalarining tahlil ma'lumotlari), arxeologik (insoniyatni moddiy va madaniy yodgorliklari qazilmalarining tadqiqot natijalari), etnoarxeologik (etnografik kuzatuvlar) ma'lumotlar tashkil etadi.

**Perinatal davr** — homilaning 28 haftadan boshlab, chaqaloq hayotining dastlabki 7 sutkasigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. «Perinatal o'lim» tushunchasi birinchi marta S.Pefler (1948 y) tomonidan qo'llanilgan bo'lib, tarjima qilinganda «tug'ruq atrofidagi yo'qotish», degan ma'noni anglatadi.

**Promille** — ko'rilayotgan kattalikning mingdan bir ulushidir.

**Protegenetik interval** — nikohga kirgan vaqt bilan birinchi farzand tug'ilgan vaqt oralig'idir.

**Postneonatal davr** — neonatal davrdan keyingi davr bo'lib, 28 kundan 1 yoshga to'lgunga qadar bo'lgan oraligni o'z ichiga oladi.

**Psixologik salomatlik** — inson tafakkuri darajasi va sifati, diqqat-e'tibori va xotirasining rivoji, ruhiy barqarorligi va irodasining nechog'lik mustahkamligi bilan belgilanadi.

**Pushtlilik** — aholi tug'ilishi va takror barpo bo'lishining asosi bo'lib, muayyan sondagi farzandlarni dunyoga keltirishning biologik qobiliyatidir.

An'anaviy ravishda, pushtlilik ayolning dunyoga keltira oladigan farzandlar soni bilan o'lchanib, er va xotinning irsiy xususiyatlari va salomatligi, shuningdek, ulardagi biologik jihatlarning bir-biriga mos kelishi bilan bog'liq bo'ladi.

**Reproduktiv mayl** — shaxsning farzandning nikohda yoki nikohsiz tug'ilishi yoki tug'ilishidan voz kechishiga qaratilgan harakati, munosabati va ruhiy holatlarining yaxlit tizimidir.

**Salomatlik** — bu nafaqat kasallik va boshqa jismoniy nuqsonlarning mavjud bo'lmasligi, balki to'liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy yaxshi holatdir.

**Sotsiologik demografiya** — odamlarning subyektiv va ixtiyoriy demografik harakatlariga ijtimoiy-psixologik va sotsiologik omillarning ta'sirini o'rganadi.

**Tarixiy demografiya** — demografik jarayonlarning mamlakatlar va xalqlar tarixidagi dinamikasi va holatini, shuningdek, demografiya fanining rivojlanish tarixini o'rganadi.

**Tibbiy demografiya** — aholi salomatligi va uning asosiy ko'rsatkichlari hamda omillarini, kasalliklarning vujudga kelishi, ularning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini o'rganadi.

**Tug'ilish** — bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelish jarayonidir. Hozirgi o'lim darajasi past bo'lgan sharoitlarda tug'ilish jarayoni aholi takror barpo bo'lishidagi yetakchi omil sanalib, uning tartibi (toraytirilgan, oddiy, kengaytirilgan) va yosh-jinsiy tarkib evolyutsiyasining umumiy yo'nalishini belgilaydi.

**Tug'ilishni nazorati** — tug'ilishning darajasini pasaytirish va mamlakatda aholi o'sish sur'atlarini sekinlashtirish maqsadida davlatning demografik siyosat vositalari bilan aholining tug'ilishi jarayoniga ta'siri.

**Tug'ilish taqvimi** — farzand ko'rish davri yoki nikohda bo'lish davrida farzand tug'ilishining vaqt jihatidan taqsimlanishidir.

**To'liq o'lim jadvali** — bu bir yillik koeffitsientlar asosida hisoblab chiqariladigan o'lim jadvali. Mazkur holda o'lim jadvali qadami I ga teng bo'ladi. Odatda, ular 0 dan 100 gacha bo'lgan yosh davrini qamrab oladi.

**Etnik demografiya** — tarixiy demografiyaga tutash fan hisoblanib, aholi ko'payishining etnik xususiyatlarini, omillarini o'rganadi. Ma'lumki, xalqlar hayoti, turmush tarzining etnik xususiyatlari, urf-odatlar, an'analari, oilaviy munosabatlarining tuzilmasi tug'ilish darajasiga (oiladagi bolalar soni), salomatlik holatiga va o'rtacha umr ko'rish davomiyligiga, nikoh xususiyatlari va nikohning mustahkamligiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi.

**Yuqoridan keksayish** — bu tug'ilishning kamayishi sharoitida keksa yoshdagi aholi o'rtasida o'limning qisqarishi, tug'ilganda kutilayotgan

hayot davomiyligining uzayishi hisobiga qariyalar salmog'ining ortib borishidir.

**O'lik tug'ilish** — homiladorlik 28 haftadan yuqori bo'lganda o'lik homilaning ona tanasidan ayirish. Ayrilgan homila hech qanday faoliyat ko'rsatmaydi, u ayrilganda uning mustaqil nafas olish yo'llari ishlamaydi.

**O'lim** — organizm hayot faoliyatining muqarrar qonuniy to'xtashi. U qayd etilgandan so'ng hayot funksiyasini tiklash mumkin emas va har qanday qayta tiriltirish choralari ham insonni hayotga qaytara olmaydi.

O'lim jadvali joriy yilda ayrim yoshlardagi o'lim ko'rsatkichlariga asoslangan holda aholining hayoti mobaynida kamayib borishini ko'rsatuvchi va bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimidan tashkil topgan jadval.

**Quyidan keksayish** — bu tug'ilishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog'ining kamayib, qariyalar salmog'ining esa ortib borishidir.

Qisqa o'lim jadvalida bir qadam 5 yilga teng bo'ladi. Biroq, bunda aksariyat hollarda hayotning birinchi yili alohida ajratiladi (o'lim jadvalida 0 belgisi yoziladi) va butun birinchi besh yillik bir yillik guruhda ko'rib chiqiladi.

**Harbiy demografiya** — bu harbiy xizmat va harbiy iqtisodiyotdagi demografik omilning son va sifat xususiyatlarini o'rganuvchi fan. Shuningdek, harbiy demografiyada urushda ishtirok etgan davlatlarning mobillashgan imkoniyatlari, ya'ni zahiralarning mobillashuvini, ularning qurolli kuchlar, iqtisodiyot, urushdagi aholining yo'qotilishi, askarlarning migratsiyasiga, askarlarning aholining takror barpo bo'lishiga ta'sirini va ularning sog'lig'ini o'rganadi.

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. - Т.: Ўзбекистон, 2010.
2. Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. - Т.: Адолат, 2007.
3. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. - Т.: Адолат, 2007.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида»ги қонуни.
5. Ўзбекистон Миллий Эндиклопедияси. - Т.: Ўзбекистон Миллий Эндиклопедияси, 2002.
6. Каримов И.А. Асосий вазифамиз — Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. - Т.: Ўзбекистон, 2010.
9. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. - Т.: Ўзбекистон, 2009.
10. Каримов И.А. Энг асосий мезон — ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. - Т.: Ўзбекистон, 2009.
15. Абулқосимов Х.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. Монография. - Т.: Тошкент молия институти, 2005.
16. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. - Т.: Меҳнат, 2009.
17. Абдураҳмонов Қ.Х., Имомов В. Ўзбекистонда меҳнат потенциалидан самарали фойдаланиш ва уни бошқариш. Монография. - Т.: Академия, 2008.
18. Абдураҳмонов О.Қ., Зокирова Н.Қ. Тараққиёт ва фаровонлик стратегияси. - Т.: Г.В.Плеханов номидаги РИАнинг Тошкент шаҳридаги филиали, 2010.
19. Артыкова Д.А. Формирование занятости населения в Республике Узбекистан. - Т.: Фан, 2005.
20. Архангельский В.М., Иванова А.Е., Рыбаковский Л.Л., Рязанцев С.В. Практическая демография: Учебник. - М.: ЦСП, 2005.
21. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. - Т.: Ижтимоий фикр, 2009.

22. Ата-Мирзаев О., Гснтеншко В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. - Т.: Абу Али ибн Сино, 1998.
23. Бахметова Г.Ш. Переписи и текущий учет населения - М.: Финансы и статистика, 1988.
24. Бахметова Г.Ш. Сбор и обработка данных о населении. - М.: Финансы и статистика, 2000.
25. Бедный М.С. Продолжительность жизни. - М.: Статистика, 1967.
26. Бедный М.С. Мальчик или девочка? (Медико-демографический анализ). Изд. 2-е, перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 1987.
27. Бедный М.С. Здоровье и продолжительность жизни. - М.: Знание, 1990.
28. Белова Н.Ф., Дмитричев И.И. Семейный бюджет. - М.: Финансы и статистика, 1990.
29. Борисов В.А. Демография: Учебник для вузов. 4-е изд. - М.: Нота Бене, 2004.
30. Борисов В.А, Синельников А.Б. Брачность и рождаемость в России: демографический анализ. - Москва, 1995.
31. Бреева Е.Б. Основы демографии: Учебное пособие. - 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Дашков и К, 2009.
32. Бүриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане. - Т.: Фан, 1991.
33. Бүриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. - Т.: Университет, 1997.
34. Бүриева М.Р., Эгамова Д. Дунё аҳолиси: ривожланиш жараёнлари. - Т.: Фан, 2008.
35. Валентей Д.И., Кваша А.Я. Основы демографии.- М.:Мысль, 1976.
36. Введение в демографию /Под.ред. В.А.Ионцева, А.А.Саградова. - Москва, 2002.
37. Вандескрик К. Демографический анализ. - М.: ИНФРА-М, 2005.
38. Волков А.Г. Семья - объект демографии. - М.: Мысль, 1986.
39. Демография: Учебник для вузов / Под ред. Н.А.Волгина, Л.Л.Рыбаковского. - М.: Лагос, 2005.
40. Демография: Учебное пособие / Под ред Глушкова В.Г., Симагин Ю.А. - М.: КноРус, 2010.
41. Демографическая политика: цели, принципы, приоритеты / Под. ред. Л.Л.Рыбаковского. - М., 2000.
42. Денисова М.Б., Калмыкова Н.М. Демография. Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2010.

43. Дмитриева Р.И., Андреев Е.М. Статистическое наблюдение в демографии: этапы развития и перспективы. Методы исследования. - Москва, 1986.

44. Зокирова Н., Абдурахмонов О. Инқироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. - Т.: Fan va texnologiya, 2009.

45. Зокирова Н.К. Социально-трудовые отношения: международный и национальный аспекты. Монография. - Т.: Фан, 2008.

46. Калинин И.В. Возрастная структура населения СССР. - М.: Статистика, 1975.

47. Казьмина О.Е., Пучков П.И. Основы этнодемографии. - М., 1994.

48. Кильдишев Г.С. Статистика населения с основами демографии. - М., 1990.

49. Караханов М.К. Некапиталистический путь развития и проблемы народонаселения. - Ташкент, 1983.

50. Либанова Э.М. Продолжительность жизни населения: опыт комплексного регионального исследования. - Киев: Наука Думка, 1991.

51. Лысенко С.Н. Демография. Учебно-практическое пособие. - М.: Вузовский учебник, 2010.

52. Максакова Л.П. Миграция населения: проблемы регулирования. - Т.: Элодинур, 2001.

53. Медков В.М. Демография: Учебник. 2-е изд. - М.: ИНФРА-М, 2009.

54. Медков В.М. Введение в демографию. - М.: ИНФРА-М, 2006.

55. Мокеров И.П., Кузьмин А.И. Экономико-демографическое развитие семьи. - М.: Наука, 1990.

56. Мулладжанов И.Р. Демографическое развитие Узбекской ССР. - Т.: Узбекистан, 1983.

57. Народонаселение: Энциклопедический словарь. - Москва, 1994.

58. Никитенко В.В. Демографический анализ поколений. - М.: Финансы и статистика, 1979.

59. Основы демографии: Учебное пособие / П.И.Косов, А.Б.Берендеева. - 2-изд., доп и перераб. - М.: ИНФРА-М, 2010.

60. Рахимова Н.Х. Роль и место женщины на рынке труда Узбекистана: теория и практика. - Ташкент: Фан, 2006.

61. Рахимова Н.Х. К изучению вопросов воспроизводства поколений // Население Узбекистана: 15 лет независимого развития. - Ташкент, 2007.

62. Россет Э. Продолжительность человеческой жизни. - М.: Прогресс, 1981.
63. Рыбаковский Л.Л. Методологические вопросы прогнозирования населения. - М., 1978.
64. Рыбаковский Л.Л. Концепция демографической политики. Методологической вопросы. - М., 2002.
65. Саградов А.А. Экономическая демография: Учеб. пособие. - Москва, 2005.
66. Саломатлик барча учун: Ўзбекистоннинг янги мингйилликдаги асосий мақсади. - Тошкент, 2006.
67. Солиев А.С. ва бошқалар. Қишлоқ жойлар демографияси - Т.: Университет, 2005.
68. Тихомиров Н.П. Демография: методы анализа и прогнозирования. Учебник. - М.: Экзамен, 2005.
69. Тожиева З.Н. Иқтисодий ва демографик статистика. - Т.: Университет, 2002.
70. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши. Монография. - Т.: Fan va texnologiya, 2010.
71. Трудовая миграция в Республике Узбекистан: Сб.ст. / Отв.ред. Е.В.Абдуллаев.: - Ташкент, 2008.
72. Убайдуллаева Р.А. Особенности естественного движения населения в республиках Средней Азии на современном этапе. - Т.: Фан, 1988.
73. Убайдуллаева Р.А., Ота-Мирзаев О.Б., Умарова Н. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги. - Тошкент, 2006.
74. Убайдуллаева Р.А. Мустақил Ўзбекистон: аёл, оила ва жамият. - Т.: Фан, 2006.
75. Урланис Б.Ц. Эволюция продолжительности жизни. - М.: Статистика, 1978.
76. Харченко Л.П. Демография. Учебное пособие. - М.: Омега-Л, 2009.
77. Шнейдерман Н.А. Откровенный разговор: рождаемость и мери ее регулирования. - М.: Мысль, 1991.
78. Щербаков А.И. Основы демографии и государственной политики народонаселения, Учебное пособие. - М.: Академический проект, 2005.

## MUNDARIJA

<i>Kirish</i> .....	3
<b>1-bob. «Demografiya» fanining predmeti va mazmuni</b> .....	5
1.1. Demografiya — fan sifatida .....	5
1.2. Fanni o'rganish usullari .....	10
1.3. Demografiya fanining rivojlanish tarixi .....	14
1.4. Demografiyaning tuzilishi va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi .....	22
Nazorat va muhokama uchun savollar .....	28
<b>2-bob. Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari</b> .....	29
2.1. Aholi ro'yxatlari va uni o'tkazish tamoyillari .....	29
2.2. Aholini ro'yxatga olish tartibi va usullari .....	33
2.3. Aholini ro'yxatga olish dasturlari .....	37
2.4. Demografik jarayonlarni joriy statistik qayd etish tartibi .....	47
2.5. Tanlama tadqiqotlar va aholi registrlari .....	49
<b>3-bob. Aholining son va sifat xususiyatlari</b> .....	56
3.1. Aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlari .....	56
3.2. Aholi sifati va uning xususiyatlari .....	63
<b>4-bob. Aholi tarkibi va uning o'rganish usullari</b> .....	70
4.1. Aholi tarkibi to'g'risida tushuncha .....	70
4.2. Aholining jinsiy tarkibi .....	71
4.3. Aholining yosh tarkibi .....	79
4.4. Aholining yosh-jins piramidasi va takror barpo bo'lishi .....	87
4.5. Aholining keksayishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari .....	92
<b>5-bob. Nikoh va ajralishning demografik mohiyati</b> .....	99
5.1. Nikohning demografik mohiyati va uning turlari .....	99
5.2. Nikoh holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar .....	106
5.3. Ajralish va uning ko'rsatkichlari .....	111
<b>6-bob. Tug'ilish va demografik mayl</b> .....	119
6.1. Pushtlilik va tabiiy tug'ilish .....	119
6.2. Reprodukativ mayl va uning turlari .....	123
6.3. Tug'ilishning tarixiy tiplari .....	130
6.4. Tug'ilish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi .....	135
<b>7-bob. Aholi o'limi va hayot davomiyligi ko'rsatkichlari</b> .....	150
7.1. O'limning demografik mohiyati va uning tiplari .....	150
7.2. O'lim sabablarining xalqaro tasnifi .....	156
7.3. Aholi o'limini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi .....	160
7.4. Chaqaloqlar o'limi .....	164
7.5. O'lim jadvali va uni tuzish tartibi .....	170
<b>8-bob. Aholi salomatligi</b> .....	178
8.1. «Salomatlik» tushunchasining mohiyati va tarkibi .....	178
8.2. Aholi salomatligini baholashga doir axborot manbalari .....	185
<b>9-bob. Aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlari</b> .....	198
9.1. Aholining takror barpo bo'lishi va uning turlari .....	198
9.2. Aholi takror barpo bo'lishining asosiy ko'rsatkichlari .....	199
9.3. Demografik o'tish va uning bosqichlari .....	204
<b>10-bob. Aholi migratsiyasi</b> .....	208
10.1. Aholi migratsiyasi va uning tasnifi .....	208
10.2. Migratsiyani hisobga olish usullari va ko'rsatkichlari .....	214



10.3. Mehnat migratsiyasi .....	216
<b>11-bob. Oila va uning demografik taraqqiyoti</b> .....	221
11.1. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi .....	221
11.2. Oilaning vazifalari, tarkibi va turlari .....	225
11.3. Oilaning iqtisodiy faoliyati .....	231
<b>12-bob. Demografik prognozlashtirish</b> .....	236
12.1. Demografik prognozlamning mohiyati va turlari .....	236
12.2. Aholi soni va tarkibini prognozlashtirish .....	241
12.3. Tug‘ilish tendentsiyalarini istiqbolli baholash .....	251
12.4. O‘lim tendentsiyalarini istiqbolli baholash usullari .....	257
12.5. Aholining oilaviy tarkibini prognozlashtirish .....	260
<b>13-bob. Demografik siyosat</b> .....	265
13.1. Demografik siyosatning mazmuni va uni o‘tkazish usublari .....	265
13.2. Tug‘ilish va oila sohasidagi demografik siyosat .....	267
13.3. O‘limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash sohasidagi siyosat .....	278
<i>Izohli lug‘at</i> .....	283
<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati</i> .....	291

**ABDURAHMONOV QALANDAR XO‘JAYEVICH**  
**ABDURAMANOV XAMID XUDAYBERGENOVICH**

## DEMOGRAFIYA

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi*  
*tomonidan 5A340114 – “Mehnat iqtisodiyoti”*  
*magistratura bosqichi talabalari uchun*  
*o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

«NOSHIR» — Toshkent — 2011

<i>Muharrir</i>	<i>M. Ahmedov</i>
<i>Texnik muharrir</i>	<i>D. Mamadaliyeva</i>
<i>Rassom</i>	<i>Sh. Odilov</i>
<i>Sahifalovchi</i>	<i>S. Po‘latov</i>

Bosishga ruhsat etildi 11. 07. 2011. Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub> „Times TAD“ garniturasida.  
 Ofset qog‘ozi. Ofset bosma usulida bosildi.  
 Shartli bosma tabog‘ 18,5. Adadi 500 nusxa.  
 Buyurtma № 28.

«NOSHIR» nashriyoti, Litsenziya AI №096, 23.11.2007.  
 Toshkent sh., Langar ko‘chasi 78-uy.

«NOSHIR» O‘zbekiston-Germaniya qo‘shma  
 korxonasiining bosmaxonasida chop etildi.

nohar

ISBN 978-9943-353-46-6



9 789943 353466